O‘ZBEK TILI

7

O‘QITUVCHILAR UCHUN

METODIK QO‘LLANMA

Toshkent – 2022

UOʻK 811.512.133(072)
KBK 81.2Oʻzb
Oʻ 16

Tuzuvchilar:

Dilafruz Xidoyatova
Mehriyo Tulasheva
Namoz Rasulov
Nargiza Matlatipova
Nodira Allambergenova
Orzigul Beganchova

Taqrizchilar:

Muhabbat Qurbonova – OʻzMU professori, filologiya fanlari doktori.

Aynur Oʻz Oʻzjan – Anqara universiteti professori (Turkiya).

Nazira Matlatipova – Toshkent shahri XTBB oʻzbek tili metodisti.

Mohigul Yandashova – Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi 3-umumta'lim maktabining oʻzbek tili fani oʻqituvchisi.

Oʻzbek tili 7 [Matn]: Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma / D. A. Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 196 b.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.

Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8379-6-6

© Respublika ta'lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

7-sinf (a2.3) 6
Nutqiy kompetensiyalar 6
Lingvistik kompetensiyalar 8
Inson va tabiat bu – san'at (23 soat) 9
2030-yil (17 soat) 10
Kecha, bugun, ertaga (25 soat) 10
Ensiklopediya (20 soat) 11
Mavzu bo'yicha rejalashtirish 11
Inson va tabiat bu – san'at (27 soat) 12
Ishon, harakatlan va faxrlan (8 soat) 12
1-mavzu. O'zbekiston sporti 12
2-mavzu. Chempionning bolaligi 14
3-mavzu. Chegarasiz 17
4-mavzu. Maqsad bu – harakat 19
5-mavzu. Kimga nima qiziq? 23
6-mavzu. Qiziqishdan mashhurlikkacha 25
7-mavzu. Sport – mening hayotim 27
8-mavzu. Adabiy o'qish 29
Ona tabiat – buyuk ne'mat (8 soat) 31
1-mavzu. Onajonim – tabiat 31
2-mavzu. Kislorod 33
3-mavzu. Ajoyib shifokor 35
4-mavzu. Hayvonot olami 37
5-mavzu. Qushlar dunyosi 39
6-mavzu. Tabibimiz – tabiat 42
7-mavzu. Sog'lom yasha 44
8-mavzu. Adabiy o'qish 46
Mohir qo'llar san'ati (7 soat) 48
1-mavzu. O'n qo'ling – o'n hunar 48
2-mavzu. Binokor – bunyodkor 50
3-mavzu. Libos – inson ko'rki 52
4-mavzu. Milliy hunarmandchilik 54
5-mavzu. Zamonaviy hunarlar 56
6-mavzu. Mahorat darsi: – "ikkinchi umr" 59
7-mavzu. Adabiy o'qish 61
2030-yil (21 soat) 63
Kelajakdagi kasblar (8 soat) 63
1-mavzu. Dunyodagi kasblar 63
2-mavzu. Kasb qanday tanlanadi? 65
3-mavzu. Kasb ham eskiradi(mi?) 67
4-mavzu. Kelajak kasblari 69

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

5-mavzu. XXI asr dasturchilari ... 71
6-mavzu. Qutqaruvchi ... 74
7-mavzu. G‘aroyib kasblar ... 76
8-mavzu. Kasbidan kamol topganlar ... 79
9-mavzu. Adabiy o‘qish ... 81
2030-yil (21 soat) ... 85
Orzumizdagi texnikalar (8 soat) ... 85
1-mavzu. Kelajak texnikalari ... 85
2-mavzu. Maishiy texnikalar ... 87
3-mavzu. Allo, allo! ... 89
4-mavzu. Parvozga shaylaning ... 91
5-mavzu. Dronlar ... 94
6-mavzu. “Aqlli uylar” ... 96
7-mavzu. Dunyoni o‘zgartiruvchi texnikalar ... 98
8-mavzu. Adabiy o‘qish ... 100
Kecha, bugun, ertaga (30 soat) ... 101
Mahallam (8 soat) ... 101
1-mavzu. Xush ko‘rdik! ... 101
2-mavzu. Mahalla guzari ... 104
3-mavzu. Mehmondo‘stlik ... 106
4-mavzu. Yon qo‘shni – jon qo‘shni ... 108
5-mavzu. Mahalla bo‘ylab ... 111
6-mavzu. Hashar elga yarashar ... 113
7-mavzu. Frenkining kundaligidan ... 115
8-mavzu. Adabiy o‘qish ... 117
Mening yurtim (8 soat) ... 118
1-mavzu. Mening Vatanim ... 118
2-mavzu. Transport ... 120
3-mavzu. Festivallar ... 123
4-mavzu. Navro‘z sayli ... 125
5-mavzu. Yoqimli ishtaha ... 127
6-mavzu. Ilm-fan inshootlari ... 129
7-mavzu. Yurtimizdagi teatrlar ... 131
8-mavzu. Adabiy o‘qish ... 134
Bizning sayyora (9 soat) ... 136
1-mavzu. Koinotga sayohat ... 136
2-mavzu. Yer sayyorasi ... 138
3-mavzu. Yetti iqlim ... 140
4-mavzu. Dunyo xalqlari ... 142
5-mavzu. Dunyo tillari ... 144
6-mavzu. Dunyodagi tengdoshlarim ... 145
7-mavzu. Dunyo kutubxonalari ... 147
8-mavzu. Muzeylar ... 150

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

9-mavzu. Nobel mukofoti sovrindorlari 152
10-mavzu. Adabiy o‘qish 154
Ensiklopediya (24 soat) 156
Tabiat qonuni 156
1-mavzu. Tabiat va inson 156
2-mavzu. Yil fasllari 158
3-mavzu. Tabiatda suvning aylanishi 160
4-mavzu. Tabiat hodisalari 162
5-mavzu. Xavfli hodisalar 164
6-mavzu. Adabiy o‘qish 166
Eng, eng, eng 168
1-mavzu. Eng g‘aroyib o‘simliklar 168
2-mavzu. Eng g‘aroyib hayvonlar 170
3-mavzu. Eng baland tog‘lar 172
4-mavzu. Suv – mo‘jiza 174
5-mavzu. Eng go‘zal shaharlar 177
6-mavzu. Eng g‘aroyib ginneschilar 179
7-mavzu. Kitoblar 181
8-mavzu. Adabiy o‘qish 183
Ajdodlarning g‘aroyib ixtirolari 184
1-mavzu. Evrika 184
2-mavzu. Nilometr 186
3-mavzu. Ulug‘bek rasadxonasi 188
4-mavzu. Amerikalik ixtirochi 190
5-mavzu. Vaqt qanday o‘lchanadi? 192
6-mavzu. Adabiy o‘qish 194

7-SINF (A2.3)
NUTQIY KOMPETENSIYALAR

Anglash (passiv nutq ko‘nikmalari)	
O‘qib tushunish	
A2.3-O‘T1	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi.
A2.3-O‘T2	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi detallarni tushunadi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
A2.3-O‘T3	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi.
A2.3-O‘T4	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushunadi.
A2.3-O‘T5	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
A2.3-O‘T6	Reklama e’lonlarini o‘qiganda tushunadi.
A2.3-O‘T7	O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushunadi.
A2.3-O‘T8	O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushunadi.
Tinglab tushunish	
A2.3-TT1	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi.
A2.3-TT2	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
A2.3-TT3	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi.
A2.3-TT4	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushunadi.

A2.3-TT5	O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
A2.3-TT6	Reklama e’lonlarini eshitganda tushunadi.
A2.3-TT7	O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning nutqini tushunadi.
Faol nutq ko‘nikmalari	
Yozish	
A2.3-Y1	Norasmiy vaziyatlarda xat (e-mail) yoza oladi va xatlarga javob qaytara oladi.
A2.3-Y2	Qisqa hikoya va ertaklar yoza oladi.
A2.3-Y3	Qisqa faktologik matn yoza oladi.
A2.3-Y4	Joy, bino, inshoot, qurilmalar tasvirini yoza oladi.
A2.3-Y5	Jarayonlar tasvirini yoza oladi.
A2.3-Y6	Reklama matni yoza oladi.
A2.3-Y7	Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
Gapirish	
A2.3-G1	Aynan hozir bo‘layotgan hodisalarni, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
A2.3-G2	Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
A2.3-G3	Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
A2.3-G4	Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi.
A2.3-G5	Qobiliyat (qo‘lidan kelish-kelmaslik) haqida gapira oladi (“Men fransuz tilida gaplasha olmayman” singari).
A2.3-G6	Imkoniyat haqida gapira oladi (“Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin” singari).
A2.3-G7	Zarurat haqida gapira oladi (“Doktorga borishim kerak” singari).
A2.3-G8	Kishilarni tasvirlay oladi.
A2.3-G8	Predmetlarni tasvirlay oladi.
A2.3-G9	Birovlarning gapini aynan va o‘zlashtirma gap shaklida yetkaza oladi.
A2.3-G10	Sabab va oqibatlar haqida gapira oladi.

A2.3-G11	Taxminni bildira oladi.
A2.3-G12	Xohish-istaklar haqida gapira oladi

LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR

Grammatika	
A2.3-GR1	Hozirgi zamon fe'llari (hozirgi zamon davom fe'li, hozirgi-kelasi zamon fe'li)ni ishlata oladi.
A2.3-GR2	O'tgan zamon fe'llarini (yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon davom fe'li) ishlata oladi.
A2.3-GR3	Kelasi zamon fe'llari (kelasi zamon maqsad fe'li, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon gumon fe'li)ni ishlata oladi.
A2.3-GR4	O'tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o'qigan* va hokazo).
A2.3-GR5	*-dir* gumon yuklamasini ishlata oladi ("Balki, kasaldir" singari).
A2.3-GR6	*Qila olmoq* fe'lini ishlata oladi.
A2.3-GR7	O'zlik nisbatini ishlata oladi.
A2.3-GR8	Shart maylini ishlata oladi.
A2.3-GR9	Sifatdoshlarni ishlata oladi (*yugurayotgan bola, uchayotgan qush* singari).
A2.1-GR10	His-hayajon gaplarni ishlata oladi ("Qanday go'zal joy!" singari).
A2.3-GR11	Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni ishlata oladi.
A2.3-GR12	Payt ergash gapli qo'shma gaplarni ishlata oladi.
A2.3-GR13	Shart ergash gapli qo'shma gaplarni ishlata oladi.
A2.3-GR14	Sabab ergash gapli qo'shma gaplarni ishlata oladi.
A2.3-GR15	Natija ergash gapli qo'shma gaplarni ishlata oladi.
A2.3-GR16	Kirish birikmalarini ishlata oladi *(menimcha, mening fikrimcha* singari).
A2.3-GR17	*zarur, kerak, mumkin* modal so'zlarini ishlata oladi.
A2.3-GR18	*balki, ehtimol* modal so'zlarini ishlata oladi.
Leksika	
A2.3-L1	Sayohatlar bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi.
A2.3-L2	Transport bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi.
A2.3-L3	Bino, inshootlar bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi.
A2.3-L4	Sport va xobbilar bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

A2.3-L5	Tabiat hodisalari bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.
A2.3-L6	O‘simlik va hayvonot olami bilan bog‘liq ot va sifatlarni ishlata oladi.
A2.3-L7	Texnik qurilmalar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
A2.3-L8	Predmetlar, joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
A2.3-L9	Kiyim-kechaklar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
A2.3-L10	Kasalliklar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.

INSON VA TABIAT BU – SAN’AT
23 SOAT

Ishon, harakatlan va faxrlan

- “Qila olmoq” fe’lini ishlata oladi.
- O‘zlik nisbatini ishlata oladi.
- Sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi.
- Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
- Qobiliyat (qo‘lidan kelish-kelmaslik) haqida gapira oladi (*“Men fransuz tilida gaplasha olmayman”* singari).

Ona tabiat – buyuk ne’mat

- Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni ishlata oladi. O‘tgan zamon fe’llari (yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon davom fe’li)ni ishlata oladi.
- Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o‘qiganda undagi detallarni tushunadi *(kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi). Birovlarning gapini aynan va o‘zlashtirma gap shaklida yetkaza oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

Mohir qo‘llar san’ati

- Sifatdoshlarni ishlata oladi *(urf bo‘layotgan libos, bolalar kiyadigan kiyim* singari)
- Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi.
- Predmetlarni tasvirlay oladi.

2030-YIL
17 SOAT

Kelajakdagi kasblar

• Kelasi zamon fe'llari (kelasi zamon maqsad fe'li, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon gumon fe'li)ni ishlata oladi. Kirish birikmalarni ishlata oladi *(menimcha, mening fikrimcha* singari). Predmetlar, kasblar bilan bog'liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.

• O'z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o'qiganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi. Qisqa hikoya va ertaklar yoza oladi.

• Xohish-istaklar haqida gapira oladi. Kishilarni tasvirlay oladi.

Orzumizdagi texnikalar

• *Balki, ehtimol* modal so'zlarini ishlata oladi. Natija ergash gapli qo'shma gaplarni ishlata oladi.

• Texnik qurilmalar bilan bog'liq otlar va fe'llarni ishlata oladi.

• O'z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o'qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg'ay oladi.

• O'rganilgan vaziyatlar doirasida o'zgalarning o'ziga qaratilgan nutqini tushunadi, jarayonlarni tasvirlay oladi.

• Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi *("Men bugun kinoga bora olmayman", "yordam berishim mumkin"* singari)

KECHA, BUGUN, ERTAGA
25 SOAT

Mahallam

• O'tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o'qigan* va h.k.). Sabab ergash gapli qo'shma gaplarni ishlata oladi.

• Joylar bilan bog'liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.

• O'z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilgani (qismlari, qismlarining vazifalari)ni va qanday ishlashini tushunadi.

• Hayotidagi muhim voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.

• Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

Mening yurtim

• Hozirgi zamon fe'llari (hozirgi zamon davom fe'li, hozirgi-kelasi zamon)ni ishlata oladi.

• Joylar bilan bog'liq otlar va sifatlarni ishlata oladi. Sayohatlar bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi. Transport bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi. O'z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushunadi.

• Reklama e'lonlarini o'qiganda va eshitganda tushunadi.

• Hozir bo'layotgan voqea-hodisalarni, o'zi guvohi bo'lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Bizning sayyoramiz

- Payt ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi. *Zarur, kerak, mumkin* modal so‘zlarini ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.
- Zarurat haqida gapira oladi (“*Doktorga borishim kerak*” singari).

ENSIKLOPEDIYA
20 SOAT

Tabiat qonuni

- Shart ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Hodisalar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladi.
- Sabab va oqibatlar haqida gapira oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

Eng, eng, eng...

- His-hayajon gaplarni ishlata oladi (“*Qanday go‘zal joy*!” singari).
- Shart maylini ishlata oladi.
- O‘simlik va hayvonot olami bilan bog‘liq ot va sifatlarni ishlata oladi .
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Norasmiy vaziyatlarda xat yoza oladi va xatlarga javob qaytara oladi.

Ajdodlarning g‘aroyib ixtirolari

- *-dir* qo‘shimchasini ishlata oladi (“*Balki, kasaldir*” singari).
- Bino, inshootlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi, taxminini bildira oladi.

MAVZU BO‘YICHA REJALASHTIRISH

№	Bo‘limlar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Yangi mavzu	Nazorat ishlari	Mustah-kamlash	Takror-lash
1	Inson va tabiat bu – san’at	27	23	2	1	1
2	2030-yil	21	17	2	1	1
3	Kecha, bugun, ertaga	30	26	2	1	1
4	Ensiklopediya	24	20	2	1	1
Jami		**102**	**86**	**8**	**4**	**4**

INSON VA TABIAT BU – SAN’AT (27 SOAT)
ISHON, HARAKATLAN VA FAXRLAN (8 SOAT)
1-MAVZU. O‘ZBEKISTON SPORTI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnlarni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi, qobiliyat (qo‘lidan kelish-kelmaslik) haqida gapira oladi, *qila olmoq* fe’lini ishlata oladi, o‘zlik nisbatini, sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni og‘zaki va yozma nutqda ishlata oladi.
- O‘zbekistonning yetuk sportchilari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

VAZIFALAR:

1. O‘quvchilar bilan darsga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalaning.

– Ta’tilda qanday dam oldingiz?

– Ta’til davrida qanday sport turlari bilan shug‘ullandingiz?

– Siz aytgan sport turi bo‘yicha qaysi sportchilarni bilasiz?

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qayta aytiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.


O‘ZBEKISTON SPORTI

1. O‘qing.

1	O‘zbekiston 1993-yilda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi a’zoligiga qabul qilindi.
2	Muhammadqodir Abdullayev 2000-yili Sidney Olimpiadasida oltin medalni qo‘lga kiritdi. U Olimpiya o‘yinlarida oltin medal olgan ilk o‘zbek sportchisi sifatida tarixda qoldi.
3	Sport gimnastikachisi Oksana Chusovitina Olimpiada o‘yinlarida 8 marta qatnashdi. Ushbu ko‘rsatkich Ginnes rekordlar kitobidan joy oldi. (kun.uz)
4	2018-yilda O‘zbekistonda xokkey o‘yini tiklandi. “Binokor” jamoasi qayta tashkil qilinib, qo‘shni mamlakatlarda bo‘lib o‘tadigan xalqaro turnirlarda ishirok etishni boshladi. Orsdan bir yil o‘tib esa O‘zbekistonda ilk bor xokkey bo‘yicha xalqaro musobaqa tashkil etildi.
5	2012-yili Toshkentda dunyo standartlariga to‘liq javob beradigan “Bunyodkor” stadioni foydalanishga topshirildi. Unga 34 000 dan ortiq muxlis sig‘adi. (“Wikipedia”)
6	Mirjalol Qosimov mustaqil O‘zbekiston tarixidagi eng mashhur futbolchidir. U “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni, “Fidokorona xizmatlari uchun”, “Mehnat shuhrati” ordenlari sohibi.

2. O‘ylang va toping. Yozing!

Namuna:
– Oksana Chusovitina nega Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan?
– Chunki u Olimpiada o‘yinlarida 8 marta qatnashgan.


1. Olimpiya o‘yinlarida oltin medalni qo‘lga kiritgan ilk o‘zbek sportchisi sifatida tarixda qolgan shaxs kim?
2. O‘zbekiston 1993-yili qaysi xalqaro sport qo‘mitasiga a’zo bo‘lgan?
3. O‘zbekiston tarixidagi eng mashhur futbolchi kim?
4. Mustaqil O‘zbekistonda xokkey bo‘yicha xalqaro o‘yin ilk bor qachon tashkil etildi?
5. 34 000 dan ortiq muxlisni sig‘diru oladigan sport inshooti qaysi?

5

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmlarga qarating.

- Rasmda kimlar va nimalarni ko‘ryapsiz?

Bu topshiriqni bajarishda o‘qituvchi yana qo‘shimcha tarzda ma’lumotlar ham berishi mumkin. O‘zbekiston va jahon sporti haqida o‘quvchilarning fikri tinglanadi.


3. O‘ylang. Toping va yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: to‘p, yutqazmoq, o‘ynamoq, jarima, hakam, g‘alaba qozanmoq, mag‘lub etmoq, darvozabon, kubok, kurashmoq.

Sport	
Ot	fe’l
to‘p	kurashmoq
...	...
...	...

medal
jarima
turnir
g‘alaba qozonmoq
a’zo bo‘lmoq
mezbonlik qilmoq

4. Tinglang. Toping va gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	O‘zbekistonga Olimpiadadagi ilk medalni 1994-yili Norvegiyaning Lillehammer shahrida bo‘lib o‘tgan qishki Olimpiadada Lina Cheryazova fristayl sport turidan taqdim etgan.
2	1998-yili O‘zbekistonda ilk bor tennis bo‘yicha “Prezident kubogi” xalqaro musobaqasi o‘tkazildi.
3	1997–2002-yillarda Toshkentda milliy sport turi bo‘lgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi tashkil qilindi.
4	Rustam Qosimjonov, Nafisa Mo‘minova, Nodirbek Abdusattorov, aka-uka Sindorovlar kabi shaxmatchilar o‘zbek shaxmatining nomini jahonga tanitmoqda.

Mustaqil ish
O‘zingiz yoqtirgan sportchi haqida ma’lumot to‘plang.

6

3. 1-topshiriq asosida berilgan matnni ifodali qilib o‘qing. So‘ngra, o‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

Oq‘uvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matnni o‘qib bo‘lgandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, qayta o‘qiting.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni mustaqil bajartiring. Bunda berilgan namunani doskada bajartirib, bu haqida o‘quvchilarga tushuncha bering. Savollarga javobni o‘quvchilar yozma tarzda yakka tartibda berishlarini ayting.

Topshiriqni bajarishga qiynalayotgan o‘quvchilarga individual yondashib, yordam bering.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Namuna:
– Oksana Chusovitina nega “Ginnesning rekordlar kitobi”ga kiritilgan?
– Chunki u olimpiada o‘yinlarida 8 marta qatnashgan.

1. Olimpiya o‘yinlarida oltin medalni qo‘lga kiritgan ilk o‘zbek sportchisi sifatida tarixda qolgan shaxs kim?
– Muhammadqodir Abdullayev 2000-yilda Sidney Olimpiadasida ilk oltin medalni qo‘lga kiritgan o‘zbek sportchisidir.

2. O‘zbekiston 1993-yilda qaysi qo‘mitaga a’zo bo‘lgan?
– 1993-yilda O‘zbekiston Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasiga a’zo bo’ldi.

3. O‘zbekiston tarixidagi eng mashhur futbolchi kim?
– Mirjalol Qosimov mustaqil O‘zbekiston tarixidagi eng mashhur futbolchi hisoblanadi.

4. O‘zbekistonda ilk marotaba xokkey bo‘yicha xalqaro o‘yin qachon tashkil etilgan?
– 2016-yilda O‘zbekistonda ilk marotaba xokkey bo‘yicha xalqaro o‘yin tashkil etildi.

5. 35 000 dan ortiq muxlisni sig‘dira oladigan sport inshooti qaysi?
– 2012-yilda Toshkentda barpo qilingan “Bunyodkor” stadioni 35000 dan ortiq muxlisga mo‘ljallangan.

Tavsiya! Sinfdagi o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab bu topshiriqlarni guruhlarga bo‘lgan holda bajartirish ham mumkin.

5. O‘quvchilardan rasmlarda qanday holatlar tasvirlanganini og‘zaki so‘rang. Berilgan topshiriqning namunasini doskada ko‘rsatib bering. O‘quvchilar og‘zaki javoblarni aytgandan keyin ularga daftarga yozishni topshiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘p, yutqizmoq, o‘ynamoq, jarima, hakam, g‘alaba qozonmoq, mag‘lub etmoq, darvozabon, kubok, kurashmoq.*

Bajarilishi: Berilgan so‘zlarni T-chizma asosida sport bilan bog‘liq otlar va fe’llarga ajratib yozishni topshiring.

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering.) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlari lozim.

Medal, jarima, turnir, g‘alaba qozonmoq, a’zo bo‘lmoq, mezbonlik qilmoq.

Otlar	Fe’llar
to‘p	yutqizmoq
jarima	o‘ynamoq
hakam	g‘alaba qozonmoq
darvozabon	mag‘lub etmoq
kubok	kurashmoq.

7. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Sport haqida faktlar

- Mustaqil O‘zbekistonga Olimpiadadagi ilk medalni 1994-yilning qishida Norvegiyaning Lillehammer shahrida bo‘lib o‘tgan qishki Olimpiadada Lina Cheryazova fristayl sport turidan taqdim etgan.

1994-yildan Toshkentda professional tennischilar o‘rtasida nufuzli turnir – “Prezident kubogi” xalqaro musobaqasi o‘tkaza boshlandi. Ushbu musobaqalarga o‘sha paytdagi dunyoning yetakchi tennischilari tashrif buyurishgan.

1998-yilda Toshkentda milliy sport turi bo‘lgan kurash bo‘yicha Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil qilindi. Oradan bir yil o‘tib esa Toshkent kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionatiga mezbonlik qildi.

Shaxmat bo‘yicha xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov 15 yoshida o‘smirlar o‘rtasida Osiyo chempioni va 24 yoshida esa Jahon chempioni bo‘ldi. Uning ortidan o‘zbekistonlik birinchi ayol grossmeyster Nafisa Mo‘minova, shuningdek, Nodirbek Abdusattorov, aka-uka Sindorovlar ham shaxmat olamida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishdi.

O‘zbekistonlik FIFA referisi Ravshan Ermatov 2014-yilda “Eng yaxshi hakam” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldi va beshinchi marta Osiyoning eng yaxshi hakami deb tan olindi. Futbol hakami jahon chempionatlarida o‘yinlarni boshqarish bo‘yicha dunyo rekordi sohibi hisoblanadi.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash uchun “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” metodi asosida topshiriqni bajartiring.

1	O‘zbekistonga Olimpiadadagi ilk medalni 1994-yili Norvegiyaning Lillehammer shahrida bo‘lib o‘tgan qishki Olimpiadada Lina Cheryazova fristayl sport turidan taqdim etgan.	**To‘g‘ri**
2	1998-yili O‘zbekistonda ilk bor tennis bo‘yicha “Prezident kubogi” xalqaro musobaqasi o‘tkazildi.	**Noto‘g‘ri**
3	1997–2002-yillarda Toshkentda milliy sport turi bo‘lgan kurash bo‘yicha Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil qilindi.	**Noto‘g‘ri**
4	Rustam Qosimjonov, Nafisa Mo‘minova, Nodirbek Abdusattorov, aka-uka Sindorov kabi shaxmatchilar o‘zbek shaxmatining nomini jahonga tanitmoqda.	**To‘g‘ri**

9. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga bugungi darsda yodida qolgan bitta so‘zni daftarlariga yozish vazifasini bering. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarga e’tibor qaratmaganini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga mustaqil topshiriqni tushuntiring. O‘zlari yoqtirgan sportchilar haqida ma’lumot to‘plab, rasmlar asosida 4-5 ta ma’lumotni yozib kelishni topshiring.

2-MAVZU. CHEMPIONNING BOLALIGI

DARSNING MAQSADI:


- O‘quvchilar o‘z darajasiga mos matnlarni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
- Ular “qila olmoq” fe’lini nutqda ishlata oladi.
- Ayrim chempionlarning bolaligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga berilgan mustaqil topshiriq asosida o‘zi yoqtirgan sportchi haqida yozib kelgan ma’lumotlarni so‘rang. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilardan vazifani o‘qib, keltirilgan rasmlarni o‘quvchilarga ko‘rsatishlari uchun sharoit yarating. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. “O‘zingiz yoqtirgan sportchilarning bolaligi haqida nimalarni bilasiz?” savoli yordamida o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

– Bugun ayrim chempionlarning bolaligi bilan tanishamiz, – deb ta’kidlab qo‘ying.


CHEMPIONNING BOLALIGI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Bahodirning onasi nima uchun farzandini sportdan olib ketmoqchi bo‘ldi?
2. Chempionning boks olamiga qadam qo‘yishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Bokschining hayotdagi shiori qanday bo‘lgan?
4. Hayotdagi shioringiz haqida aytib bering.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Maks kurash tusha oladi.
Men kurash tusha olaman.
Men kurash tusha olmayman.


DIQQAT QILING
-a
-y + olmoq

3. O‘qing.

“Men gollarimni buvimga bag‘ishlayman. Futbolga aynan buvim yetaklab kelgan”, – deydi Messi. Buvisi uni bo‘lajak futbol yulduzi sifatida ko‘ra oldi va to‘rt yoshida Grandolining mahalliy futbol klubiga olib bordi. Futbolchi 24 yoshida eng yaxshi to‘purarga aylandi. Keyinchalik yetti karra “Oltin to‘p” sohibi bo‘ldi. Bu hali hech kim yeta olmagan natija edi.

“Jaji akademik” jurnalidagi bir maqolada shunday jumlalar bor: “Hatto buyuk insonlar ham bir vaqtlar sen-u men kabi oddiy bola bo‘lgan. Ba’zilari maktabda yomon o‘qigan bo‘lsa, ba’zilarining qalbiga kattalar yo‘l topa olmagan. Muhimi, oldinga maqsad qo‘yishingmi, shu maqsad amalga oshguncha o‘qi va o‘rgan. Chunki buyuklar ham buyuk bo‘lib tug‘ilmagan”.

7


4. O‘ylang, toping va gapiring. ✓ ✗

1. Messi “Oltin to‘p”ni yetti bor qo‘lga kiritgan. ✓
2. Buyuk insonlar maktabda a’lo baholarga o‘qishgan.
3. Messi yoshligida futbolga qiziqmagan.
4. Futbolchi 24 yoshida eng yaxshi to‘purarga aylandi.
5. Messining futbolga qiziqishini dastlab buvisi sezgan.
6. O‘qish va o‘rganish bilan maqsadga erishiladi.

qobiliyat
mashhurlik
qiziqmoq
amalga oshirmoq
to‘purar
murabbiy

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: shug‘ullanmoq, suzmoq, tushmoq, o‘ynamoq, qiziqmoq, uchmoq.

Namuna:
Mirjalol besh yildan beri futbol bilan shug‘ullanadi.

1. Mirjalol besh yildan beri futbol bilan ...
2. Dam olish kuni do‘stlarim bilan konki ...
3. Basketbolni yaxshi ... uchun muntazam mashq qilish kerak.
4. Chempion raqibi bilan uchinchi marta jangga ...
5. Shaxmatga yoshligimdan ...

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna:
Oshpaz ovqatni sozadi.

suzmoq
uchmoq
omonim
chopmoq

Mustaqil ish
Champion sifatida intervyu berishga tayyorlaning.

8

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Boks bo‘yicha Jahon chempioni Bahodir Jalolov boks bilan shug‘ullanishni boshqa sportchilarga nisbatan biroz kechroq, aniqrog‘i, 7-sinfda o‘qib yurgan paytlari boshlagan.

Qizig‘i shundaki, Bahodir boksdan avval futbol bilan professional tarzda shug‘ullangan. Lekin vaqt o‘tishi bilan boksga bo‘lgan qiziqishi ustunlik qildi.

Mashg‘ulotlarda olgan jarohatlarini ko‘rgan onasi uni boksdan olib ketmoqchi bo‘ldi. Lekin u otasining orzusini amalga oshirib, chempion bo‘lmoqchi ekanligini aytadi. Tinimsiz harakat va intilishlar, mehnat natijasida Jahon chempioni bo‘ldi.

Bahodir intervyularidan birida: “Olis bir chekka tumanda tug‘ilib voyaga yetgan menday bir yigit dunyo chempioni bo‘lishini kim o‘ylabdi deysiz”, – deb aytadi. Sportchi hayotda “Yiqilsam ham hech qachon taslim bo‘lmayman” shioriga amal qildi. Chempion har qanday vaziyatda ham o‘rnidan turdi. Mag‘lub bo‘lganda ham, yiqilganda ham.

Bokschining bu so‘zlari o‘z maqsadi sari intilayotgan yoshlarga ham kuch beradi. Har bir muvaffaqiyat ortida maqsad, sabr, ishonch va albatta, tinimsiz harakat bor.

4. O‘quvchilarning matndan o‘qib tushunganlarini aniqlash uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Bahodirning onasi nima uchun farzandini sportdan olib ketmoqchi bo‘ldi?
2. Chempionning boks olamiga qadam qo‘yishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Bokschining hayotdagi shiori qanday bo‘lgan?
4. Hayotdagi shioringiz haqida aytib bering.

5. “Diqqat qiling!” ruknida ravishdoshning -a/-y shakli bilan keluvchi “qila olmoq” fe’li harakatni bajarishga imkoniyat borligini bildirishini o‘quvchilarga tushuntiring. Ravishdoshning -a shakli undosh tovush bilan tugagan fe’l negiziga qo‘shiladi. Masalan, kurash tush(moq)a olaman. Ravishdoshning -y shakli unli tovush bilan tugagan fe’l negiziga qo‘shiladi. Masalan, “Futbol o‘yna(moq)y olaman” kabi.

6. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmlarga qarating.

– Rasmlarda kimlarni ko‘ryapsiz?

Savollarga javob olgach, topshiriqdagi namunani o‘quvchilarga tushuntiring. Har bir o‘quvchi o‘zi qila oladigan va qila olmaydigan harakatlar haqida og‘zaki bayon qilsin. So‘ngra vazifani daftarga yozdiring.

Maks kurash tusha oladi. / Men kurash tusha olaman. / olmayman.
Daniel futbol o‘ynay oladi. / Men futbol o‘ynay olaman / olmayman.
Viktor chang‘ida ucha oladi. / Men chang‘ida ucha olaman / olmayman.
Oksana uzoq masofaga yugura oladi. / Men uzoq masofaga yugura olaman / olmayman.

Elbars to‘siqlardan sakray oladi. / Men to‘siqlardan sakray olaman / olmayman.
Aybulat xokkey o‘ynay oladi. / Men xokkey o‘ynay olaman. / olmayman.
Rustam shaxmat o‘ynay oladi. / Men shaxmat o‘ynay olaman. / olmayman.
Diana gimnastika mashqlarini bajara oladi. / Men gimnastika mashqlarini bajara olaman / olmayman.

7. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.
– Rasmda kimni ko‘ryapsiz?
2-topshiriq asosida berilgan matnni “Izohli o‘qish” usulidan foydalanib o‘qiting.
Bunda o‘qilgan matn mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlari hisoblanadi. Matn mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar matndagi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratiladi.
O‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.
O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

“Men gollarimni buvimga bag‘ishlayman. (Nima uchun Messi gollarini buvisiga bag‘ishlagan?) Futbolga aynan buvim yetaklab kelgan”, – deydi Messi. (“Yetaklab kelgan” so‘zini izohlang)
Buvisi uni bo‘lajak futbol yulduzi sifatida ko‘ra oldi va to‘rt yoshida Grandolining mahalliy futbol klubiga olib bordi. (Buvisining futbol yulduzi borasidagi orzusi amalga oshadimi?) Futbolchi 24 yoshida eng yaxshi to‘purarga aylandi. (Futbolda yaxshi natijaga erishish uchun nima qilish kerak?)
Keyinchalik yetti karra “Oltin to‘p” sohibi bo‘ldi. (“Oltin to‘p” oltindanmi?)
Bu hali hech kim yeta olmagan natija edi. (Nima uchun Messi afsonaviy futbolchi deyiladi?)
“Jajji akademik” jurnalidagi bir maqolada shunday so‘zlar bor: “Hatto buyuk insonlar ham bir vaqtlar sen-u men kabi oddiy bola bo‘lgan. Ba’zilari maktabda yomon o‘qigan bo‘lsa, ba’zilarining qalbiga kattalar yo‘l topa olmagan. Muhimi, oldingga maqsad qo‘ydingmi, shu maqsad amalga oshguncha o‘qi va o‘rgan. Chunki buyuklar ham buyuk bo‘lib tug‘ilmagan”. (“Buyuk inson” deganda qanday insonlarni tushunasiz?)

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda o‘quvchilar berilgan matn asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” metodi yordamida vazifani bajaradilar.
1. Messi “Oltin to‘p”ni yetti bor qo‘lga kiritgan. (To‘g‘ri)
2. Buyuk insonlar maktabda a’lo baholarga o‘qishgan. (Noto‘g‘ri)
3. Messi yoshligida futbolga qiziqmagan. (Noto‘g‘ri)
4. Futbolchi 24 yoshida eng yaxshi to‘purarga aylandi. (To‘g‘ri)
5. Messining futbolga qiziqishini dastlab buvisi sezgan. (To‘g‘ri)
6. O‘qish va o‘rganish bilan maqsadga erishiladi. (To‘g‘ri)

9. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.
Qobiliyat, mashhurlik, qiziqmoq, amalga oshirmoq, to‘purar.

10. 5-topshiriqda berilgan so‘zlarga izoh bering. O‘quvchilarga topshiriqning namunasini doskada yozma tarzda tushuntiring va mustaqil yozma tarzda bajarishlarini vazifa qilib bering.

Foydalanish uchun so‘zlar: *shug‘ullanmoq, suzmoq, tushmoq, o‘ynamoq, qiziqmoq, uchmoq.*

Namuna:

1. Mirjalol besh yildan beri futbol bilan shug‘ullanadi.
2. Dam olish kuni do‘stlarim bilan konki uchdik.
3. Basketbolni yaxshi o‘ynash uchun muntazam mashq qilish kerak.
4. Chempion raqibi bilan uchinchi marta jangga tushdi.
5. Shaxmatga yoshligimdan qiziqaman.

11. O‘quvchilarga omonim fe’llarning ma’nolarini qiyoslab, ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring. Keyin shu so‘zlar ishtirokida namunadagidek gaplarni o‘quvchilar bilan birga tuzing va doskaga ularni yozdiring.

Namuna:

Oshpaz ovqatlarni *suzadi*. / Ho‘kiz shoxlari bilan *suzadi*. / Intizor suvda yaxshi suzadi.
Qizlar yo‘lak bo‘ylab *chopyapti*. / Dehqonlar yer *chopyapti*.

12. Refleksiya. “Zanjir” metodi yordamida fe’llardan foydalanib Refleksiyani amalga oshiring. Bunda bir o‘quvchi bitta fe’lni aytadi, ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchining aytgan fe’lini takrorlab, o‘zi boshqa bir fe’lni aytishi lozim bo‘ladi. Jarayon shu tartibda eng so‘nggi o‘quvchigacha davom etadi.

13. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida chempion sifatida intervyu berishga tayyorlanib kelishni topshiring.

3-MAVZU. CHEGARASIZ

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnlarni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi.
- Kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi. Voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
- Sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. “Rolli o‘yin” metodi asosida mustaqil topshiriqni so‘rang. O‘quvchilarni juft holda doskaga taklif qiling. Bunda bir kishi intervyu oluvchi, bir kishi esa intervyu beruvchi bo‘lsin. O‘ziga xos javob bergan o‘quvchilarni e’tiborga oling. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. “Sportda “parasport”, “paralimpiya” kabi atamalar borligi haqida bilasizmi?” savoli yordamida o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

3. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmlarga qarating.

– Rasmlarda kimlarni ko‘ryapsiz?

O‘quvchilarga rasm asosida sport turlarini aniqlab, namunadagidek yozishlarini vazifa qilib bering.



4. O'qing.

Paradzyudochi Sharif Xalilov Paralimpiada o'yinlari tarixida O'zbekistonga ilk medalni olib kelgan sportchi sifatida tarixga kirdi. U shunday deydi: "Inson irodasi uni hayot sinovlarida tobladi, jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi. Matonat esa maqsad sari dadil intilishga, bu yo'ldagi barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengishga kuch bag'ishlaydi. Biz sportchilar Paralimpiya o'yinlarida shiddat bilan harakat qildik va g'alabani qo'lga kiritdik".

Tokio – 2020 o'yinlarida ayollar o'rtasida parayengil atletikaning nayza uloqtirish turida Nozimaxon Qayumova 42.59 metr natija bilan oltin medalni qo'lga kiritdi. Nozimaxon Qayumova bunday deydi:

"Bir qaraganda hayotda muvaffaqiyat qozonish, g'olib bo'lish oddiy hodisaga o'xshaydi. Shunchaki "g'olib bo'lish tugmasi"ni bosasan va dovyurakлik bilan olg'a boraverasan. Albatta, g'olib bo'lish doimo huzurbaxsh. Biroq g'oliblik shunchaki qo'l-ga kiritilmaydi. G'olib bo'lish uchun ichimizda uyg'ongan istak, ortga chekinmaslik maqsadi bo'lishi kerak".

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna:
– O'zbekistonda Paralimpiada medalini birinchi bo'lib kim qo'lga kiritdi?
– O'zbekistonda Paralimpiada medalini birinchi bo'lib Sharif Xalilov qo'lga kiritdi.


1. .....?
– Birinchi Paralimpiada medalini O'zbekistonda Sharif Xalilov qo'lga kiritdi.
2. .....?
– Qiyinchiliklarni yengish uchun matonat kuch beradi.
3. .....?
– Biz shiddat bilan harakat qilganimiz natijasida g'alabaga erishdik.
4. .....?
– Nozimaxon Qayumova parayengil atletikaning nayza uloqtirish turida g'olib bo'ldi.
5. .....?
– G'olib bo'lish uchun insonda istak va ortga chekinmaslik maqsadi bo'lishi kerak.

Mustaqil ish

Paralimpiada ishtirokchilari irodasi haqida taassurotlaringizni yozib keling.

10

Namuna:
1–A – para kanoe(eshkak eshish)
2–D – para dzyudo
3–B – para suzish
4–G – para yengil atletika
5–E – para tennis
6–F – para o‘q otish.


CHEGARASIZ

1. Moslashtiring va yozing.

Namuna:
1–A, parakanoe (eshkak eshish)

Parakanoe (eshkak eshish) (A)
Parodzyudo (D)
Paratennis (E)
Parasuzish (B)
Parao‘q otish (F)
Parayengil atletika (G)

Iroda
matonat
maqsad
sabr
shiddat
asos solmoq
tashkil qilmoq

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Paralimpiyaga kim asos solgan?
2. Bu musobaqalarni o‘tkazishdan maqsad nima?
3. Ilk musobaqalar qanday nomlangan?
4. Guttmanni yana qanday nom bilan atashgan?
5. Xalqaro paralimpiya qo‘mitasi qachon tashkil qilindi?

Maxsat
Maqsad

3. O‘ylang va yozing.

Namuna:
Angliyaning Stok Mandevill gospitali vrachi urushda jarohatlanganlar uchun maxsus o‘yin ...di.

1. Angliyaning Stok Mandevill gospitali vrachi urushda jarohatlanganlar uchun maxsus o‘yin ...di.
2. Doktorning maqsadi nogiron bo‘lib qolgan insonlarning hayotini ... edi.
3. Lyudvig Guttman o‘z maqsadini ... orqali amalga oshirdi.
4. Ilk o‘yin ... yilda o‘tkazildi.
5. 1960-yildan boshlab urush faxriylari bilan birga ... ham qatnasha boshladi.
6. 1989-yilda ... qo‘mitasi tashkil qilindi.

9

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Iroda, matonat, maqsad, sabr, shiddat, asos solmoq, tashkil qilmoq.

5. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Angliyaning Stok Mandevill gospitali vrachi Lyudvig Guttman 1948-yil Ikkinchi jahon urushida orqa miyasidan jarohat olib qaytgan ingliz jangchilarini sport musobaqalarida qatnashtirish uchun to‘playdi. Doktorning maqsadi nogiron bo‘lib qolgan insonlarning hayotini yaxshilash, ularning hayotiga quvonch olib kirish edi. Buning uchun u sportdan foydalandi. Shuning uchun ham Guttmanni “imkoniyati cheklangan sportchilarning otasi” deb atashadi

Paralimpiya o‘yinlarining ilk musobaqasi 1948-yilda “Stok Mandevill nogironlar aravachasi o‘yinlari” deb nomlangan va u Londonda o‘tkazilgan. Shundan so‘ng doktor o‘z oldiga yana bir maqsad qo‘ydi va imkoniyati cheklangan sportchilar uchun ham Olimpiada o‘yinlarini tashkil qildi. Shu yildan boshlab har yili Olimpiada o‘yinlari o‘tkazib kelinadi.

Ushbu o‘yin 1952-yildan boshlab xalqaro musobaqa nomini oldi. 1960-yildan esa nafaqat urush faxriylari, balki boshqa nogiron sportchilar ham ishtirok eta boshladi. 1989-yilga kelib Xalqaro Paralimpiya Qo‘mitasi tashkil qilindi.

2008-yildan boshlab Paralimpiya o‘yinlari ham Olimpiada o‘yinlari bilan tenglashtirildi.

Manba: sports.uz

6. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

7. Orfografik va orfoepik me’yorlarni o‘rgatish maqsadida darslikda berilgan so‘zlarning og‘zaki va yozma shaklini o‘quvchilarga tushuntiring. Tovushlar tinglaganda boshqacha eshitilsa ham, yozuvda boshqacha aks etishini misollar tarzida keltiring. O‘quvchilarga mazkur so‘zlardan foydalanib og‘zaki gaplar tuzishni topshiring.

og‘zaki	yozma
maxsat	maqsad

8. O‘quvchilarga tinglagan matnni yodga olib, berilgan gaplarni to‘ldirishlari lozimligini vazifa qilib bering. Namunani doskada yozib tushuntiring. O‘quvchilar so‘zlarni topishga qiynalishsa, doskaning bir chetiga aralash qilib yozing.

Namuna:

1. Angliyaning Stok Mandevill gospitali vrachi urushda jarohatlanganlar uchun maxsus o‘yin tashkil qildi.

2. Doktorning maqsadi nogiron bo‘lib qolgan insonlarning hayotini yaxshilashdan iborat edi.
3. Lyudvig Guttman o‘z maqsadini sport orqali amalga oshirdi.
4. Ilk o‘yin 1948-yilda o‘tkazildi.
5. 1960-yildan boshlab urush faxriylari bilan birga nogiron sportchilar ham qatnasha boshladi.
6. 1989-yilda Xalqaro Paralimpiya Qo‘mitasi tashkil qilindi

9. 4-topshiriq asosida berilgan matnni ifodali o‘qing. So‘ngra o‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

10. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda berilgan matn asosida javoblarga mos keluvchi savollarni tuzish vazifasini bering.

Namuna:

– O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Paralimpiada medalini kim qo‘lga kiritdi?
– O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Paralimpiada medalini Sharif Xalilov qo‘lga kiritdi.

11. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi yordamida o‘quvchilarga alifbo ketma-ketligida bittadan harfni ayting. Ular o‘zlariga tushgan harfni daftarga yozishsin. Vazifa: “Sizga tushgan harfdan boshlanadigan, bugungi darsda foydalanilgan bitta so‘zni yozing”.

O‘quvchilar so‘zlarni alifbo ketma-ketligida o‘qiydilar.

12. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida Paralimpiya ishtirokchilarining irodasi haqida taassurotlarini yozib kelish vazifasini bering.

4-MAVZU. MAQSAD BU – HARAKAT

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
- Sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar Paralimpiya ishtirokchilari haqida yozib kelgan matnni avval xohishlariga qarab o‘qishadi. Keyin esa vazifani so‘rashni mo‘ljallab qo‘ygan o‘quvchilardan so‘rang. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

Keyin o‘quvchilarga umumiy savol tashlang: “Inson o‘z maqsadiga yetishi uchun nima qilishi kerak?” Shu savol orqali siz ularni keyingi mavzuga olib kirasiz.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Bolalar mashhur sportchilarga havas bilan qarashadi, tezroq ular darajasiga erishishni istashadi. Lekin bolalar mashhur sportchilar shunday darajaga ko‘tarilish uchun necha yillar tinmay mehnat qilishganini, maqsad yo‘lida qancha qiyinchiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o‘tishganini ko‘z oldiga keltira olmaydilar. Ha, raqiblarini yengib, g‘oliblik shohsupasining yuqori pog‘onasiga ko‘tarilish, muxlislar olqishini olish, el-yurt nazariga tushish oson ish emas.

Sportda muvaffaqiyat qozonish uchun avvalo bolalikdan o‘zingizga mos, qobiliyatingizga yarasha sport turini tanlashingiz lozim.

Sportda muvaffaqiyat qozonishning ikkinchi muhim omili mag‘lubiyatlardan tushkunlikka tushmaslik va maqsad sari sabr-bardosh bilan intilishdadir.

Tabiatan har bir bola iste’dodli bo‘ladi. Faqat biri adabiyotda, ikkinchisi matematikada, uchinchisi kasb-hunarda... Sportda ham shunday. Qaysidir bolaning boksga, boshqasining shaxmatga, yana birining kurashga qobiliyati bor. Agar siz sportning biror turiga qobiliyatingiz borligini sezsangiz, albatta shug‘ullaning. Qiyinchilikdan cho‘chimasdan, mag‘lubiyatdan tushkunlikka tushmay, mashg‘ulotlarni astoydil davom ettiring. Ana shunda siz ham mashhur sportchilar qatoridan albatta o‘rin olasiz.


MAQSAD BU – HARAKAT

1. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1. Mashhur sportchilar osonlik bilan yuksak natijalarga erishadi. ✗
2. Shohsupaning yuqori pog‘onasiga ko‘tarilish uchun tinimsiz mehnat qilish kerak.
3. Sportda muvaffaqiyat uchun qobiliyat shart emas, ko‘proq shug‘ullanish kifoya.
4. Iste’dod hammaga ham berilavermaydi.
5. Muvaffaqiyat qozonish uchun mag‘lubiyatda ham tushkunlikka tushmay, maqsad sari intilish kerak.
6. Har kimga har xil qobiliyat beriladi.

qobiliyat
iste’dod
harakat
intiluvchanlik
mag‘lubiyat
davom ettirmoq
erishmoq

2. O‘qing va savollarga javob bering.

Nodirbek 11 yoshida dunyoning 100 ta eng kuchli o‘smirlari ro‘yxatiga kirdi. U o‘z oldiga qat’iy maqsad qo‘yish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, tinimsiz mehnat orqali ko‘plab yutuqlar sohibiga aylandi.


Nodirbek Abdusattorov 13 yoshida jahondagi eng yosh ikkinchi grossmeyster maqomiga erishdi. O‘zining intiluvchanligi, mehnatsevarligi, tirishqoqligi va g‘alabaga bo‘lgan xohishi tufayli yutuqlarga ega bo‘ldi. U intervualarining birida besh yildan so‘ng dunyoning eng kuchli o‘n shaxmatchisi ro‘yxatida bo‘lishni aytgan edi.

17 yoshli shaxmatchi 2021-yili rapid yo‘nalishida 5 karra jahon chempioni Magnus Karlsenni mag‘lubiyatga uchratdi va o‘z maqsadiga erishdi.

1. Nodirbekning yutuqlari siri nimada deb o‘ylaysiz?
2. Grossmeyster kim?
3. Shaxmatchi yoshligida o‘z oldiga qanday maqsad qo‘ygan edi?
4. Siz qaysi sportchilarga havas qilasiz?

DIQQAT QILING
sifat + ot: *yuqori natija*
ot + fe’l: *muvaffaqiyatga erishmoq*

11


3. O‘ylang va toping. Yozing.

Yuqori natija		Muvaffaqiyatga erishmoq	
Yuqori	imkoniyat	Muvaffaqiyatga	qozonmoq
Keng	harakat	G‘alaba	yetishmoq
Kuchli	natija	Maqsadiga	his qilmoq
Yorqin	qobiliyat	Orzuga	erishmoq
Tug‘ma	qiziqish	Mashg‘ulotga	yetmoq
Tinimsiz	iste’dod	Mag‘lubiyatni	qatnashmoq

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Yuqori natijaga erishish uchun tinmay harakat qilish kerak.

1. ...ga erishish uchun tinmay harakat qilish kerak.
2. ... unumli foydalanish kerak.
3. Nodirbek bolalikgidanoq ... egasi ekani ma’lum edi.
4. Olg‘a intilgan kishi ...
5. Maqsadi sari intilgan kishi ...

5. O‘ylang, toping va ayting.

X	N	I	Y	A	T	N	V
O	R	E	M	Q	X	A	N
H	A	R	A	K	A	T	Z
I	U	Y	T	P	I	I	O
Sh	I	Sh	O	N	Ch	J	M
M	H	F	N	D	S	A	A
L	O	M	A	Q	S	A	D
K	I	S	T	E’	D	O	D

Mustaqil ish
Maqsadingiz sari olib boradigan yo‘l chizmasini chizing.

12

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida “Ha-yo‘q” mashqi namunadagidek bajariladi.

Namuna:

1. Mashhur sportchilar osonlik bilan yuksak natijalarga erishadi. *(Yo‘q)*
2. Shohsupaning yuqori pog‘onasiga ko‘tarilish uchun tinimsiz mehnat qilish kerak. *(Ha)*
3. Sportda muvaffaqiyat uchun qobiliyat shart emas, ko‘proq shug‘ullanish kifoya. *(Yo‘q)*
4. Iste’dod hammaga ham berilavermaydi. *(Yo‘q)*
5. Muvaffaqiyat qozonish uchun mag‘lubiyatda ham tushkunlikka tushmay, maqsad sari intilish kerak. *(Ha)*
6. Har kimga har xil qobiliyat beriladi. *(Ha)*

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *qobiliyat, iste’dod, harakat, intiluvchanlik, mag‘lubiyat, davom ettirmoq, erishmoq.*

5. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

– Rasmda kimni ko‘ryapsiz?

2-topshiriq asosida berilgan matnni o‘quvchilarga “Domino” usulidan foydalanib, o‘qiting.

Bunda matndagi har bir gap domino kartochkalariga yoziladi va o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar gaplarni mazmuniga qarab ketma-ketlikda o‘qishadi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

MAQSAD BU – HARAKAT

U o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, tinimsiz mehnat qilish orqali ko‘plab yutuqlar sohibiga aylandi.

Nodirbek 11 yoshida dunyoning taniqli 100 ta yosh sportchilari ro‘yxatiga kiritildi.

13 yoshida Nodirbek Abdusattorov jahondagi eng yosh ikkinchi grossmeyster maqomiga ega bo‘ldi.

O‘zining intiluvchanligi, mehnatsevarligi, tirishqoqligi va g‘alabaga bo‘lgan xohishi tufayli ko‘plab yutuqlarga erishdi.

U intervyularining birida besh yildan so‘ng dunyoning eng kuchli o‘n shaxmatchisi ro‘yxatida bo‘lishini aytgan.

Nodirbek 17 yoshida, ya’ni 2021-yilda rapid bo‘yicha jahon chempionatida 5 karra jahon chempioni Magnus Karlsenni mag‘lubiyatga uchratdi va o‘z maqsadiga erishdi.

Havas bilan yoshlikda birga tushgan suratlar haqiqiy o‘yin sahnalari bilan almashdi.

Nodirbek 11 yoshida dunyoning taniqli 100 ta yosh sportchisi ro‘yxatiga kiritildi. U o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, tinimsiz mehnat qilish orqali ko‘plab yutuqlar sohibiga aylandi.

13 yoshida Nodirbek Abdusattorov jahondagi eng yosh ikkinchi grossmeyster maqomiga ega bo‘ldi. O‘zining intiluvchanligi, mehnatsevarligi, tirishqoqligi va g‘alabaga bo‘lgan xohishi tufayli ko‘plab yutuqlarga erishdi. U intervyularining birida besh yildan so‘ng dunyoning eng kuchli o‘n shaxmatchi ro‘yxatida bo‘lishini aytgan.

Nodirbek 17 yoshida, ya’ni 2021-yilda rapid bo‘yicha jahon chempionatida 5 karra jahon chempioni Magnus Karlsenni mag‘lubiyatga uchratdi va o‘z maqsadiga erishdi. Havas bilan yoshlikda birga tushgan suratlar haqiqiy o‘yin sahnalari bilan almashindi.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida matndagi ma’lumotlar asosida savol-javob o‘tkazing.

1. Nodirbek yutuqlarining siri nimada deb o‘ylaysiz?
2. Grossmeyster kim?
3. Shaxmatchi yoshligida o‘z oldiga qanday maqsad qo‘ygan edi?
4. Siz qaysi sportchilarga havas qilasiz?

7. “Diqqat qiling!” ruknida ot+sifat shaklidagi (yuqori natija), ot+fe’l shaklidagi (muvaffaqiyatga erishmoq) birikmalarning hosil bo‘lishi haqida o‘quvchilarga ma’lumot bering. Ot+sifat shaklidagi birikmalarda sifat otdan oldin kelib, uning biron-bir xususiyatini (rang, xil-xususiyat, hajm-o‘lchov, maza-ta’m, makon-zamon) ifodalab kelishini o‘quvchilarga misollar bilan tushuntiring.

Eslatma! Sifat+ot shaklidagi so‘z birikmlarida so‘zlarning o‘rni almashtirilsa, gap hosil bo‘ishini ham o‘quvchilarga eslatib o‘ting. Masalan, *kuchli sportchi / Sportchi kuchli(dir).*

Ot+fe’l shaklidagi birikmalarda ot fe’ldan oldin kelib, ifodalanayotgan harakatning bajaruvchisi, turi kabi ma’nolarni anglatishi mumkin.

8. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 3-topshiriqda moslashtirish mashqi berilgan. O‘quvchilarga dastlab mashqning qanday bajarilishini tushuntiring. Keyin esa mashqni doskada yozma tarzda bajartiring. O‘quvchilarga mashqni daftarga yozib olishlarini topshiring.

Yuqori natija	Tinimsiz harakat
Keng imkoniyat	Muvaffaqiyatga erishmoq
Kuchli qiziqish	G‘alaba qozonmoq
Yorqin iste’dod	Maqsadga erishmoq
Tug‘ma qobiliyat	Orzusi ushalmoq
Mashg‘ulotga qatnashmoq	Mag‘lubiyatni his qilmoq

9. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘yib yozishni tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

1. Yuqori natijaga erishish uchun tinmay harakat qilish kerak.
2. Keng imkoniyatdan unumli foydalanish kerak.
3. Nodirbek bolaligidanoq tug‘ma qobiliyat egasi ekanligi ko‘rinib turardi.
4. Olg‘a intilgan kishi maqsadiga erishadi.
5. Maqsadi sari intilgan kishining orzusi ushaladi.


10.O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni og‘zaki bajartiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *natija, harakat, niyat, maqsad, iste’dod, omad, matonat, ishonch.*

11. Refleksiya. “Qo‘shnilar” metodi yordamida o‘quvchilardan uchlik guruhlar tuzing. Guruhdagi bir o‘quvchi sport turini aytadi, ikkinchi o‘quvchi shu so‘z ishtirokida 3-4 ta so‘zdan iborat gap aytadi. Uchinchi o‘quvchi esa shu sport turi bilan shug‘ullanadigan sportchining nomini aytadi. Bu topshiriqni tezkorlik bilan bajarishni talab qiling.

12. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida o‘z maqsadiga eltuvchi yo‘l chizmasini chizib kelishni topshiring.

Topshiriqni bajarishni o‘zingiz tushuntiring. Bunda namuna sifatida Nukus shahridagi 1-IDUMning 7-sinf o‘quvchisi Urinbayeva Intizor Maqsud qizining maqsadga eltuvchi yo‘l chizmasi berilmoqda. Buni o‘quvchilarga namuna sifatida ko‘rsatishingiz mumkin.



5-MAVZU. KIMGA NIMA QIZIQ?

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matnlarni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.


VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga o‘z maqsadiga eltuvchi yo‘l chizmasini doskada taqdimot qilishini so‘rang. Bunda har bir o‘quvchining javobini qo‘llab- quvvatlab, “Ofarin”, “Barakalla” kabi so‘zlar bilan rag‘bat berib turing. Har bir o‘quvchiga “Maqsadingga yetishingda omad yor bo‘lsin” mazmunidagi kartochkalar berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

- Har bir maqsadga eltuvchi yo‘l bizning qiziqishlarimizdan boshlanadi. Endi qiziqishlarimiz haqida suhbatlashamiz, deb o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

Namuna:

– Kim nimaga qiziqadi?
– Men bolaligimdan shaxmat o‘ynashga qiziqaman.
– Menga tabiatni rasmga olish yoqadi.
– Musiqa chalishni yoqtiraman.


KIMGA NIMA QIZIQ?

1. O‘ylang va gapiring.

Namuna:
– Kim nimaga qiziqadi?
– Men bolaligimdan shaxmat o‘ynashga qiziqaman.
– Menga tabiat manzaralarini suratga olish yoqadi.
– Men musiqa chalishni yoqtiraman.

qobiliyat iste’dod ishtiyoq qiziqmoq shug‘ullanmoq

2. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Qiziqish nima?
2. Sevimli ish bilan shug‘ullanish deganda nimani tushunasiz?
3. Imkoniyat nima?
4. O‘zingizda qanday qobiliyat va imkoniyatlar bor deb o‘ylaysiz?
5. O‘z ishtiyoqingiz darajasini aniqlay olasizmi?

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

?	Harakat
?	Ishtiyoq
?	Qiziqish
Harakat, qiziqish va qobiliyatlarni amalda ko‘rsata olish	Qobiliyat

13

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

– Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz? Ular nima ish bilan shug‘ullanyaptilar?

O‘quvchilarga rasmlar asosida og‘zaki gaplar tuzishni topshiring.


4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Men rasm chizishga qiziqaman va bu ish bilan shug‘ullanishni yoqtiraman.

1. Men ...ga qiziqaman va shu ish bilan shug‘ullanishni yoqtiraman.
2. ...jarayonida qiyinchilikka duch kelsam ham bajaraman.
3. Inson o‘zi yoqtirgan ishi bilan shug‘ullanganda ...

5. O‘qing.

Assalomu alaykum. Men O‘zbekistondanman. Ismim Sabina. Badiiy gimnastikaga kichkinaligimdan qiziqaman. Yoshligimda televizor qarshisida gimnastikachi qizlarning harakatlariga taqlid qilar edim. U paytda mukammal mashqlar uchun anchagina jismoniy kuch va chidam, tayyorgarlik kerak ekanligini yaxshi tushunmas edim. Badiiy gimnastika bilan shug‘ulanishni boshlaganimda dugonalarim bilan vaqt o‘tkazish o‘rniga kuni bilan mashq bajarishga to‘g‘ri kelar edi. Qattiq charchardim. Bora-bora tanam chiniqdi. Astoydil qilingan mehnatlar natijasida ko‘p yutuqlarga erishdim. Moskva, Parij va Berlinda musobaqalarda qatnashdim va xalqaro “Pastorelli Cup” musobaqasi sovrinini qo‘lga kiritdim.

Assalomu alaykum, men Turkiyada yashayman. Ismim Bora. Dam olish kunlari hamma tengdoshlarim qiziqishi va qobiliyatiga qarab turli xil to‘garaklarga boradilar. Men futboln yaxshi ko‘rganim uchun “Antaliya sport” futbol klubi to‘garagiga qatnayman. Bugun ham har doimgidek omadim chopib, raqib darvozasiga to‘rtta gol kiritdim. O‘tgan mavsum 56 ta gol bilan tengdoshlarim orasida eng yaxshi to‘purar bo‘lgandim.

“Jajji akademik”dan

6. O‘lang va toping. Yozing.

Namuna:
Badiiy gimnastikaga bolaligimdan qiziqaman.

1. Badiiy gimnastikaga ... qiziqaman. (kichkinaligimdan, yoshligimdan, bolaligimdan)
2. Astoydil qilingan mehnatlar natijasida ko‘p ... erishdim. (yutuqlarga, zafarlarga, g‘alabalarga)
3. Men Turkiyada....(yashayman, istiqomat qilaman, turaman)
4. ... (dugonalarim, o‘rtoqlarim, tengdoshlarim) bilan vaqt o‘tkaza olmas edim.

Mustaqil ish
Qiziqishlaringiz ro‘yxatini tuzing.

14

3. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *iste’dod, ishtiyoq, qiziqmoq, shug‘ullanmoq.*

4. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Har bir insonning qaysidir ishga qiziqishi bo‘ladi. Qiziqish – insonlarning o‘ziga yoqqan narsani bilishga, o‘rganishga bo‘lgan intilishi, havasi. Ba’zi insonlarning qiziqishi butun hayoti mazmuniga aylanadi va bunday odam haqida “ishtiyoqmand” deb aytadilar. Ishtiyoq bu – o‘z qiziqishi va qobiliyatlarini amalda ko‘rsata oladigan mashg‘ulotdir. Bunday ishtiyoq insonning hayotini ma’no va mazmunga to‘ldiradi. Ishtiyoq nima, uni qanday aniqlash mumkin, degan savol tug‘ilishi mumkin. Ishtiyoq bu – qiziqish va istaklar, qobiliyat va imkoniyatlar kesishadigan nuqtadir. O‘z ishtiyoqi nimada ekanligini topa olish bu – o‘z sevgan ishi bilan shug‘ullanish va bundan zavq olishdir. Har bir insonda ham ishtiyoq bo‘ladi.

Ammo hamma ham yoshlikdan o‘z ishtiyoqi nimada ekanligini anglay olmaydi. Ishtiyoqni qidirish kerak. Ba’zan bu tez fursatda topiladi, ba’zan yillar ketadi. Ishtiyoq faqat bitta narsada namoyon bo‘lmaydi, ya’ni u bir necha sohalardan topilishi mumkin. Masalan, kimdir shifokorlik bilan bir paytda yaxshi rassom ham bo‘lishi mumkin. Kimlardir kitob yozish bilan birga o‘qituvchilik yoki notiqlik kasblarini olib boradi. Muvaffaqiyatli dasturchi bir paytda bolalar futbol jamoasining murabbiyi bo‘lishi mumkin.

Inson qiziqqan ishi bilan shug‘ullanganda vaqt o‘tganini ham sezmay qoladi, uzoq vaqtlar davomida shug‘ullansa ham zerikmaydi va bu ishni yaxshi bajaradi. Agar ishni bajarish jarayonida qiyinchilikka duch kelsa ham, bu mashg‘ulotdan voz kechmaydi, mashaqqatlarni yengib o‘tib, yuqori maqsadlarga intiladi.

Aziz o‘quvchilar, siz ham o‘z qiziqishlaringiz haqida o‘ylab ko‘ring, nimalarga ishtiyoqingiz borligi haqida do‘stlaringiz va yaqinlaringizdan so‘rang. Chunki ba’zan o‘z imkoniyatlarimizni sezmasligimiz mumkin. Bunda yaqinlarimizning maslahati bizga asqatadi.

Hayotdagi muvaffaqiyatning asosiy siri – o‘z iste’dodini topa olish, so‘ngra hayotida amalga oshirishdir. *(Henri Ford)*

5. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan berilgan savollarga og‘zaki javob oling.

6. Tinglangan matn asosida o‘quvchilar namunadan foydalanib 3-topshiriqdagi jadvalda berilgan so‘zlarni og‘zaki izohlaydilar. O‘quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar topshiriq yakunida umumlashtirilib, to‘ldirilib izohlanadi

Qiziqish – insonlarning o‘ziga yoqqan narsani bilishga, o‘rganishga bo‘lgan intilishi, havasi.
Ishtiyoq – qiziqish va istaklar, qobiliyat va imkoniyatlar kesishadigan nuqta.
Harakat – biror ishga kirishish, biror narsani qilishga urinish.
Qobiliyat – harakat, qiziqish, iqtidorini amalda ko‘rsata olish.

7. 4-topshiriqda o‘quvchilar o‘z qiziqishlari bo‘yicha berilgan gaplarni namunadagidek yozadilar. Bu topshiriqqa har bir o‘quvchi individual yondashishiga e’tibor qaratish kerak.

8. 5-topshiriq asosida berilgan matnni ifodali o‘qing. So‘ngra o‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 6-topshiriqni yozma bajartiring. Bunda o‘quvchilar nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi sinonim so‘zlardan mosini qo‘yib yozadilar.

Namuna:

1. Badiiy gimnastikaga bolaligimdan qiziqaman.
2. Astoydil qilingan mehnat natijasida ko‘p yutuqlarga erishdim.
3. Men Turkiyada yashayman.
4. O‘rtoqlarim bilan vaqt o‘tkaza olmas edim.

10. Refleksiya. “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga dars davomida eslarida qolgan uch bo‘g‘inli so‘zlarni daftarga yozishni topshiring. Keyin shu so‘zlardan namuna o‘qittiring.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida o‘z qiziqishlari ro‘yxatini tuzib kelishni topshiring.

6-MAVZU. QIZIQISHDAN MASHHURLIKKACHA

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matnlarni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

● O‘zlik nisbatini, sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni nutqida ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘z qiziqishlari ro‘yxatini o‘qib beradilar. Bu topshiriqni har bir o‘quvchidan so‘rashga harakat qiling. O‘quvchilarga rag‘bat berib turishni unutmang.

Siz qaysi sport turiga qiziqasiz? savoli bilan keyingi darsga kirish qiling.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, ifodali qilib matnni bir marotaba o‘qib bering.


Muvaffaqiyatli odamlarning odatlari

Omadsiz va muvaffaqiyatli odamlar o‘rtasida birgina farq bor: ularning odatlarida. Yaxshi odatlar – har qanday muvaffaqiyatga erishish uchun kalit, yomon odatlar esa kelajakka yopiq eshikdir. Insonning muvaffaqiyati uning odatlariga bog‘liq. Muvaffaqiyatli odamlarning bir necha odatlari bor:

Jahonga mashhur ishbilarmonlar ko‘p mutolaa qiladilar. Ular vaqtini kitob o‘qish va fikr yuritishga sarflaydilar. Har kuni 30-50 daqiqa vaqtini kitob o‘qishga bag‘ishlaydilar.

Vaqtni to‘g‘ri taqsimlaydilar. Inson hayotining muhim qismi uning bo‘sh vaqtidir. Hafta 168 soatdan iborat. Inson 8 soatdan haftasiga 5 kun ishlaydi (40 soat), 8 soatdan uxlaydi (56 soat), 4 soatdan kiyinishga, ishga borib kelishga sarflaydi (28 soat), hammasi bo‘lib, 124 soatni tashkil qiladi. Bundan tashqari 44 soat bo‘sh vaqti qoladi. Ushbu bo‘sh vaqtni qanday o‘tkazishdan muvaffaqiyati yoki omadsizligi ma’lum bo‘ladi

Aniq maqsad qo‘yadilar. Yetuk insonlar nima uchun ishlayotganlari va nimani xohlashlarini aniq biladilar. Yoqtirgan ishi bilan pul uchun shug‘ullanmaydilar. Yaxshi ko‘rgan ish bilan mashg‘ul bo‘lish muvaffaqiyatga erishish sirlaridan biri hisoblanadi.


QIZIQISHDAN MASHHURLIKKACHA ...

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Muvaffaqiyatli va omadsiz insonlar orasidagi farq nimada?
2. Insonning muvaffaqiyati nimaga bog‘liq?
3. Muvaffaqiyatli insonlarning odatlarini sanab bering.
4. Inson hayotining muhim qismi nimadan iborat?
5. Ko‘p mutolaa qilishning muvaffaqiyatga qanday bog‘liqligi bor?

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Muvaffaqiyatli odamlar har doim mutolaa qilishga vaqt ajratadilar.

1. Muvaffaqiyatli odamlar har doim mutolaa qilishga .....
2. Inson hayotining muhim qismi .....
3. Inson uchun bo‘sh vaqt .....
4. Omadli insonlar pul uchun .....
5. Inson o‘rtacha bir haftada ..... ishlaydi.


DIQQAT QILING
-n,-in; -l,-il

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
O‘yinchi yuqoriga otildi va to‘pni tutdi.

1. O‘yinchi yuqoriga ot(...)di va to‘pni tutdi.
2. Darvozabon hujumchi yo‘llagan shaybaga tashla(...)di.
3. Sportchilar bir safga tiz(...)dilar.
4. Abror mashg‘ulotlar paytida biroz qiyna(...)di.
5. Tennis o‘yinini ko‘rish uchun kortga to‘pla(...)dik.

15


4. O‘qing.

Muxbir:
– Salom, Jansuluv. Tengdoshlaringizga o‘zingiz haqingizda gapirib bersangiz.
Jansuluv:
– Assalomu alaykum, men Jansuluv Tatlimuratova, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumanidanman.
Muxbir:
– Gimnastikaga qiziqishingiz qachondan boshlangan?
Jansuluv:
– Ikki yarim yoshimdan beri badiiy gimnastikaga qiziqaman va shug‘ullanaman.
Muxbir:
– Qanday tanlovlarda ishtirok etdingiz?
Jansuluv:
– Yurtimizda o‘tkazilgan bir qancha tanlovlarda, “Bolalar dunyosi”, “Osiyo talantlari”da o‘z chiqishlarim bilan qatnashdim.
Muxbir:
– Yutuqlaringiz haqida qisqacha aytib o‘tsangiz.
Jansuluv:
– 2021-yil men uchun juda omadli yil bo‘ldi. “Umid uchquni” ko‘krak nishoni, “Xo‘shemen–2021 yil rekordchisi” mukofoti bilan taqdirlandim. Jahon rekordini o‘rnatdim.
Muxbir:
– Kelajakda shu sohani davom ettirish niyatingiz bormi?
Jansuluv:
– Badiiy gimnastika men uchun hobbi. Hozir sportning eshkak eshish turi bo‘yicha ta’lim olmoqdaman va bu sohada ham yuksak marralarni zabt etishimga ishonaman.
Muxbir:
– Kelgusidagi rejalaringiz qanday?
Jansuluv:
– O‘z ustimda yanada ko‘proq ishlab, yangi rekordimni o‘rnatmoqchiman.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Jansuluvning gimnastikaga qiziqishi necha yoshdan boshlandi?
A. 3,5 yosh B. 2,5 yosh D. 1,5 yosh
2. Sporming qaysi turida ta’lim oladi?
A. Gimnastika B. Yugurish D. Eshkak eshish
3. Sportchi qaysi tumanda tug‘ildi?
A. Taxtako‘pir B. Kegeyli D. Xo‘jayli
4. Uning hobbisi nima?
A. Eshkak eshish B. Gimnastika D. Karate
5. Uning kelgusidagi rejalari qanday?
A. Yugurish bo‘yicha jahon chempioni bo‘lish B. Badiiy gimnastika bo‘yicha chempion bo‘lish D. Yangi rekordni o‘rnatish

Kitob – kitob
Vaxt – oltin

Mustaqil ish
Bir haftalik vaqtingiz taqsimotini yozib keling.

16

Boshqalarga nisbatan ko‘proq ishlaydilar. Muvaffaqiyatli insonlarning aksariyati hamma qatori haftasiga 40 soat emas, 59-60 soat ishlaydilar. Masalan, Ilon Mask haftasiga 100 soat ishlaydi.

Erta turadilar. Boy insonlarning 50%i ish vaqtlari boshlanishidan 3 soat oldin turadilar va shu vaqtini sportga bag‘ishlaydilar.

Boshqa muvaffaqiyatli odamlar bilan muloqot qiladilar. Mutaxassislarning aytishicha, ijodiy salohiyat boshqa odamlar bilan muloqot qilish natijasida rivojlanadi. Muvaffaqiyatli insonlar g‘ayratli va dunyoga ijobiy munosabatda bo‘lgan, masqadga ega bo‘lgan optimistlar bilan muloqot qilishni afzal ko‘radilar.

Xulosa qilish mumkinki, to‘g‘ri odatlarga ega bo‘lgan kishi o‘z samaradorligini oshirishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Siz ham yuqoridagi ko‘nikmalarni odat qilib

olsangiz, juda foydalidir. Esingizda bo‘lsin, sizning muvaffaqiyatingiz sizning odatlaringizga bog‘liq.

3. Matn tinglangandan so‘ng tinglab tushunganliklarini: aniqlash va og‘zaki nutqni o‘stirish, mulohaza va fikrlarini tinglash uchun berilgan savollar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilar savollarga javob beradilar.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida darslikdagi 2-topshiriqni doskada bajartiring. Berilgan namunada ko‘rsatilganidek yuqorida tinglangan matn asosida nuqtalar o‘rniga mos keluvchi fe’llarni qo‘yib gaplarni yozadilar.

Namuna:
1. Muvaffaqiyatli odamlar har doim mutolaa qilishga *vaqt ajratadilar.*
2. Inson hayotining muhim qismi *bo‘sh vaqtdir.*
3. Inson uchun bo‘sh vaqt muhim *ahamiyatga ega.*
4. Omadli insonlar pul uchun *ishlamaydi.*
5. Inson o‘rtacha bir haftada *40 soat* ishlaydi.

5. “Diqqat qiling!” ruknida fe’lning o‘zlik nisbati haqida ma’lumot berilgan. Siz o‘quvchilarga harakat bajaruvchisining o‘zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatini ifodalaydigan fe’l shakliga o‘zlik nisbati deyilishini tushuntiring. O‘zlik nisbati shakli fe’l asosiga -(i)n, -(i)l qo‘shimchalarining qo‘shilishi bilan hosil bo‘ladi. Masalan, Sportchi musobaqadan oldin kiy(moq)indi.
Shogird murabbiyning fikriga qo‘sh(moq)ildi.
Unli bilan tugagan fe’l asosiga o‘zlik nisbatining -n yoki -l, undosh bilan tugagan fe’l asosiga esa -in yoki -il qo‘shimchalari qo‘shiladi.
O‘quvchilarga o‘zlik nisbati qo‘shimchasi majhul nisbat qo‘shimchasi bilan bir xil ekani haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.
Bajaruvchisi noma’lum bo‘lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe’l shakli *majhul nisbat* deyiladi. Majhul nisbat shakli unli bilan tugagan fe’l asosiga *-n, -l,* undosh bilan tugagan fe’l asosiga esa *-in, -il* qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Masalan, *G‘olib sportchilarga sovrinlar topshir(moq)ildi.*

6. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida nuqtalar o‘rniga o‘zlik nisbati qo‘shimchasini qo‘yib yozishni doskada yozib tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:
1. O‘yinchi yuqoriga otildi va to‘pni tutdi.
2. Darvozabon hujumchi yo‘llagan shaybaga tashlandi.
3. Sportchilar bir safga tizildilar.
4. Abror mashg‘ulotlar paytida biroz qiynaldi.
5. Tennis o‘yinini ko‘rish uchun kortga to‘plandik.

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tilisiga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.
Lug‘atingiz uchun: *reja, barvaqt, tanlov, omadli, bo‘sh vaqt, odat*

8. 4-topshiriqda suhbat matni berilgan. O‘quvchilarga bu matnni “Rolli o‘yin” metodi asosida rollarga bo‘lib o‘qish vazifasini bering. Bunda bir o‘quvchi muxbirning so‘zlarini, ikkinchi o‘quvchi esa Jansuluvning so‘zlarini o‘qiydi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda darslikda berilgan qisqa javobli testlarning to‘g‘ri javobini aytadilar.

10. Orfografik va orfoepik me’yorlarni o‘rgatish maqsadida darslikda berilgan so‘zlarning og‘zaki va yozma shaklini o‘quvchilarga tushuntiring. Tinglagandagi tovushlar yozuvda qanday aks etishini misollar tarzida keltiring. O‘quvchilarga mazkur so‘zlardan foydalanib og‘zaki gaplar tuzishni topshiring.

og‘zaki	yozma
Kitop	kitob
Vaxt	vaqt

11. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib o‘quvchilarga topshiriq bering.
Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.
Men, albatta, qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.
O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

12. O‘quvchilarga bir haftalik vaqt taqsimotini tuzib kelishni topshiring.

7-MAVZU. SPORT – MENING HAYOTIM

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnlarni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.
- O‘zlik nisbatini, sport va xobbilar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar bir kunlik kun tartibini o‘qib beradilar. Bu topshiriqni har bir o‘quvchidan so‘rashga harakat qiling. O‘quvchilarga rag‘bat berib turishni unutmang.
– Siz hayotda o‘zingiz uchun nimani eng muhim deb hisoblaysiz?

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


OLIMPIADA O‘YINLARI

Birinchi Olimpiyada o‘yinlari miloddan avvalgi 776-yilda o‘tkazilgan. Musobaqalar olimp ma’budlariga bag‘ishlangan va Olimpiada qishlog‘i hududida bo‘lib o‘tgan. Qadimiy Olimpiada o‘yinlari g‘oliblarining ismi tarixda qolgan. Ushbu qadimiy o‘yinlarda Gretsiyada yashovchi barcha erkaklar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan. G‘oliblar musobaqalar yakunlanishi bilan taqdirlangan. G‘alaba qozongan sportchi nomi e’lon qilingandan so‘ng, Ellanadikes – yunon hakami sportchilarga palma yaprog‘ini taqdim etgan. Bu uning g‘olib ekanligini bildirardi. Rasmiy taqdirlash marosimi esa o‘yinlarning oxirgi kuni Zevs ibodatxonasida o‘tkazilgan.

Sport turlari. Qadimiy Olimpiada o‘yinlari dasturida yakkakurashning 3 xil turi: BOKS, kurash va pankration bo‘lgan. Shuningdek, yugurish, uzunlikka sakrash, disk va nayza uloqtirish, chavandozlar bellashuvi o‘tkazilgan.

Zamonaviy Olimpiada o‘yinlari. Birinchi zamonaviy Olimpiada o‘yinlari ilk bor 1896-yil 6-aprel kuni Afinada o‘tkazilgan. Qishki Olimpiada o‘yinlariga 1924-yili asos solingan. 1994-yilgacha Yozgi va Qishki olimpiada bahslari bir yilda o‘tkazilgan. Keyin esa qishki Olimpiada o‘yinlarini o‘tkazish yozgi o‘yinlariga nisbatan 2 yil keyinga surilgan. Birinchi zamonaviy Olimpiada o‘yinlariga 13 ta davlatdan 311 ta sportchi ishtirok etgan. 43 ta sport turi bo‘yicha faqat erkaklar bellashgan, chunki dastlab Olimpiada o‘yinlariga ayollar qo‘yilmagan. Ayollar 1900-yildan boshlab ishtirok etganlar.

1914-yilda Olimpiada bayrog‘i qabul qilingan. Bayroqning tashqi ko‘rinishi oq mato bo‘lib, uning o‘rtasida 5 ta halqa bor. Bayroqdagi besh halqa besh qit’a: Afrika, Osiyo, Avstraliya, Yevropa, Amerikaning belgisidir. Ular bir-biriga bog‘langan bo‘lib, dunyoning besh qit’asi sportchilari jam bo‘lishini anglatadi. Olimpiya harakatining shiori “Tezroq, balandroq, kuchliroq (“Iotincha” – *citius, altius, fortius* so‘zlarining tarjimasi). Bugungi kunda Olimpiya o‘yinlari sport orqali barcha odamlarni birlashtiradigan xalqaro darajadagi muhim sport anjumanlaridan biri hisoblanadi.


SPORT – MENING HAYOTIM

nasihat qilmoq
hissa qo‘shmoq
sabablchi bo‘lmoq
qulay tutmoq
safar qilmoq

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Olimpiada o‘yinlari nima maqsadda tashkil qilingan?
2. Dastlabki Olimpiadada qaysi sport turlari bo‘yicha musobaqalar bo‘lgan?
3. Qadimda Olimpiada g‘oliblari qanday taqdirlangan?
4. Olimpiada o‘yinlari bayrog‘i qanday ma’noni bildiradi?

2. O‘ylang, toping va yozing.

Namuna:
Boks musobaqasi ringda o‘tkaziladi.

1. Boks. a. Ring.
2. Yugurish. b. Maydon.
3. Suzish. d. Trek/aylanma maxsus yo‘lak.
4. Tennis. e. Kort.
5. Futbol. f. Basseyn.

DIQQAT QILING
-n,/-ən; -ə/-il

3. O‘ylang va toping. Yozing.


1. Sportchi doim o‘ziga mos kiyimni **kiyadi.** // Ronaldo juda chiroyli **kiyinadi.**
2. Mashqlardan keyin sportchilar yuz-qo‘llarini **yuvadilar.** // Jangdan keyin bokschi, albatta, ...
3. Murabbiy sportchilarni musobaqaga **tayyorladi.** // Shahram G‘iyosov musobaqaga uzoq ...

17

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. Ikki ustunda sport turlari va ular o‘tkaziladigan maydon nomlari berilgan. O‘quvchilarga sport turi va u o‘tkaziladigan joy nomini namunada ko‘rsatilgani kabi moslashtirib gaplar tuzishni topshiring. Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatidan kelib chiqqan holda gaplarni kengaytirib, turli sifatlardan foydalangan holda gap tuzishlari mumkinligini ta’kidlab o‘ting.

Namuna:
Boks musobaqasi ringda o‘tkaziladi.


4. O‘qing.

Sport – harakat, maqsad, ishonch, mashaqqat, mehnatlarning rohati, tarbiya, sog‘inch, mehr, Vatan. Men uchun sport – hamma narsa.
Mening sportga kirib kelishimga otam va amakim sababchi bo‘lgan. Chempion bo‘lishimda esa ustozlarimning hissasi juda katta.
Sport tufayli jahon kezyapmiz, juda ko‘p mamlakatlarga boryapmiz. Xususan, Amerikaning barcha shtatlarida, Kuba, Chili, Kolumbiya, Argentina, Braziliya, Bolgariya, Belgiya, Fransiya, Italiya kabi davlatlarda bo‘lganman.

Har bir yurtning o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari, taomlari bor. Ularni qiziqib kuzatsam. Safar davomida turli qiziqarli voqealar, ba’zan qiyinchilik va mashaqqatlar bo‘ladi. Har xil insonlar uchraydi. Har biridan nimanidir o‘rganamiz, xulosa chiqaramiz.
Bo‘sh vaqtlarimda tarixiy, sarguzasht, badiiy va ilmiy kitoblarni ko‘p o‘qiyman.
Aziz ukajonlarim, hayotda o‘z orzularingizga erishish uchun, avvalo, niyat qiling, oldingizga maqsad qo‘ying. Ota-onangiz, ustozlaringizning maslahatlariga quloq tuting. Mehnat qiling, izlaning, hech qachon taslim bo‘lmang!

Shahram G‘iyosov

5. O‘ylang, toping va gapiring. √ ×

1	Sport – mashaqqatli mehnat.	√
2	Chempionning otasi va akasi uni sportga olib kelgan.	
3	Sport tufayli butun dunyoni kezib chiqdi.	
4	Safar har doim ajoyib voqealarga boy bo‘ladi.	
5	Maqsadga yetishda kattalarning nasihatlariga amal qilish foydali.	
6	Hech qachon taslim bo‘lmaslik – muvaffaqiyat garovi.	

Mustaqil ish
O‘zingizga yoqqan sportchi haqida ma’lumot bering.

18

Namuna:
1. Sportchi doim o‘ziga mos kiyimni kiyadi.
   Ronaldo juda chiroyli kiyinadi.
2. Mashqlardan keyin sportchilar yuz-qo‘llarini yuvadilar.
   Jangdan keyin bokschi albatta yuvinadi.
3. Murabbiy sportchilarni musobaqaga tayyorladi.
   Shahram G‘iyosov musobaqaga uzoq tayyorlandi.

6. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qing. So‘ngra o‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

Matnni o‘qish jarayonida o‘quvchilarga jahon chempioni Shahram G‘iyosov ushbu intervyuni 7-sinf darsligi uchun maxsus berganini ta’kidlab o‘ting.

O‘quvchilar matnni o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1	Sport – mashaqqatli mehnat.	**To‘g‘ri**
2	Chempionning otasi va akasi uni sportga olib kelgan.	**Noto‘g‘ri**
3	Sport orqasidan butun dunyoni kezib chiqdi.	**To‘g‘ri**
4	Safar har doim ajoyib voqealarga boy bo‘ladi.	**Noto‘g‘ri**
5	Maqsadga yetishda kattalarning nasihatlariga amal qilish foydali.	**To‘g‘ri**
6	Hech qachon taslim bo‘lmaslik – muvaffaqiyat garovi.	**To‘g‘ri**

8. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga bugungi darsda eslarida qolgan bitta so‘zni daftarlariga yozishni topshiring. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

9. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida o‘zlariga yoqqan sportchilar haqida ma’lumot to‘plab kelishni topshiring.

8-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga sportchilar haqida tayyorlab kelgan ma’lumotlarini o‘qiting. Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

– Qaysi o‘zbek milliy sport turi xalqaro musobaqalar takibiga kirganini bilasiz?
– Hozirda qanday o‘zbekcha sport atamalari jahon arenalarida yangramoqda?
– Kurash sport turi tasvirlangan qanday badiiy asarlarni bilasiz?
– O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Tog‘ay Murodning aynan shu sport turi haqida yozilgan “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan parcha o‘qishni ta’kidlang.

3. Tog‘ay Murod va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Tog‘ay Murod 1948-yilda Surxondaryoning Denov tumanida dunyoga kelgan. Ilk qissasi – “Yulduzlar mangu yonadi” (1976) orqali kitobxonlar orasida yetuk, o‘ziga xos yozuvchi sifatida tanilgan.

Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” (1979), “Oydinda yurgan odamlar” (1980) va “Momo Yer qo‘shig‘i” (1985) asarlari ham kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan.

Tog‘ay Murod Jek Londonning hikoyalari va dramasini, Seton-Tompsonning mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

“YULDUZLAR MANGU YONADI”

asaridan parcha

Davra bir zum jimjit bo‘lib, tag‘in jonlandi. Davra polvonlar kurashini gapirishib o‘tirdi:

– Shu Maksim polvon juda sovuq olishar ekan, nima dedingiz?

– Sportchi-da, seksiyada tarbiya topgan. Ular kitobda nima yozilgan bo‘lsa, shuni qiladi.

– Mo‘min muallim, mana, siz o‘qimishli odamsiz, uyingizda kitobingiz ko‘p deb eshitaman. Siz ayting, nega endi bir lanj klassik kurash butun jahon sporti bo‘ladi-yu, o‘zimizning olishni faqat to‘yda yo “Hosil bayrami”da ko‘ramiz? Yo olishimiz sport emasmi?

– Sport ham gapmi, san’at! Ko‘ryapsizmi Tilovberdining o‘ynab olishuvini? Buni hech qaysi trener, seksiya ham o‘rgatolmaydi.

– Men yaqinda sambo olishi haqidagi kitobni ko‘rdim. Hamma chillarning rasmi bor. Xoh ishoning, xoh ishonmang, oyoqdan olishdan boshqa hammasi o‘zimizning olishda bor ekan-e.

– Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyev bor-ku, yaqinda o‘sha bilan o‘tirib qoldim. Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim deb suyunadi, bilmaydilarki, men bolaligimdan to‘ylarda olishib yurgan tayyor polvon edim, deydi.

– Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo‘ldi-ya.

– Ha-da, Mo‘g‘ulistonda qanday qilib jahon chempioni bo‘lganini gapirib berdi. Olish vaqti tugashiga bir necha sekund qolganda yonboshga olib urib ochko oldim, deydi. Bunday hunar boshqa biror olishda yo‘q, faqat bizning olishimizda bor, deydi.

– Ota-bovamizning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo‘r polvoni biz bo‘lamizku-ya, nima dedingiz?

Tog‘ay Murod

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Kurash sport turi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘yin davomida qanday atamalardan foydalaniladi?
3. Mo‘min muallimning “Sport ham gapmi, san’at!” jumlasini izohlang.
4. “To‘ylarda olishib yurgan” tayyor polvon kim edi?

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *polvon, olish, san’at, Mo‘g‘uliston, jahon sporti*


ADABIY O‘QISH

polvon
olish
san’at
Mo‘g‘uliston
jahon sporti

“YULDUZLAR MANGU YONADI”

asaridan parcha

Davra bir zum jimjit bo‘lib, tag‘in jonlandi. Davra polvonlar kurashini **gapirishib o‘tirdi:**

– Shu Maksim polvon juda sovuq olishar ekan, nima dedingiz?

– Sportchi-da, seksiyada tarbiya topgan. Ular kitobda nima yozilgan bo‘lsa shuni qiladi.

– Mo‘min muallim, mana, siz o‘qimishli odamsiz, uyingizda kitobingiz ko‘p deb eshitaman. Siz ayting, nega endi bir lanj klassik kurash butun jahon sporti bo‘ladi-yu, o‘zimizning olishni faqat to‘yda yo “Hosil bayrami”da ko‘ramiz? Yo olishimiz sport emasmi?

– Sport ham gapmi, san’at! Ko‘ryapsizmi, Tilovberdining o‘ynab olishuvini. Buni hech qaysi trener, seksiya ham o‘rgatolmaydi.

– Men yaqinda sambo olishi haqidagi kitobni ko‘rdim. Hamma chillarning rasmi bor. Xoh ishoning, xoh ishonmang, oyoqdan olishdan boshqa hammasi o‘zimizning olishda bor ekan-e.

– Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyev bor-ku, yaqinda o‘sha bilan **o‘tirib qoldim.** Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim deb suyunadi, bilmaydilarki, men bolaligimdan to‘ylarda **olishib yurgan** tayyor polvon edim, deydi.

– Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo‘ldi-ya.

– Ha-da, Mo‘g‘ulistonda qanday qilib jahon chempioni bo‘lganini **gapirib berdi.** Olish vaqti tugashiga bir necha sekund qolganda yonboshga olib urib ochko oldim, deydi. Bunday hunar boshqa biror olishda yo‘q, faqat bizning olishimizda bor, deydi.

– Ota-bovamizning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo‘r polvoni biz bo‘lamizku-ya, nima dedingiz?

Tog‘ay Murod

Savollar:

1. Kurash sport turi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘yin davomida qanday atamalardan foydalaniladi?
3. Mo‘min muallimning “Sport ham gapmi, san’at!” jumlasini izohlang.
4. “To‘ylarda olishib yurgan” tayyor polvon kim edi?

Ota-bovo
Ota-bobo

19

7. Orfografik va orfoepik me’yorlarni o‘rgatish maqsadida darslikda berilgan so‘zlarning og‘zaki va yozma shaklini o‘quvchilarga tushuntiring. Tinglagandagi tovushlar yozuvda qanday aks etishiga misollar keltiring. O‘quvchilarga mazkur so‘zlardan foydalanib og‘zaki gaplar tuzish vzifasini topshiring.

Ota-bovo – og‘zaki

Ota-bobo – yozma

8. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

ONA TABIAT – BUYUK NE'MAT
1-MAVZU. ONAJONIM – TABIAT


DARSNING MAQSADI:

- Ko'chirma gaplarni ishlata oladi.
- O'simliklar nomlari bilan bog'liq otlar va fe'llarni ishlata oladi.
- O'z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o'qiganda undagi detallarni tushuna oladi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so'roqlarga javob topa oladi).

VAZIFALAR:

1. O'quvchilar bilan yangi bo'limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalaning. Bunda savollarni har bir o'qituvchi tabiat mavzusida o'z o'quvchilarining bilim saviyasidan kelib chiqib tuzadi.

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto'g'ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to'g'rilang va o'quvchiga qaytartiring. "Yo'q, noto'g'ri" so'zlarini ishlatmang. O'quvchi gapirganida noto'g'ri bo'lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o'quvchilarni og'zaki rag'batlantiring.


Ona tabiat – buyuk ne'mat

ONAJONIM – TABIAT

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Tabiat nima?
2. Insonlarning tabiatga zarar yetkazuvchi harakatlarini ayting.
3. Ekologik muammolarga nimalarni kiritish mumkin?
4. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
5. Tabiatni asrash haqidagi oddiy qoidalarni ayting.

tog'lar
muzliklar
suvlar
o'rmonlar
hayvonlar
tabiatni asrash

2. O'qing.

O'rmonlar "Yer sayyorasining o'pkasi" deyiladi. U quruqlikning uchdan bir qismini egallaydi. Zaminimizdagi o'simlik va hayvonlarning deyarli yarmini boqadi. Eng ko'p o'rmonlar Finlandiyada bo'lsa, eng kami Buyuk Britaniyada joylashgan. Aytgancha, o'rmonlarsiz yerda hayot bo'lmaydi.

Cho'llar yomg'ir kam yog'adigan juda quruq yer maydonidir. U sayyoramizning beshdan bir qismini egallaydi. Cho'l deganda hammaning ko'z oldiga issiq qumlik keladi. Lekin Antarktidada qor bilan qoplangan cho'llar ham bor. U yerlarda ham kam bo'lsa-da, o'simliklar va hayvonlar uchraydi.

Yer sharining juda katta qismi, ya'ni 71 foizi suvlik bilan qoplangan. Bu suvlar to'rtta ulkan okean va ko'plab dengiz-u daryolar hissasiga to'g'ri keladi. Bilasizmi, okeanlardagi suv vodoprovoddan oqayotgan suvga o'xshamaydi. U ichida millionlab o'simlik va jonzotlari bo'lgan sho'r suvdir.


3. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Suvlar	A	Antarktidada qor bilan qoplangan turlari bor
		B	Sayyoramizning juda katta qismini tashkil qiladi
2	O'rmonlar	D	Eng ko'p qismi Finlandiyaga to'g'ri keladi
		E	Ona Yerimizning 20 foizini egallaydi
3	Cho'llar	F	Uning ichida millionlab o'simlik va jonzotlar yashaydi
		G	Yerdagi o'simlik va hayvonlarning deyarli yarmini boqadi

20

TABIAT VA BIZ

Havo, suv, yer, toshlar, o'simliklar, hayvonlar, odamlar – bularning hammasi tabiatdir. Inson hamisha tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi. Tabiatni sevish, ardoqlash, uni asrab-avaylash barchamizning burchimizdir, biroq biz ba'zan bilib-bilmay tabiatga zarar yetkazamiz: daraxtlarning shoxlarini sindiramiz, chiqindilarni duch kelgan joyga tashlaymiz, jo'mraklardan ortiqcha suv oqishiga yo'l qo'yamiz, chiroyli gulzorlarni oyog'imiz bilan bosamiz, gullarni uzamiz, ariqlardan oqayotgan suvlarga turli narsalar tashlab suvni iflos qilamiz. So'nggi vaqtlarda havo, suv, tuproq borgan sari ifloslashib boryapti. Ular esa o'simliklar, odamlar, hayvonlar hayoti uchun zarurdir.


DIQQAT QILING

"K", – m.

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
"Dori-darmonlarni tabiatdan o'rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon aytgan", – degan edi Abu Ali ibn Sino.

1	Dori-darmonlarni tabiatdan o'rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon aytgan.	Abu Ali ibn Sino
2	Tabiat hamma narsaga g'amxo'rlik qiladi.	Leonardo da Vinchi
3	Inson – tabiatning bir parchasi.	Chingiz Aytmatov
4	Tabiat har doim haqdir.	Gyote

5. O'ylang, toping va gapiring.

Namuna:
Yer – xazina, suv – gavhar.

1. Yer – xazina, suv – gavhar.
2. Toshsiz tog' bo'lmas, ...
3. To'qsonga yetsang, tok ek, ...
4. Qarovsiz bog' bo'lmas, ...

Mustaqil ish
Gerbariy tayyorlang.

21

Buning oqibatida ayrim hayvon va o'simliklar noyob bo'lib bormoqda. Bugun Yer yuzida ekologik muammolar paydo bo'lmoqdaki, ular nafaqat ayrim davlatlar, balki butun insoniyatning kelgusi hayotini xavf ostiga qo'ymoqda.

Inson ekologik madaniyatli bo'lishi kerak. Ekologik madaniyat bu – atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar va hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishdir. Suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, atrofni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorlarga aylantirish ekologik madaniyatlilikning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi. Ekologik madaniyat bu faqat tabiatga zarar keltirmaslik degani emas, balki uning gullab-yashnashiga hissa qo'shish degani hamdir.

Xulosa qilib aytganda, tabiat bizga emas, biz tabiatga muhtojmiz. Tabiatni asrash va undan oqilona foydalanish barchamizning burchimizdir. Zero, ona tabiat kelajak uchun qoldirishimiz zarur bo‘lgan boylikdir.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlari lozim.

Lug‘atingiz uchun: *tog‘lar, muzliklar, suvlar, o‘rmonlar, hayvonlar, tabiatni asrash*

5. 2-topshiriqda berilgan matnni “Sharhlab o‘qish” usulida o‘qiting. Bunda o‘quvchilar bir gapni o‘qigandan keyin o‘qituvchi sharh berib ketadi.

Masalan, “O‘rmonlar Yer sayyorasining o‘pkasi deyiladi” gapini o‘qigach, o‘qituvchi bu gapga sharh berib ketadi: “Nima uchun o‘pkasi deyiladi? Chunki o‘rmonlardagi daraxtlar ko‘p miqdorda kislorod ajratadi va bu narsa atrof-muhitdagi havoning holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi”. Bundan tashqari, o‘rmonlar haqida yozilgan badiiy asarlar, o‘rmonlar haqidagi fikrlar bilan ham tanishtirish mumkin. Bu jarayonni har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyatidan kelib chiqib tashkil etadi. Bu uchun o‘qituvchi oldindan tayyorlanib borishi kerak.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda o‘quvchilar tushunchalarga mos keluvchi izohlarni topib aytishlari kerak.

Namuna:

Suvlar sayyoramizning juda katta qismini tashkil qiladi. Unda millionlab o‘simlik va jonzotlar yashaydi.

7. “Diqqat qiling!” ruknida ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot berib keting. O‘zgalarning hech o‘zgarishsiz berilgan gapi ko‘chirma gap deyiladi. Shu gapni o‘z nutqida keltirayotgan shaxsning gapi muallif gapi hisoblanadi. Ana shu ikkita gap ko‘chirma gapli qo‘shma gapning doimiy qismlari hisoblanadi. Muallif gapining kesimi dedi, deb so‘radi, deb javob berdi, gapirdi, so‘zladi, aytdi kabi fe’llar bilan ifodalanadi. Ko‘chirma gaplar so‘zlashuv va badiiy uslublarda ko‘p ishlatiladi. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin:

“Mehnat ishtaha ochar”, – deydi bobom.

Cho‘pondan so‘radik: “Bu qo‘ylar kimniki?”

“Men, – dedi u, – ertaga kelaman”. Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan:

– Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo‘q, – dedi.

Bu darsda ko‘chirilgan gap muallif gapidan avval kelishini o‘rganishlarini aytasiz. Ko‘chirma gap qolipini tushuntirib o‘tasiz.

“K”, – m. Bunda K – ko‘chirma gap, m – muallif gapi.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Ushbu topshiriqda gaplar va ularning mualliflari yonma-yon berilgan. O‘quvchilarning olgan grammatik bilimlarini mustahkamlash, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar va ularda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash malakasini oshirish uchun yozma tarzda bajartiriladi. Jadvalda berilgan gaplardan namunada berilgani kabi ko‘chirma gap tuzishni topshiring.

Namuna:

“Dori-darmonlarni tabiatdan o‘rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon aytgan”, – degan edi Abu Ali ibn Sino.

9. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Rasmlar asosida o‘quvchilar maqollarni davom ettiradilar, ularni topishga yordam bering.

Namuna:

Yer – xazina, suv – gavhar.
Toshsiz tog‘ bo‘lmas, ko‘chatsiz bog‘ bo‘lmas.
To‘qsonga yetsang, tok ek, yuzga yetguncha uzum yeysan.
Qarovsiz bog‘ bo‘lmas, qorsiz tog‘ bo‘lmas.

10. Refleksiya. “O‘zimga qaytar” metodi asosida 1-qatordagi o‘quvchilarga gullar, 2-qatordagi o‘quvchilarga daraxtlar, 3-qatorga mevalarning bittadan nomini tezlk bilan yozishni topshiring. 1-qator yozganini o‘qigandan keyin 2-qatordagilar shu so‘zlarni yoddan aytishlari kerak, 2-qatordagilar 3-qatordagilar o‘qiganini yoddan aytib beradilar. Shu tarzda sinfda so‘zlarning spiralsimon takrori amalga oshadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.


11. O‘quvchilarga gerbariy tayyorlab kelishni, gerbariy tayyorlashda ishlatgan o‘simlik va gullarning nomini yozib kelishni topshiring.

2-MAVZU. KISLOROD

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon fe’llari (yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon davom fe’li)ni ishlata oladi.
- Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:


KISLOROD

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. O‘simliklarning insonlar uchun qanday foydali jihatlari bor?
2. Ularning qanday turlarini bilasiz?
3. O‘simliklar qayerlarda o‘sadi?
4. Qanday dorivor o‘simliklarni bilasiz?

ehtiyoj
dorivor
zaharli
bahaybat
nabotot
maysa
mavjudot

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Isitma grippning oldini oladi.

1. Asab tizimini tinchlantiradi.
2. Tomoq og‘rig‘i va shamollashda foydali.
3. Insonni terlikshtiradi, immuniterni ko‘taradi.
4. Kuygan joylar, teri kasalliklarida ishlatiladi.
5. Grippning oldini oladi.
6. Saraton hujayralarini yo‘q qilishga yordam beradi.

Mayiz
Najot
Atir
Zirtitak
Moychechak
Limon
22

1. Refleksiya. O‘quvchilardan tayyorlagan gerbariylarini yig‘ib oling. Daftarga yozgan so‘zlarini o‘qittiring. Xato yozilgan so‘zlar bo‘lsa, tuzatib keting.

“Tabiat bilan insonni bog‘lab turgan narsa nima?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

O‘SIMLIKLAR

O‘simliklar insonning haqiqiy do‘sti desak, adashmaymiz. Ular biz uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, yoqilg‘i, uy-joy va yana boshqa ehtiyojlarimiz uchun kerakdir. Eng asosiysi, ular kislorod fabrikasidir. E’tibor berganmisiz, atrofimiz o‘simliklar bilan o‘ralgan: o‘tlar, gullar, butalar, daraxtlar. Ularni suvda ham, quruqlikda ham uchratamiz. Yer yuzida hayot boshlangandan beri ularning minglab avlodi almashindi. O‘simliklarsiz Yer yuzi-


da hayot bo‘lmaydi. Chunki ular, yuqorida aytganimizdek, bizga nafas olishimizda yordam beradi.

O‘simliklarning millionlab turlari mavjud bo‘lib, ular hamma joyda o‘sadi. Ularning katta-kichigi va turli xillari bo‘ladi: bahaybat daraxtlar yonida kichkinagina maysalar ham o‘sadi. Ayrim o‘simliklar issiq va quruq cho‘l sharoitida faqat yomg‘irdan keyingina ko‘kara boshlaydi. Boshqalari esa baland tog‘ yoriqlarida qor ostidan chiqadi.

Tabiat in’om qilgan tabiiy boyliklar qatoridan o‘rin olgan o‘simliklarning ba’zilari dorivor bo‘lsa, boshqalari zaharlidir. Dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish salomatlik uchun juda katta foyda keltiradi. Shulardan ayrimlari haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin.

Aloe o‘simligi eng qadimiy dorivor giyohlardan biri hisoblanib, kuygan joylar, teri kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

Tomoq og‘rig‘i va shamollashda moychechak gullari qo‘llanadi.



3. O'qing va javob bering.

Qizil kitob qizilmi?

O'simliklar olamini muhofaza qilish har doim dolzarb bo'lgan. Chunki biz insonlar bilan o'simliklar, hayvonlar chambarchas bog'liq. Yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvonlar turlarini aniqlash va himoya qilish uchun Qizil kitob yaratilgan. Uning hayvonot va nabotot (o'simlik dunyosi) uchun ahamiyati beqiyos.

Bu hujjat kitob nomida nega "qizil" so'zi ishlatilgani qiziqtirishi mumkin. Hujjatga angliyalik zoolog Piter Skott taklifi bilan shunday nom berilgan. Qizil rang – xavf belgisi. Yo'qolib ketish xavfida turgan o'simlik va hayvonlar uchun shu nom munosib ko'rilgan va u barcha tillarda shunday yuritiladi.

O'zbekiston Qizil kitobi ikki jilddan iborat: birinchisi o'simliklar, ikkinchisi hayvonlar haqida.

Har bir narsaning qadriga yetish, jonli va jonsiz tabiatni asrash lozim.

1. Hayotimizda o'simliklarning qanday ahamiyati bor?
2. Qizil kitob nima uchun qizil rangda deb o'ylaysiz?
3. Kitob nima uchun tashkil qilingan?
4. Qaysi noyob o'simliklarni bilasiz?
5. O'simliklarni yana qanday himoya qilish mumkin?

4. O'ylang va toping. Yozing.

y	a	n	t	o	q	b	t	p	n	v
d	t	j	n	i	l	u	f	a	r	s
d	e	a	k	h	l	g'	r	k	q	d
a	r	p	a	b	o	d	i	y	o	n
s	a	z	sh	a	l	o	e	u	q	f
e	k	f	n	g	a	y	d	o	i	h
r	e	d	i	s	k	a	f	y	o'	b
k	q	r	ch	e	y	m	b	r	t	n

nilufar
lola
arpabodiyon
kashnich
rediska
terak
bug'doy
yantoq
qoqio't
aloe

Mustaqil ish
Dorivor o'simliklardan shifobaxsh choy retseptini yozing va tayyorlang.

23

Qadim-qadimdan zanjabil foydali o‘simliklardan biri sifatida foydalanib kelinadi. Uning ko‘plab shifobaxsh xususiyatlari qatorida saraton hujayralarini yo‘q qilishini alohida ta’kidlash mumkin.

Isiriqdan har qanday holatda foydalanganda dardga davo bo‘lishini insonlar juda yaxshi biladilar. Uning o‘tini kuydirib, biroz hidlansa, grippning oldini oladi.

Rayhon yoqimli hid beruvchi o‘simlik bo‘lib, isitma tushirish va bakteriyalarga qarshi kurashuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Yalpizning foydali xususiyatlari haqida tabiblar ancha oldin ma’lumotga ega bo‘lganlar. Xalq tabobatida ham, oziq-ovqat sanoatida ham bu o‘simlikdan keng foydalaniladi. Undan choy damlab ichilganda asab tizimini tinchlantiradi.

Barcha dorivor giyohlar kattalar va shifokor maslahati bilan yo‘riqnoma bo‘yicha qo‘llanishini yodda tuting!

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlari lozim.

Lug‘atingiz uchun: *ehtiyoj, dorivor, zaharli, bahaybat, nabotot, maysa.*

5. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. Berilgan gaplarni suratlar bilan moslashtirib, namunadagi kabi gap tuzishni topshiring.

Namuna:

1. Isiriq grippning oldini oladi.
2. Yalpiz asab tizimini tinchlantiradi.
3. Aloe kuygan joylar, teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi.
4. Zanjabil saraton hujayralarini yo‘q qilishga yordam beradi.
5. Moychechak tomoq og‘rig‘i va shamollashda foydali.
6. Limon insonni tetiklashtiradi, immunitetni ko‘taradi.

6. 3-topshiriqda “Qizil kitob qizilmi?” matni berilgan. O‘quvchilarga bu matnni “Zigzag” usulida o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki takrorlating.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriq asosida savol-javob o‘tkazing.

1. O‘simliklar hayotimizda qanday ahamiyatga ega?
2. Qizil kitob nima uchun qizil rangda deb o‘ylaysiz?
3. Kitob nima uchun tashkil qilingan?
4. Noyob o‘simliklardan birontasini bilasizmi?
5. O‘simliklarni yana qanday himoya qilish mumkin?

8. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni og‘zaki bajartiring.

9. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi o‘tilgan mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga dorivor o‘simliklardan shifobaxsh choy retseptini yozishni va oilasidagi katta insonlar yordamida tayyorlab ko‘rishni topshiring.

3-MAVZU. AJOYIB SHIFOKOR

DARSNING MAQSADI:

- Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni ishlata oladi. Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi detallarni tushunadi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi). Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar yozib kelgan shifobaxsh choy retseplarini o‘qittiring. Xato yozilgan so‘zlar bo‘lsa, tuzatib keting.

“Tabiatda biz uchun foydali qanday hasharotlar bor?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


ASAL VA ASALARI

Asalni xush ko‘rmaydigan odam bo‘lmasa kerak. Bu ajoyib mahsulotni yetti xazinaning biri bo‘lmish asalari uyasidagi mum kataklaridan olinishini hamma yaxshi biladi. Uyaga esa asalni asalari olib keladi. Asalarini bolari deb ham atashadi. Asalari qadimdan qimmatbaho mahsulotlar bo‘lgan asal, propolis, mum, ona asalari suti, asalari zahri va boshqalarni olish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini changlatish uchun boqiladi. Asalarilar oila bo‘lib yashaydi. Bir oilada bir ona asalari va bir necha ming ishchi asalari bo‘ladi.

Bitta mitti asalari qancha asal olib kelishi mumkin? Mevali daraxt va turli-tuman o‘simlik gullaridan shira – nektar va gul changini yig‘ib, keyin uni bir kilogramm asal-

ga aylantirish uchun asalari 300 ming kilometr masofaga uchib, 19 million gulga qo‘nishi lozim bo‘ladi. Bu Oygacha bo‘lgan masofaning 3/4 qismini tashkil etadi.

Ishchi asalari 30-35 kun yashaydi. U soatiga 60 kilometr tezlikda uchib, kuniga taxminan 7 ming gulga qo‘nadi. Uning barcha a’zolari mevali daraxt va o‘simlik gullaridan nektar yig‘ishga moslashgan: orqa panjalaridagi maxsus tuklari va savatchalari yordamida gul changini yig‘adi va tashiydi, uzun xartumchasi va buqog‘ida gul changini asalga aylantiradi. Bulardan tashqari, asalarida asalbop o‘simlik haqida bir-biriga xabar beruvchi murakkab signal sistemasi ham bor.


AJOYIB SHIFOKOR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

DIQQAT QILING
Sinonim:
bol = asal

1. Asal nimadan olinadi?
2. Asalarini yana qanday nom bilan atashadi?
3. Asalaridan qanday mahsulotlar olinadi?
4. Yig‘ilgan nektar va gul changi asalga aylanishi uchun asalari necha kilometr masofani bosib o‘tishi kerak?
5. Ishchi asalari necha kun yashaydi?

mukammal
mum
gul changi
xartum
asalari suti
hayratga solmoq

2. O‘qing.


Asalning shifobaxsh ekanini odamlar qadimdanoq bilishgan. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” kitobida: “Asal a’zolarimizdagi suyuqlik o‘tkazuvchi tomirlarni kengaytirish va tozalash xususiyatiga ega. Asal ko‘z xiralashishiga ham dori... Tomoqog‘riq (angina)ni ham davolaydi...” deb yozgan va asaldan o‘nlab dorilar tayyorlash mumkinligini aytgan edi.

Asalari suti ham qimmatbaho va shifobaxsh dori hisoblanib, u yurak faoliyatini yaxshilaydi, ishtahani ochadi va organizmning turli kasalliklarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshiradi.

Asalari uyasi tuzilishi jihatidan juda mukammal va g‘aroyib. Vertikal shakldagi olti burchakli xonachalarning bir tekis qatorlashuvi barchani hayratga soladi. Xonalar turli maqsadlar uchun xizmat qiladi. Birida asalarilar asal yig‘sa, boshqasida lichinkalar rivojlanadi. Uyaning asosiy materiali mum bo‘lib, u asalarining belidan ajralib chiqadi.

Namuna:
Asalari xartumi yordamida gul changini asalga aylantiradi.

24


3. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Asalari … yordamida gul changini asalga aylantiradi.
2. … yurak faoliyatini yaxshilaydi.
3. Asalari uyasidagi … turli maqsadlar uchun xizmat qiladi.
4. … asalari uyasining asosi.
5. Asalari uyasi … tuzilishga ega.

asalari suti
mum
xartum
mukammal
xonalar

DIQQAT QILING
M: “K”.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
“Asal ko‘p kasalliklarga davo”, – degan edi buyuk hakim.

1. Ibn Sino shunday deydi: Asal qonning tomirlarda yurishini yaxshilaydi.
2. Asalni ham me’yorida iste’mol qilish kerak deb ta’kidlaydi shifokorlar.
3. Tabiblar: Asal uzoq umr ko‘rish malhami deb aytadilar.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Asalning ham	boli bor.
Ari zahrini chekmagan	bo‘lmaysan kasal.
Bol sotgan	ozi shirin.
Yesang asal,	bol qadrini bilmas.
Ari chaqdi deb arazlama,	barmog‘in yalar.

Mustaqil ish
Asalari haqida 3 ta fakt yozing.

25

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. “Diqqat qiling!” ruknida sinonim so‘zlar haqida ma’lumot bering.

Shakli har xil bo‘lsa ham, ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar *sinonimlar* deyiladi. Bir (xil) ma’noning bir necha so‘z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi.

Masalan: bol = asal.

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlari lozim.

Lug‘atingiz uchun: *mukammal, mum, gul changi, xartum, asalari suti, hayratga solmoq.*

6. 2-topshiriqda berilgan matnni ifodali o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni yozma bajartiring. Bunda o‘quvchilar nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun so‘zlardan mosini qo‘yib yozadilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: *asalari suti, mum, xartum, mukammal, xonalar, ko‘z kasalliklari.*

Namuna:

1. Asalari *xartumi* yordamida gul changini asalga aylantiradi.
2. *Asalari suti* yurak faoliyatini yaxshilaydi.
3. Asalari uyasidagi *xonalar* turli maqsadlar uchun xizmat qiladi.
4. *Mum* – asalari uyasining asosi.
5. Asalari uyasi *mukammal* tuzilishga ega.

8. “Diqqat qiling!” ruknida ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida ma’lumotni yana bir marta takrorlang.

O‘zgalarning hech o‘zgarishsiz berilgan gapi *ko‘chirma gap* deyiladi. Shu gapni o‘z nutqida keltirayotgan shaxsning gapi *muallif gapi* hisoblanadi. Ana shu ikkita gap ko‘chirma gapli qo‘shma gapning doimiy qismlari hisoblanadi.

Bu darsda ko‘chirma gap muallif gapidan keyin keladigan holatni tushuntiring.
Ko‘chirma gap qolipini tushuntirib o‘ting.
M – muallif gapi, K – Ko‘chirma gap.

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Berilgan gaplarni namunadagi kabi ko‘chirma gaplarga aylantirib yozishni topshiring.

Namuna:
“Asal ko‘p kasalliklarga davo”, – degan edi buyuk hakim.

10. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Bu topshiriqni bajarishda ikki ustunda turgan tushunchalarni moslab o‘qishlarini topshiring.

Namuna:
Ari zahrini chekmagan bol qadrini bilmas.

11. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib o‘quvchilarga topshiriq bering.
Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.
Men, albatta, qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.
O‘quvchilarga bu ma’lumotlarni daftarga yozishni topshiring. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitish lozim.
O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

12. O‘quvchilarga “3 ta fakt” metodi asosida asalari haqida 3 ta fakt yozib kelishni topshiring.

4-MAVZU. HAYVONOT OLAMI

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon fe’llari (yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon davom fe’li)ni ishlata oladi.
- Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi detallarni tushunadi *(kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi). Birovlarning gapini aynan va o‘zlashtirma gap shaklida yetkaza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar asalari haqida yozib kelgan 3 ta fakt bilan tanishing. Har bir o‘quvchining ishiga “Barakalla!”, “Ofarin!” so‘zlari bilan rag‘bat berib turing.
“Sizga tabiatdagi qaysi hayvonlar yoqadi?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.


2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

XONGUL

Avstraliyaliklar faqatgina ularning yurtida yashaydigan kenguru bilan faxrlanishadi. Afrikaliklar karkidon va yana o‘ziga xos hayvonlari bilan, xitoyliklar noyob jonivorlari – pan-

da bilan maqtanishadi. O‘zbekistonda ham boshqa mamlakatlarda uchramaydigan Buxoro bug‘ulari mashhur. Ular hozirda kamayib ketayotgan hayvonlardan bo‘lgani uchun qo‘riqxonalarda muhofaza qilinadi. Avvallari Buxoro bug‘ularini O‘zbekistonning barcha hududlarida uchratish mumkin edi. Lekin keragidan ortiq ovlangani uchun ularning soni keskin kamayib ketdi. Shuning uchun jonivorlar xalqaro “Qizil kitob”ga kiritilib, maxsus qo‘riqxonalarda boqilmoqda. Uning yana bir nomi xongul, ya’ni “shoh guli” bo‘lib, bu nomni o‘zining ajoyib va chiroyli shoxlari uchun olgan.

Ko‘p ovlanganidan kamayib, sanoqli qolgan xongullar davlat muhofazasiga olingandan keyin hozirda 800 dan ortib ketgan.


HAYVONOT OLAMI

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qaysi davlatlarning noyob hayvonlarini bilasiz?
2. Buxoro bug‘ulari nega qo‘riqxonalarda boqiladi?
3. Ularni saqlab qolish uchun qanday choralar ko‘rilgan?
4. “Xongul” so‘zining ma’nosi qanday?
5. Nima uchun “xongul” deb nom berilgan?

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Sodoqatli, sekin, baland, saharli, xavfli, go‘shtxo‘r.

Namuna:
Jirafa eng baland bo‘yli hayvondir.

DIQQAT QILING

Men	-m	Biz	-k
Sen … +(a)r edi	-ng	Siz … + (a)r edi	-ngiz
U	-	Ular	-lar

kamaymoq
ovlanmoq
saqlab qolmoq
bug‘u
qo‘riqxona
xo‘jayin

26

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. Rasmlar va foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida namunadagi kabi gaplar yozishni topshiring. Har bir o‘quvchi o‘z bilim-salohiyatidan kelib chiqib gaplar tuzadi. Namunani doskaga yozib ko‘rsating.

Namuna:


Jirafa eng baland bo‘yli hayvondir.

5. “Diqqat qiling!” ruknida -(a)r shakli bilan hosil bo‘lgan kelasi zamon fe’lining uch shaxsda tuslanishi berilgan. Shuni o‘quvchilarga tushuntiring.

Men			edi-m	Biz			edi-k
Sen	yoz	+(a)r	edi-ng	Siz	yoz	+ (a)r	edi-ngiz
U			edi	Ular			edi (-lar)

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlari lozim.

Lug‘atingiz uchun: *kamaymoq, ovlanmoq, saqlab qolmoq, bug‘u, qo‘riqxona, xo‘jayin, mavjudot.*


3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
It vafodor bo‘lgani uchun ko‘p xonadonlarda boqiladi.
Men ham yoshligimda kuchuk boqar edim.

1. It vafodor bo‘lgani uchun ko‘p xonadonlarda boqiladi.
Men ham yoshligimda kuchuk ….. .
2. Sirkda bir qancha hayvonlar tomosha ko‘rsatdi.
Ayniqsa, maymun qiziqarli tomosha … .
3. Qo‘riqxonada bir qancha noyob hayvonlar yashaydi.
Ular oldin ochiq tabiatda … .

4. O‘qing.

Hatiko laqabli it egasiga sadoqati bilan mashhur. U har kuni o‘z xo‘jayinini ishga kuzatib qo‘yar, keyin bir xil vaqt, bir xil joyda xo‘jayinining ishdan qaytishini kutib o‘tirar edi.
Hatiko yarim yoshga kirganida egasi vafot etdi. Shundan so‘ng ham Hatiko uni kutishda davom etadi. U xuddi avvalgidek “Sibuya” stansiyasiga kelib, kechgacha xo‘jayinini kutar, qaytgach, o‘zi yashagan uy qulflangani uchun kechalari uy tomiga chiqib uslar edi.
1932-yili Hatiko butun Yaponiya bo‘ylab mashhurlikka erishadi. U xo‘jayinini 7 yil har kuni bir joy va bir xil paytda kutgani haqida gazetalarda yozishadi. Shundan so‘ng haqiqiy do‘st – Hatikoni ko‘rgani odamlar hamma yerdan “Sibuya” stansiyasiga kela boshlaydi.
Hatiko vafot etgunicha – 9 yil xo‘jayinining qaytishini kutib yashaydi. Uning o‘lgan kuni butun Yaponiyada motam kuni deb e’lon qilinadi. Yapon xalqi unga haykal o‘rnatadi.
1987-yili Hatikoning 50 yilligi sharafiga ishlangan film premyerasi bo‘lib o‘tadi. Film itning insonga sodiq do‘stligi haqida so‘zlaydi. U millionlab insonlarning qalbini zabt etadi. Hozir Hatikoni deyarli butun dunyo taniydi.

odam.uz saytidan

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Ot (1 ta)	Hatiko
Sifat (2 ta)	
Fe’l (3 ta)	
Gap (4 so‘zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

Mustaqil ish
Uy hayvonlari orqali daromad topish haqida o‘z loyihangizni ishlab keling.

27

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Bu mashqda o‘tgan zamon fe’lidan o‘tgan zamon davom fe’lini hosil qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. O‘quvchilarga gaplarni namunadagi kabi yozishni tushuntiring. Bu topshiriqni doskada bajarishlarini nazorat qiling

Namuna:

1. It vafodor bo‘lgani uchun ko‘p xonadonlarda boqiladi. Men ham yoshligimda kuchuk boqar edim.

2. Sirkda bir qancha hayvonlar tomosha ko‘rsatdi. Ayniqsa, maymun qiziqarli tomosha *ko‘rsatar edi.*

3. Qo‘riqxonada bir qancha noyob hayvonlar yashaydi. Ular oldin ochiq tabiatda *yashar edi.*

8. 4-topshiriq asosida berilgan matnni “Zanjir” usulida ifodali qilib o‘qiting. Matn ichida qo‘llangan uzoq o‘tgan zamon fe’llariga e’tibor qarating.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqda “Sinkveyn” metodi berilgan. O‘quvchilarga bu metodning qanday bajarilishini tushuntiring, ya’ni matn asosida jadvalni to‘ldirtiring.

Ot (1 ta)	Hatiko
Sifat (2 ta)	Sodiq, vafodor
Fe’l (3 ta)	Kutib o‘tirar edi, uxlar edi, qalbini zabt etadi
Gap (4 so‘zdan iborat)	Hatiko vafodor do‘st hisoblanadi.
Sinonim (1 ta)	Sodiq – vafodor

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga bugungi darsda yodida qolgan bitta so‘zni daftarga yozishni topshiring. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga uy hayvonlari orqali daromad topish haqida o‘z loyihalarini tayyorlab kelish vazifasini topshiring.

5-MAVZU. QUSHLAR DUNYOSI

DARSNING MAQSADI:

- Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi detallarni tushunadi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi). Birovlarning gapini aynan va o‘zlashtirma gap shaklida yetkaza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar uy hayvonlari orqali daromad topish bo‘yicha tayyorlagan loyihalari bilan tanishing. Har bir o‘quvchining ishini eshitishga harakat qiling. Keyin sinfda “Eng yaxshi loyiha” muallifini aniqlang. O‘quvchilar ovoz berish yo‘li bilan g‘olib o‘quvchini aniqlashadi.

“Sizga tabiatdagi qaysi qushlar yoqadi?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni “Izohli o‘qish” usulidan foydalanib o‘qiting.

Bunda o‘qilgan matn mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlari hisoblanadi. Matn mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar matndagi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratiladi.

O‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

Qushlar qadimdan insonlarning do‘sti sifatida qadrlanganini multfilmlar, hikoyalar, ertak va qissalardan bilasiz. (Esingizda qolgan multfilm yoki ertak nomini ayting) Humo qushi tinchlik, burgut mag‘rurlik, ukki donishmandlik, oqqush erkinlik, go‘zallik ramzi sifatida tanilgan. (Yana ramz anglatadigan qanday qushlarni bilasiz?)

Qushlarning xatti-harakatlariga qarab ob-havo to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. (Shunday hayvonlar ham bor!) Masalan, turnalarning past-baland uchishi yilning qanday kelishidan; chumchuqlarning gala-gala bo‘lib uchishi ob-havo ochiq va quruq bo‘lishidan; zag‘chalarning gala-gala bo‘lib yoki qaldirg‘ochlarning pastlab uchishi yomg‘ir yog‘ishidan darak. (O‘zingiz shu narsani kuzatib, guvohi bo‘lganmisiz?)


Bundan tashqari, qushlarning qishloq xo‘jaligida ham ahamiyati katta. (Qanday ahamiyati bor, sizningcha?) Ular ekinzorlardagi, daraxt po‘stloqlaridagi hasharotlar bilan oziqlanib, insonlarga foyda keltiradi.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *ramz, mag‘rurlik, erkinlik, chumchuq, zag‘cha, daraxt po‘stlog‘i.*

5. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


QUSHLAR DUNYOSI

1. O‘qing va savollarga javob bering.

Qushlar qadimdan insonlarning do‘sti sifatida qadrlanganini multfilmlar, hikoyalar, ertak va qissalardan bilasiz. Humo qushi tinchlik, burgut mag‘rurlik, ukki donishmandlik, oqqush erkinlik, go‘zallik ramzi sifatida tanilgan.

Qushlarning xatti-harakatlariga qarab ob-havo to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Masalan, turnalarning past-baland uchishi yilning qanday kelishidan; chumchuqlarning gala-gala bo‘lib uchishi ob-havo ochiq va quruq bo‘lishidan; zag‘chalarning gala-gala bo‘lib yoki qaldirg‘ochlarning pastlab uchishi yomg‘ir yog‘ishidan darak.

Bundan tashqari, qushlarning qishloq xo‘jaligida ham ahamiyati katta. Ular ekinzorlardagi, daraxt po‘stloqlaridagi hasharotlar bilan oziqlanib, insonlarga foyda keltiradi.

1. Qanday qushlarni bilasiz?
2. Sizga ularning qaysi xususiyatlari yoqadi?
3. Qushlar tabiat va insonlarga qanday foyda keltiradi?
4. Bir kunda yerga tashlangan saqich orqali 10000 qush halok bo‘lar ekan. Shuning oldini olish uchun qanday tavsiya bera olasiz?

ramz
mag‘rurlik
erkinlik
chumchuq
zag‘cha
daraxt po‘stlog‘i


3. Tinglang va toping. Yozing.

Namuna:
Kolibri – eng kichik va orqaga ucha oladigan yagona qush (B va F).

1. Kolibri
2. Goatsin
3. Toporik

A. Qanotida tirnog‘i bor.
B. Eng kichik qush.
D. Orqaga ucha oladigan yagona qush.
E. Gayana davlati gerbida uchraydi.
F. Pingvinga o‘xshaydi.
G. 15 mln yil oldin yashagan.

28


4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Ayrim qushlar doim issiq o‘lkalarga uchib ketadi.

1. Ayrim qushlar doim kuzda, sovuq tushganda issiq o‘lkalarga (uchib ketadi / parvoz qiladi).
2. Qadimda kabutarlar orqali xabar (yuborilgan / jo‘natilgan).
3. Bulbul taxminan 10 yil (yashaydi / umr ko‘radi).
4. Rivoyatlarda keltirilishicha, qaldirg‘ochlar fayzli nomadonlarga (uya quradi / in soladi).
5. Flamingo bir oyoqda turib (uxlaydi/ mizg‘iydi).

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

BOSHQOTIRMA

Bo‘yiga:

1. Dunyodagi yagona qanotsiz qush.
2. Yer yuzida qushlarga eng yaqin qarindosh bo‘la oladigan jonivor turi.
4. Qushlarning qadim qarindoshlari.
5. Yer yuzidagi eng kichik va ochofat qush.
7. Qushning bolasi.

Eniga:

3. Ucha olmaydigan, lekin juda yaxshi suza oladigan va sovuq iqlimda yashaydigan qush.
5. Xat tashuvchi qush.
6. Yer yuzida eng ko‘p uchraydigan uy qushi turi.
8. Dunyodagi eng katta uchmaydigan qush.

Mustaqil ish
Qaysi davlat ramzlarida qushlar tasviri uchrashi va ular nimaning timsoli ekani haqida ma’lumot to‘plang.

29

Yer yuzida 10 mingga yaqin qushlar bo‘lib, ular ko‘rinishi, hajmi, harakatlari bilan ajralib turadi. Quyida siz sayyoramizdagi ajoyib qushlar bilan tanishasiz.

Kolibri Yer yuzidagi eng kichik qush bo‘lib, uzunligi – tumshug‘i va dumi bilan hisoblaganda, bor-yo‘g‘i 5 cm, og‘irligi 1,6 grammni tashkil qiladi. Hattoki tuyaqushning birgina pati ham bundan og‘irroq. Kolibri – orqaga ucha oladigan yagona qush. 16 soatda 100 martadan oshiq ovqatlanadi va yebto‘ymas qush hisoblanadi.

Yaltiroq ketsal Janubiy Meksika va Panamada uchraydi. Bu qush juda rang-barang bo‘lib, tepadan qaraganda boshi tillarang tusli och yashil, qorinchasi pushti, dumi esa oqdir. Mevalar, hasharotlar, qurbaqa va kaltakesaklarni ham tanovul qiladi.

Goatsin polaponlarining qanotida tirnoqlari bo‘lib, ular yordamida daraxt shoxlariga osilib oladi. Bu xususiyat ilk qushlardan meros qolgan. Lekin katta bo‘lgani sari bu xususiyat yo‘qolib boradi. Chiroyli ko‘rinishi tufayli bu qush tasviri Gayana davlati gerbidan o‘rin olgan.

Toporik suvda ham havodagidek ucha oladi. Toporik qadimgi qushlardan bo‘lib, ularning ajdodlari 15 mln yil oldin ham yashagan. Tashqi ko‘rinishidan pingvinlarga o‘xshasa-da, lekin ularga aloqadorligi yo‘q.

Sersoqol qirg‘iylar oilasiga mansub bo‘lib, soqollilarning yagona turidir. Osiyo davlatlarida va Janubiy Yevropada uchraydi. O‘rta Osiyoda bu qushni boltayutar deyishadi.

6. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 3-topshiriq berilgan. Matn yuzasidan test o‘tkazing. 1-ustunda qushlar, 2-ustunda xususiyatlar berilgan. O‘quvchilar matnni tinglaganlaridan keyin mos keluvchi javoblarni belgilaydilar.

Namuna:

1. Kolibri – eng kichik va orqaga ucha oladigan yagona qush. *(B va D)*
2. Goatsin – Gayana davlati gerbida uchraydi, Qanotida tirnog‘i bor qush. *(A va E)*
3. Toporik – 15 mln yil avval yashagan, pingvinga o‘xshaydigan qush. *(F va G)*

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda gap oxirida kelgan fe’llarning sinonimlaridan mosini qo‘yib yozish kerak. Ayrim sinonimlar bir-biri bilan erkin almasha olishini (2-,3-,4-gaplar), ba’zilari esa almasha olmasligini tushuntiring (1- va 5-gaplar). Dastlab siz o‘quvchilarga namunani doskada bajarib tushuntiring. Keyin mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

1. Ayrim qushlar doim issiq o‘lkalarga uchib ketadi.
2. Qadimda kabutarlar orqali xabar jo‘natilgan.
3. Bulbul taxminan 10 yil umr ko‘radi.
4. Rivoyatlarda keltirilishicha, qaldirg‘ochlar fayzli xonadonlarga uya quradi.
5. Flamingo bir oyoqda turib uxlaydi.

8. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriqda krossvord berilgan. O‘quvchilar savollarga og‘zaki javob topib, keyin doskaga bajarsin.


Savollar:

Bo‘yiga:

1. Dunyodagi yagona qanotsiz qush.
2. Yer yuzida qushlarga eng yaqin qarindosh bo‘la oladigan jonivor.
4. Qushlarning qadim qarindoshlari.
5. Xat tashuvchi qush.
7. Qushning bolasi.

Eniga:

3. Ucha olmaydigan, ammo juda yaxshi suza oladigan va juda sovuq iqlimda yashaydigan qush.
5. Yer yuzidagi eng kichik va ochofat qush.
6. Yer yuzida eng ko‘p uchraydigan uy qushi turi.
8. Dunyodagi eng katta uchmaydigan qush.



9. Refleksiya. “Timsoh” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda o‘quvchi doskaga chiqib, bugungi mavzudan

esida qolgan bitta so‘zni imo-ishoralar yordamida ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa bu so‘zni o‘quvchining harakatiga qarab topishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga qaysi davlat ramzlarida qushlar tasviri uchrashi va ular nimaning timsoli ekani haqida ma’lumot to‘plab kelishlarini topshiring.

Ularga yordam tariqasida o‘zingiz bir-ikkita misol ayting. Masalan, O‘zbekiston davlat gerbida humo qushi tasvirlangan. Bu qush baxt saodat, davlat ramzi hisoblanadi.

6-MAVZU. TABIBIMIZ – TABIAT

DARSNING MAQSADI:


- O‘tgan zamon fe’llari (yaqin o‘tgan zamon, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon davom fe’li)ni ishlata oladi.
- Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi detallarni tushuna oladi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi). Birovlarning gapini aynan va o‘zlashtirma gap shaklida yetkaza oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga qaysi davlatda qushlar tasviri davlat ramzlariga tushirilgani va ular nimaning ramzi ekanligi to‘g‘risida yozib kelgan ma’lumotlarini o‘qiting. Shu asosda suhbat tashkil qiling.

“Tabiatning yana qanday sir-sinoatlari bor?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


TABIBIMIZ – TABIAT

1. Tinglang.

dorivor shifobaxsh giyoh ildiz qo‘llanuvchi sinab ko‘rmoq davo bo‘lmoq

2. O‘ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	Abu Ali ibn Sinoning adabiy merosi jahon sivilizatsiyasida muhim ahamiyatga ega.	✓
2	Olimning jahonga mashhur asarlari hali-hamon ilmiy qiymatini yo‘qotmagan.	
3	U qomusiy bilimlar sohibidir.	
4	Orasi Abdulloh Husayni 7 yoshida o‘qishga Buxoroga olib kelgan.	
5	14 yoshida metafizika, astronomiya, geometriya, tibbiyot fanlarini chuqur o‘rgangan.	
6	16 yashar Husayn tibbiyot ilmini to‘liq egallaydi.	

3. O‘qing va savollarga javob bering.

Dorivor o‘simliklarni izlash va amalda qo‘llash bundan ming yillar ilgari boshlangan. Ayrim hollarda dorivor o‘simliklarni aniqlash insonga qimmatga tushgan, chunki dorivor o‘simliklar ta’sirini u dastlab o‘zida sinab ko‘rgan. Qadim zamonlarda kishilarning bilim darajasi yetarli bo‘lmagani tufayli o‘simliklar ularga sehrli va fusunkor bo‘lib ko‘ringan. Odamchalarga o‘xshash jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko‘pdan ko‘p afsonalar to‘qilgan. Jenshen ildizining kuchsizlanib, holdan toygan kishilarga quvvat bag‘ishlashi mo‘jiza deb qaralgan. Vaqtlar o‘tishi bilan ilm va fan muayyan o‘simlikning qanday qilib davo bo‘lishini tushuntirib berdi, afsonaviy gaplar esa o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi. Ko‘pgina shifobaxsh o‘simliklar tibbiyotda qo‘llanadi. Kishilar o‘simliklarning kimyoviy tarkibini mukammal o‘rganishga erishdilar. Bu esa o‘z navbatida yangi-yangi kashfiyotlarga olib keldi.

“Bolalar ensiklopediyasi”dan

1. Dorivor o‘simliklarning insonlarga foydasi haqida gapiring.
2. Nima uchun shifobaxsh giyohlar haqida afsonalar to‘qildi?
3. Jenshenning qanday foydali xususiyati bor?

30

IBN SINO

Abu Ali ibn Sino Buxoro yaqinidagi qadimiy Afshona qishlog‘ida 980-yilda tug‘ilgan. Bolaligidan ajoyib iste’dodi va bilimini namoyon qildi. Otasi yaxshi ta’lim olishi uchun 5 yashar Husayn Ibn Sinoni Buxoroga olib keladi. U yerda barcha fanlarni chuqur o‘rganadi. 14 yoshidan boshlab astronomiya, geometriya, metafizika va tibbiyotni mustaqil o‘rgana boshlaydi. 16 yoshida tabobat ilmini puxta egallaydi.

Olimning bebaho merosi jahonda hozirgi kungacha ham muhim o‘rin egallaydi. Ibn Sino “Davolash kitobi”, “Qonun at-tib” kabi mashhur asarlari muallifidir. “Tibbiyot fani qonun-qoidalari” – mashhur ensiklopediyasi ko‘p asrlar davomida tibbiyot bo‘yicha qo‘llanma bo‘lib keldi. Ushbu asar Rim, yunon, Hindiston va O‘rta Osiyo tabiblarining tajribasi va qarashlarini o‘z ichiga olgan.


Ibn Sino nafaqat tibbiy, balki ensiklopedik bilimlarga ham ega bo‘lib, turli fanlarda kashfiyotlar qildi. Yevropada uni “Avitsenna” deb atashgan. Ibn Sino 450 dan ortiq asar yozdi. Shundan 240 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Hozirgi kunda ham butun dunyo shifokorlari va olimlari Ibn Sinoning fikrlarini o‘rganmoqdalar.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriq berilgan. Bunda “To‘g‘ri- noto‘g‘ri” metodi asosida ularning matnni qay darajada tushunganlarini aniqlab oling.

1	Abu Ali ibn Sinoning adabiy merosi jahon sivilizatsiyasida muhim ahamiyatga ega.	✔
2	Olimning jahonga mashhur asarlari hali-hamon ilmiy qiymatini yo‘qotmagan.	✔
3	U qomusiy bilimlar sohibidir.	✔
4	Otasi Abdulloh Husaynni 7 yoshida o‘qish uchun Buxoroga olib kelgan	✘
5	14 yoshida metafizika, astronomiya, geometriya, tibbiyot fanlarini chuqur o‘rgangan.	✔
6	16 yashar Husayn tibbiyot ilmini puxta egallaydi.	✔

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *dorivor, shifobaxsh, giyoh, ildiz, qo‘llamoq, sinab ko‘rmoq, davo bo‘lmoq.*


4. Uyingizda qanday shifobaxsh giyohlardan foydalanasiz?
5. Yana qanday giyohlar haqida bilasiz?

DIQQAT QILING

Men		-m	Biz		-k
Sen	... + gan edi	-ng	Siz	... + gan edi	-ngiz
U		-	Ular		-lar

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko‘plab afsonalar to‘qilgan edi.

1. Jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko‘plab afsonalar (to‘qilmoq).
2. Bundan ming yillar ilgari dorivor o‘simliklarni sinab ko‘rish, qo‘llash (boshlanmoq).
3. Tabiblar dorivor o‘simliklarning ta’sirini (sinab ko‘rmoq).
4. Ibn Sino aytadi: “Men jenshen va mehrigiyoh o‘simliklarining ildizi bilan ko‘p kasalliklarni (davolamoq)”.
5. Shifobaxsh o‘simliklarni mukammal o‘rganish yangi kashfiyotlarga (olib kelmoq).

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna:
Agar kechasi uyqungiz kelmasa, bir qoshiq asal yeng.

1	Agar kechasi uyqungiz kelmasa, bir qoshiq ... yeng.	A
2	Uxlash oldidan ... yeyish zarar.	B
3	Buyrak og‘rig‘iga ... foydasi ko‘p.	D
4	Meva sharbatlari ichida eng foydalisi – ...	E
5	Qoningiz kam bo‘lsa, har kuni ... tanovul qiling.	F
6	... iste’mol qilinsa, o‘t qopida toshlar paydo bo‘lishining oldini oladi.	G

Mustaqil ish
Dorivor o‘simliklarni qurituish texnikasini o‘rganing.

31

5. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

7. “Diqqat qiling!” ruknida -gan shakli bilan hosil bo‘lgan o‘tgan zamon fe’lining uch shaxsda tuslanishi berilgan. Shuni o‘quvchilarga tushuntiring.

Men		edi-m	Biz		edi- k
Sen	o‘qi + gan	edi-ng	Siz	o‘qi + gan	edi-ngiz
U		edi	Ular		edi (- lar)

8. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda gap oxirida kelgan fe’llarni o‘tgan zamonning-gan shakli bilan tuslab yozishni topshiring. Dastlab o‘quvchilarga namunani doskada bajarib tushuntiring. Keyin mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

1. Jenshen va mehrigiyoh ildizi haqida ko‘plab afsonalar to‘qilgan edi.
2. Bundan ming yillar ilgari dorivor o‘simliklarni sinab ko‘rish, qo‘llash boshlangan edi.
3. Tabiblar dorivor o‘simliklarning ta’sirini sinab ko‘rgan edilar.
4. Ibn Sino aytadi: “Men jenshen va mehrigiyoh o‘simliklarining ildizi bilan ko‘p kasalliklarni davolagan edim”.
5. Shifobaxsh o‘simliklarni mukammal o‘rganish yangi kashfiyotlarga olib kelgan edi.

9. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. O‘quvchilar savollarga og‘zaki javob topib, keyin doskaga bajarsin.

Namuna:

1 – D. Agar kechasi uyqungiz kelmasa, bir qoshiq asal yeng.
2 – A. Buyrak og‘rig‘ida tarvuz foydali.
3 – F. Meva sharbatlari ichida eng foydalisi – o‘rik sharbati.
4 – B. Qoningiz kam bo‘lsa, har kuni qizil lavlagi pishirib tanovul qiling.
5 – E. Kivi iste’mol qilinsa, o‘t qopida toshlar paydo bo‘lishining oldi olinadi.

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda har bir o‘quvchi bugungi mavzuda esida qolgan bitta so‘zni daftarga yozadi. Keyin so‘zlarni hammaga o‘qittirasiz. Qaysi so‘z ko‘p takrorlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z “kalit so‘z” deb qabul qilinadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga dorivor o‘simliklarni quritish texnikasini o‘rganib, uni daftarga yozib kelish vazifasini topshiring.

7-MAVZU. SOG‘LOM YASHA


DARSNING MAQSADI:

- Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni ishlata oladi. Kasallik nomlari, o‘simlik nomlari, hayvon nomlari bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi detallarni tushuna oladi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi). Birovlarning gapini aynan va o‘zlashtirma gap shaklida yetkaza oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘zlari yozib kelgan dorivor o‘simliklarni quritish texnikasini o‘qib bersin. Qolgan o‘quvchilarga esa o‘zlari bilmaydigan dorivor o‘simliklarning nomini daftarga yozib qo‘yishni topshiring. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Uyda shamollab qolgan yoki boshqa kasal bilan og‘rigan paytingiz uydagi kattalar sizga qanday dorivor o‘simlikdan damlama tayyorlab berishgan?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.


SOG'LOM YASHA

1. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Tomoq og'riganda	A	okulist
2	Ko'z og'riganda	B	otolaringolog
3	Tish og'riganda	D	travmatolog
4	Oyoq lat yeganda	E	nevropatolog
5	Yurak bezovta qilganda	F	kardiolog
6	Bosh og'riganda	G	stomatolog

to'g'ri ovqatlanish sog'lom turmush shifokor ko'rigi tabiiy mahsulot

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. To'g'ri ovqatlanishni qanday tushunasiz?
2. Nima uchun to'yib ovqatlanib bo'lmaydi?
3. Kalsiyga boy mahsulotlarga nimalar kiradi?
4. D vitamini qaysi mahsulotlarda bor?
5. O'zingizga yoqqan mahsulotlar haqida aytib bering.

32


2. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 1-topshiriq berilgan. Jadvalning 1-ustunida kasalliklar nomi, 2-ustunida esa shu kasalliklarni davolovchi mutaxassislar nomi berilgan. O‘quvchilar namunadagi kabi raqamlar bilan harflarni birlashtirib aytsinlar.

Namuna:

1 – G. Tomoq og‘riganda otolaringolog yordam beradi.
2 – F. Ko‘z og‘riganda okulist ko‘rigidan o‘tish kerak.
3 – E. Tish og’riganda stomatolog davolaydi.
4 – D. Oyoq lat yeganda travmatologga murojaat qilish kerak.

5 – B. Yurak bezovta qilganda kardiolog maslahatlariga amal qlish kerak.

6 – A. Bosh og‘riganda nevropatolog tavsiyasi zarur.



3. O'qing.

Yosh fermer Berk Bayer shunday deydi: "Zamonaviy oziq-ovqatlarning qanday tayyorlanishini bilgach, tabiiy mahsulotlarni sotib olish shifoxona uchun sarflanadigan xarajatlarni ancha kamaytirishiga amin bo'ldim". Berk 8 yoshidan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Ilmiy anjumanlarning birida u shunday degandi: "Bolalarni turli reklamalarga osonlik bilan ishontirishayotganiga hayronman. Men ham bir paytlar zamonaviy oziq-ovqatlar reklamada ko'rsatilganidek tabiiy tayyorlanadi deb o'ylardim. Lekin reklamalarning hammasi ham haqiqat emasligini bilib qoldim. Izlanishlarim tufayli oziq-ovqat sanoatining qorong'i tomonlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'la boshladim. Geni o'zgartirilgan mahsulotlar, peshtaxtalarda uzoq muddat turishi uchun mahsulotga qo'shiladigan sun'iy moddalar zararini hamma biladi. Demak, sog'lom yurishimiz uchun tabiiy yetishtirilgan oziq-ovqatlarni tanlashimiz shart".

"Jajji akademik"dan

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Berk Bayer tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Mahsulotlarga sun'iy moddalar qo'shilmaydi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Tabiiy mahsulotlardan foydalanish shifoxona uchun xarajatlarni kamaytiradi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

DIQQAT QILING

Ko'chirma gap – O'zlashtirma gap

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Berk: "Sakkiz yoshimdan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqaman", – dedi.
Berk sakkiz yoshidan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqishini aytdi.

1. Berk: "Sakkiz yoshimdan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqaman", – dedi.
2. U shunday deydi: "Bolalarni turli reklamalarga osonlik bilan ishontirishayotganiga hayronman".
3. Yosh fermer: "Zamonaviy oziq-ovqatlar tabiiy tayyorlanadi deb o'ylardim", – deb aytdi.

Mustaqil ish

O'zingiz uchun sog'lom turmushga mos kun tartibi va ovqatlanish qoidalarini tuzing.

33

3. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lom turmush, shifokor ko‘rigi, tabiiy mahsulot.*

4. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Ovqatlanish bu – shunchaki qorin to‘yg‘azish emas. Inson ovqatlanish bilan o‘z tanasiga eng yaxshi yordamni beradi.

Taomning vitaminlarga boy bo‘lishi birinchi yordam bo‘lsa, ovqatlanish tarzining tartibli bo‘lishi ikkinchi yordam sanaladi. Ovqatlanish vaqtini ham to‘g‘ri taqsimlash va vaqtida tanovul qilish organizm uchun juda foydalidir. Yana shuni yodda tutingki, ovqatlanishda haddan tashqari to‘yib olish ham tanangizni qiynab qo‘yadi.

Quyida keltirilgan ayrim foydali mahsulotlar haqida bilib qo‘yishingiz juda muhim.

Suyaklarimiz ehtiyoji kalsiyga boy bo‘lgan sut va sut mahsulotlari (pishloq, yogurt, tvorog), baliq, jigar, sabzavotlar (karam, sholg‘om, soya, no‘xat, mosh), quritilgan va ho‘l mevalar (turshak, anjir, olma), yong‘oq, bodom, yeryong‘oq, kunjut bilan qondirilishi mumkin.

Yangi uzilgan meva va sabzavotlarda C vitamini mavjud bo‘lib, u inson uchun juda kerakli vitaminlar guruhiga kiradi.

Baliq va jigarda esa D vitamini ko‘p bo‘lib, kalsiy va fosfor ichakda yaxshi so‘riladi.

Qatiq, yogurtning yog‘siz turlarini iste’mol qilish yaxshi. Har qanday quruq meva konfet va kremli shirinliklardan foydaliroq.

To‘g‘ri ovqatlanish foydali vitamin va minerallarga boy mahsulotlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tanovul qilish demakdir. Bu esa inson salomatligi garovidir.

5. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

6. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ifodali o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 4-topshiriq berilgan. Matn yuzasidan berilgan testni og‘zaki bajartiring.

1. Berk Bayer tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqadi.
A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri
2. Mahsulotlarga sun’iy moddalar qo‘shilmaydi.
A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri
3. Tabiiy mahsulotlardan foydalanish shifoxona uchun xarajatlarni kamaytiradi.
A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

8. “Diqqat qiling!” ruknida o‘zganing gapi hech o‘zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gap ko‘chirma gap, mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan gap o‘zlashtirma gap hisoblanishini tushuntiring. Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga, o‘zlashtirma gapni ko‘chirma gapga aylantirish mumkin.

Misollarni qiyos qiling:

Oydin Hojiyeva yozadi: “Xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtiradi, uning kuch-qudratini imtihon qiladi”. *(ko‘chirma gap)*

Oydin Hojiyeva xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi. *(o‘zlashtirma gap)*

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga, o‘zlashtirma gapni esa ko‘chirma gapga aylantirib yozishni topshiring.

Dastlab siz o‘quvchilarga namunani doskada bajarib tushuntiring. Keyin mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

1. Berk: “Sakkiz yoshimdan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqaman”, – dedi.

Berk sakkiz yoshidan beri tabiiy mahsulotlar yetishtirishga qiziqishini aytdi.

2. U shunday deydi: “Bolalarning turli reklamalarga osonlik bilan ishonayotganiga hayronman”.

Berk bolalarning turli reklamalarga osonlik bilan ishonayotganiga hayron bo‘lishini aytdi.

3. Yosh fermer: “Zamonaviy oziq-ovqatlar tabiiy tayyorlanadi deb o‘ylardim”, – deb aytdi.

Yosh fermer zamonaviy oziq-ovqatlar tabiiy tayyorlanadi deb o‘ylaganini aytdi.

10. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzi uchun kun tartibi va ovqatlanish jadvalini tuzib kelish vazifasini topshiring.

8-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish tartibi haqida o‘zlari yozib kelgan ma’lumotlarni o‘qiting. Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Tabiat haqida yozilgan qanday asarlarni bilasiz?

Sizga qaysi mavzudagi badiiy asarlar yoqadi?

Oldingi adabiy o‘qish darsimizdagi bitta ma’lumotni eslatib o‘tmoqchiman. Tog‘ay Murodning qilgan tarjimalari esingizdami?


O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Tog‘ay Murod o‘zbek tiliga tarjima qilgan Seton-Tompsonning mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari haqidagi qiziqarli ma’lumotni o‘qishni ta’kidlang.

3. Seton-Tompson va uning mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Taniqli adib va rassom Ernest Seton-Tompson (Ernest Thompson Seton) 1860-yil 14-avgustda Angliyada tavallud topgan. Uning avlodlari tog‘liklardan bo‘lib, Ernest 6 yoshda ekanda ularning oilasi Kanadaga ko‘chib keladi. Bo‘lg‘usi adib shu yerda maktabga boradi, juda ko‘p ilmiy-badiiy asarlarni mutolaa qilib tabiat, hayvonlar, inson va tabiat munosabatlarini tasvirlovchi animalist rassom hamda iste’dodli yozuvchi bo‘lib yetishdi.

Uning asarlari jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o‘rin egalladi. Asarlari: “Men bilgan jonivorlar”, “Quvg‘indilar taqdiri”, “Hayvonlar – qahramonlar”, “Mitti yovvoyilar”, “Rolf o‘rmonda”, “Jonivorlar haqida hikoyalar”, “Shimoliy hayvonlar hayoti” (2 jilddan iborat), “Yovvoyi hayvonlar hayoti” (4 jilddan iborat), “Yovvoyi yo‘rg‘a”.

“Yovvoyi yo‘rg‘a” asari Tog‘ay Murod tomonidan 1989-yilda o‘zbek tiliga o‘girilgan bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi erkinlik va ozodlikdir.



ADABIY O‘QISH

Hayvonlar haqida eng yaxshi kitob

Tabiatni kim yaxshi biladi? Rassommi? Yo‘q, rassom ko‘z oldida turgan tabiatni qog‘ozga ko‘chiradi. Yozuvchimi? Yo‘q, yozuvchi tabiatga yuzaki qaraydi. Tabiatni o‘z maqsadi yo‘lida tasvirlaydi. Olimlarmi? Yo‘q, olimlar tabiatni biladi, ammo his qila olmaydi. Ular tabiatni qafasga qamab o‘rganadi.

Tabiat ana shu uch nuqtayi nazardan kelib chiqib tasvirlanadi. Seton-Tompson ana shu uch qarash – rassomlik, yozuvchilik, olimlikni uyg‘unlashtirib buyuk Seton-Tompson bo‘ldi.

Ernest Seton-Tompson adabiyotda birinchi bo‘lib jonivorlarni badiiy asarga bosh qahramon qilib oldi. “Domino. Bir qo‘ng‘ir tulki hayoti”, “Yovvoyi yo‘rg‘a”, “Jonni laqabli ayiqcha”, “Uchqur toychoq Jek. Bir quyon sarguzashti”, “Vinnipeg bo‘risi” kabi qator asarlar yaratib, ularda hayvonlarni qahramon darajasiga ko‘tardi. O‘z boshidan kechirgan hayotni, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tabiatni, o‘z qo‘li bilan ushlagan jonivorlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha badiiy asar qildi.

“Jonivorlar haqida hikoyalar” kitobi Seton-Tompson nomini olamga yoydi. Kitob qo‘lma-qo‘l o‘qildi, tik turib o‘qildi, ovoz chiqarib o‘qildi, kecha-yu kunduz o‘qildi. Kitobni butun dunyo o‘qidi.

Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsongacha yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xususan, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton-Tompsondan oshib o‘tolmadi.

“Jajji akademik”dan

1. Siz ham tabiat, hayvonlar haqida badiiy asar o‘qiganmisiz?
2. Agar yozuvchi bo‘lsangiz, qaysi hayvon haqida yozar edingiz?
3. Ernest Seton-Tompsonning qanday asarlarini bilasiz?
4. Qaysi asari yozuvchining nomini dunyoga tanitdi?

tasvirlamoq
jonivor
nuqtayi nazar
badiiy asar
olamga yoymoq

34

4. So‘ngra darslikda shu asar haqida berilgan matnni o‘quvchilarga o‘qittiring.

HAYVONLAR HAQIDA ENG YAXSHI KITOB

Tabiatni kim yaxshi biladi? Rassommi? Yo‘q, rassom ko‘z oldida turgan tabiatni qog‘ozga ko‘chiradi. Yozuvchimi? Yo‘q, yozuvchi tabiatga yuzaki qaraydi. Tabiatni o‘z maqsadi yo‘lida tasvirlaydi. Olimlarmi? Yo‘q, olimlar tabiatni biladi, ammo his qila olmaydi. Ular tabiatni qafasga qamab o‘rganadi. Tabiat ana shu uch nuqtayi nazardan kelib chiqib tasvirlanadi. Seton-Tompson ana shu uch qarash – rassomlik, yozuvchilik, olimlikni uyg‘unlashtirib buyuk Seton-Tompson bo‘ldi. Ernest Seton-Tompson adabiyotda birinchi bo‘lib jonivorlarni badiiy asarga bosh qahramon qilib oldi. “Domino. Bir qo‘ng‘ir tulki hayoti”, “Yovvoyi yo‘rg‘a”, “Jonni laqabli ayiqcha”, “Uchqur toychoq Jek”, “Bir quyon sarguzashti”, “Vinnipeg bo‘risi” kabi qator asarlar yaratib, ularda hayvonlarni qahramon darajasiga ko‘tardi. O‘z boshidan kechirgan hayotni, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tabiatni, o‘z qo‘li bilan ushlagan jonivorlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha badiiy asar qildi. “Jonivorlar haqida hikoyalar” kitobi Seton-Tompson nomini olamga yoydi. Kitob qo‘lma-qo‘l o‘qildi, tik turib o‘qildi, ovoz chiqarib o‘qildi, kecha-yu kunduz o‘qildi. Kitobni butun dunyo o‘qidi. Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsongacha yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xususan, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton-Tompsondan oshib o‘tolmadi.

5. O‘quvchilarning matn mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Siz ham tabiat, hayvonlar haqida badiiy asar o‘qiganmisiz?
2. Agar yozuvchi bo‘lsangiz, qaysi hayvon haqida yozar edingiz?
3. Ernest Seton-Tompsonning qanday asarlarini bilasiz?
4. Qaysi asari yozuvchining nomini dunyoga tanitdi?

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tasvirlamoq, jonivor, nuqtayi nazar, badiiy asar.*

7. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

MOHIR QO‘LLAR SAN’ATI
1-MAVZU. O‘N QO‘LING – O‘N HUNAR

DARSNING MAQSADI:

- Sifatdoshlarni ishlata oladi (*urf bo‘layotgan libos, bolalar kiyadigan kiyim* singari)
- Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi. Predmetlarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. O‘quvchilar bilan yangi bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “To‘rt taraf” metodidan foydalaning. Bunda savollarni har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining bilim saviyasidan kelib chiqib tuzadi.

Bolalar javob berayotganida diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.


Mohir qo‘llar san’ati

O‘N QO‘LING – O‘N HUNAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.


1. Hunar va hunarmandchilik haqida nima bilasiz?
2. Qanday hunarmandchilik sohalari bor?
3. Qaysi xalq hunarmandlari gilamlari bilan mashhur?
4. O‘zbekistonda xalq hunarmandchiligining qaysi sohalari rivojlanmoqda?
5. Qanday zamonaviy hunarlarni bilasiz?

mahorat
ijodkorlik
imkoniyat
hunarmand
shug‘ullanmoq
davom ettirmoq

2. O‘qing.

Moskvada avtoatelye ochgan hamyurtimiz Mirsaidov firma hammuassisi hisoblanadi. U ishini xuddi Stiv Jobs kabi garajda boshlagan. U faoliyati haqida bunday deydi: “Bolaligimdan avtomobillarning har xil turlariga qiziqaman. Bu soha, ya’ni teri, charm bilan ishlash ota-bobomdan meros desam ham bo‘laveradi. Bobom Asaka shahrida poyabzal ustasi bo‘lgan, bu kasb undan otamga o‘tgan. Otamdan men o‘ganganman. Men uchinchi-to‘rtinchi avlod kosibman.

35


Inson o‘zining qiziqishini topa olishi lozim. Men uchun shu sohada ishlash – hobbi. Dastlab faqat sarmoya kiritsam bo‘ldi, natijaga erishish mumkin degan xayolda bo‘lganman. Ammo voqt o‘tib tushundimki, o‘z sohangizning ustasi bo‘lsangizgina, katta marralarni zabt etsa bo‘larkan. Hunar qayerga yoki qaysi davlatga borishingizdan qat’i nazar, siz bilan birga. Shuning uchun har doim ilm va hunar o‘rganishga intiling”.

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Miraziz Mirsaidov O‘zbekistonda ham avtoatelye ochgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri
2. Unga bu avtoatelye otasidan meros qolgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Uning ota-bobosi kosib bo‘lgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri
4. Ilm va hunar har doim o‘z sohibi bilan birga.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri

DIQQAT QILING
-gan, -kan, -qan

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Moskvada avtoatelye ochgan Miraziz Mirsaidov o‘z faoliyatini garajda boshlagan.

1. Moskvada avtoatelye och…. Miraziz Mirsaidov o‘z faoliyatini garajda boshlagan.
2. U tik… charm qoplamalar mustahkamligi bilan haydovchilarga ma’qul kelmoqda.
3. O‘z ishining ustasi bo‘l… hunarmandlar elda doimo aziz.
4. Yoshlikda olin… bilim toshga o‘yilgan naqshdir.
5. Bolaligidan avtomobillarga qiziq… Miraziz o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishdi.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Naqqosh turli buyumlarga naqsh soladi.

1	Naqqosh	A	Teriga ishlov beradi.
2	Zargar	B	Matolardan kiyim tikadi.
3	Tikuvchi	D	Turli buyumlarga naqsh soladi.
4	Ko‘nchi	E	Qimmatbaho toshlardan taqinchoqlar yasaydi.

Mustaqil ish

O‘zingiz qiziqadigan hunar haqida ma’lumot yozing.

36

HUNAR

Bilasizmi, dunyoda 90 ga yaqin hunarmandchilik turlari bor ekan. Ularning har biri insonlarga ijodkorlik uchun katta imkoniyat beradi.

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy hunarlari bor: Yaponiyada xakata qog‘irchoqlari, Xitoy chinnilari, Rossiya yog‘och qo‘g‘irchoqlari – matryoshkalar, Turkmanistonda gilamchilik, O‘zbekistonda esa bir qancha hunarlar – kulolchilik, zardo‘zlik juda mashhur. Har bir xalq yasagan buyumlarda o‘z materiali, texnologiyasi, ish uslubi, hattoki ranglarigacha milliyligi, o‘ziga xosligi aks etib turadi. Har bir buyumni bunyod qilish o‘z egasidan yuksak mahorat, qunt va did bilan ishlashni talab qiladi.

Hunar bilan shug‘ullangan insonlarni hunarmand deydilar. Insonlar hunarmandchilik bilan ibtidoiy davrlardan beri shug‘ullanib keladilar. Davrlar o‘tishi bilan turli xil yangi hunarmandchilik sohalari paydo bo‘lmoqda.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan

foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *mahorat, ijodkorlik, imkoniyat, hunarmand, shug‘ullanmoq, davom.*

5. 2-topshiriqda berilgan matnni “Zanjir” usulida o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘linganidan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, qayta o‘qittiring.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 3-topshiriq og‘zaki bajartiriladi.

7. “Diqqat qiling!” ruknida sifatdosh haqida ma’lumot berib o‘ting.

Fe’lning sifatga xoslangan shakli *sifatdosh* deyiladi. Sifatdosh fe’l asosiga quyidagi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: -gan, -kan, -qan.

Masalan: o‘qi-gan bola, tik-kan odam, yoq-qan kasb.

Fe’l + *-gan (-kan, -qan)* = sifatdosh.

8. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Berilgan gaplarda nuqtalar o‘rniga sifatdosh qo‘shimchasini qo‘yib, gaplarni doskada yozdiring.

Namuna:

1. Moskvada avtoatelye ochgan Miraziz Mirsaidov o‘z faoliyatini garajda boshlagan.
2. U tikkan charm qoplamalar mustahkamligi bilan haydovchilarga ma’qul kelmoqda.
3. O‘z ishining ustasi bo‘lgan hunarmandlar doimo elda aziz.
4. Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir.
5. Bolaligidan avtomobillarga qiziqqan Miraziz – o‘z kasbining mohir ustasi.

9. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. 1-ustunda kasb nomlari, 2-ustunda faoliyat nomlari keltirilgan. Namunani doskada tushuntirib, qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

Naqqosh turli buyumlarga naqsh soladi.

10. Refleksiya. “O‘zimga qaytar” metodi asosida 1-qatordagi o‘quvchilarga hunarlar, 2-qatordagi o‘quvchilarga hunarmandchilik mahsulotlari, 3-qatorga bu buyumlarning qayerda ishlatilishini tezlik bilan yozishni topshiring. 1-qator yozganini o‘qigandan keyin 2-qatordagilar shu so‘zlarni yoddan aytishlari kerak, 2-qatordagilar 3-qatordagilar o‘qiganlarini yoddan aytib beradilar. Shu tarzda sinfda so‘zlarning spiralsimon takrori amalga oshadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga o‘zlari qiziqadigan biron-bir hunar haqida ma’lumot yozib kelishni topshiring.

2-MAVZU. BINOKOR – BUNYODKOR

DARSNING MAQSADI:

- Sifatdoshlarni ishlata oladi (*urf bo‘layotgan libos, bolalar kiyadigan kiyim* singari)

.

- Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi.
- Predmetlarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘zlari yoqtiradigan hunar haqida yozib kelgan matnni o‘qib beradilar. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!


“Tasavvur qiling, o‘zingiz yoqtirgan hunar orqasidan katta miqdorda daromad topdingiz. Shu pulga qanday uy sotib olgan bo‘lardingiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Arxitektura yoki me’morchilik insoniyat uchun eng muhim san’at turlaridan biridir. U odamlarning eng zarur ehtiyojlaridan biri sifatida paydo bo‘lgan. Qadim zamonlarda odamlar issiq va sovuqdan, yovvoyi hayvonlardan pana bo‘lish, himoyalanish uchun turli binolar qurgan. Bu inshootlarga qarab ularni bino qilgan odamlar va davrlar haqida ko‘plab ma’lumotlarni bilish mumkin. Binoning mustahkam, inson uchun kerakli va go‘zal bo‘lishi me’morchilikning ilk davridan bugungi kungacha asosiy omil sanaladi. Mana, siz yashayotgan uy, o‘qiyotgan maktabingiz, yo‘lingizda uchraydigan barcha binolar, dam olish maskanlari, do‘kon, teatr kabi siz-u bizga kerakli barcha inshootlar arxitektura namunasiga kiradi.

Vaqt o‘tishi bilan turli sabablar bilan barpo qilingan binolar yo‘q bo‘lib ketadi. Lekin asrlar o‘tsa-da, o‘z ko‘rinishini yo‘qotmagan buyuk me’moriy obidalar borki, ko‘rganlarni hayratga soladi.

Hozirda arxitekturaning yangi uslublari, ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda. Hattoki suv ostida va ustida, yer ustida va yer ostida ham g‘aroyib inshootlar qurilmoqda.


BINOKOR – BUNYODKOR

1. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	Me'morchilik insonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan.
2	Boshpana nobop ob-havodan va hayvonlardan himoya vositasidir.
3	Yevropada gumbazli minoralarni ko'p uchratish mumkin.
4	Ayrim inshootlar vaqtlar o'tishi bilan eskiradi.
5	Me'morchilik yaqin yillarda paydo bo'lgan.

me'moriy obida
inshoot
mustahkam
bino
g'aroyib


3. O'qing va savollarga javob bering.

O'tov, tarixiy manbalarda keltirilishicha, Markaziy va O'rta Osiyo, Janubiy Sibirda yashovchi xalqlarda mavjud bo'lgan. Qishda issiq, yozda salqin bo'ladigan bu uylar xalq orasida "qora uy", "oq o'tov", "bo'z o'tov", "bo'z o'rda" kabi nomlar bilan ataladi. Bu uylar boshqa joyga ko'chirish va qurish uchun juda ham qulay hisoblanadi.

O'tov tiklashda ishlatiladigan ashyolar tayyorlaydigan ustalarni "uychi" deyishadi. Uni tiklashda turli o'lchovdagi yog'ochlar, konussimon panjara, kigiz, charm, ip kabilar ishlatiladi.

Hozir o'tovlardan asosan dala hovlilar, dam olish maskanlarida keng foydalanilmoqda. Tashrif buyurgan mehmonlar esa ularni qiziqish va hayrat bilan tomosha qiladilar. Sababi bu uylarning qurilish ashyolari va bezaklari uchun tabiiy mahsulotlar ishlatiladi.

37


Qoraqalpoq elida ota kasbini davom ettirayotgan Azamat Turekeyev uychilarning 3-avlodi. Hunarmand hozir o'z hunarini nafaqat O'zbekistonda, balki Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va Rossiya davlatlarida ham namoyish qilmoqda.

1. Qaysi xalqlar o'tovlardan foydalanadi?
2. O'tovning afzalliklari nimada?
3. Qora uy qanday qismlardan tashkil topadi?
4. Sayyohlar nima uchun o'tovlarga qiziqish bilan qaraydilar?
5. Hozir o'tovlardan nima maqsadlarda foydalaniladi?

DIQQAT QILING
-yotgan, -syotgan

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
O'tov qadimdan foydalanib kelinayotgan boshpana hisoblanadi.

1. O'tov qadimdan foydalanib kel… boshpana hisoblanadi.
2. Ota kasbini davom ettir… hunarmandlar o'z mahoratlarini butun dunyoga namoyish qilmoqdalar.
3. O'tovning ichki qismini beza… ayollar bezaklarning joylashuviga e'tibor beradilar.
4. O'tovga kira… kishi bezaklarga qarab uy egalari haqida ma'lumot olishi mumkin bo'lgan.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Eyfel minorasi Fransiyada joylashgan.

Inshootlar	Mamlakat
Eyfel minorasi	
	O'zbekiston
Ehromlar	
	Angliya
"Burj Xalifa"	
	Italiya

Mustaqil ish
Orzungizdagi uy rasmini chizing.

38

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni bajartiring.

1	Me’morchilik insonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan.	✔
2	Boshpana ob-havodan va hayvonlardan himoya vositasidir.	✔

3	Yevropada gumbazli minoralarni ko‘plab uchratish mumkin.	✖
4	Ayrim inshootlar vaqtlar o‘tishi bilan eskiradi.	✔
5	Me’morchilik yaqin yillarda paydo bo‘lgan.	✖

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *me’moriy obida, inshoot, mustahkam, bino, g‘aroyib.*

5. 3-topshiriqda berilgan matnni “Soat strelkasi” usulida o‘qiting. Bunda o‘quvchilar doira shaklida turib oladilar. O‘rtada bir o‘quvchi strelka vazifasini bajarib turadi. Shu o‘quvchi qo‘li bilan kim o‘qishini ko‘rsatib turadi. U qo‘li bilan ishora qilgan o‘quvchi matnni qolgan joyidan davom ettirib ketadi.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

7. “Diqqat qiling!” ruknida sifatdoshning -(a)yotgan shakli haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Hozirgi zamon sifatdoshi *-(a)yotgan* qo‘shimchasi bilan yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so‘zlagan vaqtda davom etayotgan harakat belgisini anglatadi: bor-a-yotgan, kel-a-yotgan, o‘qi-yotgan kabi.

Fe’l + -yotgan (-ayotgan) = sifatdosh.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan.

Bu mashqni namunadagi kabi bajartiring.

Namuna:

1. O‘tov qadimdan foydalanib kelinayotgan boshpana hisoblanadi.
2. Ota kasbini davom ettirayotgan hunarmandlar o‘z mahoratlarini butun dunyoga namoyish qilmoqdalar.
3. O‘tovning ichki qismini bezatayotgan ayollar bezaklarning joylashuviga e’tibor beradilar.
4. O‘tovga kirayotgan kishi bezaklarga qarab uy egalari haqida ma’lumot olishlari mumkin bo‘lgan.

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Bunda jadvalda berilgan tushunchalarni rasmlar asosida moslab yozish nazarda tutilgan. O‘quvchilarga namunani bajarib ko‘rsating. Qolgan gaplarni doskaga yozdiring.

Namuna:

Eyfel minorasi Fransiyada joylashgan.

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda har bir o‘quvchi bugungi mavzuda esida qolgan bitta so‘zni daftariga yozadi. Keyin so‘zlarni hammaga o‘qittirasiz. Qaysi so‘z ko‘p takrorlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z “kalit so‘z” deb qabul qilinadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.


11. O‘quvchilarga kelajakda o‘zlari orzu qilgan uyni tasvirlab matn yozish yoki rasm chizib kelishni topshiring.

3-MAVZU. LIBOS – INSON KO‘RKI

DARSNING MAQSADI:

- Sifatdoshlarni ishlata oladi (*urf bo‘layotgan libos, bolalar kiyadigan kiyim* singari). Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi.
- Predmetlarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:


LIBOS – INSON KO'RKI

1. O'ylang va toping. Gapiring.

Yapon	Turk	Hind	Shotland	Turkman	O'zbek
			f		

2. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Kiyim himoya vazifasini bajargan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Liboslar insonning yoshi haqida ma'lumot bermaydi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Arablar hayvonlar terisidan tikilgan kiyimlardan foydalanadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

sidirg'a chopon mato xushbichim mo'ynali mavsumiy

39

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘zlari orzu qilgan uy haqida yozib kelgan matnni o‘qib bersin. Rasm chizib kelganlar chizgan rasmini taqdimot qilsin. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Albatta, har birimiz yangi uyda yangi liboslar kiyishni istaymiz. Orzu qilgan uyingizda qanday yangi liboslar bilan kirishni istardingiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 1-topshiriq berilgan. Rasmda ko‘rsatilgan kiyimlar qaysi xalqlarga tegishli ekanligi haqida suhbat uyushtiring.

Masalan, F harfi bilan belgilangan rasmdagi kiyim shotland millatiga tegishli.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Liboslar o‘z egasi haqida boshqalarga juda ko‘p ma’lumotlarni bildirib turadi. Uning qanday paydo bo‘lganiga qiziqib ko‘rganmisiz?

Kiyimning paydo bo‘lganiga juda ko‘p asrlar bo‘lgan. U dastlab tashqi ta’sirdan himoya vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Eng avval barglar, hayvonlar terisi, qushlar pati kiyim vazifasini bajargan. Rivojlanish natijasida odamlar turli o‘simlik va hayvon mahsulotlaridan mato to‘qib, shundan foydalanishni o‘rganganlar. Keyinroq insoniyat rivojlangani sari kiyim ham rivojlanib, uning vazifalari qatoriga go‘zallik, estetik zavq berish ham qo‘shildi.

Har bir millatning, xalqning kiyimlari o‘ziga xos bo‘lib, bunda ob-havo sharoiti, iqlimning ham ta’siri bor. Kiyimlar millat, kasb-kor, yosh va shu kabi bir qancha ma’lumotlarni bildirishi mumkin.

Masalan, Tundra, Sibir kabi shimoliy hudud xalqlari hayvonlar terisiga ishlov berilgan mo‘ynali issiq kiyimlar kiyadi .

Arab davlatlarida issiqlikni qaytaradigan rangdagi, yumshoq matolardan kiyim kiyiladi.

Bugungi kunda turli yosh va didga mos, har qanday kishilar uchun ham estetik, ham gigiyenik talablarga javob beradigan zamonaviy liboslar ishlab chiqarilmoqda. Masalan, sport kiyimi, maxsus ish kiyimi, mehmondorchilik uchun alohida kiyim, sayr-u sayohat uchun alohida kiyim, yozgi, qishki kabi mavsumbop liboslarlardan foydalanamiz.


Har doim jamiyat talablariga javob beradigan, sog‘lig‘imizga zarar keltirmaydigan, qulay, yoshimizga va mavsumga mos kiyimlar kiyish maqsadga muvofiqdir.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni bajartiring.

1. Kiyim himoya vazifasini bajargan. *A. To‘g‘ri*

2. Liboslar inson yoshi haqida ma’lumot bermaydi. *B. Noto‘g‘ri*

3. Arablar hayvonlar terisidan tikilgan kiyimlardan foydalanadi. B. *Noto‘g‘ri.*



3. "Insert" usulida o'qing.

	Matn mazmuni	+ / -/ V / ?
1	Libos – inson ziynati. Davrlar, zamonlar yangilangani sari liboslar ham o'zgarib boradi. Bir-biridan rang-barang, uzun-kalta, keng-tor, dabdabali-ko'rimsiz, qimmat-arzon liboslar.	
2	Inson kiyim tanlashda bu liboslarning yarashgani, o'ziga munosibligi, yoshiga, qomatiga mosligi, kiyadigan davrasiga to'g'ri kelish-kelmasligiga ahamiyat berishi kerak. Madaniyatning talabi – shu.	
3	Kiyinishning inson ruhiyati, fe'l-atvori, kayfiyati, tarbiyasi, did-farosati bilan bog'liqligi bor. Shuning uchun kiyim tanlashda e'tiborli bo'lish talab etiladi.	
4	Dastlab tori va jundan mato to'qish va tikishni kashf qilgan odamzod paxta va ipak tolalarining paydo bo'lishi bilan liboslarga qulaylik va go'zallik baxsh etdi.	

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Zamonlar yangilangani sari liboslar ham o'zgarib borgan.

1. Zamonlar, o'zgarib, liboslar ham, yangilangani sari, borgan.
2. Inson, kiyinishning, ta'siri, ruhiyatiga, bor.
3. Kiyim tanlashda, ahamiyat berish zarur, mavsumga mosligiga, o'zimizga yarashganiga.
4. Sanoatning rivojlanishi, baxsh etdi, liboslarga, qulaylik va go'zallik.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: katta, sidirg'a, oq, gulli, uzun, ko'k, jinsi, qizil, keng.

Hajm-o'lchov sifati	Rang-tus sifati	Xususiyat sifati	Ot
kalta	qora	charm	kurtka
			ko'ylak
			chopon
			shim

Mustaqil ish
O'zingizga yoqqan zamonaviy brend kiyimlari haqida ma'lumot to'plang.

40

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qaratting. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *sidirg‘a, chopon, mato, xushbichim, mo‘ynali, mavsumiy.*

6. 3-topshiriqda berilgan matnni “Insert” usulida o‘qittiring.

“Insert” metodi

Insert bu – o‘quv jarayonida o‘zining anglashini faol kuzatish uchun imkoniyat beradigan vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganini eslab qolmasligi mumkin. Bu esa nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan hollarning misolidir. Insert bu – matn bilan ishlanganda faollikni qo‘llab–quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V – bilganlarimni tasdiqlaydi;

+ – yangi axborot;

- – bilganlarimga zid keladi;

? – meni o‘ylantirib qo‘ydi.

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Tartibsiz holda berilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, namunadagi kabi gap tuzishni topshiring.

Namuna:

1. Zamonlar yangilangani sari liboslar ham o‘zgarib borgan.
2. Kiyinishning inson ruhiyatiga ta’siri bor.
3. Kiyim tanlashda mavsumga mosligiga, o‘zimizga yarashganiga ahamiyat berish zarur.
4. Sanoatning rivojlanishi liboslarga qulaylik va go‘zallik baxsh etdi.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan.

Foydalanish uchun so‘zlar: *katta, sidirg‘a, oq, gulli, uzun, ko‘k, jinsi, qizil, keng.*

Hajm-o‘lchov sifati	Rang-tus sifati	Xususiyat sifati	Ot
kalta	qora	sifatli	kurtka
uzun	oq	gulli	ko‘ylak
katta	qizil	sidirg‘a	chopon
keng	ko‘k	zamonaviy	shim

9. Refleksiya. “So‘z ohanrabosi” usuli asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda bir o‘quvchi mavzuga oid bir tushunchani

aytadi. Qolgan o‘quvchilar esa unga mos keluvchi so‘zlarni navbat bilan aytadilar. Birinchi so‘z aytgan o‘quvchi o‘zi aytgan tushunchaga mos keluvchi so‘zni aytgan o‘quvchilarni yoniga chaqiradi.

Masalan, 1-o‘quvchi *kiyim* so‘zini aytsa, qolgan o‘quvchilar *chiroyli, zamonaviy, keng, tor* yoki boshqa so‘zlarni aytadilar. Shu so‘zlarning ichida mos kelmaydigan so‘zlar bo‘lsa, yoniga chaqirmaydi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga o‘ziga yoqqan zamonaviy brend kiyimlari haqida ma’lumot to‘plab kelishni topshiring.

4-MAVZU. MILLIY HUNARMANDCHILIK

DARSNING MAQSADI:

- Sifatdoshlarni ishlata oladi (*urf bo‘layotgan libos, bolalar kiyadigan kiyim* singari).
- Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi.
- Predmetlarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘zlariga yoqqan zamonaviy brend kiyimlari haqida yozib kelgan ma’lumotlarini o‘qittiring. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Zamonaviy kiyimlar yaxshi albatta. Lekin o‘zbekning atlas va adrasiga yetadigani yo‘q. Shu matolarning qanday tayyorlanishi bilan hech qiziqib ko‘rganmisiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini 1-topshiriqda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?

Shu rasmlar asosida o‘zbek milliy hunarmandchilik turlari haqida suhbat uyushtiring.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


MILLIY HUNARMANDCHILIK

1. O'ylang va toping. Gapiring.

2. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring. Ha/yo'q

1	"Atlas" so'zi arabchadan olingan.	Ha
2	Atlasning vatani Qo'qon va Andijondir.	
3	Matoning bo'yoqlari tabiiy giyohlardan olinadi.	
4	Atlasdan faqat ayollar va bolalar kiyimlari tikiladi.	
5	Hozir dizaynerlar atlasdan uy va interyerlarni bezashda foydalanmoqda.	

kulol
zargar
gilamdo'z
charx
ishlov bermoq
pishitilgan

DIQQAT QILING
-ydigan, -adigan

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Kulol – loy bilan ishlaydigan usta.


1. Kulol – loy bilan ishla… usta.
2. Zargar – bezak buyumlarini ishlay… usta.
3. Gilamdo'z – turli iplardan gilam to'qi… usta.
4. Duradgor – yog'ochdan har xil buyumlar yasa… usta.

41

XONATLAS TARIXI

Qadim zamonda Marg‘ilonda bir hunarmand-bo‘zchi yashagan ekan. Uning go‘zallikda tanho suluv qizi bo‘lgan ekan. Uning ta’rifini eshitgan Marg‘ilon xoni unga uylanmoqchi bo‘libdi, ammo qizning ko‘ngli boshqa yigitda bo‘lgani uchun bo‘zchi qizining xohishini inobatga olib, xon sovchilariga rad javobini beribdi. Bundan g‘azablangan xon bo‘zchiga biroz vaqt berib, shu muhlat ichida hayratlanarli biror nima yaratishni

buyuribdi. Agar bo‘zchi bu shartni bajarsa, o‘zi va qizi jazodan qutulib qolishini aytibdi. G‘amga botgan bo‘zchi ariq bo‘yiga o‘tirib uzoq o‘yga tolibdi, shu vaqt to‘satdan havo aynib yomg‘ir yog‘ibdi. So‘ng bulutlar orasidan quyosh porlab, osmonda jilolangan kamalak aksi ariqdagi suvga tushibdi. Bo‘zchi turfa tusda yaltirayotgan rango-rang kamalak aksidan hayratlanganicha bir zum qotib qolibdi va ustaxonasiga qaytib, kamalakdan andaza olib, bir mato yaratibdi. Bu matoda hamma ranglar uyg‘unlashgan ekan. U to‘qilgan matoni xon huzuriga olib boribdi. Xon matoni ko‘rib, hayratlanibdi va bo‘zchidan buni qanday yaratganini so‘rabdi. Bo‘zchi: “Men bu matoga lolaning qizil rangini, osmon moviyligini, majnuntolning yashilligi, quyoshning zarrin nuri va qizimning ko‘zidagi mehr uchqunlarini jo qildim”, – deb javob beribdi. Xon matoni silab turib, unga *xonatlas* deb nom beribdi. Hunarmand jazodan qutulib qolibdi.



4. O'qing va savollarga javob bering.

Kulolchilik oddiy loydan mo'jizakor buyumlar yasaladigan san'at turidir. Bu hunar bilan odamlar juda qadim zamonlardan beri shug'ullanib kelgan.

Maxsus loydan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, tog'ora, xum, tandir kabi buyumlar, o'yinchoqlar yasaladi. Buyumlarni tayyorlash uchun maxsus tuproq suv bilan aralashtirilib, loy qilinadi. Pishitilgan loydan charx yordamida buyum yasaladi va olovda pishiriladi. Ularga rang berilib, naqshlar bilan bezaladi.

Hozir o'zbek kulollari butun dunyo bo'ylab turli festivallarda, tanlovlarda qatnashib, o'z san'atlari bilan hammani hayron qoldirmoqda. Sayyohlar milliy hunarmandchilik buyumlari, ayniqsa, sopol buyumlarni katta qiziqish bilan xarid qiladilar. Tabiiy mahsulotlardan yasalgan buyumlar inson salomatligi uchun foydali ekanini zamonaviy tibbiyot ham isbotlamoqda.

1. Kulolchilik qanday hunar?
2. Kulollar nimalarni yasaydilar?
3. Kulolchilik buyumlari yasalish jarayonini aytib bering.
4. Sizningcha, sayyohlar nima uchun kulolchilik buyumlariga qiziqadilar?
5. Tabiiy mahsulotdan yasalgan buyumlarning foydali tomonlari haqida gapiring.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Hunar bo'lsa qo'lingda,
Non topilar yo'lingda.

1. Hunar bo'lsa qo'lingda,
... topilar yo'lingda.

2. Tikkan ... emas,
Bichgan – chevar.

3. Ustozsiz shogird,
Jonsiz ...

4. Uchqundan qo'rqqan
... bo'lmas.

5. Qo'yni qassob so'ysin,
Oshni ..., pishirsin.

Mustaqil ish

Qo'l hunariga asoslangan birorta buyumning yasalish texnologiyasini o'rganing va amalda sinab ko'ring.

42

“Atlas” so‘zi arabchada “tekis, silliq” kabi ma’nolarni anglatadi. Atlas to‘qish san’ati XVIII asrdan boshlangan bo‘lib, bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Atlas matolari tabiiy bo‘yoq beruvchi giyohlar yordamida bo‘yaladi, shu sabab ham yuvilganda ranglari bir-biriga qorishib ketmaydi.

Atlasdan nimalar tikiladi? Atlasdan ayollar liboslari, ko‘rpa va ko‘rpachalar, erkaklar belbog‘lari va boshqa buyumlar tikiladi. Bugungi kunda zamonaviy dizaynerlar tomonidan atlas, adras va beqasam matolarini boshqa matolar bilan uyg‘unlashtirgan holda turli xildagi liboslar tikilmoqda hamda uy va interyerlarni bezatishda ham ushbu matolardan keng foydalanilmoqda. Milliy matolardan tikilgan liboslar dunyo miqyosida o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etiladi.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqdagi “Ha-yo‘q” mashqini bajartiring.

1	“Atlas” so‘zi arabchadan olingan.	Ha
2	Atlasning vatani Qo‘qon va Andijondir.	Yo‘q
3	Matoning bo‘yoqlari tabiiy giyohlardan olinadi.	Ha
4	Atlasdan faqat ayollar va bolalar kiyimlari tikiladi.	Yo‘q
5	Hozirda dizaynerlar ham uy va interyerlarni bezashda atlasdan foydalanmoqda.	Ha

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *kulol, zargar, gilamdo‘z, charx, ishlov bermoq, pishitilgan.*

6. “Diqqat qiling!” ruknida sifatdoshning -ydigan, -adigan shakli haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Bu qo‘shimchalar vositasida kelasi zamon sifatdoshi yasaladi. Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so‘zlagan vaqtdan keyin bajariladigan harakat belgisini anglatadi: *bor-adigan, saqla-ydigan* kabi.

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Nuqtalar o‘rniga zarur sifatdosh qo‘shimchasini namunadagi kabi yozishni topshiring.

Namuna:
1. Kulol – loy bilan ishlaydigan usta.
2. Zargar – bezak buyumlarini ishlaydigan usta.
3. Gilamdo‘z – turli iplardan gilam to‘qiydigan usta.
4. Duradgor – yog‘ochdan har xil buyumlar yasaydigan usta.

8. O‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 4-topshiriqda berilgan matnni o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

10. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Tartibsiz holda berilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, namunadagi kabi gap tuzishni topshiring.

Hunar bo‘lsa qo‘lingda,
Non topilar yo‘lingda.

Tikkan chevar emas,
Bichgan – chevar.

Ustozsiz shogird – jonsiz kesak.
Uchqundan qo‘rqqan temirchi bo‘lmas.
Qo‘yni qassob so‘ysin,
Oshni oshpaz pishirsin.

11. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi shu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

12. O‘quvchilarga qo‘l hunariga asoslangan birorta buyumning yasalish texnologiyasini o‘rganishni va amalda sinab ko‘rishni topshiring.

5-MAVZU. ZAMONAVIY HUNARLAR

DARSNING MAQSADI:

- Sifatdoshlarni ishlata oladi. (*urf bo‘layotgan libos, bolalar kiyadigan kiyim* singari)
- Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi.
- Predmetlarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar qo‘l hunariga asoslangan buyumning yasalish texnologiyasini taqdimot qiladilar. Ular yasab kelgan buyumlarning ko‘rgazmasini ham tashkil qilish mumkin.

Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Hunarning ham qadimiy, zamonaviysi bo‘ladimi?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.


ZAMONAVIY HUNARLAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Karving nima?
2. Karving dastlab qayerda paydo bo‘lgan?
3. Bu san’at turining rivojlanishiga nima sabab bo‘lgan?
4. Meva va sabzavodlarga turli shakllar berilishiga sizning fikringiz qanday?


2. O‘qing.

Ko‘pchilik avtomobil sohiblari mashinalari boshqalardan ajralib turishini xohlaydi. Buning uchun avtotyuningdan foydalanadilar. Tyuning – avtomobillarni o‘ziga xos va mos qilib takomillashtirish, individual ko‘rinish berishni anglatadi. Bunda mashinaning barcha qismlariga o‘zgartirish kiritish mumkin.

Zamonaviy sozlashda avtomobilning tashqi va ichki ko‘rinishi va mexanikasini yaxshilash mumkin. Ya’ni tyuning xizmatlariga mashinalarning bamperlarini almashtirish, boshqa jihozlar o‘rnatish, avtomobilni bo‘yash, rasm tushirish va boshqalar kiradi.

3D rasm chizish noyob rassomchilik san’ati bo‘lib, biror jismni shakl holida tasvirlashdir. Ya’ni 3 o‘lchamda (eni, bo‘yi, balandligini) chizishdir. Qog‘ozda, ba’zan devor yoki asfaltlarda bunday rasmlarga ko‘zingiz tushgan. Xuddi rasm emas, qo‘l bilan ushlab bo‘ladigan jismdek ko‘rinadi. Uch o‘lchovli tasvirlarni chizish bir qarashda ancha murakkab. Siz bundan cho‘chimay, qiziqish bilan urinib ko‘ring. Birinchi marta o‘xshamasligi mumkin. Lekin umidsizlikka tushmang. Diqqat bilan namunalarni o‘rganing. Qayta-qayta mashq qilib, hammasini uddalaysiz.

43


3. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Avtotyuning yordamida mashinaning ayrim qismlariga o‘zgartirish kiritiladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
2. Avtotyuningda mashinaning rusumi ham o‘zgaradi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Uch o‘lchamli rasmlarni chizish juda oson.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. 3D rasm namunalari qog‘ozga, devorga, hatto asfaltlarga ham chiziladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

takomillashtirmoq
sozlamoq
bezamoq
logist
jihoz

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Marketolog – tovar va xizmatlar reklamasi, iste’molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish bilan shug‘ullanadigan shaxs.

1	Marketolog	Ko‘kalamlashtirish loyihalarini amalga oshiradi. Obodonlashtirish uchun yerlarni tayyorlaydi.
2	Logist	Diqqatga sazovor joylarda: ko‘rgazmalar, muzeylar, qo‘riqxonalar, me’moriy inshootlarda sayyohlarga yo‘lboshchilik qiladi.
3	Landshaft dizayneri	Tovarlarni tashishni, ularni saqlashni tashkil qiluvchi mutaxassis.
4	Ekskursiya rahbari (gid)	Iste’molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish, tovar va xizmatlar reklamasi bilan shug‘ullanadigan shaxs.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
gilamdo‘z.

S	F	M	A	R	K	E	T	O	L	O	G
D	G	I	L	A	M	D	O‘	Z	B	R	Y
L	A	A	L	S	D	U	Q	A	N	D	U
Y	N	Z	K	S	F	R	U	R	J	I	Y
O	CH	X	J	O	B	A	V	G	L	Z	K
P	K	F	U	M	K	D	CH	A	F	A	L
L	O	G	I	S	T	G	I	R	D	Y	P
R	R	B	T	F	A	O	R	D	Y	N	O
M	E	N	E	J	E	R	T	A	H	E	Y
E	A	D	R	F	H	G	Y	S	N	R	Q

Mustaqil ish

Zamonaviy hunarlar haqida 3 ta fakt yozing.

44

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

4. 2-topshiriqda berilgan matnni “Izohli o‘qish” usulidan foydalanib o‘qiting.

Bunda o‘qilgan matn mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlari hisoblanadi. Matn mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar matndagi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratiladi. O‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganlarida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

Ko‘pchilik avtomobil sohiblari mashinalarini boshqalardan ajralib turishini xohlaydilar. (Nima uchun?) Buning uchun avtotyuningdan foydalanadilar. (Sizga notanish so‘z qaysi?) Tyuning – avtomobillarni o‘ziga xos va mos qilib takomillashtirish, individual ko‘rinish berishni anglatadi. (Bu haqda bilarmidingiz?) Mashinaning barcha qismlariga o‘zgartirish kiritish mumkin. (Qaysi qismlarini o‘zgartirish kerak deb o‘ylaysiz?) Zamonaviy sozlashda avtomobilning tashqi va ichki ko‘rinishi va mexanikasini yaxshilash mumkin. (Qanday rusumdagi avtomobilingiz bo‘lishini xohlaysiz?) Ya’ni tyuning xizmatlariga mashinalarning bamperilarni almashtirish, boshqa jihozlar o‘rnatish, avtomobilni bo‘yash, rasm solish va boshqalar kiradi. (Shunday kasb egasi bo‘lishni istarmidingiz?)

3D rasm chizish noyob rassomchilik san’ati bo‘lib, biror jismni shakl holida tasvirlashdir. Ya’ni 3 o‘lchamda (eni, bo‘yi, balandligi) chizishdir. Qog‘ozda, ba’zan devor yoki asfaltlarda bunday rasmlarga ko‘zingiz tushgan. Xuddiki rasm emas, qo‘l bilan ushlab bo‘ladigan jismdek ko‘rinadi. Uch o‘lchovli tasvirlarni chizish bir qarashda ancha murakkab bo‘ladi. Siz bundan cho‘chimay, qiziqish bilan urinib ko‘ring. Ba’zida hamma narsa

birinchi marta o‘xshamasligi mumkin. Lekin umidsizlikka tushmang. Diqqat bilan namunalarni o‘rganing. Qayta-qayta mashq qilish davomida uddalaysiz.

5. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

№	Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1	Avtotyuning yordamida mashinaning ayrim qismlariga o‘zgartirish kiritiladi.		+
2	Avtotyuningda mashinaning rusumi ham o‘zgaradi.		+
3	Uch o‘lchamli rasmlarni chizish juda oson.		+
4	3D rasm namunalari qog‘ozga, devorga, hattoki asfaltlarga ham chiziladi.	+	

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *takomillashtirmoq, sozlamoq, bezamoq, logist, jihoz.*

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Zamonaviy kasblarga mos keluvchi izohlarni moslashtirib yozishni topshiring. Namunani doskada tushuntiring.

1	Marketolog	Iste’molchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish, tovar va xizmatlar reklamasi bilan shug‘ullanadigan shaxs.
2	Logist	Tovarlarni tashishni, ularni saqlashni tashkil qiluvchi mutaxassis.
3	Landshaft dizayneri	Ko‘kalamlashtirish loyihalarini amalga oshiradi. Obodonlashtirish uchun yerlarni tayyorlaydi.
4	Ekskursiya rahbari	Diqqatga sazovor joylarda: ko‘rgazmalar, muzeylar, qo‘riqxonalar, me’moriy inshootlarda sayyohlarga yo‘lboshchilik qiladi.

8. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni yozma bajartiring.

Namuna:

Gilamdo‘z, marketolog, logist, menejer, ganchkor, rassom, duradgor, to‘quvchi, zargar, dizayner

9. Refleksiya. “Timsoh” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda o‘quvchi doskaga chiqib, bugungi mavzudan esida qolgan bitta so‘zni imo-ishoralar yordamida ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa bu so‘zni o‘quvchining harakatiga qarab topishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga zamonaviy hunarlar haqida 3 ta fakt yozib kelishni topshiring.

6-MAVZU. MAHORAT DARSI: “IKKINCHI UMR”


DARSNING MAQSADI:

- Sifatdoshlarni ishlata oladi. (*urf bo‘layotgan libos, erkaklar, bolalar kiyadigan kiyim* singari)
- Kiyimlar, liboslar, milliy hunarmandchilik namunalariga bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi; joy, qurilmalar, liboslar va buyumlarning tasvirini yoza oladi.
- Predmetlarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga hunarlar haqida yozib kelgan faktlarni o‘qittiring. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Bo‘shab qolgan buyumlarni tashlab yuborasizmi?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.



MAHORAT DARSI: “IKKINCHI UMR”

1. O‘ylang va toping. Savollarga javob bering.

1. Bu buyumlar nimadan yasalgan deb o‘ylaysiz?
2. Siz ham shunday buyumlar yasab ko‘rganmisiz?
3. “Ikkinchi umr” deganda nimani tushunasiz?

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Polietilen vatani – Amerika.

1. Polietilen vatani – … .
2. Plastikni 1855-yili ingliz metallurgi va ixtirochisi … kashf qilgan.
3. Plastikdan … yasaladi.
4. … – polietilendan voz kechgan birinchi shtat.

3. O‘qing. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna:
1 – G. Bu buyumni yasash unchalik qiyin emas.

A. Aygancha, mahsulotning ost qismidan teshikchalar qo‘yish esdan chiqmasin.
B. Plastik idishning yotiq holatda bir tomoni kesib olinadi.
D. Idish pushti rangga bo‘yaladi.
E. Ko‘zlari, burunlari qora bo‘yoqda chiziladi.
F. Yasalgan buyumlarga gullar yoki ko‘katlar ekish mumkin.

45

2. O‘quvchilarning diqqatini 1-topshiriqda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmlarda nimalarni ko‘ryapsiz?

Rasmlarda tasvirlangan buyumlar, ularning nimadan yasalgani haqida suhbat uyushtiring.

1. Bu buyumlar nimadan yasalgan deb o‘ylaysiz?
2. Siz ham shunday buyumlar yasab ko‘rganmisiz?
3. “Ikkinchi umr” deganda nimani tushunasiz?

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Plastik 1855-yilda ingliz ixtirochisi Aleksandr Parks tomonidan kashf etilgan mustahkam, qulay materialdir.

50-yillarning o‘rtalarida Amerikada polietilen paketlar paydo bo‘la boshlaydi va bu kundalik hayotda birmuncha osonlashtirdi. Hozir uni hamma joyda topish mumkin, ammo o‘sha paytda hech kim ushbu ixtironing zarari haqida o‘ylamagan edi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, har kuni okeanga bitta yuk tashuvchi avtomobil hajmida plastmassa tushishi oqibatida yiliga 1 million qush, 100 ming sutemizuvchi va juda ko‘p baliqlar nobud bo‘ladi. Plastmassadan foydali narsalar: qadoqlash buyumlari, o‘yinchoqlar, texnik uskunalar va hatto mebellar ham tayyorlanadi. Plastikni chiqindiga tashlash mumkin emas. Chunki tabiat uni 100 yillar davomida ham hazm qila olmaydi va Yer yuzi qalin chiqindilar qatlami bilan qoplanadi. Bunday falokatlarning oldini olish uchun chiqindilarni saralash lozim. Plastmassa alohida chiqindiga tashlansa, zarar yetkazish o‘rniga sayyoramiz uchun foyda keltiradi. Ba’zi narsalarga ikkinchi umr berish, hatto undan boshqa narsa tayyorlash mumkin. Masalan, oddiy plastik butilka ruchka, soat, mebel, idish-tovoq va hatto kiyim-kechakka aylanishi mumkin. Buning uchun plastmassani saralab chiqindiga tashlash kerak.


Ko‘p davlatlar ushbu ekologik ofatga qarshi kurashishni boshlagan. Masalan, Gavayi – Amerikada polietilendan butunlay voz kechgan birinchi shtat. O‘zbekistonda polietilen paketlar uchun to‘lov joriy qilindi. Atrof-muhitga plastik chiqindilarning chiqarilishini kamaytirish uchun polietilendan foydalanishni minimal darajaga tushirish, uni qog‘oz paketlari bilan almashtirish, qayta ishlash uchun plastik idishlarni maxsus idishlarga tashlash biz va siz qila oladigan narsalarning kichik bir qismidir.

Do‘stlar, kelinglar, Yerimizni turli falokatlardan asraylik!!!

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

Namuna:

1. Polietilenning vatani – Amerika.
2. Plastik 1855-yilda ingliz metallurgi va ixtirochisi Aleksandr Parks tomonidan kashf qilingan.
3. Plastikdan polietilen paketlar yasaladi.
4. Gavayi – Amerikada polietilendan voz kechgan 1-shtat.


G. Bu buyumni yasash unchalik qiyin emas.
H. Qopqog‘i bor qismi boshi hisoblanadi va shu tomondan kesayotganda quloq qismi qoldiriladi.
I. 5 litr yoki 10 litrlik plastik idish va rangli bo‘yoq kerak.
A. Quloq uchun boshqa tarelka teng ikkiga bo‘linadi va yelim yordamida niqobga yopishtiriladi (qotiriladi).
B. Akril bo‘yoq bilan bo‘yaladi.
D. Bu buyum bir martalik likopchalardan yasaladi.
E. Bo‘yoq qurigandan so‘ng boshqa rangli bo‘yoq bilan burun, kiprik, tishlar, mo‘ylov chiziladi.
F. Niqobni taqish uchun rezina qadaladi.
G. Ukalarimizga sovg‘a qilsak, juda xursand bo‘ladilar.
H. Ko‘zlar uchun teshiklar teshiladi.
I. Bo‘yash uchun turli bo‘yoqlar ham kerak.
4. O‘ylang va toping. Yozing.
plastik, bo‘yoq, rangli, stakan, polietilen, turli, paket, yashil, plastmassa, buyum, qog‘oz, idish.
Qanday? | Nima?
plastik | idish
mahsulot chiqindi ekmoq kurashmoq kesmoq qadoqlamoq
5. O‘ylang va toping. Gapiring.
Mustaqil ish
Siz ham shunday buyumlar yasab keling.
46

5. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, jarayonning ketma-ketligini topa olishi uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Bu topshiriqni o‘quvchilar guruhlarga ajratilib yoki “Zanjir” usulida ham aytib berishlari mumkin. Bunda chiqindiga chiqqan plastik idishdan gul ekadigan buyum yasash bosqichlari haqida suhbat uyushtiring. (Bunday plastik buyumlardan juda ko‘p foydalanilgani uchun ulardan unumli foydalanishda aynan shu mahsulot tanlandi)

Namuna:

1 – G. Bu buyumni yasash unchalik qiyin emas.
2 – I. 5 litr yoki 10 litrlik plastik suv idish va rangli bo‘yoq kerak.
3 – B. yotiq holatda plastik idishning bir tomoni kesib olinadi.
4 – H. Qopqog‘i bor qismi boshi hisoblanadi va shu tomondan kesayotganda quloq qismi qoldiriladi.
5 – A. Aytgancha, mahsulotning ost qismidan teshikchalar qo‘yish esdan chiqmasin.
6 – D. Idish pushti rangga bo‘yaladi.
7 – E. Ko‘zlari, burunlari qora bo‘yoqda chiziladi.
8 – F. Yasalgan buyumlarga gullar yoki ko‘katlar ekish mumkin.

(Darslikda topshiriqda berilgan jarayonga mos bo‘lmagan rasm qo‘yilgan. O‘quvchilar jarayonni o‘qib tushunganlaridan keyin berilgan rasm o‘rnida qanday buyum tayyorlanganini o‘ylab topishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilarning javob variantlarini eshitgandan keyin quyidagi rasmni ko‘rsating)



Bir martalik foydalaniladigan yelim idishdan niqob tayyorlash:

1 – D. Bu buyum bir martalik likopchalardan yasaladi.
2 – I. Bo‘yash uchun turli bo‘yoqlar ham kerak.
3 – H. Ko‘zlar uchun teshiklar teshiladi.
4 – B. Akril bo‘yoq bilan bo‘yaladi.
5 – E. Bo‘yoq qurigandan so‘ng boshqa rangli bo‘yoq bilan burun, kiprik, tishlar, mo‘ylov chiziladi.
6 – A. Quloq uchun boshqa tarelka teng ikkiga bo‘linadi va yelim yordamida niqobga yopishtiriladi (qotiriladi).
7 – F. Niqobni taqish uchun rezina qadaladi.
8 – G. Ukalarimizga sovg‘a qilsak, juda xursand bo‘ladilar.

6. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Bu topshiriqni “T-chizma” usuli asosida bajartishingiz mumkin.

Foydalanish uchun so‘zlar: *plastik, bo‘yoq, rangli, stakan, polietilen, turli, paket, yashil, plastmassa, buyum, qog‘oz, idish.*

Qanday?	Nima?
Plastik	stakan
Rangli	qog‘oz
Polietilen	paket
Turli	buyum
Yashil	bo‘yoq
Plastmassa	idish

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *mahsulot, chiqindi, ekmoq, kurashmoq, kesmoq, qadoqlamoq.*

8. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Berilgan rasm asosida buyumning yasalish bosqichlarini tartib bilan gapirib berishni topshiring.

Namuna:

1. Eni 5 cm bo‘lgan rangli qog‘ozlarni kesib olamiz.

9. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu so‘z bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga bo‘shagan plastik idishlardan yoki foydalanilgan mahsulotlardan biror buyum tayyorlab kelishni topshiring.


7-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar tayyorlab kelgan buyumlarni baholang. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.


ADABIY O‘QISH

“Farhod va Shirin”

nasriy bayondan parcha

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir?!

Chin mamlakatida ikki hunarmand usta bor edi. Har ikkisi go‘yo egizak tug‘ilganday edilar. Birining ismi Boniy, boshqa birinikі esa Moniy edi. Bu mamlakatda Boniyday me’mor, Moniyday naqqosh topilmas edi. Boniy qurgan har bir bino osmon koshonasidek qulash nimaligini bilmas, u ishlatgan tuproq toshday mustahkam bo‘lar edi. Moniy ham shunday usta naqqosh ediki, agar jonsiz suratga bezak bera boshlasa, u tasvir tirik odamday bo‘lib ketardi.

Bu ikkovidan tashqari yana bir tezkor usta bor edi. Uning san’ati ham juda nozik edi. U toshkesar Qoran edi.

Donishmand vazir Mulkoro ularning hammasini yoniga chorlab, so‘z ochdi:

– Shohimiz sizga to‘rtta go‘zal qasr qurishni buyurdilar. Boisi shahzoda Farhod yilning to‘rt faslida shu saroyda istiqomat qiladi.

Ustalar o‘z bilimlarini ishga solib, saroy qurishni boshladilar. Qurilishda ishlar reja bilan borar ekan, bu haqida shahzoda Farhodga gapirib berdilar:

– Osmon singari shunday to‘rt qasr qurilsaki, dunyoning to‘rt qit’asida ham boshqa bunday qasr topilmas.

Binolarni baddan ziyod ta’rif qilishdi. Shahzoda ham borib ko‘rishni havas qilib qoldi.

Qasr qurilishini ko‘rish uchun borgan Farhod hunarmandlarning ishini zavq bilan kuzatdi.

Har bir usta o‘z ishiga berilib ketgan edi. Ayniqsa, toshtarosh usta o‘tkir teshalari bilan katta-katta toshlarni sariyog‘ kabi kesar edi. Shahzoda buning sirini bilishga nihoyatda qiziqib qoldi. Ustalarning ishini kuzatib turgan shahzodada hunarga bo‘lgan qiziqish ortib borar edi. Ularning mahorat bilan ishlashini ko‘rgan shahzoda har bir ustaga tahsinlar aytdi.

Farhod Qorandan tosh yo‘nishni, Moniydan naqqoshlikni, Boniydan me’morlikni o‘rgandi. Bu hunarlarning mohir ustasiga aylandi.

Savollar:

1. Chin mamlakatida qanday ustalar bor edi?
2. Moniyning mahorati haqida gapiring.
3. Vazir Mulkoro ustalarga qanday vazifa topshirdi?
4. Farhod nima uchun ustalarning ishiga qiziqib qoldi?
5. U ilk hunarini qaysi ustadan o‘rgandi?

naqqosh
me’mor
koshona
donishmand
istiqomat qilmoq
qasr

47

2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Hunarlar bilan bog‘liq qanday asarlarni bilasiz?

Alisher Navoiyning qanday asarlarini eshitgansiz yoki o‘qigansiz?

“Farhod va Shirin” dostoni haqida eshitganmisiz?

O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni nasriy bayonidan qisqartirilgan parcha o‘qilishini ta’kidlang.

3. Alisher Navoiy va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Alisher Navoiy (1441 – 1501) – buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi. To‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher bo‘lib, u Navoiy taxallusi ostida turkiy (eski o‘zbek tili) hamda Foniy taxallusida forsiyda (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan.

Alisher Navoiyning badiiy merosi adabiyotimizda salmoqli o‘rin egallaydi. Olti dostonining hajmi 60 000 ga yaqin misrani tashkil etadi. 1483–1485-yillar Navoiy “Xamsa” asarini yaratgan. Uning tarkibida 5 ta katta doston bor: “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”).

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI

(nasriy bayonidan parcha)

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir?!

Chin mamlakatida ikki hunarmand usta bor edi. Har ikkisi go‘yo egizak tug‘ilganday edilar. Birining ismi Boniy, boshqa biriniki esa Moniy edi. Bu mamlakatda Boniyday me’mor, Moniyday naqqosh topilmas edi. Boniy qurgan har bir bino osmon koshonasidek qulash nimaligini bilmas, u ishlatgan tuproq toshday mustahkam bo‘lar edi. Moniy ham shunday usta naqqosh ediki, agar jonsiz suratga bezak bera boshlasa, u tasvir tirik odamday bo‘lib ketardi.

Bu ikkovidan tashqari, yana bir tezkor usta bor edi. Uning san’ati ham juda nozik edi. U toshkesar Qoran edi.

Donishmand vazir Mulkoro ularning hammasini yoniga chorlab, so‘z ochdi:

– Shohimiz sizga to‘rtta go‘zal qasr qurishni buyurdilar. Boisi shahzoda Farhod yilning to‘rt faslida shu saroyda istiqomat qiladi.

Ustalar o‘z bilimlarini ishga solib, saroy qurishni boshladilar. Qurilishda ishlar reja bilan borar ekan, bu haqida shahzoda Farhodga gapirib berdilar:

– Osmon singari shunday to‘rt qasr quriladiki, dunyoning to‘rt qit’asida ham boshqa bunday qasr topilmas.

Binolarni haddan ziyod ta’rif qilishdi. Shahzoda ham borib ko‘rishni havas qilib qoldi.

Qasr qurilishini ko‘rish uchun borgan Farhod hunarmandlarning ishini zavq bilan kuzatdi.

Har bir usta o‘z ishiga berilib ketgan edi. Ayniqsa, toshtarosh usta o‘tkir teshalari bilan katta-katta toshlarni sariyog‘ kabi kesar edi. Shahzoda buning sirini bilishga nihoyatda qiziqib qoldi. Ustalarning ishini kuzatib turgan shahzodada hunarga bo‘lgan qiziqish ortib borar edi. Ularning mahorat bilan ishlashini ko‘rgan shahzoda har bir ustaga tahsinlar aytdi.

Farhod Qorandan tosh yo‘nishni, Moniydan naqqoshlikni, Boniydan me’morlikni o‘rgandi. Bu hunarlarning mohir ustasiga aylandi.

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Chin mamlakatida qanday ustalar bor edi?
2. Moniyning mahorati haqida gapiring.
3. Vazir Mulkoro ustalarga qanday vazifa topshirdi?
4. Farhod nima uchun ustalarning ishiga qiziqib qoldi?
5. U ilk hunarini qaysi ustadan o‘rgandi?

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *naqqosh, me’mor, koshona, donishmand, istiqomat.*

7. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

2030-YIL (21 SOAT)
KELAJAKDAGI KASBLAR (8 SOAT)
1-MAVZU. DUNYODAGI KASBLAR

DARSNING MAQSADI:

- Predmetlar, kasblar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi. Qisqa hikoya va ertaklar yoza oladi.
- Xohish-istaklar: haqida gapira oladi. Kishilarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. O‘quvchilar bilan yangi bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “Ha-yo‘q dema” so‘z o‘yinidan foydalangan holda suhbat uyushtiring. Bunda o‘quvchilar savollarga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini ishlatmasdan javob berishlari kerak.

Masalan:

1. Kasblar haqida ma’lumotga egamisiz?
2. Kasblarni qiyin yoki oson kasblarga ajratish mumkinmi?
3. Rasmlarda qanday kasb egalari tasvirlangan?
4. Ularning vazifasi nimadan iborat?
5. Siz uchun bu kasblarning qaysi biri qiziqarli va u bilan shug‘ullanishni xohlaysiz?

Har bir o‘qituvchi o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib savollar tuzishi mumkin.

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.

2. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 1-topshiriq berilgan. O‘quvchilar kasb nomlari bilan rasmlarni moslashtirib aytishlari kerak.

Masalan: 1 – o‘qituvchi.

3. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Boris Aleksandrovdan muvaffaqiyatli biznesmenning 5 qoidasi:

1. Butun kuchingizni bitta narsaga sarflang. Biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun bir vaqtning o‘zida bir necha ishni bir paytda qila olmaysiz. Shunday qilsangiz, yutqizasiz. Biznes ishi o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi.

2. Biznes yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqing. Biznesning o‘ziga xos xususiyati shundaki, menejer vaqti-vaqti bilan o‘z xodimlarini nazorat qilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, siz hamma narsaga tayyor bo‘lishingiz va hech qachon taslim bo‘lmasligingiz kerak.

3. Xodimlarni ijobiy yo‘llar bilan rag'batlantiring. Har qanday sharoitda sizning motivatsiyangiz xodimlarga kuch berishiga ishonch hosil qiling.

4. Mijozlaringizni tinglang. Sizning kompaniyangiz mijozlar hisobiga rivojlanadi. Shuning uchun siz birinchi navbatda e’tibor berishingiz kerak bo‘lgani – iste’molchilarning fikri. Har doim mijozlarning xatti-harakatlarini kuzatib boring va ulardan mahsulotingiz haqida qanday fikrda ekanini so‘rang. Bu sizga talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va muvaffaqiyatli sotishga yordam beradi.

5. Tajribali tadbirkorlarning bilimlarini o‘zlashtiring. Dunyoning eng yirik iqtisodchilarining tajribasini, biznes sohasidagi qarashlarini o‘rganish tavsiya etiladi. Shundan keyingina tadbirkorlik olamiga birinchi qadamni qo‘ying.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun nima qilish kerak?
2. Biznesning o‘ziga xos xususiyati nimada?
3. Rahbar o‘z xodimlariga qanday munosabatda bo‘lishi kerak?
4. Kompaniya kimlarning hisobiga rivojlanadi?
5. Kimlarning tajribalarini o‘rganish tavsiya qilinadi?


KELAJAK KASBLARI

DUNYODAGI KASBLAR

1. O'ylang va toping. Gapiring.

Tikuvchi, Arxitektor, O'qituvchi, Uchuvchi, Sartarosh, Haydovchi, O't o'chiruvchi, Shifokor

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun nima qilish kerak?
2. Biznesning o'ziga xos xususiyati nimada?
3. Rahbar o'z xodimlariga qanday munosabatda bo'lishi kerak?
4. Kompaniya kimlarning hisobiga rivojlanadi?
5. Kimlarning tajribalarini o'rganish tavsiya qilinadi?

og'riqsiz, hushyor, xushmuomala, xatarli, qiziqarli, davolamoq, haydamoq

3. O'qing.

Shahnoza opa – stomatolog

Shahnoza opa 32 yoshda. U oilaviy poliklinikada stomatolog bo'lib ishlaydi. O'z ishini juda yaxshi ko'radi. Bolalarning tishlarini **og'riqsiz** davolaydi.


49

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *og‘riqsiz, hushyor, xushmuomala, xatarli, qiziqarli, davolamoq, haydamoq.*

6. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga o‘qittiring. Agar dars jarayonida o‘quvchilarni guruhlarga ajratgan bo‘lsangiz, har bir guruhga bitta matnni o‘qishni topshiring.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.


Maqsud aka – haydovchi

Maqsud aka 44 yoshda. U taksi haydovchisi. Taksoparkda ishlaydi. Nihoyatda hushyor va xushmuomala odam. Yo'lovchilarni aytilgan vaqtda o'z manzillariga etib qo'yadi.

Iroda opa – o'qituvchi

Iroda opa 36 yoshda. U maktabda o'zbek tili fanidan dars beradi. Darslarni qiziqarli o'tadi. Biz o'zbek tili darslarini yaxshi ko'ramiz.

Anvar aka – ichki ishlar xodimi

Anvar aka 28 yoshda. U xorijiy va mahalliy sayyohlar xavfsizligini ta'minlash bo'limida ishlaydi. Biroz xatarli bo'lishiga qaramay, o'z ishini juda yaxshi ko'radi.

4. O'ylang, toping va yozing.

Namuna:
Shahnoza opa 32 yoshda. U xususiy klinikada stomatolog bo'lib ishlaydi.

	Ismi	Yoshi	Kasbi	Ish joyi
1	Shahnoza opa	32	stomatolog	xususiy klinika
2			haydovchi	
3				maktab
4		28		

5. O'ylang, toping va yozing.

Kim? Stomatolog og'riqsiz davolaydi. Haydovchi ..... O'qituvchi ..... Ichki ishlar xodimi .....

Foydalanish uchun so'zlar: xatarli / og'riqsiz, hushyor / qiziqarli

Mustaqil ish

Yaqinlaringizning kasbi, yoshi va ish joyi haqida yozib keling.

50

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqda berilgan jadvalni namuna asosida to‘ldirishni tushuntiring. Gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

Shahnoza opa 32 yoshda. U xususiy klinikada stomatolog bo‘lib ishlaydi.

8. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida nuqtalar o‘rnini to‘ldirib, so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib yozishni tushuntiring. Bu mashqni doskada bajartiring.

Namuna:

1. Stomatolog og‘riqsiz davolaydi.
2. Haydovchi mashinani hushyor boshqaradi.
3. O‘qituvchi darsini qiziqarli o‘tadi.
4. Ichki ishlar xodimi xatarli vazifalarni ham bajaradi.

9. Refleksiya. “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri” metodidan foydalaning. Bunda har bir ishtirokchi bir varaq qog‘ozda o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan mavzu bo‘yicha uchta to‘g‘ri fikr va bitta noto‘g‘ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juft-juft bo‘lib to‘planadilar, varaqlarni almashadilar va qaysi fikr noto‘g‘ri ekanligini aniqlaydilar.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga yaqinlarining kasbi, yoshi va ish joyi haqida ma’lumot topib yozib kelishni topshiring.

2-MAVZU. KASB QANDAY TANLANADI?


DARSNING MAQSADI:

- Kelasi zamon fe'llari (kelasi zamon maqsad fe'li, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon gumon fe'li)ni ishlata oladi.
- Predmetlar, kasblar bilan bog'liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O'z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o'qiganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushunadi. Qisqa hikoya va ertaklar yoza oladi.
- Xohish-istaklari haqida gapira oladi. Kishilarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O'quvchilarga berilgan mustaqil topshiriq asosida yaqinlarining kasbi, yoshi va ish joyi haqida yozib kelgan ma'lumotlarni o'qishni topshiring. Vazifani ijodiy yondashib, bajargan o'quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag'batlantiring.

"Siz kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasbingizni tanlaganmisiz?" savoli bilan o'quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.


KASB QANDAY TANLANADI?

1. O'ylang va toping. Gapiring.

Bog'bon, fotograf, shifokor, arxeolog, advokat, marketolog, asalarichi, haydovchi, santexnik, zargar, muzeyshunos.

1. Odam – odam: o'qituvchi, ...
2. Odam – tabiat: baliqchi, ...
3. Odam – texnika: operator, ...
4. Odam – belgilar tizimi: hisobchi, ...
5. Odam – badiiy obraz: aktyor, ...

2. Tinglang, o'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
3D dizaynerga arxitektura, qurilish, sog'liqni saqlash sohalarida talab yuqori bo'ladi.

	KASBGA XOS XUSUSIYATLAR		KASBLAR
1	Arxitektura, qurilish, sog'liqni saqlash sohalarida talab yuqori.	A	Brend menejer
2	Matnlarni to'g'ri yoza oladigan mutaxassis. Unga, ayniqsa, reklama sohasida ehtiyoj katta.	B	Dasturchi
3	Kompyuter dasturlash sohasining mutaxassisi.	C	3D dizayneri
4	Bu soha tez sur'atlarda ilgarilab ketmoqda.	D	Kontent menejer
5	Kompaniyaning imijini yaratadi.	E	Robototexnika mutaxassisi

51

2. O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 1-topshiriq berilgan. Berilgan namuna asosida so'zlarni o'z o'rniga qo'yib gapirib berishlarini tushuntiring. Topshiriqni guruhlarga ajratgan holda ham bajartirish mumkin. Mavzuga kirish uchun quyidagi fikrlarni o'quvchilaringizga yetkazishingiz muhim.

Kasb kishining mehnat faoliyati, doimiy shug'ullanadigan mashg'uloti turi bo'lib, ma'lum bir ishni malakali bajarishga imkon beradigan bilim va tajribalarni talab qiladi. Kasblar bir qancha tiplarga bo'linadi: kasb egasi insonlar bilan ishlaydi, texnika bilan ishlaydi, belgilar tizimi bilan ham ishlashi mumkin. Badiiy obraz bilan faoliyat yuritadigan kasb egalari ham bor. O'ylab ko'ring-chi, quyida berilgan kasblar qaysi tipga kirar ekan?

Foydalanish uchun so'zlar: *bog'bon, fotograf, shifokor, arxeolog, advokat, marketolog, asalarichi, haydovchi, santexnik, zargar, muzeyshunos.*

Namuna:


1. Odam – odam: o'qituvchi, shifokor, advokat.
2. Odam – tabiat: baliqchi, bog'bon, asalarichi.
3. Odam – belgilar tizimi: hisobchi, marketolog, haydovchi.
4. Odam – badiiy obraz: aktyor, muzeyshunos, zargar.

3. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo'lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o'qib bering.

KELAJAKNING TOP-10 KASBLARI

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, shu bilan birga, ba'zi kasblar eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Bunday vaziyatda doimo o'z ustingizda ishlash ko'nikmasini shakllantirishingiz, izlanishingiz va professional faoliyatning turli sohalari bo'yicha zamonaviy bilimlar, tanqidiy va kreativ fikrlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishingiz lozim. Quyida sizga kelajakda dolzarb, talab yuqori bo'ladigan kasblar va ularning afzalliklari bilan tanishtiramiz.

Dasturchi va axborot texnologiyalari mutaxassisi. Kompyuter dasturchisining vazifasi dasturlarni ishlab chiqish yoki uni yanada takomillashtirishdir. Hozirgi zamonda hech bir kasb axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasini chetlab o‘tolmaydi. 2000-yillar boshida ommalasha boshlagan ushbu soha hozirda tez sur’atlar bilan ilgarilab ketmoqda. Bu esa dasturchilar va IT sohasi vakillariga bo‘lgan talabning yanada o‘sishini anglatadi.


DIQQAT QILING

Men		-man	Biz		-miz
Sen	... + moqchi	-san	Siz	... + moqchi	-siz
U		-	Ular		-lar

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Men kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman.

1. Men kelajakda ... bo'l ....
2. Abduluziz ikki yildan so'ng universitetga kir ....
3. Biz juma kuni arxitektor bilan uchrash ....
4. U logistika sohasini o'rgan ....
5. Ular hunarmandning ustaxonasiga bor ....

4. O'ylang va toping. Gapiring.

	Kasblar egasi	Otlar	Sifatlar	Fe'llar
1	arxitektor	qog'oz, maket	aqlli, mulohazali	chizadi, loyihalashtiradi
2		taroq, qaychi		
3	fermer		mehnatkash, tadbirli	
4	o't o'chiruvchi			qutqarmoq, evakuatsiya qilmoq
5		bo'yoqlar, mo'yqalam		

Kasbni to'g'ri tanlash uchun tavsiyalar
1. O'z qiziqishlaringizni aniqlab oling.
2. Bilimlaringizni kengaytiring.
3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing.
4. Ota-onangiz maslahatlari yordamida mustaqil qaror qabul qiling.

Mustaqil ish
Kelajakda o'zingizni qaysi kasb egasi sifatida tasavvur qilasiz? Tanlamoqchi bo'lgan kasbingiz haqida quyidagi tavsiyalardan foydalanib 30–50 so'zdan iborat esse yozing.

52

3D-dizayner. 3D printerlarining hayotimizga kirib kelgani barchamizga ma’lum. Ushbu texnologiyalardan foydalanish uchun malakali 3D-dizaynerlarning alohida o‘rni bor. Ularga arxitektura va qurilish, sanoatning turli yo‘nalishlari, sog‘liqni saqlash, kompyuter o‘yinlari va kino sanoatida talab yuqori.

Kontent-menejer – media va reklama bo‘yicha mutaxassis. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda jarangdor va ta'sirchan matnlar yoza oladigan, kopirayterlik, tahrir va dizaynerlik ko‘nikmalarini o‘zida jamlagan mutaxassis. Nafaqat reklama, balki media va ko‘ngilochar sohalarda ham. texnologiyalar insonning noyob ijodiy mahsuli va kreativ fikrlash darajasiga yetgani yo‘q.

Brend menejer. Bu kasb egalarining asosiy vazifasi mahsulot imijini yaratish, har bir savdo markasini jozibali va talabga javob beradigan qilishdir.

Robototexnika mutaxassislari. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrni robotlarsiz tasavvur qilish qiyin. Og‘ir qo‘l mehnati talab qilinadigan ishlarni robotlarga topshirish ommalashib borgani sayin ularni yaratishga, ishlab chiqarishga, xizmat ko‘rsatish sohalariga jalb etishga bo‘lgan talab ortib boradi

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni yozma bajartiring.

Namuna:

3D-dizayneriga arxitektura, qurilish, sog‘liqni saqlash sohalarida talab yuqori bo‘ladi.

5. “Diqqat qiling!” ruknida kelasi zamon fe’llari haqida ma’lumot berib o‘ting.

Kelasi zamon maqsad fe’li bajarilishi maqsad qilib qo‘yilgan harakatni ifoda etadi va fe’lning o‘zak negiziga *-moqchi* qo‘shimchasini qo‘shib tuslash orqali hosil bo‘ladi: *ishla+moqchi+man, ishla +moqchi+san, ishla+moqchi; ishla+moqchi+miz, ishla +moqchi+siz, ishla+moqchi+lar.*

6. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni o‘z o‘rnida qo‘yib yozishni tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

Men kelajakda o‘qituvchi bo‘lmoqchiman.

7. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Bunda jadvalning bo‘sh qolgan qismi zarur so‘zlar bilan to‘ldiriladi.

№	Kasblar	Otlar	Sifatlar	Fe’llar
1	arxitektor	qog‘oz, maket	aqlli, mulohazali	chizadi, loyihalashtiradi
2	sartarosh	taroq, qaychi	chaqqon, uquvli	tekislaydi, pardoz qiladi
3	fermer	ketmon, traktor	mehnatkash, tadbirli	ekadi, yig‘ishtiradi

4	o‘t o‘chiruvchi	suv, mashina	chaqqon, tezkor	qutqarmoq, evakuat-siya qilmoq
5	rassom	bo‘yoqlar, mo‘yqa-lam	jozibali, chiroyli	chizadi, tasvirlaydi

8. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga bugungi darsda eslarida qolgan bitta so‘zni daftarlariga yozish vazifasini bering. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarga e’tibor qaratmaganini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

9. O‘quvchilarga mustaqil topshiriqni tushuntiring.

Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun tavsiyalar:

1. O‘z qiziqishlaringizni aniqlab oling.
2. Bilimlaringizni kengaytiring.
3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing.
4. Ota-onangiz maslahatlari yordamida mustaqil qaror qabul qiling.

O‘quvchilarga shu tavsiyalardan foydalanib o‘zlari orzu qilgan kasblari haqida 30–50 ta so‘zdan iborat esse yozishni topshiring.

3-MAVZU. KASB HAM ESKIRADI(MI?)

DARSNING MAQSADI:

- Kirish birikmalarini ishlata oladi (*menimcha, mening fikrimcha* singari). Predmet-lar, kasblar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi. Xohish-istaklari haqida gapira oladi. Kishilarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga berilgan mustaqil topshiriq asosida o‘zlari orzu qil-gan kelajakdagi kasblari haqida yozgan esselarini o‘qittiring.

Vazifaga ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. “Siz yo‘qolib borayotgan kasblar haqida eshitganmisiz?” savoli yordamida o‘quvchilarni mavzuga olib kiring.

3. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz?

1-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lgan holda o‘qiting.

Oq‘uvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-top-shiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda berilgan matn asosida kasblar va ular bilan bog‘liq izohlarni birlashtiradilar.

Namuna:

Chiroqchilar (fanorchi, charoqbon) tongda va kech kirganda chiroqlarni o‘chirib-yoqish bilan shug‘ullangan.

5. “Diqqat qiling!” ruknida otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar haqida ma’lumot berib o‘ting.

be-, ser-, bo-, no- qo‘shimchalari so‘zlarning old tarafidan qo‘shilib, *-li, -siz, -(v)iy, -chan* qo‘shimchalari so‘zlardan keyin qo‘shilib sifat yasaydi.

Masalan, *bebaho, serhosil, ma’noli, ishchan.*


6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *shiddatli, xavotir uyg‘otmoq, masofaviy ta’lim, ehtiyoj, yaratuvchanlik.*

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Berilgan namuna asosida qo‘shimchalardan mosini qo‘yib gaplarni to‘liq yozdiring.

Namuna:

1. Ilmsizga ishonch yo‘q, hunarsizga quvonch yo‘q.
2. Mehnatsiz topilgan mol hisobsiz ketar.
3. Bekorchidan bemaza gap.
4. Hunarli xor bo‘lmas,
   Do‘st-dushmanga zor bo‘lmas.
5. Hunarli o‘lmas,
   Hunarsiz kun ko‘rmas.


KASB HAM ESKIRADI(MI)?

1. O'qing.

Telefon operatori

Ushbu jiddiy kasb vakillari asosan qizlar edi. Operatorlar telefon liniyalarini bir-biriga almashtirish va ulash vazifasini bajargan. Qo'l rejimida ulanish atigi sakkiz soniyani tashkil qilgan.

Muz yoruvchilar

Muz ustida yurib uzun parrakli arra bilan muzni kesganlar. Bu juda xavfli kasb edi. Ba'zan katta hajmli muz sinib, muz yoruvchilar suvga cho'kib ketgan paytlar ham bo'lgan.

Chiroqchilar

Bugungi kunda ko'cha chiroqlarining bir vaqtda yonib-o'chishi odatiy holdir. Ammo avvallari ko'chalarni yorug'lik bilan ta'minlash uchun chiroqchilarni yollashgan. Ular har kuni maxsus tayoqchalari bilan yortgichlarni yoqib, tongda o'chirishgan. Bu kasb egalari hududlarga biriktirilgan va bu hududlar uzoq masofalarga cho'zilgan.


Uyg'otuvchilar

Zamonaviy soatlar ixtiro qilinmagan paytda shunday kasb egalari bo'lgan. Ishchilar ishga kechikmasligi uchun maxsus odamlar har tongda derazalarni taqillatib, ularni uyg'otishgan. Hozir bunga ehtiyoj qolmagan va kasb yo'qolib ham ketgan.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Telefon operatori	juda xavfli kasb egalari bo'lgan.
Muz yoruvchilar	ishchilar ishga kechikmasligi uchun tongda derazalarni taqillatib, ularni uyg'otishgan.
Chiroqchilar	telefon liniyalarini bir-biriga ulash vazifasini bajargan.
Uyg'oruvchilar	tongda va kech kirganda chiroqlarni o'chirib-yoqish bilan shug'ullangan.

53


be-
ser-
no-
bo-
ot

-li
-siz
-chan
-(v)iy

shiddatli
xavotir uyg'otmoq
masofaviy ta'lim
ehtiyoj
yaratuvchanlik

3. O'ylang va toping. Yozing.

1. Ilm (-siz, -li)ga ishonch yo'q, Hunar (-siz, mand)ga quvonch yo'q.
2. Bekorchidan maza (be-, -li) gap.
3. Mehnat (-siz, -li) topilgan mol hisob (-siz, -li) ketar.
4. Hunar (be-, -li) xor bo'lmas,
   Do'st-dushmanga zor bo'lmas.
5. Hunar (-li, -siz) o'lmas,
   Hunar (-li, -siz) kun ko'rmas.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

Hozir

Keyin

5. O'ylang va toping. Yozing.

Yo'qolgan kasblar	Yo'qolish arafasidagi kasblar	O'lmas kasblar
muz yoruvchilar	hisobchi	o'qituvchilik

Mustaqil ish

Kasblarning yo'qolishiga sabab bo'luvchi 3 ta fakt yozing.

54

8. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashayapmiz. O‘ylab ko‘ring-a, yaqindagina mobil telefonlar paydo bo‘lganidan quvonayotgan edik. Ammo bugun gadjetlarimiz deyarli barcha vazifalarni bajarmoqda. Texnika insoniyat hayotini yengillashtirmoqda. Ammo hozirda robot xizmati kengayib borayotgani hamda ular eng qiyin vazifalarni ham amalga oshirayotgani kelajakda insonlar mehnatiga ehtiyoj yo‘qolib ketishiga olib keladi, degan xavotir uyg‘otmoqda. Ta’lim tizimi bugungidan butunlay o‘zgaradi. Masofaviy ta’lim orqali istalgan bilimni olish mumkin. Kelajakda IT texnologiyalari orqali o‘qitish tizimi keng joriy etiladi. Albatta, yaxshi pedagoglar doim qadrlanadi va ularning bilimi juda zarurligicha qoladi, ammo ta’lim berish sharoitigina o‘zgaradi. Tushkunlikka tushishga hojat yo‘q. O‘z ishining ustasiga doim ish topiladi, shu sababli yaratuvchanlik ruhi bilan yashayvering. To‘g‘ri, botlar ham yangiliklar yoza olishi mumkin, ammo chin san’at asarlarini insonlar yaratadilar. Rassomlar, yozuvchilar, sartaroshlar, oshpazlarga har qanday texnika taraqqiyotida ham ehtiyoj yo‘qolmaydi. Unutmangki, avtomatlashtirishning vazifasi – bizning vaqtimizni va katta kuchimizni talab qilayotgan ishlarga ko‘maklashishdan iborat. Biz esa ortgan vaqt hisobiga muhim ishlarni bajarishimiz mumkin.

9. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan rasmlar asosida hozirda mavjud bo‘lgan, lekin kelajakda yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan kasblar haqida suhbat uyushtiring.

10. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Berilgan ma’lumotlar asosida jadvalni to‘ldirishni topshiring.

Yo‘qolgan kasblar	Yo‘qolish arafasida bo‘lgan kasblar	Mangu yashaydigan kasblar
muz yoruvchilar	hisobchi	o‘qituvchi
chiroqchilar	barmen	yozuvchi
uyg‘otuvchilar	tikuvchi	rassom
telefon operatorlari	sotuvchi	oshpaz

11. Refleksiya. “O‘zimga qaytar” metodi asosida 1-qatordagi o‘quvchilarga yo‘qolib ketgan kasblar, 2- qatordagi o‘quvchilarga yo‘qolish arafasida bo‘lgan kasblar, 3-qatorga abadiy yo‘qolmaydigan kasblardan bittasining nomini tezlk bilan yozishni topshiring.

1-qator yozganini o‘qigandan keyin 2-qatordagilar shu so‘zlarni yoddan aytishlari kerak, 2-qatordagilar 3-qatordagilar o‘qiganlarini yoddan aytib beradilar.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

12. O‘quvchilarga “3 ta fakt” metodi asosida kasblarning yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi 3 ta fakt yozib kelishni topshiring.

4-MAVZU. KELAJAK KASBLARI

DARSNING MAQSADI:

- Kirish birikmalarini ishlata oladi (*menimcha, mening fikrimcha* singari). Predmetlar, kasblar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi. Xohish-istaklari haqida gapira oladi. Kishilarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga yo‘qolib borayotgan kasblar haqida yozib kelgan faktlarni o‘qittiring. Xato yozilgan so‘zlar bo‘lsa, tuzatib keting.

“Kelajakda qanday yangi kasblar paydo bo‘lishi mumkin?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.


2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Urbanist – shaharsozlik bo‘yicha mutaxassis. Aholining o‘sib borishi avtomatik tarzda shaharlarning kengayishiga olib keladi. Megapolislarni loyihalashtirish, qurish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq qulay shahar muhitini yarata oladigan mutaxassislarga bo‘lgan talab katta tezlikda o‘sib boradi.

Biotexnologiya va biomuhandislik mutaxassislari. Shubhasiz, biotexnologiya va biomuhandislikning global ahamiyati sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Hozirdanoq sun’iy organlarni yaratish, ularni ko‘chirib o‘tkazish, protez oyoq-qo‘llarni yasash tibbiyotning ajralmas qismi bo‘lib qolgan hamda kelajakda ularning imkoniyatlari va qo‘llanishi faqat oshib boradi.

Muqobil energetika sohasi mutaxassislari. Yer yuzida qazib olinadigan tabiiy resurslar zaxiralari miqdori tugab borar ekan, muqobil manbalardan olinadigan energiya-

ning ahamiyati muttasil oshib boradi. Yevropa Ittifoqining rivojlangan davlatlari hamda AQSHning Kaliforniya shtati 2020-yildan energiyaning 20% ini muqobil energiya manbalaridan olishga o‘tmoqda. Bu borada quyosh, suv to‘lqinlari, shamol energetikasi mutaxassislari haqiqatan ham juda zarur.


KELAJAK KASBLARI

1. Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
2 – energetika mutaxassisi, ...

muhandis
texnolog
dizayner
shaharsoz
urbanist
AT mutaxassisi

2. "Insert" usulida o'qing.

	Ma'lumotlar	+ / - / V / ?
1	Kelajakda talab qilinadigan kasblar – ijtimoiy mutaxassisliklar. Insoniyat bor ekan, odamlar bilan ishlash hamisha yetakchi o'rinni egallaydi.	
2	Tadqiqotchilar yaqin o'n yil ichida eng ko'p talab qilinadigan kasblar reytingini tuzdi. Ushbu reytingda muhandislar birinchi o'rinni egalladi. Undan keyingi o'rinlarda – AT mutaxassislari va kompyuter texnikasi ishlab chiqaruvchilari.	
3	Bundan tashqari, sotuvchi, ekolog kabi kasb egalari ham oson ish topadi.	
4	O'qituvchilar, shifokorlar va kimyogarlarga ham har doimgidek talab yuqori bo'ladi.	

55

Avtomatlashtirilgan texnologik tizimlar operatori va texnologi. Kelajak ishchisi deganda birinchi navbatda murakkab avtomatlashtirilgan tizimlarning ishlashini tushunadigan mutaxassis ko‘z oldimizga keladi. Katta hajmdagi mexanizmlarning faoliyati uchun zarur bo‘lgan muhandislik bilimlari va ta’mirlash ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtirgan ushbu mutaxassislar nafaqat hozirgi kunda nihoyatda kerak, balki 10 yildan keyin ham ularga bo‘lgan talab kamaymaydi.

Oziq-ovqat sanoati mutaxassisi. Yer yuzi aholisi soni ko‘payish bilan, oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Biz kundalik iste’mol qiladigan oziq-ovqatlarning tabiiy va sifatli bo‘lishi malakali agronom va biolog mutaxassislarning yetishib chiqishi bilan bog‘liq.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida ularning diqqatini rasmlarga qarating.

Rasmda qanday kasb egalarini ko‘ryapsiz?

Matn asosida kasblarni nomlab yozishni topshiring.

Namuna:

2 – energetika mutaxassisi.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *muhandis, texnolog, dizayner, shaharsoz, urbanist, AT mutaxassisi.*

5. 2-topshiriqda berilgan matnni “Insert” usulida o‘qittiring.

“Insert” metodi

Insert bu – o‘quv jarayonida o‘zining anglashini faol kuzatish uchun imkoniyat beradigan vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganini eslab qolmasligi mumkin. Bu esa nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faollikni yo‘qotadi. Insert bu – matn bilan ishlanganda faollikni qo‘llab-quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V – bilganlarimni tasdiqlaydi;

+ – yangi axborot;

- – bilganlarimga zid keladi;

? – meni o‘ylantirib qo‘ydi.

6. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan.

O‘quvchilarning diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.


- Rasmda nimani ko‘ryapsiz?

Shu rasm asosida savollarga javob berishsin.

1. Sizningcha, bu tasvir necha xonali uyning chizmasi?

2. Sizningcha, uyda nechta deraza bor?

3. Uyda nechta eshik bor?
4. Chizmadan oshxonani toping.
5. Sizningcha, chizmaga qanday o‘zgartirishlar kiritish mumkin?


3. O'ylang, toping va gapiring.

1. Sizningcha, bu tasvir necha xonali uyning chizmasi?
2. Sizningcha, uyda nechta deraza bor?
3. Uyda nechta eshik bor?
4. Chizmadan oshxonani toping.
5. Sizningcha, chizmaga qanday o'zgartirishlar kiritish mumkin?

DIQQAT QILING

1) Menimcha, ...
2) ..., menimcha, ...
3) ..., menimcha.

4. O'ylang, toping va yozing.

Namuna:
Menimcha, kelajakda AT mutaxassislariga talab yuqori bo'ladi.

1. Menimcha, kelajakda AT mutaxassislariga talab yuqori bo'ladi.
2. ..., har qanday davrda ham o'qituvchilik kasbiga talab yuqori bo'ladi.
3. Kelajakda dizaynerlikning yangi yo'nalishlari paydo bo'ladi, ...
4. Shifokorlik, ..., har doim eng kerakli kasblardan biri sanaladi.
5. ..., eng ahamiyatli kasb qaysi?

5. O'ylang, toping va gapiring.

Namuna:
A: Kelajakda qaysi kasblarga talab yuqori bo'ladi deb o'ylaysiz?
B: Menimcha, dizayner va muhandis-texnologlarga talab yuqori bo'ladi.

A: .....
B: .....
A: .....
B: .....

Mustaqil ish

O'zingiz yashayotgan uyning chizmasini chizishga harakat qiling.

56

7. “Diqqat qiling!” ruknida kirish so‘zlar haqida ma’lumot berib o‘ting.

So‘zlovchining fikriga ishonch, gumon, taxmin singari ma’nolarni qo‘shadigan so‘zlarga kirish so‘zlar deyiladi. Kirish so‘zlar yozuvda gapning boshqa bo‘laklaridan doimo vergul bilan ajratiladi.

Kirish so‘zlar gapning turli o‘rinlarida qo‘llana oladi. Yozuvda gap boshida kelsa, kirish so‘zdan so‘ng, o‘rtasida kelsa, kirish so‘zning har ikki tomonidan, gap oxirida kelsa, kirish so‘zdan oldin vergul qo‘yiladi. Masalan, *Menimcha, kelajakda AT mutaxassislariga talab yuqori bo‘ladi.*

8. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 4-topshiriq berilgan.

O‘quvchilarga namunada berilgani kabi nuqtalar o‘rniga kirish so‘zlardan mosini qo‘yib yozishni topshiring.

Namuna:

1. Menimcha, kelajakda AT mutaxassislariga talab yuqori bo‘ladi.
2. Menimcha, har qanday davrda ham o‘qituvchilik kasbiga talab yuqori bo‘ladi.
3. Kelajakda dizaynerlikning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘ladi, menimcha.
4. Shifokorlik, menimcha, har doim eng kerakli kasblardan biri sanaladi.
5. Sizningcha, eng ahamyatli kasb qaysi?

9. O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun 5-topshiriq berilgan. Namunada berilgani kabi o‘quvchilar bilan og‘zaki savol-javob tashkil qiling. Bunda har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining bilim salohiyatidan kelib chiqqan holda savollarni beradi.

Namuna:

A: Kelajakda qaysi kasblarga talab yuqori bo‘ladi deb o‘ylaysiz?
B: Menimcha, dizayner va muhandis-texnologlarga talab yuqori bo‘ladi...

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga bugungi darsda yodingizda qolgan bitta so‘zni daftarlariga yozish vazifasini bering. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarga e’tibor qaratmaganini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida o‘zlari yashaydigan uy chizmasini chizib kelishni topshiring.

5-MAVZU. XXI ASR DASTURCHILARI

DARSNING MAQSADI:

- Kirish birikmalarni ishlata oladi (*menimcha, mening fikrimcha* singari). Predmetlar, kasblar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi. Xohish-istaklari haqida gapira oladi. Kishilarni tasvirlay oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida har biri o‘zlari yashaydigan uy chizmasini taqdimot qilishni topshiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Orangizda dasturchilik kasbiga qiziqadiganlar bormi? Bu kasb egalari qanday faoliyat yuritadi?” kabi savollar bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

IT – KELAJAK SOHASI

Bugungi kunda turli sohalarda axborot texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda, shu tufayli IT talab yuqori bo‘lgan va ustuvor sohalardan biriga aylanmoqda. Deyarli barcha kompaniyalar yaxshi IT mutaxassisiga ehtiyoj sezgani bois axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassisga bo‘lgan talab juda yuqori.

Keling, keng tarmoqli IT sohasidagi ba’zi kasblarni ko‘rib chiqamiz.

Veb-dasturchi. Internet resurslarini ishlab chiqishga veb-dasturchi javobgardir. Bu internet-marketingning asosiy shaxslaridan biri bo‘lib, uning bilim va ko‘nikmalarisiz loyiha yaratuvchilarining g‘oyalarini amalga oshirish mumkin emas.

SEO-mutaxassis. SEO-mutaxassis veb-saytni Google, Yandex kabi qidiruv tizimlarida targ‘ib qilish maqsadida uni optimallashtirish uchun javobgardir.

SMM mutaxassisi. SMM (*sotsial media marketing)* – ijtimoiy media marketing internet-marketingning bir turi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy tarmoqlardan mijozlarni mahsulot va xizmatlarga jalb etish. SMM mutaxassisi kompaniya ijtimoiy tarmoqlarining sahifasini rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, u ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bilan faol aloqada bo‘lishga javobgardir.

Kopirayter. Bu kontent menejeri bilan birgalikda ishlaydigan matn muallifidir. Matnlar bir qator talablarga javob berishi kerak. Shu bilan birga, kopirayter imlo qoidalariga rioya qilgan holda bexato yozishi kerak.

Veb-tahlilchi. Internet saytiga tashrif buyuruvchilarning xatti-harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdi va tahlil qiladi. Asosan ushbu mutaxassis SEO mutaxassisi va sayt egasi manfaati uchun ishlaydigan boshqa guruh a’zolari harakatlarining sifatini baholaydi.

Bekend mutaxassisi (inglizcha Back-end develope). Oldingi ishlab chiquvchiga qarama-qarshi bo‘lib, sayt yoki dasturning ichki qismini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.


Veb-dizayner. Ichki jozibadorlik uchun mas’ul bo‘lgan internet-loyiha rassomi. Veb-dizaynerning asosiy vazifasi internet loyihaga imkon qadar ko‘proq foydalanuvchilarni qiziqtirishdir.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 1-topshiriq berilgan.

O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz?

Foydalanish uchun so‘zlar: *“Telegram”, “Facebook”, “Alibaba”, “Amazon”, “Google”, “Microsoft Office”.*


XXI ASR DASTURCHILARI

1. Tinglang. O'ylang, toping va yozing.

"Telegram", "Facebook", "Alibaba", "Amazon", "Google", "Microsoft Office"

1. Pavel Durov – "Telegram" ilovasini yaratgan.
2. ...
3. ...
4. ...
5. ...
6. ...

DIQQAT QILING

Men		-man	Biz		-miz
Sen	... + y/a	-san	Siz	... + y/a	-siz
U		-	Ular		-lar

dasturchi internet mutaxassis maqsad qilmoq o'z ustida ishlamoq daromad topmoq

2. O'ylang va toping. Yozing.

1. Sherali Obidov "Google" kompaniyasida ishla... .
2. Kompaniya AT mutaxassislariga yuqori haq to'la... .
3. Dasturchilik kasbi tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qil... .
4. Stiv Jobs, Pavel Durov kabi dasturchilarni butun dunyo tani... .
5. Maqsadimiz aniq bo'lsa, unga, albatta, erish... .

57


3. O'qing.

Men, Sherali Obidov, Namangan viloyatida tug'ilganman. Hozir "Google" kompaniyasida dasturchi bo'lib ishlayman. O'zimni dunyodagi eng muvaffaqiyatli insonlardan biri deb bilaman. Sababi bolalikda niyat qilgan barcha maqsadlarimga erishdim. Istagan oliygohimda tahsil oldim. Ayni paytda jahondagi eng yirik kompaniyada ishlayman. Biroq bularning hech biri osonlikcha qo'lga kiritilmadi. Orzularimni amalga oshirish uchun men eng yaxshi mutaxassislardan tahsil olib, o'z ustimda ishladim.

Biror kasbni tanlolmay turgan yoshlarga dasturchilikni tavsiya qilaman. Chunki siz doimo zamon bilan hamnafas bo'lasiz va yaxshi daromad topasiz. Dasturchilik kasbi ham boshqa kasblar singari tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qiladi.

Bir narsani unutmang, dasturchi bo'lasizmi yoki o'qituvchi, shifokor, barto oddiy sartarosh, ishingizni zo'r bilsangiz, kuchlisi bo'lsangiz, hamisha yaxshi pul topasiz. Kuchli mutaxassis har joyda qadrlanadi. Ishda ham, hayotda ham kerakli va sevimli bo'lasiz.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. O'zini muvaffaqiyatli insonlar safiga kirgizadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Dasturchi bolalikda qilgan niyatlarining ayrimlariga erisha olmadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Dasturchilik kasbini egallagan inson doimo zamon bilan hamnafas bo'ladi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Faqat dasturchilar o'z ishini zo'r bilishi kerak.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
5. Barcha kasblar ham tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qiladi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Internetning foydali tomonlari	Internetning zararli tomonlari

Mustaqil ish

Oilangiz a'zosidan kasbi va kelgusi rejalari haqida intervyu oling.

58

O‘quvchilardan rasmlar va berilgan so‘zlarni moslashtirib, namunadagi kabi gaplar tuzishni topshiring.

Namuna:

1. Pavel Durov – “Telegram” ilovasini yaratgan.
2. Jeff Bezos – “Amazon”ga asos solgan.
3. Mark Sukerberg – “Fecebook” asoschisi.
4. Larri Peyj va Sergey Brinlar – “Google” asoschilari.
5. Jek Ma – “Alibaba” asoschisi.
6. Bill Geyts – “Microsoft” asoschisi.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *dasturchi, internet, mutaxassis, maqsad qilmoq, o‘z ustida ishlamoq, daromad topmoq.*

5. “Diqqat qiling!” ruknida hozirgi-kelasi zamon fe’li haqida ma’lumot berib o‘ting.

Hozirgi-kelasi zamon fe’li nutq so‘zlanib turgan paytda va undan keyin ro‘y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. *Yoshlikda zahmat chekib, ilm o‘rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.* (Koshifiy)

Hozirgi-kelasi zamon fe’li sof fe’l negiziga *-a, -y* qo‘shimchasini qo‘shish va tuslash bilan hosil qilinadi.

Men	o‘qiyman	boraman
Sen	o‘qiysan	borasan
U	o‘qiydi	boradi
Biz	o‘qiymiz	boramiz
Siz	o‘qiysiz	borasiz
Ular	o‘qiydi(lar)	boradi(lar)

6. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 2-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga zarur qo‘shimchalarni qo‘shib yozish kerakligini tushuntiring. Keyin esa mashqni doskada yozma tarzda bajartiring. O‘quvchilarga mashqni daftarga yozib olishlarini topshiring.

Namuna:

1. Sherali Obidov “Google” kompaniyasida ishlaydi.
2. Kompaniya AT mutaxassislariga yuqori haq to‘laydi.
3. Dasturchilik kasbi tinimsiz mehnatni, izlanishni talab qiladi.
4. Stiv Jobs, Pavel Durov kabi dasturchilarni butun dunyo taniydi.
5. Maqsadimiz aniq bo‘lsa, unga, albatta, erishamiz.

7. 3-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qittiring. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

Namuna:

1. O‘zini muvaffaqiyatli insonlar safiga kirgizadi. A. To‘g‘ri.

9. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 5-topshiriq berilgan.

T-chizma asosida internetning foydali va zararli tomonlari haqida suhbat tashkil qiling. Bunda o‘quvchilarning og‘zaki nutq tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat beriladi.

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda har bir o‘quvchi bugungi mavzuda esida qolgan bitta so‘zni daftariga yozadi. Keyin so‘zlarni hammaga o‘qittirasiz. Qaysi so‘z ko‘p takrorlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z “kalit so‘z” deb qabul qilinadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida oila a’zolaridan birining kasbi va undan kelajak rejalari haqida intervyu olib kelishni topshiring.

6-MAVZU. QUTQARUVCHI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi, predmetlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi, xohish-istaklar haqida gapira oladi, hikoya va ertaklar yoza oladi, kelasi zamon fe’llarini, kirish birikmalarni ishlata oladi.
- O‘quvchilar dars davomida qutqaruvchi kasbi haqida ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar.


VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida oila a’zolaringizdan birining kasbi va kelajak rejalari haqida ma’lumotlarini o‘qiting. Bu topshiriqni har bir o‘quvchidan so‘rashga harakat qiling.

“Odamlarga tez xizmat ko‘rsatadigan qanday kasblarni bilasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 1-topshiriq berilgan. Jadvalda berilgan raqamlar bilan kasb nomlarini moslashtirib aytadilar. Shu kasb egalari haqida qisqa suhbat uyushtiring.

O‘t o‘chiruvchi – 101.
Ichki ishlar bo‘limi – 102.
Tezyordam – 103.
Gaz xizmati – 104.


QUTQARUVCHI

1. O'ylang va toping. Gapiring.

101 102 103 104

101	Gaz xizmati
102	O't o'chiruvchi
103	Ichki ishlar
104	Tez yordam

tez yordam
muassasa
manzil
dori-darmon
ma'lumot
qutqaruv xizmati
vaziyat
tezkor

2. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qo'shiq qaysi kasb egalari haqida?
2. Sizningcha, favqulodda vaziyatlarga nimalar kiradi?
3. Tabiiy ofat, xavfli hodisalar paytida qutqaruvchilarning vazifasi nima?
4. Qutqaruvchiga xos shaxsiy sifatlarni sanang.

DIQQAT QILING

Menimcha, mening fikrimcha, bizningcha

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Yong'in chiqqanda, menimcha, o't o'chiruvchilarga tezda xabar berish kerak.

1. Yong'in chiqqanda, … , o't o'chiruvchilarga tezda xabar berish kerak.
2. … , har bir o'quvchi favqulodda hodisalar yuz berganda evakuatsiya qilish xaritasi bilan tanish bo'lishi shart.
3. … , kasallikni davolagandan uning oldini olgan ma'qul.
4. … , suv toshqini paytida balandroq tepalik ustiga chiqish kerak.


59

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Yigitlar

Favqulodda holatlar sohasi mas’ulimiz,
Kasbning fidokorimiz, tinch yashagay elimiz.
Turli balo-ofatlardan Alloh O‘zi asrasin,
Qayda bo‘lsak hamisha panohida asrasin
Ona vatan ko‘rkidur, iftixori – yigitlar.
El boshiga ish tushsa, dastyori – yigitlar,
Omon bo‘lsin hamisha jasur o‘g‘lon-yigitlar,
Qadamida o‘t chaqnar ko‘ksi qalqon yigitlar.

Zilzila, qor ko‘chkisi, sel – ofat darakchisi,
Biz – uni mardonavor bartaraf qilguvchisi.
Sev tabiat, hayotni, qaytar balo-ofatni,
Asra, inson, o‘zingni, yurtingni va elingni.
Ona vatan ko‘rkidur, iftixori – yigitlar,
El boshiga ish tushsa dastyori – yigitlar.
Omon bo‘lsin hamisha jasur o‘g‘lon-yigitlar.
Qadamida o‘t chaqnar ko‘ksi qalqon yigitlar.


4. O'qing.

1009 Sizga yoki oilangizdagi kattalarga biror tashkilot, muassasa manzili, telefon raqami kerak bo'lib qolsa, **1009** raqamiga qo'ng'iroq qilib bog'laning. Navbatchi dispetcher sizga so'rovingiz bo'yicha ma'lumot beradi.

1069 Biror dori-darmon turi, narxi yoki qayerdan topish mumkinligi haqida ma'lumot kerak bo'lsa, 1069 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

1050 Qutqaruv xizmati inson hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar yuzaga kelganda tezkor yordam ko'rsatadi. Bu uchun siz 1050 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

5. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	Ukangiz mashinada qulflanib qolsa, 1009 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	✓
2	Oshxonada gaz hidi sezilsa, 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	
3	Izlagan dorilaringiz qaysi dorixonada borligini bilmoqchi bo'lsangiz, 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	
4	Yaqinlaringiz ishlayotgan tashkilot yoki muassasa manzilini aniqlash uchun 1009 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	
5	Sayr qilayotganingizda kuchukchangiz kanalizatsiya qudug'iga tushib ketsa, 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilasiz.	

Mustaqil ish
Maktabingizdagi evakuatsiya xaritasi bo'yicha harakatlanish tartibini o'rganing va chizing.

60

4. O‘quvchilarning qo‘shiq matnini tinglab tushunganlarini aniqlash uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Qo‘shiq qaysi kasb egalari haqida?
2. Sizningcha, favqulodda vaziyatlarga nimalar kiradi?
3. Tabiiy ofatlar paytida qutqaruvchilarning vazifalari nimalardan iborat bo‘ladi?
4. Qutqaruvchilarga xos shaxsiy sifatlarni sanang.

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qaratting. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tezyordam, muassasa, manzil, dori-darmon, ma’lumot, qutqaruv xizmati, vaziyat.*

6. “Diqqat qiling!” ruknida menimcha, mening fikrimcha, bizningcha kabi kirish so‘zlar haqida ma’lumot bering.

So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabatini bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi *kirish so‘z* yoki *kirish birikma* deb yuritiladi.

Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalaydi. (*menimcha, sizningcha, ularning aytishicha, aytishlaricha* kabilar)

Menimcha, to‘g‘risini o‘z vaqtida aytib, xatoning oldini olgan yaxshidir. *(J. Abdullaxonov)*

Keksalarning aytishicha, o‘sha suv tog‘ning tirqishidan oqib kelib, mana shu buloqdan chiqarmish. (P. Qodirov)

Eshitishimcha, Anorxon bilan musobaqalashishga kelishibsizlarmi? (J. Abdullaxonov).

Tadqiqotchi olimlarning fikricha, chinor daraxtini qadim-qadim davrlarda yurt kezuvchi sayyohlar, savdogarlar... Eron va unga qo‘shni mamlakatlardan O‘zbekistonga olib kelishgan. (A. Aminov).

7. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 3-topshiriq berilgan.

O‘quvchilarga namunada berilgani kabi nuqtalar o‘rniga kirish so‘zlardan mosini qo‘yib yozishni topshiring.

Namuna:

1. Yong‘in chiqqanda, menimcha, o‘t o‘chiruvchilarga tezda xabar berish kerak.
2. Ustozimizning aytishicha, har bir o‘quvchi favqulodda hodisalar yuz berganda evakuatsiya qilish xaritasi bilan tanish bo‘lishi shart.
3. Shifokorlarning aytishicha, kasallikni davolagandan uning oldini olgan ma’qul.
4. Qutqaruvchilarning fikricha, suv toshqini paytida balandroq tepalik ustiga chiqish kerak.
5. Bizning fikrimizcha, inson hayotiga xavf tug‘ilganda qutqaruvchilar yordamga keladi.

8. 4-topshiriq asosida berilgan matnni “Zanjir” usulida ifodali o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida To‘g‘ri-noto‘g‘ri mashqini og‘zaki bajartiring.

1	Ukangiz mashinada qulflanib qolsa, 1009 raqamiga qo‘ng‘iroq qilasiz.	✗
2	Oshxonada gaz hidi sezilsa, 1050 raqamiga qo‘ng‘iroq qilasiz	✓
3	Izlagan dorilaringiz qaysi dorixonada borligini bilmoqchi bo‘lsangiz, 1050 raqamiga qo‘ng‘iroq qilasiz.	✗
4	Yaqinlaringiz ishlayotgan tashkilot yoki muassasa manzilini aniqlash uchun 1009 raqamiga telefon qilasiz.	✓
5	Sayr qilayotganingizda kuchukchangiz kanalizatsiya qudug‘iga tushib ketsa, 1050 raqamiga qo‘ng‘iroq qilasiz.	✓

10. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.

Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.

Men, albatta, qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.

O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida maktabingizdagi evakuatsiya xaritasi bo‘yicha harakatlanish tartibini o‘rganish va chizish topshirig‘i, shuningdek, uni bajarish yuzasidan tavsiyalar beriladi.

7-MAVZU. G‘AROYIB KASBLAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi shaxslar, predmetlar joylar tasvirini tushuna oladi, predmetlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi, xohish-istaklar haqida gapira oladi, hikoya va ertaklar yoza oladi, kelasi zamon fe’llarini, kirish birikmalarini ishlata oladi.
- O‘quvchilar dars davomida g‘aroyib kasblar haqida ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida berilgan maktab evakuatsiya xaritasining chizmasini taqdimot qilish topshirig‘ini bering. Har bir o‘quvchining ishiga “Barakalla:”, “Ofarin:” so‘zlari bilan rag‘bat berib turing.

“Siz qanday g‘aroyib kasblar haqida bilasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash maqsadida quyidagi test topshirig‘i bajariladi.

1. Degustatorlar shokoladni yaxshi ko‘radi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

2. “Apple” kompaniyasi xodimlariga yaxshi haq to‘laydi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

3. Pingvinlar kuchli shovqindan muvozanatni yo‘qotib yiqilib tushadi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

4. Pingvin o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi.

A. To‘g‘ri **B. Noto‘g‘ri**



G‘AROYIB KASBLAR

1. O‘qing.

Shokolad tatib ko‘ruvchilar

Bu ish egalari bir kunda o‘rtacha yigirma turdagi shokoladni tatib ko‘rishadi. Degustator shokolad bo‘laklarini tekshiradi, ularning rangi va tuzilishini, so‘ngra xushbo‘yligini va nihoyat ta’mini tahlil qiladi. Shirinliklarni har kuni yeyish kishi sog‘lig‘i uchun zararlidir. Shu sababli mashhur qandolat kompaniyalari bu ish uchun yiliga 30 ming funt sterling to‘laydi.

Navbatda turuvchilar

Narxlar arzonlaydigan mavsum bu kasb egalari qattiq ter to‘kishadi. Ular boshqalar uchun navbatda turib, biror tovarni sotib oladi. Ana shunday kasb egalaridan birining aytishicha, u haftasiga ming dollargacha haq oladi.

Pingvin ko‘taruvchilar

Pingvin uchib ketayotgan vertolyot yoki samolyot shovqinidan boshini ko‘tarib, muvozanatini yo‘qotib, shunchaki orqasiga yiqilib tushadi. So‘ng o‘rnidan tura olmaydi.


Shuning uchun deyarli barcha qutb stansiyalarida pingvin ko‘taruvchilar bor. Ish juda oddiy ko‘rinadi. Lekin har qanday ob-havoda, xoh bo‘ron bo‘lsin, xoh 50 daraja sovuq bo‘lsin, pingvinlarni qutqarish kerak.

2. O‘ylang, toping, gapiring.

1. Degustatorlar shokoladni yaxshi ko‘radi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
2. Qimmat tovarlar ayrim paytlarda arzon narxlarda sotiladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

tanbeh
mahsulot
qo‘rqinchli
qandolatchilik
yollash
qobiliyat

61



3. Pingvin o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

3. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Matnda qanday kasblar haqida so‘z borgan?
2. Siz ham shunday g‘aroyib kasblar haqida bilasizmi?
3. Qaysi kasb qiyinroq deb o‘ylaysiz?
4. Shu kasblardan qaysi birini tanlagan bo‘lardingiz? Nima uchun?

DIQQAT QILING

Men		-man	Biz		-miz
Sen	… + r/ar	-san	Siz	… + r/ar	-siz
U		-	Ular		-lar

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
G‘aroyib kasblar haqida yanada ko‘proq ma’lumot to‘plarman.

1. G‘aroyib kasblar haqida yanada ko‘proq ma’lumot to‘pla… .
2. Golf o‘ynashni yoqtirganim uchun to‘p yig‘uvchi kasbini tanlashni o‘ylab ko‘r… .
3. Shirinliklarni tayyorlashda aynigan tuxum ishlatilmasligi uchun tuxum hidlovchilarni ishga olish… .
4. Kelajakda biz ham tabiatni asrash bo‘yicha turli loyihalarimizni taqdim qil…

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Ot (bitta)	degustator
Sifat (ikkita)	
Fe’l (uchta)	
Gap (to‘rt so‘zdan iborat)	
Sinonim	

Mustaqil ish

G‘aroyib kasblar haqida esse yozing.

62

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering.) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tanbeh, mahsulot, qo‘rqinchli, qandolatchilik, yollash, qobiliyat.*

5. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

1. Matras tekshirgich.

Bolaligimizda kim ham to‘shakda sakrashni yoqtirmasdi? To‘g‘ri, to‘shakda mazza qilib sakragandan keyin ota-onamizdan tanbeh eshitamiz. Lekin Ruben Reinoso buning uchun pul to‘laydi! Bu ishchilar matras fabrikasida ishlaydi va ular xohlagancha sakrab, mahsulotning sifatini tekshiradi.

2. Qo‘rqinchli odam.

Ehtimol, eng g‘alati kasblardan biri “qo‘rqinchli odam” bo‘lsa kerak. Shunga qaramay, institutni tamomlagan yigit aynan shu ishga joylashdi. Uning vazifasi yorqin to‘q sariq rangli palto kiygan holda mahalliy qushlarni akkordeon va qo‘ng‘iroq bilan qo‘rqitish edi. Bu ishi uchun unga haftasiga 250 funt sterling maosh to‘lashadi.

3. Tuxum hidlovchi.

Ba’zi qandolatchilik do‘konlarida tuxum hidlaydiganlar mavjud. Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda aynigan tovuq tuxumlari ishlatilmasligi uchun shunday ishchilarni olishgan. Ular kuchli hid bilish qobiliyatiga ega va yaxshi maosh olishadi.

4. Golf to‘plarini yig‘uvchi.

Kompaniyalar uchun golf to‘plarini qayta sotib olishdan ko‘ra o‘yin davomida yo‘qotgan to‘plarini yig‘ish uchun odamlarni yollash ancha foydali. Bunday ishchilardan ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lishi talab etiladi, chunki ular golf maydonida yo‘qolgan to‘plarni topishlari kerak.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

1. Matnda qanday kasblar haqida so‘z borgan?
2. Siz ham shunday g‘aroyib kasblar haqida bilasizmi?
3. Qaysi kasb qiyinroq deb o‘ylaysiz?
4. Shu kasblardan qaysi birini tanlagan bo‘lardingiz? Nima uchun?

7. “Diqqat qiling!” ruknida kelasi zamon gumon fe’li haqida ma’lumot berib o‘ting.

Kelasi zamon gumon fe’li *-r/-ar* qo‘shimchasi qo‘shib yasalgan sifatdoshni tuslash bilan ifodalanadi:

Men		man	Biz		miz
Sen	o‘qi + r	san	Siz	o‘qi + r	siz
U		-	Ular		(-lar)

Men		man	Biz		miz
Sen	kel +ar	san	Siz	kel + ar	siz
U		-	Ular		(-lar)

8. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 5-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda gap oxirida kelgan fe’llarni kelasi zamon gumon shakli bilan tuslab yozishni topshiring.

Dastlab siz o‘quvchilarga namunani doskada bajarib tushuntiring. Keyin mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

1. G‘aroyib kasblar haqida yanada ko‘proq ma’lumot to‘plarman.
2. Golf o‘ynashni yoqtirganim uchun to‘p yig‘uvchi kasbini tanlashni o‘ylab ko‘rarman.
3. Shirinliklarni tayyorlashda aynigan tovuq tuxumlari ishlatilmasligi uchun tuxum hidlovchilarni ishga olishar.
4. Kelajakda biz ham tabiatni asrash bo‘yicha turli loyihalarimizni taqdim qilarmiz .

9. O‘quvchilarning mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun “Sinkveyn” metodi berilgan. O‘quvchilarga bu metod haqida tushuncha bering va topshiriqni bajarishni tushuntiring.

Sinkveyn fransuz tilida “5 qator” ma’nosini bildiradi. Sinkveyn ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish qoidalari. Sinkveyn tuzish murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

1-qator: mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: mavzu doirasidagi xatti-harakat uchta so‘z bilan ifodalanadi (3 ta fe’l yoziladi).

4-qator: mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi (4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

Ot (bitta)	degustator
Sifat (ikkita)	Sezgir, xushchaqchaq
Fe’l (uchta)	Hidlaydi, tatib ko‘radi, tahlil qiladi.
Gap (to‘rt so‘zdan iborat)	Degustator shokoladning ta’mini aniqlaydi.
Sinonim	Tekshiruvchi (chashnachi)

10. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.


11. O‘quvchilarga g‘aroyib kasblar haqida esse yozib kelishni topshiring.

8-MAVZU. KASBIDAN KAMOL TOPGANLAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi shaxslar, predmetlar, joylar tasvirini tushuna oladi; predmetlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi; xohish-istaklari haqida gapira oladi; hikoya va ertaklar yoza oladi, kelasi zamon fe’llarini, kirish birikmalarini ishlata oladi.
- O‘quvchilar dars davomida kasblarning foydasi haqida ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar.

VAZIFALAR:


KASBIDAN KAMOL TOPGANLAR

1. Tinglang, o'ylang va toping.

	Ma'lumotlar	Ha/yo'q
1	Henri otasi kabi fermer bo'lishni istar edi.	
2	Uning otasi "Ford Motor Company"ga asos soldi.	
3	Henri barcha insonlarda avtomobil bo'lishini xohlar edi.	
4	"T-Ford" modeli millionlab nusxada sotildi.	

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Henri otasi kabi fermer bo'lmoqchi emas edi.

1. Henri otasi kabi fermer bo'l... emas edi.
2. U kelajakda mashhur inson bo'l... .
3. Henri dunyodagi barcha insonlarda avtomobil bo'lishini xohla... edi.
4. Yosh Henrining orzulari kelajakda amalga osh..., balki.
5. Henri kompaniya xodimlarining turmush tarzini farovon qil... bo'lgan va doimo ularga yuqori haq to'lagan.

63

1. Refleksiya. O‘quvchilar g‘aroyib kasblar haqida yozib kelgan matnni o‘qib bersin. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Tasavvur qiling, siz o‘z kasbingiz orqasidan ancha ko‘p daromad olyapsiz. Shu mablag‘ni nimaga sarflagan bo‘lardingiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

1863-yili oddiygina oilada dunyoga kelgan Henri ulg‘aygach otasi kabi fermer bo‘lishni istamas edi. Dastlab mexanik bo‘lib ish boshlagan Henri keyinchalik “Ford Motor Company”ga asos soldi. Keyinchalik bu kompaniya jahondagi eng yirik avtomobil kompaniyalaridan biriga aylandi.

Dunyoning barcha odamlarida avtomobil bo‘lishini xohlagan Henri Ford mashinalarni arzonroq qilishni istar edi. 1908-yilda ishlab chiqarilgan mashhur “T-Ford” modeli millionlab nusxada sotiladi.

Kompaniya Yevropaning deyarli barcha mashina bozorlariga kirib boradi. Mashinani ko‘proq sotish uchun nafaqat uning narxini arzonlatish, balki sifatini ko‘tarish ham muhim edi. “Ford Motor” kompaniyasi xaridorlarning ishonchini hamisha oqlagan.

3. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating.

Rasmda kimni va nimani ko‘ryapsiz?

So‘ngra tinglab tushunish ko‘nikmasini aniqlash uchun “Ha/yo‘q” mashqini bajartiring.

№	Ma’lumotlar	Ha/Yo‘q
1	Henri otasi kabi fermer bo‘lishni istar edi.	Yo‘q
2	Uning otasi “Ford Motor Company”ga asos soldi.	Yo‘q
3	Henri barcha insonlarda avtomobil bo‘lishini xohlar edi.	Ha
4	“T-Ford” modeli millionlab nusxada sotiladi.	Ha


4. O‘quvchilarning mavzular yuzasidan olgan grammatik bilimlarini mustahkamlash uchun 2-topshiriqni namunadagidek bajartiring.

Namuna:

1. Henri otasi kabi fermer bo‘lmoqchi emas edi.
2. U kelajakda mashhur inson bo‘lmoqchi edi.
3. Henri dunyodagi barcha insonlarda avtomobil bo‘lishini xohlar edi.

4. Yosh Henrining orzulari kelajakda amalga oshadi.

5. Henri kompaniya xodimlarining turmush tarzi farovon bo‘lishini istaydi va doimo ularga yuqori haq to‘laydi.



3. O'qing.

Murod Nazarov: "Kompaniyamiz tashkil etilganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Lekin buning orqasida yigirma yillik tajriba yotibdi. Aslida, yoshlikda havaskor sifatida qurilish ishlariga qiziqqanman va birinchi uyimni 14 yoshda qurishimga to'g'ri kelgan.

O'sha uyga ko'chib o't-ganimizdan keyin men Yaponiyaga grant asosida o'qishga kirdim. Qaytib kelganimdan so'ng, xorijdagi shaharsozlik meni qiziqtirib qo'ygani uchun o'z yurtimda ulardan ham zo'rini qurgim keldi.

Tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, biznesda o'zingiz kabi tasavvurlarga ega hamkorlar bilan ishlash kishini zavqlantiradi". *kun.uz saytidan olindi.*

4. Savollarga javob bering.

1. Matn kimning tilidan hikoya qilingan?
2. Murod Nazarov birinchi uyini qachon qurgan?
3. Nima uchun o'z kompaniyasiga asos solgan?
4. Murod Nazarov biznesdagi hamkorlarining qanday bo'lishini istaydi?

kompaniya
model
brend
tajriba
biznes
hamkor
asos solmoq
tashkil etmoq

5. O'ylang va toping. Yozing.

S	U	F	E	R	M	E	R	D	R	Y
A	B	B	U	A	U	B	B	A	S	S
G	K	E	R	K	H	F	S	S	K	U
X	O	J	B	A	A	I	B	T	L	E
D	I	Z	A	Y	N	E	R	U	K	K
L	O	J	N	I	D	V	V	R	L	O
U	L	S	I	S	I	S	S	CH	D	L
V	O	P	S	I	S	V	V	I	D	O
O	Y	G	T	E	X	N	O	L	O	G

Mustaqil ish

"Kim bo'lsam ekan?" mavzusida esse yozing.

69

Bunda o‘qilgan matn mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlari hisoblanadi. Matn mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar matndagi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratiladi.

O‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

Murod Nazarov: “Murad Buildings” kompaniyasining tashkil etilganiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. (Yana shunday kompaniyalar haqida bilasizmi?) Lekin buning orqasida yigirma yillik tajriba yotibdi. (Tajriba so‘zini ona tilingizga tarjima qiling) Aslida, yoshlikda havaskor sifatida qurilish ishlariga qiziqqanman va birinchi uyimni 14 yoshda qurishimga to‘g‘ri kelgan. (14 yoshida muvaffaqiyatga erishgan yana qanday insonlarni bilasiz?)

O‘sha uyga ko‘chib o‘tganimizdan keyin men Yaponiyaga grand asosida o‘qishga kirdim. (Siz qaysi sohada o‘qimoqchisiz?) Qaytib kelganimdan so‘ng xorijdagi shaharsozlik meni qiziqtirib qo‘ygani uchun o‘z yurtimda ulardan ham zo‘rini qurgim keldi. (Qanday uylar sizga yoqadi?)

Tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, biznesda tasavvurlarimni ko‘ra oladigan hamkorlar bilan ishlash kishini zavqlantiradi”. (Agar siz ham qurilish kompaniyasi ochsangiz, unga qanday nom qo‘yardingiz?)

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *kompaniya, model, brend, tajriba, biznes, hamkor, asos solmoq, tashkil etmoq.*

8. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni yozma bajartiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *fermer, dizayner, texnolog, urbanist, dasturchi, ekolog.*

9. Refleksiya. “Timsoh” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda o‘quvchi doskaga chiqib, bugungi mavzudan esida qolgan bitta so‘zni imo-ishoralar yordamida ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa bu so‘zni o‘quvchining harakatiga qarab topishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida o‘ziga yoqqan kasb haqida “Kim bo‘lsam ekan?” mavzusida esse yozish topshiriladi.

9-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga “Kim bo‘lsam ekan” mavzusida yozib kelgan ijodiy ishlarini o‘qiting.

Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Kasblar haqida yozilgan badiiy asarlarni bilasizmi?

Sizningcha, o‘z kasbi orqasidan muvaffaqiyatga erishishi uchun inson nima qilishi lozim?

O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Tea Bekmanning “Buyuk sakrash” asaridan parcha o‘qishni ta’kidlang.



ADABIY O‘QISH

BUYUK SAKRASH

– Bu materiya translyatori, – deb tushuntirdi doktor Simiak.

Uskuna bolaning xayolini butkul o‘g‘irladi. Dolf nafasini yutgancha butun devor bo‘ylab yoyilgan ulkan uskunaga tikilardi. Oyoq ostida izolyatsiyalangan yo‘g‘on simlar chalkashib yotardi. Dolf nigohini uskuna paneliga qaratdi: chiroqlar bilan tutashgan raqam, belgilar, tugma va tutqichlar unga hech narsani anglatmas edi.

O‘tmishni bugun bilan bog‘laydigan ulkan uskuna yonida turgan Dolf to‘satdan o‘zining hech narsaga arzimas ekanini angladi. Dolfning otasi doktor Vega har ikkala vaqt mashinasi ixtirochilari bilan do‘stona munosabatda edi. Dolfning bir necha oydan buyon laboratoriyaga kirish to‘g‘risidagi iltimoslari Yangi yil bayrami arafasida nihoyat amalga oshdi. Faqat Dolf ishtiyoq bilan tomosha qilmoqchi bo‘lgan bu uskuna unda bunchalik hayratlanarli taassurot qoldirishini kutmagan edi.

– Nima bu?

Dolf uskuna markaziga joylashgan, xuddi telefon budkasini eslatuvchi, qalin devorli, shaffof, odam bo‘yidek keladigan eshikni ko‘rsatdi. Lekin eshik Doktor Simiak aytganidek, oynadan emas, maxsus zarbga chidamli xomashyodan tayyorlangan edi.

– Bu yerga o‘tmishga yuboriluvchi hujayra yoki biror jism joylashtiriladi, – deya o‘z so‘zini davom ettirdi laboratoriya assistenti doktor Knefeltur.

– Orqaga ham shu qutida qaytishadimi?

– Omadi kelsa, albatta.

– Omadi kelsa deganingiz nimasi?

– Ko‘ryapsanmi, do‘stim – suhbatga aralashdi doktor Simiak, – biz o‘tmishga ushbu quticha bilan jo‘natayotgan jonivorni faqat oradan uch soat o‘tgachgina ortga qaytarishimiz mumkin, bundan oldin iloji yoq. Gap shundaki, bizning translyatorlarimiz katta miqdorda energiya iste’mol qilib, qizib ketadi. Translyator sovishi uchun esa vaqt kerak bo‘ladi. Eng asosiysi shuki, qo‘nish joyining koordinatalarini uskunalar yozib olgani sababli quticha vaqt mashinasi olib borgan joyda aniq bo‘lishi zarur. Kimdir quticham sijitsa yoki qutichaning o‘zi u yoki bu yoqqa siljib ketsa, bizga faqat quticha turgan joyning mashina tomonidan olingan bir siqim tuprog‘i qaytib keladi, jonivorimiz esa o‘tmishda qolib ketadi.

– Nima uchun sizlar hayvonlar bilan ishlaysizlar-a? Axir ular o‘tmishda nima ko‘rganliklarini gapirib bera olishmaydi-ku.

Bolaning tanbehiga mantiqan e’tiroz bildirish mushkul edi...

Tea Bekman

Savollarga javob bering.

1. Dolf qanday xonaga kirib qolgan edi?
2. Dolfning dadasiga qilgan iltimosi qachon amalga oshdi?
3. O‘tmish mashinasiga odamlarning kirishi xavflimi?
4. Siz ham o‘tmishga qaytgan bo‘larmidingiz? O‘tmishning qaysi davri sizga qiziq?

65

3. Tea Bekman va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Tea Bekman 1923-yil 23-iyulda Niderlandiyaning Rotterdam shahrida tug‘ilgan.

Yoshligida Bekman yozuvchi bo‘lishni xohlagan edi. O‘smirlik chog'idan boshlab u ko‘plab hikoyalar yozgan.

Bekmanning eng mashhur asarlari: “Jinsidagi salib yurishi”, “Vaqt: sayohat”.

4. Darslikda berilgan parchaning to‘liq matni bilan tanishing.

BUYUK SAKRASH

– Bu – materiya translyatori, – deb tushuntirdi doktor Simiak.

Uskuna bolaning xayolini butkul o‘g‘irladi. Dolf nafasini yutgancha, butun devor bo‘ylab yoyilgan ulkan uskunaga tikilardi. Oyoq ostida qalin, izolyatsiyalangan yo‘g‘on simlar chalkashib yotardi. Dolf nigohini uskuna paneliga qaratdi: chiroqlar bilan tutashgan raqam, belgilar, tugma va tutqichlar unga hech narsani anglatmas edi.

O‘tmishni bugun bilan bog‘laydigan ulkan uskuna yonida turgan Dolf to‘satdan o‘zining hech narsaga arzimas ekanligini angladi. Dolfning otasi doktor Vega har ikkala vaqt mashinasi ixtirochisi bilan do‘stona munosabatda edi. Dolfning bir necha oydan buyon laborotoriyaga kirish to‘g‘risidagi iltimoslari yangi yil bayrami arafasida nihoyat amalga oshdi. Faqat Dolf ishtiyoq bilan tomosha qilmoqchi bo‘lgan bu uskuna unda bunchalik hayratlanarli taassurot qoldirishini kutmagan edi.

– Nima bu?

Dolf uskuna markazida joylashgan xuddi telefon budkasini eslatuvchi, qalin devorli, shaffof, odam bo‘yidek keladigan eshikni ko‘rsatdi. Lekin eshik Doktor Simiak aytganidek, oynadan emas, maxsus zarbga chidamli xomashyodan tayyorlangan edi.

– Bu yerga o‘tmishga yuboriluvchi hujayra yoki jism joylashtiriladi, – deya o‘z so‘zini davom ettirdi laborotoriya asissenti doktor Knefeltur.

– Orqaga ham shu qutida qaytishadimi?

– Omadi kelsa, albatta.

– Omadi kelsa deganingiz nimasi?

– Ko‘ryapsanmi, do‘stim, – suhbatga aralashdi doktor Simiak, – biz o‘tmishga ushbu quticha bilan jo‘natayotgan jonivorni faqat oradan uch soat o‘tgachgina ortga qaytari-

shimiz mumkin, bundan oldin iloji yoʻq. Gap shundaki, bizning traslyatorlarimiz katta miqdorda energiya iste'mol qilib, qizib ketadi. Traslyator sovushi uchun esa vaqt kerak boʻladi. Eng asosiysi shuki, qoʻnish joyining koordinatalarini uskunalar yozib olganligi sababli quticha vaqt mashinasi olib brogan joyda aniq boʻlishi zarur. Kimdir qutichani siljitsa yoki qutichaning oʻzi u yoq bu yoqqa siljib ketsa,bizga faqat quticha turgan joyining mashina tomonidan olingan bir siqim tuprogʻi qaytib keladi, jonivorimiz esa oʻtmishda qolib ketadi.

– Nima uchun sialar hayvon bilan ishlaysizlar-a? Axir ular oʻtmishda nima koʻrganini gapirib bera olishmaydi-ku.

Bolaning tanbehiga mantiqan e'tiroz bildirish mushkul edi.

– Bizning uskuna hozircha mutlaq mukammal emas, doʻstim, insonni oʻtmishga joʻnatishdan oldin uskunanaing xavfsizligiga toʻliq ishonch hosil qilishimiz zarur. Bundan tashqari inson vaznining mos kelmasligi toʻsqinlik qilmoqda.

– Nima uchun?

– Oltmish kilogrammdan ortiq vaznga uskunaning qurbi yetmaydi. Va yana shuni aytish kerakki, jonivor bilan birgalikda quticha aynan qayerga borib tushishini biz koʻra olmaymiz. Hozircha bizda qayta aloq yoʻq. Demak, botqoqlik yoki dengiz oʻrtasida paydo boʻlib qolishi mumkin boʻlgan odam bizga halokat signalini joʻnata olmaydi va halok boʻlishi muqarrar boʻlib qoladi. Shunisi yomonki, yirik hayvonlar bilan, masalan, ekspeditsiyadan soʻng uskuna bir necha haftaagacha ishlamay qoladi. Ortga qaytish shunchalik koʻp energiya sarflaydiki, hatto uskuna jismlari erib ishdan chiqadi. Ta'mirlash uchun esa bir yoki ikki oy kerak boʻladi.

– Qoyil! Sizning uskunangiz hozir ishlaydimi?

– Ishlaydi. Biz yangi yildan soʻng qafas ichida turib atrofdagi narsalarni ushlab oladigan maxsus oʻrgatilgan maymunlar bilan tajriba oʻtkazmoqchimiz.

Dolf boshini silkitib qoʻydi. U boʻlmaga qaarab tasavvur qilishga urinib koʻrdi: yopiq eshik ichida oʻtmish bilan yuzma-yuz boʻlishni kutayotgan inson nimalarni his qilishi mumkin...

– Bexosdan u:

– Men sinab koʻrishni xohlayman, – dedi

Tadqiqotchilar oʻylamasdan Dolfga oʻz e'tirozini bildirishdi. Ularning koʻz oldida hali oʻn olti yoshga toʻlmagan bolaksy turar edi.

Albatta, boʻydor va baquvvat, shunchaki yuqori sinf oʻquvchisi... Bundan tashqari tarix shaydosi. Biroq bola... Bundan tashqari u shuni bilardiki...

Yoʻq. Aslo mumkin emas. Bu ishni televizordagi shunchaki sarguzashtlar, aql bovar qilmas hodisalarga oʻxshatyapti.

– Mening vaznim 60 kilogrammdan kam, – davom etdi Dolf.

– Axmoqlik! – Uning gapini choʻrt kesdi doktor Simiak.

– Koʻzim bor, tilim bor, demak, koʻrganlarimning hammasini aytib bera olaman, – deb qat'iy ishontirdi Dolf. Aslida u oʻzini tutganchalik xotirjam emas edi. Uning yuragi qinidan chiqqudek urar edi.

– Safsata, batamom safsata, – gʻoʻldiradi assisent Knefeltur, lekin uning ovozida gumon alomatlari aniq bilinib turardi.

– Oʻta xavfli, – dedi titroq ovoz bilan doktor Simiak. Kattalar oʻz fikrlarida qat'iy turganlari sayin Dolfning vaqt mashinasida sayohatga chiqishga boʻlgan ishtiyoqiortib borardi.

– Men har qanday tajriba quyonchaasidan yaxshiroqman, – dedi oʻz soʻzida qat'iy turib. – Vaznim mos keladi, koʻrish qobiliyatim zoʻr. har ehtimolga qarshi yonimda qurol olvolaman. Hazilakam ish emas, bu aniq, lekin men oʻzimga javob bera olaman, mana koʻrasizlar. Qolaversa, bor-yoʻgʻi ikki soatgagina... Voy, uyda mening 1212-yil 14-iyunda Montjivreyda boʻlib oʻtgan ritsarlar musobaqasihaqida hikoya qiluvchi kitobcham bor. Montjivrey – Fransiyaning qoq markazi. Musobaqani esa gersog Dampiyorskiy tashkillashtirgan edi. Qaniydi, oʻsha yerda boʻlib qolsam va hammasini oʻz koʻzlarim bilan koʻrsam!. Keyin kelib vaqt mashinasining qanday ishlashi haqida sizlarga gapirib bergan boʻlar edim. Axir tajriba quyonchangiz sizlarga bu haqida gapirib bera olishmaydi-ku. Hechqisi yoʻq. Albatta, quyonlarning oʻzini yuqoridagi oʻzini, yungidagi changni olib tek-

shirishingiz mumkin, ammo sizlarda hech qanday aniq ma'lumot boʻlmaydi. faqatgina men sizlarga haqiqiy ilmiy ma'lumotlarni keltirishim mumkin.

Kattalar ikkilanib qolishdi.

– Men hech narsadan qoʻrqmayman, – tezda qoʻshib qoʻydi u.

– Oʻgʻlim, menimcha, sen hech narsani tushunmayapsan, – dedi jiddiy ohangda doktor Simiak. –Agar biz oʻzimiz xohlamagan holda sening gaplaringga koʻnadigan boʻlsak, bizda faqat seni ortga qaytarish imkoniyati boʻladi. Agar, aytaylik, birinchi urinishda sen aytilgan vaqtda va aytilgan joyda boʻla olmasang, tamom boʻldim deyaver. Bunday holda sen umringning oxirigacha oʻrta asrlarda qolib ketasan.

– Men juda aniq harakat qilaman, – deya tantanali ravishda va'da berdi Dolf Knefeltur.

– Bularning barchasi sen oʻylaganchalik oddiy emas, – gʻudrandi doktor knefeltur, lekin uning koʻzlarida qiziqish alomatlari paydo boʻlgandi.

– Garov oʻynashim mumkinki, kompyuter mening qoʻnadigan joyimni aniq hisoblab beradi, – oʻjarlik qildi Dolf. – Men boʻr bilan qoʻnish chiziqlarimni belgilab chiqaman, ikki soatdan keyin esa qiynalmasdan topa olaman. Yonimda pichoq olvolaman, balki kerak boʻlib qolar. Va yana...

– Bas qilsang-chi axir, – dedi qaltiroq tovush bilan doktor Simiak. – Xavf juda katta. Hali shu paytga qadar biror kishi oʻtmishga kirib bora olgan emas. Voqealar kutilmaganda butunlay boshqacha tus olishi mumkin. Biz qanday qilib sen bilan sodir boʻladigan voqelarning javobgarligini boʻynimizga olishimiz mumkin?

– Kimdir birinchi boʻlishi kerakku axir, – deya javob berdi bunga Dolf. – Men esa bunga tayyorman.

Faqat oʻylab koʻrmasdan, faqat gumonsiramasdan... Hoziroq, bir minut ham vaqt yoʻqotmasdan tajribani boshlash kerak . Bunday kutilmagan, bunday ahmoqona omad, bunday olis ajdodlar yashagan olamda boʻlish imkoniyati boshqa hech qachon boʻlmaydi.

Kattalar oʻzlarning bor dalillarini ishga solib uni fikridan qaytarishga urinishar, Dolf esa ularni eshitishni ham istamas edi. Uning qat'iy nigohlari telefon budkachasidek qutiga qaratilgan, xuddi mana shu eshiklar uni ritsarlar musobaqasi va sarguzashtlari tomon eltadigandek tuyulardi. Bulutli qish kuni boʻlsa-da, xona issiq edi. Dolf mex astarli charm kurtkani qoʻllari bilan gʻijimlardi. U kutilmaganda goʻyoki oʻylanmagan ichki turtki bilan uni dadil tortdi.

– Qoʻyib yuboringlar meni!

Uning ovozi buyruq ohangida jarangladi.

Mashina yoʻlakchasining tepasida soat osilib turardi. Dolf koʻzlarini soat millari tomon yugurtirdi. Beixtiyor u qoʻlidagi Qorbobo sovgʻa qilgan yangi qoʻlsoati bilan uni solishtirdi.

– Kelinglar, mening qachon qoʻnish maydonchasiga keladigan va ortga qaytadigan vaqtimni kelishib olaylik.

Shu payt kutilmagan hodisa roʻy berdi. Yoki olimarni uning oʻjar shiddati oʻziga rom qildimi, yoki ularni oʻz farzandini nihoyat sinab koʻrish imkoniyati qiziqtirib qoʻydimi, ishqilib, Dolf hech narsani ushunmadi.

Doktor Knefeltur kompyuterga ushbularni kirita boshladi: "1212-yil 14-iyun... Montjivrey, Fransiya".

– Xaritadan bu joyning qayerda joylashganini koʻrish kerak edi, – gʻudrandi doktor Knefeltur. Xuddi shu paytda uning barmoqlari uskunaning klavishlarini bosardi. Doktor Simiak shoshganicha xonadan chiqdi va tezlikda qoʻlida qora va och sariq boʻrlar bilan qaytib kirdi. Keyin yana u uzun. Juda oʻtkir non kesadigan pichoq olib keldi. Dolf pichoqni kamariga qistirib oldi.

– Aytilgan vaqtda aniq yetib kelishing uchun, – deb gap boshladi olim, – shu daqiqadan boshlab kelajak boʻylab sayohatga senga toʻrt soat vaqt beramiz.

Shu damda olim yana oʻzi amalga oshirmoqchi boʻlgan tajribasidan boshqa hech narsa koʻziga koʻrinmaydigan, chinakam tadqiqotchiga aylangan edi. U vaqtni belgilab qoʻydi: beshta kam bir.

– Mashinani tayyorlash yana besh daqiqani oladi, shunday ekan, aniq birda sening sayohating boshlanadi. Oʻgʻlim, esingda tut, kunduzi soat beshda, bir daqiqa kech ham,

vaqtli ham emas, mashina yana oʻsha joyga seni olib ketish uchun keladi.

– Men, albatta, oʻsha joyda boʻlaman.

Dolf vaqt mashinasi tomon qadam bosdi.

Bu vaqtda assistent Knefeltur hisob-kitob natijalari bilan keldi. Dolfning boʻlma eshigini ochayotganini koʻrib, u yana sapchib tushdi:

– Nahotki, senga bu tajriba shunchalik muhim boʻlsa? – uning ovozi juda keskin chiqdi. – Esingda boʻlsin: seni ortga qaytarish uchun bor-yoʻgʻi bitta imkoniyatimiz boʻladi...

– Bilaman, – deya Dolf boʻlma ichiga kirdi.

Doktor Simiak eshikni yopish uchun yaqinlashdi va yana ta'kidladi:

– Odamlarning koʻzidan nariroq boʻl, juda nobop kiyingansan. Eh yigitcha, balki fikringdan qaytarsan? Bu ahmoqona xayolni miyangdan chiqarib yuborsang-chi.

– Oʻzingiz ham fikrimdan qaytishimni istamaysiz, – qat'iy javob berdi Dolf. – Bunday omadning kelishini orzu ham qila olmagansiz-ku.

Bolaning gaplari haqiqatga juda yaqin boʻlgani uchun olim hech narsa deya olmadi. Knefeltur pult oldida oʻtirib, uskunlarni sozlashni boshladi. Eshikni hali ham yopmasdan turgan Doktor Simiak hayajonini bosolmay, xirillagan ovoz bilan dedi:

– Yaxshi... Kvadrat plastinaning qoq oʻrtasiga tur. Mana shunday, boʻlma devorlariga tegma. Endi koʻzingni yum va qimirlama. Ozgina sabr qil – apparat ishga tushishiga uch daqiqa kerak boʻladi... Faqat hech narsaga tegma! Men...

– Iltimos, boshqa men bilan gaplashmang, – dedi Dolf

U koʻzlarini qattiq qisib yumib oldi. Eshik shiqillab yopilib, hech qanday tovush eshitilmay qoldi.

Dolf joyida qotib qoldi: "Sanashni boshlayman, –deb oʻyladi u, – uch marta oltmishgacha sanayman. Faqat tinchlan..." U sekin berilib sanar, jur'atini yoʻqotib qoʻymaslik uchun hech narsa haqida oʻylamaslikka harakat qilardi.

"Qoʻrquv ta'siriga tushib qolmasligim, ortiqcha harakat qilib qoʻymasligim, baqirib yubormasligim kerak... Oʻttiz bir, oʻttiz ikki..." Bu xayollar bilan hisobdan adashib ketgani uchun endi ikkinchi yoki uchinchi marta sanayotganini ayta olmasdi. Qiziq, tashqarida nimalar boʻldi ekan?

"...Qirq besh, qirq olti..." U aytayotgan sonlarini tasavvur qilishga harakat qilar, lekin koʻz oldida rangli dogʻlargina aylanardi.

"... Ellik sakkiz, ellik toʻqqiz..." Barcha hislar birdaniga yoʻqoldi. Umuman hammasi.

Bolaga kuchli zarba yopirilib, uning ta'sirida boshi qattiq aylanib, ogʻriq butun vujudini qamrab oldi. Atrofda allanarsalarning shovqini eshitilardi, asta-sekin tovush pasaya boshladi, yangi tovushlar unga tanishdek tuyuldi: daraxt shox-barglarining shamoldan shitirlashi, qushlarning sayrashi. U hali ham qimirlash, koʻzini ochishga botinolmasdi. Oftobning iliq nurlari yuzini silab oʻtdi. Boshining aylanishi ham toʻxtagandek edi.

U koʻzini ochdi... Vaqt mashinasi uni olib keldi. Lekin qayerga?...

Tea Bekman

5. Oʻquvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob oʻtkazing.

1. Dolf qanday xonaga kirib qolgan edi?
2. Dolfning dadasiga qilgan iltimosi qachon amalga oshdi?
3. Vaqt mashinasiga odamlarning kirishi xavflimi?
4. Siz ham oʻtmishga qaytgan boʻlarmidingiz? Oʻtmishning qaysi davri sizga qiziq?

6. Oʻquvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

2030-YIL (21 SOAT)
ORZUMIZDAGI TEXNIKALAR (8 SOAT)
1-MAVZU. KELAJAK TEXNIKALARI

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matnni o‘qiganda undagi ochiq aytilmagan ayrim fikrlarni ilg‘ay oladi, o‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushunadi, jarayonlar tasvirini yoza oladi, yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib berishda texnik qurilmalar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.

● *Balki, ehtimol* modal so‘zlarini ishlata oladi va natija ergash gapli qo‘shma gaplarni qo‘llay oladi.

VAZIFALAR:


Orzumizdagi texnikalar

KELAJAK TEXNIKALARI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Keng ommalashishi mumkin bo‘lgan texnologiyalarni sanang.
2. Avtopilotga ega avtomobillarning qanday afzalliklari bor?
3. 3D printerlar yordamida nimalar “chop etsa” bo‘ladi?
4. Yuk tashishga mo‘ljallangan robotni qaysi kompaniya taqdim etgan?
5. “Sony” kompaniyasi qanday robot ishlab chiqqan?

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

DIQQAT QILING

Balki, ehtimol.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:

Ehtimol, biz bugun xayolimizga ham keltirmagan texnikalarga guvoh bo‘larmiz.

1. … , biz bugun xayolimizga ham keltirmagan texnikalarga guvoh bo‘larmiz.
2. “SpaceX” raketasida kosmosga sayohat qilarmiz, … .

66

1. O‘quvchilar bilan yangi bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalaning. Bunda savollarni har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining bilim-saviyasidan kelib chiqib tuzadi.

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Bugungi kunda butun dunyo tadqiqotchilari hayotimizni yengillashtirish va qiziqarli qilish niyatida yangidan yangi texnologiyalarni yaratishmoqda. O‘zini o‘zi boshqaradigan avtomobillar, ovozli boshqaruvga ega uylar, virtual yordamchilar – bularning hammasi g‘ayrioddiy texnologiyalardir. Keling, keng ommalashishi kutilayotgan kelajak texnologiyalarini ko‘rib chiqamiz.

Virtual yordamchilar. Ilgari telefoningizda kerakli ma’lumotlarni topishga yordam beruvchi, sizni qiziqtirgan savollarga javob beruvchi gapiradigan virtual yordamchi bo‘lishiga ishonish juda qiyin edi. Endilikda esa deyarli barcha mobil qurilma egalari o‘zining shaxsiy virtual yordamchisiga ega. Yaqin kelajakda insonlar xohlagan texnikasi bilan ovozli boshqaruv orqali gaplasholsa, ajab emas.

Avtopilotga ega avtomobillar. Avtopilotga ega avtomobillar allaqachon yirik kompaniyalar tomonidan sinovdan o‘tkazilib, hayotga tatbiq etilmoqda. An’anaviy avtomobillarga nisbatan ular juda ko‘p afzalliklarga ega. Birinchidan, “Tesla” avtomobillari 100% elektr tokida ishlaydigan bo‘lib, atrof-muhit uchun toza va kamxarj hisoblanadi. Ikkinchidan, “Tesla” elektromobillarini kompyuterga o‘xshatish mumkin. Nega deysizmi? Chunki kompyuter yoki telefoningiz operatsion tizimini tez-tez yangilab borganingizdek, “Tesla” ham avtomobillariga o‘rnatilgan boshqaruv tizimini masofadan, ya’ni internet orqali eng so‘nggi yangilanishlar bilan ta’minlab turadi.

3D printerlar. Ushbu texnika tobora takomillashib bormoqda. Odamlar istagan narsalarini, shu jumladan, telefon uchun aksessuarlar, kiyim, uy jihozlarini printer orqali chiqarishga o‘rganmoqdalar. So‘nggi paytlarda dunyo mutaxassislari hatto inson hayoti uchun zarur bo‘lgan ichki organlarni hamda sun’iy go‘shtni 3D printer orqali bosib chiqarish ustida izlanishlar olib bormoqda, biroq buning hammasi vaqt talab etadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Robotlar. So‘nggi yillarda robototexnika sohasi jadal rivojlanib bormoqda, yangidan yangi robotlar ishlab chiqarilmoqda. Yaqinda “Yandex” avtopilotda ishlaydigan robot-kuryerni taqdim etdi. Bo‘yi 1,5 metrga yaqin bo‘lgan robot shahar yo‘laklarida piyoda tezligida harakatlanadi. Mazkur robot kichik hajmda yuk tashishga mo‘ljallangan bo‘lib, “Yandeks Rover” deb nomlanadi. Shuni xulosa qilib aytishimiz kerakki, hozirgi kunda kuzatilayotgan texnologiyalar ommalashuvi – faqat boshlanishi. Kelajakda yanada aqlli va foydali mashinalar paydo bo‘ladi.


3. Kelajakda aholi yashash tarzini osonlashtirish uchun yanada ko'proq texnikalar ishlab chiqarilar, … .
4. … , kelajakda 3D printerlarining imkoniyatlari yanada ko'payar.
5. Oradan yillar o'tib, … , men ham ixtirochi bo'larman.

rivojlanib bormoq
innovatsion
texnikalar biznes
marketing
investitsiya
tadqiqot
olib bormoq

4. O'qing

Volumetrik bosib chiqarish biznesning yangi, istiqbolli yo'nalishi. 3D bozori har yili o'rtacha 25% ga o'sib bormoqda. Chunki yangi texnologiyalar jiddiy investitsiyalarni va malakali marketingni talab qiladi.
"3D bosib chiqarish" atamasi 1995-yilda AQSHda paydo bo'lgan. U oldindan tayyorlangan raqamli loyiha bo'yicha mahsulotni shakllantiradigan va quyadigan maxsus uskunalar yordamida hajmli modelni yaratishni anglatadi.

3D printerlar yordamida dastlab o'yinchoqlar ishlab chiqarish imkoni paydo bo'ldi.
Mazkur texnologiyaning imkoniyatlari juda katta bo'lib, kelajakda tibbiyot, ta'lim, avtomobilsozlik, sanoat kabi sohalarda qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

	Ma'lumotlar	Ha /yo'q
1	Yangi texnologiyalar jiddiy investitsiyalarni va malakali marketingni talab qilmaydi.	
2	3D bozori yildan yilga rivojlanib bormoqda.	
3	Mazkur texnologiyaning istiqboli porloq.	
4	Kelajakda ishlab chiqarishning barcha sohalarida undan foydalanish mumkin emas.	

Mustaqil ish
Ishlab chiqarish bo'yicha o'z biznes loyihangizni yarating.

67

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

1. Kelajakda keng ommalashishi mumkin bo‘lgan texnologiyalarni bilasizmi?
2. Avtopilotga ega avtomobillarning qanday afzalliklari bor?
3. 3D printerlari orqali qanday amallar bajarsa bo‘ladi?
4. Yuk tashishga mo‘ljallangan robotni qaysi kompaniya taqdim etgan?

4. O‘quvchilar diqqatini 2-topshiriqda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmlarda nimalarni ko‘ryapsiz?

Berilgan rasmlarda tasvirlangan texnikalarning nomi, bajaradigan vazifalari xususida suhbat tashkil qiling.

Foydalanish uchun so‘zlar: *virtual yordamchilar, raketa, avtopilotga ega avtomobillar, aqlli uylar, 3D printer, dron.*

5. “Diqqat qiling!” ruknida gumon ma’nosini ifodalovchi kirish so‘zlar haqida ma’lumot bering.

So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabatini bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi kirish so‘z yoki kirish birikma deb yuritiladi. O‘zbek tilida *balki, ehtimol* kabi modal so‘zlar gapda kirish so‘z vazifasini bajaradi. Kirishlar gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Kirish so‘zlar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagani uchun doimo vergul bilan ajratiladi.

6. Grammatik bilimlarni mustahkamlash uchun darslikda 3-topshiriq berilgan.

Nuqtalar o‘rniga zarur kirish so‘zlarni qo‘yib topshiriqni namunadagidek bajartiring.

Namuna:

1. Ehtimol, biz bugun xayolimizga ham keltirmagan texnikalarga guvoh bo‘larmiz.
2. “SpaceX” raketasida kosmosga sayohat qilarmiz, balki.
3. Kelajakda aholi yashash tarzini osonlashtirish uchun yanada ko‘proq texnikalar ishlab chiqarilar, balki.
4. Ehtimol, kelajakda 3D printerlarning imkoniyatlari yanada ko‘payar.
5. Oradan yillar o‘tib, balki, men ham ixtirochi bo‘larman.

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *rivojlanib bormoq, innovatsion texnikalar, biznes, marketing, investitsiya, tadqiqot olib borish.*

8. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz?

4-topshiriqda berilgan matnni ifodali o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “Ha / Yo‘q” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

№	Ma’lumotlar	Ha / Yo‘q
1	Yangi texnologiyalar jiddiy investitsiyalarni va malakali marketingni talab qilmaydi.	Yo‘q
2	3D-bozori yildan yilga rivojlanib bormoqda.	Yo‘q
3	Mazkur texnologiyaning istiqboli porloq.	Ha
4	Kelajakda ishlab chiqarishning barcha sohalarida undan foydalanish mumkin emas.	Ha

10. Refleksiya. “Zanjir” metodi yordamida fe’llardan foydalanib refleksiyani amalga oshiring. Bunda bir o‘quvchi bitta fe’lni aytadi, ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchining aytgan fe’lini takrorlab, o‘zi boshqa bir fe’lni aytishi lozim bo‘ladi. Jarayon shu tartibda eng so‘nggi o‘quvchigacha davom etadi.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatidan ishlab chiqarish bo‘yicha o‘z biznes loyihasini yaratish topshirig‘ini bering.

2-MAVZU. MAISHIY TEXNIKALAR

DARSNING MAQSADI:

- Texnik qurilmalar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ochiq aytilmagan ayrim fikrlarni ilg‘ay oladi.
- O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushuna oladi; jarayonlar tasvirini yoza oladi.
- Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi. (*Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin* singari)

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga ishlab chiqarish bo‘yicha yozib kelgan biznes loyihalarini o‘qittiring. Topshiriqni bajarishga ijodiy yondashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz?

Berilgan rasm asosida maishiy texnikalarning nomi, vazifalari haqida suhbat tashkil qiling. Go‘shtqiymalagich, havosovutkich, sharbatsiqqich, blender, elektr choynak, changyutkich, kir yuvish mashinasi, elektr qozon (multivarka) kabi texnikalarning ishlash tartibini tushuntiring.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matn eshittiriladi. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Amerikalik ixtirochi Henri Sili 1882-yil 6-iyunda “Electric flat iron” deb nomlangan ilk elektr dazmolni patentladi. Garchi dazmol vazni 6 kilogrammdan yuqori va uzoq vaqt davomida qizdirilishiga qaramay, bu ixtirochilik g‘oyasining muhim yutug‘i edi.

Sili ixtirosidan 200 yil oldin dazmollar temirdan quyilib, pechlarda qizdirilgan. Ular tezda sovib ketar va yengil choyshab yoki baxmalni dazmollash uchun mutlaqo yaroqsiz edi. Bir ko‘ylak yoki kamzulni dazmollash uchun kir yuvuvchilar har xil o‘lchamdagi bir nechta dazmollardan foydalanishga majbur bo‘lishardi va bir vaqtning o‘zida ularni qizitish uchun doimiy ravishda pechning yonida turishardi. Ko‘p o‘tmay, ular pechda dazmolni isitish o‘rniga, ichiga ko‘mir solish orqali qizdira boshladilar. 1920-yilda birinchi termostatik boshqariladigan dazmollar paydo bo‘ldi. Tavsiya etilgan uchta – jun, lyon va ipak mato turiga qarab, dazmol istalgan haroratda qizdirilardi. XX asrning ikkinchi yarmida bug‘ funksiyali birinchi dazmollar paydo bo‘ldi


MAISHIY TEXNIKALAR

1. O'ylang va toping. Gapiring.

go'sht qiymalagich, havo sovitkich, sharbat chiqargich, blender, elektr choynak, changyutkich, kir yuvish mashinasi, elektr qozon/multivarka

2. Tinglang. Savollarga javob bering.


1. Og'ir dazmollarni ishlatish qulay deb o'ylaysizmi?
2. Sili ixtirosidan oldin dazmollar qanday shaklda bo'lgan?
3. Pechlarda qizdiriladigan dazmollarning qanday noqulay taraflari bor edi?
4. Bug' funksiyali birinchi dazmollar qachon paydo bo'lgan?

maishiy texnika kundalik hayot ehtiyoj qo'llanmoq foydalanmoq vaqtni tejamoq

DIQQAT QILING

Albatta, shubhasiz – ishonch ma'nosidagi kirish so'zlar

68


3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Sharbat tayyorlagichga, albatta, mevalarni yuvib solish kerak.

1. Sharbat tayyorlagichga, … , mevalarni yuvib solish kerak.
2. Blenderdan foydalangach, uning qismlarini, … , yuvib qo'yish shart.
3. … , maishiy texnikalardan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak.
4. Inson hayotini yengillashtiradi, …
5. Texnikalardan foydalanishdan oldin, …, ishlatish yo'riqnomasi bilan tanishib chiqish kerak.

4. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

Bugun mikroto'lqinli pech deyarli hamma xonadon oshxonasida bor. Uning dunyoga kelishiga AQShning harbiy ta'minot kompaniyasi muhandisi Persi Spenser sababchi bo'lgan. Bir kuni u cho'ntagidagi shokolad magnetron ta'sirida eriganini bilib qoladi. U bu hodisani hamkasblariga aytib beradi. Kompaniyaning yana bir muhandisi, Persining eng yaqin hamkasbi Jessi Kartraytni bu hodisa qiziqtirib qoladi va unda mikroto'lqinli pech yaratish g'oyasi tug'iladi.

Qurilmaning birinchi nusxasi 1947-yili Amerikaning harbiylar oshxonasida mahsulotlarni tezda eritib berish uchun ishlatilgan. O'sha paytda bu qurilma haddan tashqari katta vazn (300 kg) va past quvvatga (3 kilovatt) ega bo'lgan.

Uy yumushlarida qo'llanadigan juda ko'p ixtiro va zamonaviy texnikalarning avtomatlashtirilgan dasturlari ham Jessi Kartraytga tegishli. Jumladan, kir yuvish mashinasini yaratish g'oyasi muallifi ham u.

1. Mikroto'lqinli pechning dunyoga kelishiga muhandis Persi Spenser sababchi bo'lgan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. O'sha paytda bu qurilma haddan tashqari kichik vazn va yuqori quvvatga ega bo'lgan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Kir yuvish mashinasini yaratish g'oyasi Jessi Kartraytga tegishli.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1. O'chog'i bor, mo'risi yo'q,
Cho'g'i bor-u, kuli yo'q.
2. Bir ajoyib ishxona,
Ichi doim qishxona.
3. Pish-pish etib suv sepib,
Kemam boradi yelib.
4. O't yemaydi bedanam,
Suv ichmaydi bedanam.
Atlas, kimxob ustida
Yo'rg'alaydi bedanam.
5. Katta quti, yuzi bor,
Ko'p tomosha, so'zi bor.

Mustaqil ish

Maishiy texnikalardan foydalanishda amal qilinadigan ehtiyot choralari haqida ma'lumot to'plang.

69

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Vazni o‘g‘ir dazmollarni ishlatish qulay deb o‘ylaysizmi?
2. Sili ixtirosidan oldin dazmollar qanday shaklda bo‘lgan?
3. Pechlarda qizdiriladigan dazmollarning qanday noqulay taraflari bor edi?
4. Bug‘ funksiyali birinchi dazmollar qachon paydo bo‘lgan?

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *maishiy texnika, kundalik hayot, ehtiyoj, qo‘llanmoq, foydalanmoq, vaqtni.*

6. “Diqqat qiling!” ruknida ishonch va tasdiq ma’nosini ifodalovchi kirish so‘zlar haqida ma’lumot bering.

So‘zlovchining o‘z fikriga ishonch ma‘nosini bildiruvchi kirish so‘zlarga *albatta, shubhasiz* kabi modal so‘zlar kiradi. Bunday kirishlar ham yozuvda gapning boshqa bo‘laklaridan vergul yordamida ajratiladi.

7. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun berilgan 3-topshiriqni namunadagidek bajartiring.

Namuna:

1. Sharbattayyorlagichga, albatta, mevalarni yuvib solish kerak.
2. Blendrdan foydalangach, uning qismlarini, albatta, yuvib qo‘yish shart.
3. Shubhasiz, maishiy texnikalardan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilinadi.
4. Oshxona elektr jihozlari, shubhasiz, inson hayotini yengillashtiradi.

8. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usulida berilgan test savollari orqali og‘zaki tahlil qildiring.

1. Mikroto‘lqinli pechning dunyoga kelishiga muhandis Persi Spenser sababchi bo‘lgan.

A. To‘g‘ri B.Noto‘g‘ri

2. O‘sha paytda bu qurilma haddan tashqari kichik vazn va yuqori quvvatga ega bo‘lgan.

A. To‘g‘ri B.Noto‘g‘ri

3. Kir yuvish mashinasini yaratish g‘oyasini Jessi Kartray o‘ylab topgan.

A. To‘g‘ri B.Noto‘g‘ri

10. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga topishmoqlarning javobini topishga yordam bering. U yerda yashiringan maishiy texnikalar nomi topiladi va ularning vazifalari haqida suhbatlashiladi.

1. O‘chog‘i bor, mo‘risi yo‘q,
   Cho‘g‘i bor-u, kuli yo‘q.
2. Bir ajoyib ishxona,
   Ichi doim qishxona.
3. Pish-pish etib suv sepib,
   Kemam boradi yelib.
4. O‘t yemaydi bedanam,
   Suv ichmaydi bedanam.
   Atlas, kimxob ustida
   Yo‘rg‘alaydi bedanam.
5. Katta quti, yuzi bor,
   Ko‘p tomosha so‘zi bor.

Javoblar: 1) pechka, duxovka; 2) muzlatkich; 3) dazmol; 4) tikuv mashinasi; 5) televizor.

11. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi yordamida o‘quvchilarga alfavit ketma-ketligida bittadan harfni ayting. Ular o‘zlariga tushgan harfni daftarga yozishsin. Vazifa: “Sizga tushgan harfdan boshlanadigan, bugungi darsda foydalanilgan bitta so‘zni yozing”.

O‘quvchilar so‘zlarni alifbo ketma-ketligida o‘qiydilar.

12. O‘quvchilarga mustaqil topshiriqni tushuntiring. Maishiy texnikalardan foydalanishda amal qilinadigan ehtiyot choralari haqida ma’lumot yozib kelish topshirig‘ini bering.

3-MAVZU. ALLO, ALLO!

DARSNING MAQSADI:

- Texnik qurilmalar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
- O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushunadi, jarayonlar tasvirini yoza oladi.
- Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi. (*Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin* singari)

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga maishiy texnikalardan foydalanish xavfsizligi bo‘yicha berilgan topshiriqni o‘qittiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quv-

chilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Insonlar o‘zaro aloqa qilish uchun qanday asboblarni o‘ylab topgan?” savoli orqali siz ularni keyingi mavzuga olib kirasiz.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matn eshittiriladi. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Bugun hayotimizni telefonsiz tasavvur qilish qiyin. “Telefon” grekcha “tele” – “uzoqdan”, “fon” – “ovoz” ma’nolarini ifodalaydi. Haqiqatan ham, telefon ovozni uzoqqa yetkazib beradi.

Dunyodagi birinchi telefonni amerikalik olim Aleksandr Bell 1876-yilda ixtiro qilgan deb hisoblanadi. Biroq telefonning ixtiro qilinishida boshqa olimlarning o‘rni katta bo‘lgan. 1860-yilda Antonio Meuchchi Nyu York gazetalaridan birida elektr simlar orqali ovoz uzatish uskunasini qanday ixtiro qilganligi haqida so‘zlab bergan maqolasi chop etilgan. Meuchchi uni “teletrofono” deb nomlagan.

1861-yilda fizik va ixtirochi Logann Filipp Reys olimlar yig‘ilishida o‘zining “mobil telefonini” namoyish qilgan. Vosita simlar orqali musiqiy ohang va inson gapini uzata olgan. Reysning o‘zi uskunasini “telephon” deb atagan. Biroq bularning hammasiga qaramay, Bell telefon ixtirochisi sifatida tarixga kirgan.

Bellning ixtirosi telefoniya davrini boshlab bergan. 1983-yilda “Motorola” kompaniyasi birinchi uyali telefon chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. So‘ng tezda “Motorola” kompaniyasining raqobatdoshlari paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunda telefon ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar mavjud. Ular orasida “Apple”, “Samsung”, “Huawei”, “Xiaomi” va boshqalar mavjud.


ALLO, ALLO!

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. “Telefon” so‘zining ma’nosini bilasizmi?
2. Telefon yana qanday atalgan?
3. Telefonni kim ixtiro qilgan?
4. Telefoniyada qaysi olimlarning xizmatlari bor?
5. Telefon ishlab chiqaruvchi qanday kompaniyalarni bilasiz?
6. Siz uchun telefonning qanday ahamyati bor?

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna: 1 – G...

A B D E F G H I

3. O‘qing.


“Samsung” kompaniyasi

“Samsung” – mobil va elektronika sohasida gigant kompaniyalardan biri. 1938-yili janubiy koreyalik tadbirkor Li Ben Chxol asos solgan kompaniya butun dunyo bozorlariga innovatsiyalarni olib kira oldi. “Samsung” koreys tilida “Uch yulduz” ma’nosini anglatadi.

“Samsung” 1983-yildan shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqara boshladi. 1991–1992-yillarda esa shaxsiy mobil vositalar va mobil telefonlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Bugun mazkur brend ostida displeylar, mobil qurilmalar, telekommunikatsiya tizimlari, maishiy elektronika, raqamli fototexnika, yarimo‘tkazgichlar va monitorlar ishlab chiqarilmoqda. Bu mahsulotlar jahonning turli mamlakatlarida shuhrat qozongan.

70


4. O‘ylang va toping. Yozing.

1	Innovatsiyalarini butun dunyoga olib kirgan kompaniyaga	1983-yildan ishlab chiqara boshladi.
2	“Samsung” birinchi shaxsiy kompyuterlarini	maishiy elektronika, raqamli fototeхnika, mobil qurilma va boshqa texnikalar ishlab chiqariladi.
3	Turli mamlakatlarda shuhrat qozongan kompaniya	Li Ben Chxol 1938-yili asos solgan.
4	Mashhur “Samsung” brendi ostida ko‘plab	nomi koreys tilida “Uch yulduz” ma’nosini anglatadi.

DIQQAT QILING

1. ... shunday ...-ki, natijada ....
2. ... shu qadar ...-ki, natijada ....

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Li Ben Chxol kompaniyada shunday axloq normalarini joriy qildiki, natijada mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi.

1. Li Ben Chxol kompaniyada axloq normalarini joriy qildi. Mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi.
2. “Samsung” kompaniyasi yarimo‘tkazgichlar bozoriga jadal kirdi. Kichik oilaviy biznesdan global korporatsiya darajasiga ko‘tarildi.
3. “Samsung” kompaniyasi mobil telefonlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Butun sayyorada kompaniya brendi mashhur bo‘ldi.

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

Telefon

Foydali tomonlari | Zararli tomonlari

Mustaqil ish

O‘zingiz va oila a’zolaringiz mobil telefondan nima maqsadda va qancha vaqt foydalanishini kuzating. Shu asosda faktologik matn yozing.

71

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. “Telefon” so‘zining ma’nosini bilasizmi?
2. Telefon yana qanday atalgan?
3. Telefonni kim ixtiro qilgan?
4. Telefoning paydo bo‘lishida qaysi olimlarning xizmatlari bor?
5. Telefon ishlab chiqaruvchi qanday kompaniyalarni bilasiz?
6. Siz uchun telefonning qanday ahamyati bor?

4. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?

Rasmlarda turli yillarda yaratilgan telefonlar tasvirlangan. O‘quvchilarga ularni namunadagi kabi ketma-ketlik asosida joylashtirishni topshiring.

5. 3-topshiriqda berilgan matnni “Soat strelkasi” usulida o‘qiting. Bunda o‘quvchilar doira shaklida turib oladilar. O‘rtada bir o‘quvchi strelka vazifasini bajarib turadi. Shu o‘quvchi qo‘li bilan kim o‘qishini ko‘rsatib turadi. U qo‘li bilan ishora qilgan o‘quvchi matnni qolgan joyidan davom ettirib ketadi.

6. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 4-topshiriqda “Tushunchalar tahlili” metodi berilgan. O‘quvchilarga tushunchalarga mos keluvchi izohlarni to‘g‘ri yozishni tushuntiring. Keyin esa mashqni namunadagi kabi bajartiring. O‘quvchilarga mashqni daftarga yozib olishlarini topshiring.

7. “Diqqat qiling!” ruknida natija ergash gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot bering. O‘zbek tilida bir gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildirsa, natija ergash gapli qo‘shma gap deyiladi. Natija ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi. Bunda ergash gap tarkibida shunday, shu qadar kabi so‘zlar va bosh so‘z tarkibida natijada, oqibatda kabi so‘zlar ishlatiladi. Ergash gap bosh gapga -ki bog‘lovchi vositasi yordamida birikadi.

Natija ergash gap + bosh gap = natija ergash gapli qo‘shma gap.

8. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 5-topshiriq berilgan. Bunda berilgan sodda gaplardan namunadagi kabi natija ergash gapli qo‘shma gap tuzishni topshiring.

Namuna:

Li Ben Chxol kompaniyada shunday axloq normalarini joriy qildiki, natijada mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi

1. Li Ben Chol kompaniyada axloq normalarini joriy qildi. Mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi.

Li Ben Chol kompaniyada axloq normalarini shunday joriy qildiki, natijada mashhurlik va muvaffaqiyatga erishdi.

2. “Samsung Elektronics” yarimo‘tkazgichlar bozoriga jadal kirdi. Kichik oilaviy biznesdan global korporatsiya darajasiga ko‘tarildi.

“Samsung Elektronics” yarimo‘tkazgichlar bozoriga shunday jadal kirdiki, natijada kichik oilaviy biznesdan global korporatsiya darajasiga ko‘tarildi.

3. “Samsung” kompaniyasi mobil telefonlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Butun sayyorada kompaniya brendi mashhur bo‘ldi.

“Samsung” kompaniyasi mobil telefonlar ishlab chiqarishni shunday yo‘lga qo‘ydiki, natijada butun sayyorada kompaniya brendi ma’lum va mashhur bo‘ldi.

9. O‘quvchilarni ikki guruhga ajratib, telefonning foydasi va zarari haqida gapirishni topshiring. Buni juftliklarda yoki kichik guruhlarda bajarish ham mumkin.

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda har bir o‘quvchi bugungi mavzuda esida qolgan bitta so‘zni daftariga yozadi. Keyin so‘zlarni hammaga o‘qittirasiz. Qaysi so‘z ko‘p takrorlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z “kalit so‘z” deb qabul qilinadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriqni tushuntiring. “O‘zingiz va oila a’zolaringiz mobil telefondan nima maqsadda va qancha vaqt foydalanishini kuzating”, deb ta’kidlab o‘ting. Shu asosda faktologik matn yaratish topshirig‘ini bering.

4-MAVZU. PARVOZGA SHAYLANING

DARSNING MAQSADI:

- Texnik qurilmalar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
- O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushuna oladi; jarayonlar tasvirini yoza oladi.
- Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi (*Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin* singari).

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mobil telefondan foydalanish bo‘yicha yozib kelgan faktalogik matnni o‘qiting. Bunda har bir o‘quvchining javobini qo‘llab-quvvatlab, “Ofarin!”, “Barakalla!” kabi so‘zlar bilan rag‘bat berib turing. Har bir o‘quvchiga “Maqsadingga yetishingda omad yor bo‘lsin!” mazmunidagi kartochkalar berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.


“Uzoq sayohatga chiqqan vaqtingizda samolyotda uchganmisiz?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz? Ular nima ish bilan shug‘ullanyaptilar?

O‘quvchilarga rasmlar asosida og‘zaki gaplar tuzishni topshiring.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matn eshittiriladi. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, ifodali qilib matnni bir marotaba o‘qib bering.


PARVOZGA SHAYLANING


1. O'ylang va toping. Gapiring.

Foydalanish uchun so'zlar: styuardessa, aviamuhandis/aviatexnik, uchuvchi, dispetcher, yordamchi uchuvchi

2. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

	Ma'lumotlar	Ha/yo'q
1	"Boeing 747" dunyodagi uzoq masofaga uchuvchi birinchi samolyotmi?	
2	"Boeing 747" birinchi parvozini 1969-yilda amalga oshirganmi?	
3	Bu samolyot hozirgacha dunyodagi eng katta, eng keng va eng og'ir yo'lovchi samolyoti hisoblanadimi?	
4	Yangi modeldagi samolyotlar 150 tagacha yo'lovchini tashish imkonini beradi.	
5	Eng uzoq masofaga uchuvchi "Boeing 747" samolyotlarini Avstraliyaning "Qantas Airways" aviakompaniyasi boshqaradi.	
6	"Boeing 747" 1989-yilda Sidneydan Londonga yo'lda to'xtamay uchgan.	

72


DIQQAT QILING

Xayriyat, esiz, afsus.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Xayriyat, parvoz muvaffaqiyatli yakunlandi.

1. … , parvoz muvaffaqiyatli yakunlandi.
2. Buyumlarimni samolyot bortida unutib qoldiribman, … .
3. … , yoqi ta'tilda Turkiyaga sayohat qiladigan bo'ldik.
4. …, aviachiptani onlayn xarid qilishni o'rganib olmabman.
5. …, aeroportga o'z vaqtida yetib kelishga ulgurdim.

uchuvchi
parvoz yordamchi uchuvchi
aviamuhandis
xizmat kuzatmoq
boshqarmoq

4. O'qing.

Ilk samolyotlar yog'och, gazlama va simdan tayyorlangan. Ular bir kishini qiyinchilik bilan havoga ko'targan va bir necha kilometr masofagagina ucha olgan xolos.

"Flayer-1" deb nomlangan ilk uchar uskunani 1903-yil 17-dekabrda AQShlik aka-uka Ulbur va Orvil Rayt sinab ko'rishdi va birinchi urinishda 37 metrga uchishdi. Shu sana zamonaviy aviatsiyaning tug'ilgan kuni hisoblanadi.

Hozirgi samolyotlar – ulkan va murakkab mashina bo'lib, bortidagi bir necha yuz yo'lovchi bilan to'xtovsiz uchib, Yer sharining yarmini aylanib chiqishi mumkin. Uchuvchisiz uchadigan qurilmalar ham bor, ular yerdan beriladigan buyruqlar asosida havoga ko'tarila olish, uchish va qo'nishga qodir.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

S: ……?
J: Ilk uchar uskuna faqat bir kishini ko'tara olgan.
S: ……?
J: Uchuvchisiz samolyotlar ham mavjud.
S: ……?
J: Ular yerdan berilgan buyruqlar asosida havoga ko'tarila oladi.
S: ……?
J: IL-76 samolyotining o't o'chirishga, shifoxona sifatida ishlashga ixtisoslashgan turlari mavjud.

Mustaqil ish
O'zingiz sayohatga borishni orzu qilgan davlatga uchish aviachiptasini tayyorlab keling.

73

“Boing–747” dunyodagi birinchi uzoq masofaga uchuvchi, keng fyuzelyajli yo‘lovchi samolyoti hisoblanadi. “Boing–747” birinchi parvozini 1969-yilda amalga oshirgan. Bu samolyot 2005-yilgacha (A380 paydo bo‘lishiga qadar) dunyodagi eng katta, eng keng va eng og‘ir yo‘lovchi samolyoti edi.

1980-yillarning boshlarida “Boing–737” sezilarli darajada yangilandi. “Boeing” kompaniyasi yangi modellar qatorida yo‘lovchi o‘rindiqlari sonini oshirdi. Ushbu samolyotlar 150 tagacha yo‘lovchini tashish imkonini beradi. Samolyot yangi dvigatellar va eng yangi aviajihozlar bilan ta’minlangan. Parvoz masofasi kengaytirildi. Samolyotning qanotlari ham o‘zgartirildi. Aerodinamika yaxshilandi. Shunday qilib, dunyodagi aksariyat aeroportlarga qo‘na oladigan 737-300, 737-400, 737-500 kabi muvaffaqiyatli modellar paydo bo‘ldi.

“Boing–747” ning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, – ularning aksariyati uzoq masofalarga parvozlarni amalga oshirishi mumkin. Eng uzoq masofali “Boing–747” Avstraliyaning “Qantas Airways” aviakompaniyasi tomonidan boshqariladigan Boeing bo‘lib, u 1989-yilda Londondan Sidneyga to‘xtovsiz parvoz qilgan va bortda yo‘lovchilar va yuklarsiz 18 000 km masofani 20 soat 9 daqiqada bosib o‘tgan.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida “Ha / Yo‘q” mashqini og‘zaki bajartiring.

№	Ma’lumotlar	Ha / Yo‘q
1	“Boing–747” – dunyodagi birinchi uzoq masofaga uchuvchi samolyot	Ha
2	“Boing–747” birinchi parvozini 1979-yilda amalga oshirgan.	Yo‘q
3	Bu samolyot hozirgacha dunyodagi eng katta, eng keng va eng og‘ir yo‘lovchi samolyoti hisoblanadi.	Yo‘q
4	Yangi modeldagi samolyotlar 150 tagacha yo‘lovchini tashish imkonini beradi.	Ha
5	“Boing–747” samolyoti uzoq masofalarga parvoz qila olmaydi.	Yo‘q

5. “Diqqat qiling!” ruknida kirish so‘zlar bilan bog‘liq nazariy ma’lumot bering. Ularning qo‘llanish o‘rinlarini tushuntiring.

Xayriyat “quvonch, essiz, afsus “achinish” ma’nosidagi kirish so‘zlar hisoblanadi.

6. Grammatik mavzuni mustahkamlash maqsadida 3-topshiriqni yozma bajartiring. Bunda nuqtalar o‘rniga zarur kirish so‘zlarni namunadagi kabi qo‘yib yozishni topshiring.

Namuna:

1. Xayriyat, parvoz muvaffaqiyatli yakunlandi.
2. Buyumlarimni samolyot bortida unutib qoldiribman, esiz.
3. Xayriyat, yozgi ta’tilda Turkiyaga sayohat qiladigan bo‘ldik.
4. Afsus, aviachiptani onlayn xarid qilishni o‘rganib olmabman.
5. Xayriyat, aeroportga o‘z vaqtida yetib kelishga ulgurdim.

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *uchuvchi, parvoz, yordamchi uchuvchi, aviamuhandis, xizmat.*

8. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda berilgan matn asosida javoblarga mos keluvchi savollar tuzish vazifasini bering.

Savol: Ilk samalyotlar necha kishini ko‘tara olgan?
Javob: Ilk uchar uskuna faqat bir kishini ko‘tara olgan.
Savol: Uchuvchisiz uchadigan samolyotlar ham bormi?
Javob: Uchuvchisiz samolyotlar ham mavjud.
Savol: Uchuvchisiz uchadigan samolyotlar qanday havoga ko‘tariladi?
Javob: Ular yerdan berilgan buyruqlar asosida havoga ko‘tarila oladi.

10. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi yordamida o‘quvchilarga alifbo ketma-ketligida bittadan harfni ayting. Ular o‘zlariga tushgan harfni daftarga yozishsin. Vazifa: “Sizga tushgan harfdan boshlanadigan, bugungi darsda foydalanilgan bitta so‘z yozing”.

O‘quvchilar so‘zlarni alifbo ketma-ketligida o‘qiydilar.

11. O‘quvchilarga o‘zlari sayohat qilishni orzu qilgan davlatga namunadagidek aviachipta tayyorlab kelishni topshiring.

5-MAVZU. DRONLAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
- O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushuna oladi; jarayonlar tasvirini yoza oladi.
- Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi (*Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin* singari).

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga tayyorlab kelgan aviachiptalarini taqdimot qilishlarini topshiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Uchuvchisiz boshqariladigan qurilmalarni ham ko‘rganmisiz?” “Ular qanday nomlanadi?” savoli yordamida o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmlarda nimalarni ko‘ryapsiz?

Rasmlar asosida dronlar turlari hamda bajaradigan vazifalari xususida suhbat tashkil qiling.

Ularning quyidagi turlari bir-biridan farqlanadi: tez uchadigan dron, harbiy dron, suvosti droni, daraxt ekadigan dron, yerda yuruvchi dron, kamera droni.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matn eshittiriladi. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

DRONLAR HAQIDA QIZIQARLI FAKTLAR

Dronlar deb ataladigan uchuvchisiz uchish apparati dunyo bo‘ylab tasavvur qilib bo‘lmaydigan tezlikda tarqalmoqda. Ular kundan kunga murakkablashib, texnologik jihatdan rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda pochtachi dronlar ham mavjud bo‘lib, ular havoda ikki soatdan ortiq harakatlana oladi.

Siktivkar shahrida “Dodo Pitsa” kompaniyasi o‘z pitsalarini mijozlariga dronlar yordamida yetkazib berishni yo‘lga qo‘ydi. Xaridor internet orqali buyurtma berishi mumkin. Pitseriya rahbariyati ushbu turdagi yetkazib berishni muntazam ravishda amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Pitsani havo orqali qabul qilish uchun mijoz telefon orqali buyurtma berishi kerak. Pitsa belgilangan manzilga yetkazilishi bilan menejer mijozga tashqariga chiqish va buyurtmani olish zarurligi haqida xabar beradi. Kopter to‘lov cheki bilan birga pitsa qutisini pastga tushiradi. Qurilmaga kuzatuv kamerasi o‘rnatilgan bo‘lib, u operatorga mijozning qachon ko‘chaga chiqqanini ko‘rish imkonini beradi.

Delft universiteti talabalaridan biri og‘irligi atigi 4 kg bo‘lgan, soatiga 100 km tezlikda ucha oladigan “mo‘jiza mashinasi”ni yaratdi. Asosiy maqsad – o‘z vaqtida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan berilgan savollarga og‘zaki javob oling.

1. Pochtachi dronlar havoda necha soat harakatlana oladi?
2. Qaysi kompaniya o‘z pitsalarini mijozlariga dronlar yordamida yetkazib berishni yo‘lga qo‘ydi?
3. Pitsani yetkazib berishda menejer qanday vazifa bajaradi?
4. Delft universiteti talabalaridan biri qanday dron yaratdi?
5. Og‘irligi 4 kg bo‘lgan “mo‘jiza mashinasi” qanday vazifa bajaradi?

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi

orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlari lozim

Lug‘atingiz uchun: *masofadan boshqarish, yetkazib berish, jamoatchilik.*


DRONLAR

1. O'ylang va toping. Gapiring.

2. Tinglang. Savollarga javob bering.

masofadan boshqarish
yetkazib berish
jamoatchilik

1. Pochtachi dronlar havoda necha soat harakatlana oladi?
2. Qaysi kompaniya o'z pitsalarini mijozlariga dronlar yordamida yetkazib berishni yo'lga qo'ydi?
3. Pitsani yetkazib berishda menejer qanday vazifa bajaradi?
4. Delft universiteti (Niderlandiya) talabalaridan biri qanday dron yaratdi?
5. Og'irligi 4 kg bo'lgan "Mo'jiza mashinasi" qanday vazifa bajaradi?

DIQQAT QILING


Shunday ... -ki, natijada ...

74

6. “Diqqat qiling!” ruknida o‘quvchilarning natija ergash gaplar bilan bog‘liq bilimlarini kengaytirish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlar bering.

Natija ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildirgani uchun, odatda bosh gapdan keyin keladi.

7. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga ikki ustundagi sodda gaplardan natija ergash gapli qo‘shma gap yozish kerakligini uqtirib, namunani doskada yozib tushuntiring.


3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Har bir dron shunday daraxt ekadiki, natijada bu amal oddiy usuldan 25 marta tez bajariladi.

1	Har bir dron bir kunda daraxt ekadi.	A	Maydonlarni kuzatish atigi 6 daqiqada yakunlandi.
2	Kuzatish ishlari dronlar yordamida amalga oshirildi.	B	Odatdagidan ancha arzonga tushadi.
3	Jo'natmalar dronlar yordamida olib boriladi.	D	Bu oddiy usuldan 25 marta tez bajariladi.
4	Dronlardan tibbiy maqsadlarda ham foydalaniladi.	E	Bemorga tez va sifatli tibbiy yordam ko'rsatiladi.

4. O'qing.

Dron – texnologiya nuqtayi nazaridan uchuvchisiz samolyot hisoblanadi. Dron asosan avtonom yoki masofadan boshqarish pulti bilan harakatlana oladigan, uchadigan robotdir. Yaqin o'tmishda uchuvchisiz samolyotlardan ko'proq harbiy sohada foydalanilgan. Ammo hozir ular oddiy odamlar va keng jamoatchilik tomonidan yetkazib berish xizmatlari kabi maqsadlarda ko'proq ishlatilmoqda. Kinorejissyorlar va jurnalistlar muntazam ravishda uchuvchisiz samolyotlardan videografiya maqsadida foydalanadi. Ya'ni dronlar suratga yoki videoga olish qiyin bo'lgan vaziyatlarda qo'l keladi.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

	Ma'lumotlar	To'g'ri /Noto'g'ri
1	Dron pult bilan faqat masofadan boshqariladi.	
2	Kino sanoatida dronlardan suratga olishda foydalaniladi.	
3	Dronlardan yetkazib berish xizmatlarida foydalanilmaydi.	
4	Texnologik jihatdan dron uchuvchisiz samolyotdir.	

Mustaqil ish
O'zingiz tasavvur qilgan dronning rasmini chizing.

75

8. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni juftliklarda yoki kichik guruhlarda “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” metodi asosida og‘zaki bajartiring.

№	Ma’lumotlar	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
1	Dron pult bilan faqat masofadan boshqariladi.	Noto‘g‘ri
2	Kino sanoatida dronlardan videografiya maqsadida foydalaniladi.	To‘g‘ri
3	Dronlardan yetkazib berish xizmatlarida foydalanilmaydi.	Noto‘g‘ri
4	Texnologik jihatdan dron bu – uchuvchisiz uchish apparatidir.	To‘g‘ri

10. Refleksiya. “Aktivator- 3-2-1” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot;
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot;
Men albatta qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.

O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

11. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida o‘zlari tasavvur qilgan dron rasmini chizib kelish va uning vazifalarini tushuntirib berish topshirig‘ini bering.

6-MAVZU. “AQLLI” UYLAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
- O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushuna oladi; jarayonlar tasvirini yoza oladi.
- Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi. (*Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin* singari).

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar mustaqil ish sifatida chizib kelgan dron rasmlarini taqdimot qilishlarini ayting. Agar imkoni bo‘lsa, rasmlar ko‘rgazmasi tashkil qilishingiz ham mumkin. Tasviriy san’at o‘qituvchisi bilan maslahatlashib, “Eng yaxshi rassom” nominatsiyasi g‘olibini aniqlashingiz ham mumkin.

“Pult bilan boshqariladigan uylar haqida eshitganmisiz yoki ularni ko‘rganmisiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa matnni ifodali qilib bir marotaba o‘qib bering.

TOSHKENT SITIDAGI “AQLLI UYLAR“

"Aqlli uy"ga kirish uchun kalitlarning hojati yo‘q. Siz uyingizga kelganingizda identifikatsiyalash moslamasi sizni taniydi va sizni uyga kiritadi. Uyning kirish eshigini ochishingiz bilan chiroq yonadi. Avtomatik ravishda sizning harakatingizni kuzatib turuvchi harakatlantiruvchi datchiklar tufayli tegishli joylarda yorug‘lik sizning ovozli buyrug‘ingiz bilan yoqiladi yoki o‘chadi.

Xonadagi pardalarni ham avtomatik boshqarish mumkin. Bu masofadan turib ovozli boshqarish bo‘yicha amalga oshiriladi.

Shuningdek, “aqlli uylar”da har bir xonadagi iqlimni uydagi inson xohishiga ko‘ra boshqarish mumkin. Shu bilan birga, shamollatish tizimi xonadagi namlikni, haroratni, havo oqimining tezligini, chang miqdorini, havo tarkibini tahlil qilib turadi.

“Aqilli uylar”da kunduzi dastur energiyani tejaydi va uy ichki vaziyatini doimiy kuzatib boradi. Uydan hamma ketganda avtomatik ravishda chiroqlar va elektr jihozlari o‘chiriladi, xonalardagi harorat pasayadi, yong‘in va xavfsizlik tizimi yoqiladi, harakat ko‘rsatkichlaridan ishlaydigan video yozib olish ishga tushadi. Uyga qaytish vaqti yaqinlashganda, isitish tarmog'i faol rejimni yoqadi va xonani siz belgilagan haroratgacha isitadi.


“Aqilli uy” shiftida joylashtirilgan datchiklar uy haroratini kuzatib boradi va sizga ushbu ma’lumotlarni internetdagi ob-havo ma’lumotlari bilan birga taqdim etadi.

3. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz? Ajratib ko‘rsatilgan surat qismlarida nima ifodalangan? Matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Aholi turar joylarini avtomatlashtirishning qanday afzalliklari bor?

2. Uyning qaysi qismlari avtomatlashtiriladi?
3. Uydagi qurilmalar qanday boshqariladi?
4. Datchik nima?
5. Shunday “aqlli uylar”da yashashni istaysizmi?



“AQLLI UY”LAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Aholi turarjoylarini avtomatlashtirishning qanday afzalliklari bor?
2. Uyning qaysi qismlari avtomatlashtiriladi?
3. Uydagi qurilmalar qanday boshqariladi?
4. Datchik nima?
5. Shunday “aqlli uy”larda yashashni istaysizmi?


datchik
avtomatik
avtomatlashtirmoq
boshqarilmoq
internet
xavfsizlik

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Hozirgi davrda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, natijada aholi turarjoy binolari avtomatlashtirilmoqda.

1. Hozirgi davrda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda.
2. Aholi turarjoy binolari avtomatlashtirilmoqda.
3. Yozda quyoshning jazirama nurlari uyingizni qizita boshlaganda uyning deraza pardalari avtomatik tarzda tushiriladi.
4. Uyning sovitish tizimi ishga tushadi.

76



5. Datchiklar doimo sizga xabar jo'natib turadi.
6. Uyingizni qo'lingizdagi mobil telefon orqali muntazam kuzatishingiz mumkin.

3. O'qing.

“Aqlli uy” – odamlarning qulayligi va farovonligi uchun xizmat qiladigan ajoyib kashfiyot. “Aqlli uy”larga o'rnatilgan boshqaruv tizimi orqali uydagi isitish tizimlari, suv ta'minoti, elektr energiyasi, konditsioner va shamollatish, shuningdek, xavfsizlik tizimlarining uzluksiz ishlashi nazorat qilinadi.

Ba'zi “aqlli uy”lar audio va video tizimlar bilan ham jihozlangan bo'lib, ular telefondan yoki kompyuterlardan internet orqali osonlikcha boshqariladi. Tasavvur qiling: faqat bitta tugmachani bosib, dunyoning istalgan joyidan uyingizda nima bo'layotganini bilishingiz mumkin.

“Aqlli uy”lar elektr tizimi bilan bog'liq ravishda ishlaydi. Chunki uydagi barcha tizim elektr energiyasi ta'minotiga ulanadi. Elektr energiyasi ham maxsus boshqariladi. Tarmoqda uzilishlar bo'lganida tizim avtomatik ravishda quyosh panellari yoki boshqa muqobil energiya manbalariga ulanishi mumkin.

4. O'ylang va toping. Yozing.

BILAR EDIM	BILIB OLDIM	BILMOQCHIMAN

5. O'ylang, toping va gapiring.

Mustaqil ish
Kelajakda o'zingiz yashashni istagan “aqlli uy” rasmini tasvirlang.

77

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *datchik, avtomatik, avtomatlashtirmoq, boshqarilmoq, internet.*

5. O‘quvchilarning mavzular yuzasidan o‘zlashtirgan nazariy bilimlari 2-topshiriq orqali mustahkamlanadi. Bunda berilgan oltita sodda gapni namunadagi kabi qo‘shma gapga aylantirishni tushuntiring.

Namuna:

1. Hozirgi davrda texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, natijada aholi turarjoy binolari avtomatlashtirilmoqda.
2. Yozda quyoshning jazirama nurlari uyingizni qizita boshlaganda uyning deraza pardalari avtomatik tarzda tushiriladiki, natijada, uyning sovitish tizimi ishga tushadi.
3. Datchiklar doimo sizga shunday xabar jo‘natib turadiki, natijada uyingizni qo‘lingizdagi mobil telefon orqali istagan paytingizda ko‘rib turishingiz mumkin.

6. 3-topshiriqda berilgan matnni “Soat strelkasi” usulida o‘qiting. Bunda o‘quvchilar doira shaklida turib oladilar. O‘rtada bir o‘quvchi strelka vazifasini bajarib turadi. Shu o‘quvchi qo‘li bilan kim o‘qishini ko‘rsatib turadi. U qo‘li bilan ishora qilgan o‘quvchi matnni qolgan joyidan davom ettirib ketadi.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida “BBB” metodidan foydalaning.

8. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz? Sizningcha, bu rasmda nima tasvirlangan?

5-topshiriqda berilgan rasmlar orqali uyning isitish, elektr va havo aylanish tizimlari va ularning vazifalari haqida suhbat uyushtiring. Bunda o‘quvchilarning og‘zaki nutq tuza olish ko‘nikmalariga diqqat qarating.

9. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga bugungi darsda yodida qolgan bitta so‘zni daftarga yozishni topshiring. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida kelgusida o‘zlari yashaydigan “aqlli uy”ning rasmini chizib kelish vazifasini bering.

7-MAVZU. DUNYONI O‘ZGARTIRUVCHI TEXNIKALAR

DARSNING MAQSADI:

- Texnik qurilmalar bilan bog‘liq otlar va fe’llarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
- O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushuna oladi; jarayonlar tasvirini yoza oladi.
- Yaqin kelajakdagi rejalari haqida gapirib bera oladi. Imkoniyat haqida gapira oladi. (*Men bugun kinoga bora olmayman, yordam berishim mumkin* singari).

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan o‘zi yashaydigan “aqlli uy”ning rasmini taqdimot qilishni topshiring. Topshiriqni bajarishga ijodiy yondashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

“Qanday yangi texnikalarni bilasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

“SpaceX“, “Tesla” va “Neuralink” bosh direktori, “The Boring Company” asoschisi hamda “OpenAI” hammuassisi Ilon Mask 1971-yilning 28-iyunida Pretoriya (Janubiy Afrika Respublikasi)da dunyoga kelgan...

Ilon Mask yoshligidan kitob o‘qish va dasturlashga qiziqqan. U 12 yoshida “Blastar” nomli oddiy o‘yinni yozib, uni kompyuter jurnaliga 500 dollarga sotgan. Tinmay o‘qib-izlangan, bir qancha loyihalar va dasturlar ixtiro qilgan Ilon Mask qiziqishi bo‘yicha muvaffaqiyatlarga erishgan. Hatto kosmik parvoz uchun raketalar sotib olmoqchi bo‘lgan. Lekin raketalarni sotib olishdan ko‘ra shaxsiy raketa qurish arzonroq bo‘lishini hisobga olib, 2002-yilning boshida Mask “Space Exploration Technologies, SpaceX” kompaniyasiga asos solgan. Kompaniyaning oldiga qo‘ygan asosiy maqsadlaridan biri bu – kosmik parvozlarni ancha arzonlashtirishdir. Kompaniyaning uzoq muddatli maqsadi esa Marsni egallash.

Maskning yana bir yirik va mashhur kompaniyasi – “Tesla” haqida ham eshitgan bo‘lsangiz kerak. 2006-yilda “Tesla”ning ishtirokida o‘zining birinchi avtomobili “Roadster”ni ishlab chiqargan. 2016-yilda Ilon Mask kompaniyani rivojlantirish bo‘yicha tuzgan rejasiga ko‘ra, elektromobillar qatoridan yuk mashinalari va avtobuslar ham o‘rin olgan. Mask quyosh energiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “SolarCity” loyihasini ham ilgari surgan.

Ilon Maskning loyihalaridan yana biri – tirbandlikni chetlab o‘tuvchi tezkor transport harakatini ta’minlash. Tezkor transport sifatida Maskning hyperloop loyihasini keltirish mumkin. Hyperloop vakuum quvur bo‘ylab harakatlanuvchi tezkor poezd bo‘lib, u Los Anjelesdan San-Fransiskogacha bo‘lgan masofani deyarli 35 daqiqada bosib o‘tadi.

Ilon Mask, yuqorida aytilganidek, “OpenAI” asoschilaridan biri hamda “Neuralink” kompaniyasining bosh direktoridir. “OpenAI” – sun’iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar bi-


DUNYONI O'ZGARTIRUVCHI TEXNIKALAR

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

sun'iy intellekt elektromobil boshqarmoq kompyuter avtomatik qurilma


2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Ilon Maskning tug'ilgan yurti – Amerika. A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. U yoshligidan faqat dasturlashga qiziqqan. A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Uning yaratgan loyihalari butun dunyoga mashhur. A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Raketalar sotib olib, Marsni egallash uning maqsadi. A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
5. Sun'iy intellekt kompaniyasi – "Open AI" direktorining yordamchisi bo'lib ishlaydi. A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

DIQQAT QILING

Xullas, demak

78


3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Xullas, "Open AI" kompaniyasi sun'iy intellekt loyihalarini ishlab chiqadi.

1. ..., "Open AI" kompaniyasi sun'iy intellekt loyihalarini ishlab chiqadi.
2. ..., "Tesla" kompaniyasi elektromobillar ishlab chiqaradi.
3. ..., Ilon Maskning "Space X" kompaniyasini tashkil qilishdan asosiy maqsadi – Marsni egallash.
4. ... ; Ilon Mask dunyoni o'zgartiruvchi texnikalarni yaratmoqda.
5. ..., ilm-fan rivojlangani sari insoniyatga xizmat qiladigan ixtirolar yaratilaveradi.

4. O'qing.

Kompyuter – XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lib, hozir inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida qo'llanib kelmoqda.

Dastlab yaratilgan kompyuter asosan murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Keyinroq kompyuterda matn, rasm, tovush, video kabi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, uzatish kabi amallarni bajarish imkoniyati yuzaga keldi. Ularning turlari xilma-xil bo'lib, ular nafaqat o'lchamlari, balki ma'lum bir imkoniyat va vazifalari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Kompyuterlar kundan kunga takomillashib bormoqda, sohada yangidan yangi kompaniyalar paydo bo'lmoqda. Hozirgacha jahon bozorida kompyuter texnikasining 100 dan ortiq modeli ishlab chiqarilgan.

5-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" darsligidan

5. O'ylang va toping. Yozing.

1	Monitor	A	Qog'ozdagi matn yoki tasvirni kompyuter xotirasiga kiritadi.
2	Sichqoncha	B	Uning asosiy vazifasi – kompyuterga ma'lumotlarni kiritish va kompyuter bilan muloqot qilish.
3	Skaner	D	Harakatining natijasi monitorda kursor ko'rinishida namoyon bo'ladi. Uning yordamida kompyuterni boshqarish qulay.
4	Klaviatura	E	Uning vazifasi ma'lumotlarni ekranda namoyish qilishdan iborat.

Mustaqil ish

"Paint" dasturida o'zingiz orzu qilgan texnika rasmini chizing.

79

lan shug‘ullanuvchi notijorat tashkilot. Uning missiyasi fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan mashinani yaratishdir. “Neuralink” kompaniyasi esa inson tanasini kompyuter bilan bog‘lash imkonini beruvchi texnologiyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqdagi “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usulidagi testdan foydalaning.

1. Ilon Maskning tug‘ilgan yurti – Amerika.
   A. To‘g‘ri. **B. Noto‘g‘ri**.
2. U yoshligidan faqat dasturlashga qiziqqan.
   A. To‘g‘ri. **B. Noto‘g‘ri.**
3. Uning yaratgan loyihalari butun dunyoga mashhur.
   A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. Raketalar sotib olib, Marsni egallash – uning maqsadi.
   A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
5. Sun’iy intellekt kompaniyasi – “OpenAI” direktorining yordamchisi bo‘lib ishlaydi.
   A. To‘g‘ri. **B. Noto‘g‘ri.**

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *sun’iy intellekt, elektromobil boshqarmoq, kompyuter, avtomatik.*

5. “Diqqat qiling!” ruknida kirish so‘zlar haqidagi nazariy ma’lumot berib o‘ting.

Xullas, demak kabi kirish so‘zlar fikrning tugallanganligini, xulosalanganligini bildiradi.

6. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 3-topshiriqni namunadagidek bajarishni tushuntiring.

Namuna:

1. Xullas, “OpenAI” kompaniyasi sun’iy intellekt loyihalarini ishlab chiqadi.
2. Demak, “Tesla” kompaniyasi elektromobillarni ishlab chiqaradi.
3. Xullas, Ilon Maskning “SpaceX” kompaniyasini tashkil qilishdan asosiy maqsadi – Marsni egallash.
4. Demak, Ilon Mask dunyoni o‘zgartiruvchi texnikalarni kashf qilmoqda.
5. Xullas, ilm-fan rivojlangani sari insoniyatga xizmat qiladigan ixtirolar yaratilaveradi.

7. O‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali o‘qiting. Oq‘uvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash, informatika fanidan olgan bilimlarini qo‘llash maqsadida “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalaning.

1	Sichqoncha	A	Ikki yoki uchta knopkasi bo‘lgan qurilma bo‘lib, uning yordamida kompyuterning ishini oson boshqarish mumkin.
2	Monitor	D	Uning ko‘rinishi xuddi to‘g'ri to‘rt burchakli qutiga o‘xshaydi. Uning old devorida turli xil tugmachalar (klavishlar), indikatorlar, disketni joylashtirish “cho‘ntak”lari bor.
3	Tizimlar bloki	C	Kompyuterning markaziy qurilmasi bo‘lib, axborotlarga ishlov beradi, ya’ni hisoblash amallarini, arifmetik-matniqiy amallarni bajaradi, ularni solishtiradi va uzatadi.

4	Protsessor	B	Televizorga o‘xshash bo‘lib, uning ekranida axborotning natijaviy ko‘rinishi tasvirlanadi.

9. Refleksiya. ”Aqliy hujum” metodi yordamida fe’llardan foydalanib refleksiyani amalga oshiring. Mazkur mavzu bo‘limning oxirgi mavzusi bo‘lgani uchun oldingi darslarda berilgan ma’lumotlar takrorlanadi, umumlashtiriladi va xulosalanadi.

10. O‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida Paint dasturida o‘zlari orzu qilgan texnika rasmini chizib kelish vazifasini bering.

8-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar Paint dasturida chizib kelgan o‘zlari orzu qilgan texnika rasmlari namoyishini o‘tkazing.

Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.


2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Qanday yangi texnikalar haqida eshitgansiz?

Hozirda robotlarning qanday turlari bor deb o‘ylaysiz?

3. O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda robotlar haqidagi matnni o‘qishni ta’kidlang.

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.


ADABIY O'QISH

xayoliy soha ko'mak bermoq zimmasiga olmoq ehtiyotkorlik keksa sohib

Robotlar

Yaqin-yaqinlargacha robotlar inson uchun xayoliy kashfiyot bo'lib tuyular va ularni faqatgina filmlarda tomosha qilish mumkin edi. Biroq bugun texnologiya rivoji tufayli har xil robotlar turli sohalarda qo'llanmoqda. Uy ishlarida ko'mak beruvchi robotlar ham yaratilib, odamlarning mehnatini osonlashtirmoqda.

Robot-tozalovchi pol, deraza va chang bo'lishi mumkin bo'lgan joylarni tozalashni o'z zimmasiga oladi. Bu esa uy egasiga bir qancha yengilliklar yaratadi. Ularning aksari unchalik qimmat emas, shuningdek, katta joy egallamaydi. Ularni boshqarish ham qiyin emas, mobil dastur orqali tozalash uchun vaqt va joyni tanlash mumkin. Robot ifloslangan joylarni aniqlaydi, chang, soch tolalari, hayvon junini ehtiyotkorlik bilan yig'ib oladi. U qo'lda yig'ishtirish va supurib-sidirish qiyin joylarni tozalashga mo'ljallab tayyorlangan. Robotning bo'yi past, shuning uchun mebel tagini ham osonlik bilan tozalay oladi. Tegishli ishlarini bajarib bo'lgandan so'ng avtomatik ravishda o'z joyiga qaytadi.

Robot-enagalar bolalar bilan astoydil shug'ullanadi, masalan, ularga ertak aytadi, savollarga javob beradi, ota-onaning iltimosini yetkazadi, hatto bola aks etgan videolavhani mobil telefonga uzatadi. Ushbu robotning keksalarga xizmat ko'rsatadigan turlari ham bor. Ular ishlar ro'yxatini tuzadi, barcha qaydlarni eslatib turadi, kichik ishlarni bajaradi. Sun'iy intellekt sharofati bilan sohibining odatlariga moslashadi, suhbatlashadi. Hatto egasining ahvoli yomonlashsa, favqulodda xizmat xodimlarini ham chaqira oladi.

Xullas, ilm-fan taraqqiyoti natijasida inson mehnatini yengillashtiradigan, uning yashash tarzini osonlashtiradigan ko'plab robotlar yaratilmoqda.

Savollar:

1. Insonlar robotlarni nima uchun kashf qildi deb o'ylaysiz?
2. Robotlar ixtiro qilinishining insoniyat uchun qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor?
3. Robotlarning tozalovchi va enagalardan tashqari yana qanday turlarini bilasiz?
4. Robot-enagalarning vazifalarini tushuntirib bera olasizmi?
5. Sizningcha, ilm-fan rivojlanishi natijasida yaqin kelajakda robotlarning qanday turlari yaratilishi mumkin?

80

ROBOTLAR

Yaqin-yaqinlargacha robotlar inson uchun xayoliy kashfiyot bo‘lib tuyular va ularni faqatgina filmlarda tomosha qilish mumkin edi. Biroq bugun texnologiya rivoji tufayli turli robotlar qator sohalarda qo‘llanmoqda. Insonga uy ishlarida ko‘mak beruvchi robotlar ham yaratilib, odamlarning mehnatini osonlashtirmoqda.

Robot-tozalovchi pol, deraza va chang bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarni tozalashni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa uy egasiga bir qancha yengilliklar yaratadi. Ularning aksariyati unchalik qimmat emas, shuningdek, katta joy egallamaydi. Ularni boshqarish ham qiyin emas, mobil dastur orqali tozalash uchun vaqt va joyni tanlash mumkin. Bu robot-changyutkich ifloslangan joylarni aniqlaydi, chang, soch tolalari, hayvon junini ehtiyotkorlik bilan yig‘ib oladi. U qo‘lda yig‘ishtirish va tozalab olish qiyin bo‘lgan joylarni tozalashga mo‘ljallab tayyorlagan. Robotning bo‘yi past, shuning uchun mebel tagini ham osonlik bilan tozalay oladi. Tozalash ishlarini bajarib bo‘lgandan so‘ng u avtomatik ravishda o‘z joyiga qaytadi.

Robot enagalar bolalar bilan astoydil shug‘ullanadi, masalan, ularga ertak aytadi, savollarga javob beradi, ota-onaning iltimosini yetkazadi, hattoki bolaning videolavhasini mobil telefonga uzatadi. Ushbu robotning keksalarga xizmat ko‘rsatadigan turlari ham bor. Ular ishlar ro‘yxatini tuzadi, barcha qaydlarni eslatib turadi, kichik ishlarni bajaradi. Sun’iy intellekt sharofati bilan sohibining odatlariga moslashadi, suhbatlasha oladi. Hattoki egasining ahvoli yomonlashsa, robot favqulodda xizmat xodimlarini ham chaqira oladi.

Xullas, ilm-fan taraqqiyoti natijasida inson mehnatini yengillashtiradigan, uning yashash tarzini osonlashtiradigan robotlar ko‘plab yaratilmoqda.

Internet ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

5. O‘quvchilarning faktologik matn mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘kazing.

1. Insonlar robotlarni nima uchun kashf qildi deb o‘ylaysiz?
2. Robotlar ixtiro qilinishining insoniyat uchun qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor?
3. Robotlarning tozalovchi va enaga robotlardan tashqari yana qanday turlarini bilasiz?
4. Enaga robotlarning vazifalarini tushuntirib bera olasizmi?
5. Sizningcha, ilm-fan rivojlanishi natijasida yaqin kelajakda robotlarning qanday turlari yaratilishi mumkin?

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *xayoliy, soha, ko‘mak bermoq, zimmasiga olmoq, ehtiyotkorlik, keksa.*

7. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida faktologik matndan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring

KECHA, BUGUN, ERTAGA (30 SOAT)
MAHALLAM (8 SOAT)
1-MAVZU. XUSH KO‘RDIK!

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon sifatdoshi va edi to‘liqsiz fe’lini birgalikda ishlata oladi (*borgan edi, yashar edik*) keyingi gap ozgarmaydi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. O‘quvchilar bilan bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “So‘zli tasavvur” metodidan foydalaning.

O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling.

O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.

Bironta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi.

O‘quvchilarga yozgan so‘zlarini o‘qib berishlarini topshiring.

O‘quvchilar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.

2. 1-topshiriq asosida berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qittiring. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriq matnida keltirilgan ma’lumotlarni “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli yordamida og‘zaki tahlil qildiring.

Mahalla haqidagi ilk ma’lumot Suhrobning ustozi tomonidan aytiladi.	**Noto‘g‘ri**
Odil amaki choyxonada ishni boshlab yuborgan.	**Noto‘g‘ri**
Suhrob ustozi va sinfdoshlari bilan mahalla bo‘ylab sayohatga chiqmoqchi.	**To‘g‘ri**
Maktabimiz binosi anhor bo‘yida joylashgan.	**Noto‘g‘ri**
Suhrob mahallasidagi nuroniy otaxonlarning suhbatlarini, duolarini olmoqni yaxshi ko‘radi.	**To‘g‘ri**

4. Elektron resurs yordamida berilgan dialogik matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Bola:

– Bobojon, biz o‘zbek tili darsida “Mahalla” mavzusini o‘rgandik. Ustozimiz mahallaning tarixi haqida o‘rganib kelishimizni topshirdi.

Bobo:

– Bolajonim, “mahalla” asli arabcha so‘z. Bu yerda odamlar birgalikda, ittifoqlikda bir-birini qo‘llab-quvvatlab aka-uka, opa-singil, do‘st-birodar bo‘lib yashaydi. Bu yerdagi kishilarning turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari bir-biriga o‘xshab ketadi. Qisqa qilib aytganda, mahalla – katta oila.

Bola:

– U qachon paydo bo‘lgan?

Bobo:

– Uning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Navoiy bobomiz ham mahallaga “Shahar ichidagi shaharchadir” deb ta’rif beradi.

Bola:


– Ilk paydo bo‘lgan paytlardayam mahalladagilar to‘ylarni birga o‘tkazganmi?

Bobo:

– Bolajonim-a, avval ham, hozir ham nafaqat to‘y, balki hamma marosimlarni maslahatlashib, birga o‘tkazamiz. Mahalla ahli, ya’ni mahallada yashaydigan kishilar bemorlar, yolg‘iz yashaydigan keksalar holidan xabar olamiz, bayramlarda bir-birimizni yo‘qlaymiz, mahallamizni obodonlashtiramiz, yoshlarga yo‘l-yo‘riq korsatamiz. Kerak bo‘lsa tanbeh ham beramiz. Chunki mahalla – tarbiya o‘chog‘i.

Bola:

– Ha, kecha narigi ko‘chada yashaydigan amaki Fazliddin ikkovimizga gullarni tepganimiz uchun tanbeh berganda, biz noo‘rin xafa bo‘libmiz-da.


MAHALLAM

XUSH KO‘RDIK!

1. O‘qing.

Assalomu alaykum! Mening ismim Suhrob. Men 7-sinfda o‘qiyman. Bu – men yashaydigan mahalla. Har kuni maktabga ketayotgan paytimda mahallamizning sokin va ozoda ko‘chalarini tomosha qilishni yoqtiraman. Ertalab supurilgan, suv sepilgan ko‘chalardan o‘tar ekanman, kecha tarix darsida ustozimiz keltirgan ma’lumotlar esimga tushdi. Ustozimizning aytishicha, mahalla haqidagi ilk ma’lumot X asr tarixchisi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida keltirilgan ekan.

Mahallamiz guzari ham juda chiroyli. Mana, nonning shirin hidi anqib turgan novvoyxona, Odil amakim ishlaydigan sartaroshxona. Hammalari ertalabdan ishni boshlab yuborishgan.

Mahallamizdan katta anhor oqib o‘tadi. Yozda bu yerga o‘rtoqlarim bilan har kuni cho‘milgani kelamiz.


Anhor bo‘yida joylashgan choyxonada choyxonachi Ikrom aka ishni boshlab yuborgan. Birpasdan keyin bu yerga mahallamizning yoshi ulug‘ nuroniylari kelib, suhbatlashib o‘tirishadi. Men ularga salom beraman, ularga ko‘maklashaman.

Mana, maktabga ham kelib oldim. Maktabimiz binosi mahalla guzarining yonida joylashgan. Bugun ustozimiz mahalla bo‘ylab sayohatga olib chiqishini aytganlar. Ustozimiz sayohat davomida mahallamiz tarixi haqida qiziqarli ma’lumotlar, afsona-yu rivoyatlar aytib bermoqchi. O‘ylaymanki, sayohat davomida ko‘plab yangi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

2. O‘ylang va toping. Gapiring. Ha/yo‘q.

Mahalla haqidagi ilk ma’lumotni Suhrobning ustozi aytadi.	
Odil amaki choyxonada ishni boshlab yuborgan.	
Suhrob ustozi va sinfdoshlari bilan mahalla bo‘ylab sayohatga chiqmoqchi.	
Mahalla haqidagi ilk ma’lumot XII asrga to‘g‘ri keladi.	
Suhrob mahallasidagi nuroniy otaxonlarning duolarini oladi.	

82


3. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Alisher Navoiy mahallaga qanday ta’rif beradi?
2. Mahallangizdagi urf-odat, qadriyatlar haqida gapirib bering.
3. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan maqolni qanday izohlaysiz?
4. Sizga mahallangizdagi qaysi joylar yoqadi? Nima uchun?

DIQQAT QILING

Men		-m	Biz		-k
Sen	… + gan	-ng	Siz	… + gan	-ngiz
U		–	Ular		-lar

bog‘bon
chopmoq
obod
betakror
chamanzor
gulzor

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Bizning uyimiz mahalla guzari yonida joylashgan.

1. Bizning uyimiz mahalla guzari yonida (joylashmoq).
2. Buvimning aytishicha, oldinlari mahallamiz o‘rtasidan katta anhor (oqmoq).
3. Ko‘chamizdagi chinor daraxtini mening bobom (ekmoq).
4. Bobom uzoq yillar mahalla oqsoqoli (bo‘lmoq).
5. Mahallamiz bugun obod qishloqqa (aylanmoq).

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Ot (1 ta)	Mahalla
Sifat (2 ta)	
Fe’l (3 ta)	
Gap (4 so‘zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

Mustaqil ish
Mahallangiz tarixi haqida oila a’zolaringiz yordamida ma’lumot to‘plang.

83

Bobo:

– Xafa bo‘lmagin, toychog‘im, mahalladoshlar bir-birimizning farzandlarimiz uchun mas’ulmiz. Axir bir bolaga yetti mahalla ota-ona deyishadi.

5. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *beg‘ubor, chopmoq, obod, betakror, chamanzor.*

7. “Diqqat qiling!” ruknida -gan sifatdosh shakli kesim vazifasini bajarganda, edi, ekan to‘liqsiz fe’llari bilan ham birgalikda qo‘llanadi va uzoq o‘tgan zamon ma'nosini ifodalanashini tushuntiring:

Aytgan edim, ko‘rgan eding kabi

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va grammatik bilimlarini mustahkamlash uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Gaplarni nazariy qoidaga mos shaklga keltiring, uzoq o'tgan zamon ma'nosi ifodalangan gaplarni ko'chirib yozing. O'zingiz ham mavzuga mos 2 ta gap tuzing. Nima uchun berilgan gaplarning barchasidan ham uzoq o'tgan zamon ma'nosi hosil bo'lmasligini tushuntiring.

Namuna:

1. Bizning uyimiz mahalla guzari yonida *joylashgan*.
2. Buvimning aytishicha, oldinlari mahallamiz o‘rtasidan katta anhor *oqqan*.
3. Ko‘chamizdagi chinor daraxtini mening bobom *ekkan*.
4. Bobom uzoq yillar mahalla oqsoqoli *bo‘lgan*.
5. Mahallamiz bugun obod qishloqqa *aylangan*.

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Mavzuda o‘rganilgan ma’lumotlarni “Sinkveyn” metodi asosida mustahkamlang.

Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

1-qator: mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so‘z bilan ifodalanadi (3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi (4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

Ot (1 ta)	mahalla
Sifat (2 ta)	obod, sevimli
Fe’l (3 ta)	gullagan, obod qilingan, eshitgan
Gap (4 so‘zdan iborat)	Men mahallamni yaxshi ko‘raman.
Sinonim (1ta)	Vatan ichra kichik vatan.

2-MAVZU. MAHALLA GUZARI


DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o‘qigan* va hokazo). Sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga berilgan mustaqil topshiriq asosida har biri o‘z mahallasi haqida yozib kelgan ma’lumotlarni o‘qishni topshiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Mahallangiz guzariga qachon oxirgi marta bordingiz?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.



MAHALLA GUZARI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Tinglagan qo‘shig‘ingizda qishloq qanday tasvirlangan?
2. “Vatan ichra kichik vatandir” jumlasidan nimani tushundingiz?
3. “Har kimga aziz tug‘ilgan joyi,
Tog‘lari, bog‘i, tuprog‘i, loyi”. Insonga yana nimalar aziz bo‘lishi mumkin?
4. Qo‘shiqning naqarotini aytib ko‘ring.

2. O‘qing.

Mahallamiz guzari

Bu – mahallamiz guzaridagi kutubxona. Kitobga qiziqadigan bolalar kutubxonadan bemalol foydalanishi mumkin. Hozir dars tugagani uchun sinfdoshlarim shu yerga kelgan.

Bu – mahallamiz “Yoshlar guzari”dagi tikuvchilik xonasi. Tikuvchi qizlarimiz Zumrad va Saodat. Bu yerda chevarlik hunarini o‘rgangan qizlar ishlaydi.

Bu – novvoyxona. Unda mahallamizning taniqli novvoyi Ixtiyor aka ishlaydi. U yopgan nonlarga talab shunchalik ko‘pki, kecha-yu kunduz qo‘li qo‘liga tegmaydi. Ixtiyor aka o‘z kasbini juda qadrlaydi.

Bu yerda esa sartaroshxona joylashgan. Rustam aka – o‘z ishini juda yaxshi biladigan sartarosh. Shuning uchun mijozlari doim xursand. U barchaga samimiy munosabatda bo‘ladi.

3. O‘ylang va toping. Yozing.


Namuna:
Sinfdoshlarim kutubxonada kitob o‘qiyapti.

Naqorat

Naqorat

	Kim?	Qayerda?	Nima(ni)?	Nima qilyapti?
1			kitob	
2	Zumrad			
3		novvoyxonada		
4	Rustam aka	sartaroshxonada	ustarani	ishlatyapti

84



DIQQAT QILING

…, chunki … .
…, negaki … .

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
O‘quvchilar mahalladagi kutubxonaga bordilar, chunki dars tugagan edi.

1. O‘quvchilar mahalladagi kutubxonaga bordilar, … dars tugagan edi.
2. Zumrad tikuvchilik hunarini o‘rganmoqda, … u ko‘ylak tikishni yoqtiradi.
3. Mahallamizda Ixtiyor akani hamma hurmat qiladi, … u o‘z kasbini juda qadrlaydi.
4. Rustam akaning mijozlari juda ko‘p, … u hamma bilan samimiy munosabatda bo‘ladi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

B	O	G‘	D	O	R	I	X	O	N	A	O	
E	Y	G	E	G	S	A	T	F	K	D	D	
K	K	U	T	U	B	X	O	N	A	S	K	
A	Q	Z	A	X	O	D	G	J	F	A	O‘	
T	M	A	K	T	A	B	O	G‘	Ch	A	Ch	
s	A	R	T	A	R	O	SH	X	O	N	A	
P	T	T	U	K	V	E	X	U	Ch	Q	V	
N	O	V	V	O	Y	X	O	N	A	G	Y	
J	L	V	D	O‘	K	O	N	P	N	Y	J	
H	CH	O	Y	X	O	N	A	T	B	L	X	

Mustaqil ish

Mahallangizdagi o‘zingiz yoqtirgan bino va inshootlar haqida ma’lumot to‘plang.

85

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

Har kimga aziz tug‘ilgan joyi,
Tog‘lari, bog‘i, tuprog‘i, loyi.
Mening qishlog‘im – ota makonim,
Endi boshqacha uning chiroyi.
Siz ham jo‘r bo‘ling ardog‘imizga,
Bir kelib keting qishlog‘imizga!
Siz ham jo‘r bo‘ling ardog‘imizga,
Mehmon bo‘lib keling qishlog‘imizga.
Agar bir ko‘rsang, qaytging kelmaydi,
Buni qishloq deb aytging kelmaydi.
Ko‘zni yayratar go‘zalliklari,
Deysan: Shahrim ham shunday bo‘lsaydi“.
Baxt qaynab turgan bulog‘imizga,
Mehmon bo‘lib keling qishlog‘imizga,
Bir kelib keting qishlog‘imizga.
Men o‘zim ekkan gulimni ko‘ring,
Turmushi obod elimni ko‘ring.
Bir uylar qurdik – dunyoning ko‘rki,
Shukrona qilar dilimni ko‘ring.
Parvona oshiq chirog‘imizga,
Mehmon bo‘lib keling qishlog‘imizga,
Bir kelib keting qishlog‘imizga.
Vatan ichra kichik vatandir,
Chaman ichra u kichik chamandir.
Mening qishlog‘im – mening gulbog‘im,
Ota makondir, ona makondir.
Quvonch sig‘maydi qarog‘imizga,
Mehmon bo‘lib keling qishlog‘imizga,
Bir kelib keting qishlog‘imizga.

1. Tinglagan qo‘shig‘ingizda qishloq qanday tasvirlangan?
2. *“Vatan ichra kichik vatandir”,* deganda nimani tushundingiz?
3. *“Har kimga aziz tug‘ilgan joyi, Tog‘lari, bog‘i, tuprog‘i, loyi”*. Insonga yana nimalar aziz bo‘lishi mumkin?
4. Qo‘shiqning naqarotini aytib ko‘ring.

4. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.
Rasmda kimni ko‘ryapsiz?
2-topshiriqda berilgan matnni “Izohli o‘qish” usulidan foydalanib o‘qiting.
Bunda o‘qilgan matn mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlari hisoblanadi. Matn mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar matndagi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratiladi.
O‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

MAHALLAMIZ GUZARI

Bu – mahallamiz guzaridagi kutubxona. (Mahallangizda shunday kutubxona bormi?) Kitobga qiziqadigan bolalar bu kutubxonadan bemalol foydalanishi mumkin. (Siz shu toifaga kirasizmi?) Hozir dars tugagani uchun sinfdoshlarim shu yerga kelgan. (Qaysi sinfdoshingizni kutubxonada ko‘rgansiz?)
Bu – mahallamiz “Yoshlar guzari”dagi tikuvchilik xonasi. (Tikuvchilik xonasida qanday buyumlar bo‘ladi?) Tikuvchi qizlarimiz – Zumrad va Saodat. (Diqqat! “Tikuvchi” so‘zining sinonimi...) Bu yerda chevarchilik hunarini o‘rgangan qizlar ishlashadi. Sinfdoshlarimiz darsdan keyin u yerga borib, ulardan tikuvchilik sirlarini o‘rganadilar. (Kimlar tikuvchilikka qiziqadi?)
Bu – novvoyxona. (Bu qanday joy?) Unda mahallamizning taniqli novvoyi Ixtiyor aka ishlaydi. (Mahallangizda novvoy kim?) U yopgan nonlarga talab shunchalik ko‘pki, kecha-yu kunduz qo‘li qo‘liga tegmaydi. (Oxirgi so‘zni izohlang.) Ixtiyor aka o‘z kasbini juda qadrlaydi.
Bu yerda esa sartaroshxona joylashgan. Rustam aka – o‘z ishini juda yaxshi biladigan sartarosh. (Sartaroshga qanday asboblar kerak bo‘ladi?) Shuning uchun mijozlari doim xursand. (“Mijoz” so‘zini o‘z tilingizga tarjima qiling.) U barchaga samimiy munosabatda bo‘ladi. ("Samimiy" so‘zining ma‘nosini izohlang).
O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

5. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni yozma bajartiring. Bunda berilgan namuna asosida o‘quvchilar jadvaldagi so‘zlardan to‘liq gaplarni shakllantiradilar.
Namuna:
Sinfdoshlarim kutubxonada kitob o‘qiyapdi.

№	Kim(lar)?	Qayerda?	Nima(ni)?	Nima qilyapti?
1	Sinfdoshlar	kutubxonada	kitob	o‘qiyapti
2	Zumrad	tikuvxonada	ko‘ylak	tikyapti
3	Ixtiyor aka	novvoyxonada	non	yopyapti
4	Rustam aka	sartaroshxonada	ustara	ishlatyapti

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *guzar, bemalol, talab, mijozlar, samimiy, qaroq.*

7. “Diqqat qiling!” ruknida** chunki, negaki **bog‘lovchilari haqida ma’lumot berilgan.
Sabab bog‘lovchilariga *chunki, negaki* bog‘lovchilari kiradi. Bu bog‘lovchilar ergash gapga bosh gapni bog‘lab, sabab ma’nosini ifodalaydi. Masalan:
Chorasi bo‘lmagan ishga kirishma, chunki undan qutulib bo‘lmaydi.
Qila olmaydigan ishingga va’da berma, negaki uyalib qolasan.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga sabab bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib yozishi kerakligini uqtirib, namunani doskada yozib tushuntiring.
Namuna:
1. O‘quvchilar mahalladagi kutubxonaga bordilar, chunki dars tugagan edi.
2. Zumrad tikuvchilik hunarini o‘rganmoqda, negaki u ko‘ylak tikishni yoqtiradi.
3. Mahallamizda Ixtiyor akani hamma hurmat qiladi, chunki u o‘z kasbini juda qadrlaydi.
4. Rustam akaning mijozlari juda ko‘p, negaki u hamma bilan samimiy munosabatda bo‘ladi.

9.O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni og‘zaki bajartiring.
Namuna: *novvoyxona, bog‘, dorixona, choyxona, maktab, bog‘cha, bekat, sartaroshxona, kutubxona, guzar, ko‘cha, oshxona, do‘kon.*

3-MAVZU. MEHMONDO‘STLIK

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o‘qigan* va hokazo). Sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. “3 ta fakt” metodi yordamida o‘quvchilarga mustaqil bajargan topshiriqlarini o‘qiting. Har bir o‘quvchi mahallasi haqida yozib kelgan 3 ta ma’lumotni o‘qib bersin. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.
“Oila a’zolaringiz bilan mehmonga tez-tez borib turasizmi?” savoli yordamida o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.


MEHMONDO‘STLIK

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Nima uchun mehmonga o‘z vaqtida borish kerak?
2. Yangi damlab keltirilgan choy nima uchun qaytariladi deb o‘ylaysiz?
3. Dasturxonga kim birinchi qo‘l uzatadi?
4. Mezbonlik qilganda nimalarga ahamiyat berasiz?
5. Yana qanday mehmondorchilik odoblarini bilasiz?

2. O‘qing.

– Alisa, bugun Nodira xolamnikiga mehmonga boramiz.
– Bizning borishimizni xolang biladimi?
– Yo‘q, bizda qarindoshlarnikiga mehmonga borishdan oldin aytib o‘tirishmaydi.
– Juda zo‘r-ku!
– U yerga oyim tikkan ko‘ylaklarni kiyib boramiz. Atlas ko‘ylak senga juda yarashsa kerak.
– Menga ham tikdilarmi? Qani, ko‘rsay-chi… Voy, buncha chiroyli!
– Bu senga sovg‘a!
– Rostdanmi? Bilasanmi, Sevara, menga eng yoqqan sovg‘a shu bo‘ldi. Rahmat!
– Yoqqanidan xursandman. Endi shirinliklardan olaylik.
– Nega?
– Chunki mehmondorchilikka quruq borib bo‘lmaydi. Bizda urf-odat shunday.
– Ajoyib urf-odatlaringiz bor ekan!

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Alisaga Sevaraning onasi tikkan atlas ko‘ylak yoqmadi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
2. Sevaraning onasi bilan Nodira xola – opa-singil.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Mehmonga borishdan oldin mezbonni ogohlantirish kerak.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. Odatda mehmondorchilikka quruq qo‘l bilan borilmaydi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

mehmondorchilik
ko‘ylak
sovg‘a
atlas
urf-odat

86

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


MEHMONGA BORISH QOIDALARI

Mehmonga o‘z vaqtida yetib boring. Chunki mezbon aytgan paytdan kech qolib borish odobsizlik sanaladi. Mehmondorchilikka yuvinib, taranib, ozoda kiyinib borish

lozim. Eshikdan kirgan payt “Assalomu alaykum” deyiladi. Yoshi katta odamlardan yuqoriga o‘tmang. Mezbon ko‘rsatgan joyga o‘tirasiz.

Ziyofat choydan boshlanadi. Mezbon choyni qaytargach, choy quyib piyolani yoshi ulug‘ mehmonga uzatadi. Mezbondan choyni o‘ng qo‘lingiz bilan oling. Dasturxonga tortilgan taomlarga kattalardan oldin qo‘l cho‘zmang. Boshqa odam oldida sizga yoqqan narsa turgan bo‘lsa ham, uni cho‘zilib olmang. Suyuq ovqat ichayotgan paytda ovoz chiqarmang. Bexosdan to‘kkan ovqatingizni bir martalik nam sochiq bilan artib oling. Mezbondan uzr so‘rab qo‘yish ham esingizdan chiqmasin.

Salatlarni qoshiq bilan olib, oldingizga qo‘yilgan likopchaga soling. Salatni sanchqi bilan yeng. Dasturxonda yaxna go‘sht bo‘lsa, sanchqi bilan olib, pichoq bilan kesib yeyiladi. Taomdan so‘ng mezbonga minnatdorchilik bildirib qo‘ying.


DIQQAT QILING

..., shuning uchun ... .
..., shu sababli ... .

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Atlas ko'ylak Alisaga juda yoqdi, shuning uchun mehmondorchilikka shu ko'ylagini kiyib bordi.

1. Atlas ko'ylak Alisaga juda yoqdi, ... mehmondorchilikka shu ko'ylagini kiyib bordi.
2. Mehmonga quruq qo'l bilan borilmaydi, ... Alisa va Sevara shirinliklar olib bordi.
3. Dasturxondagi taomlarga oldin kattalar qo'l uzatishadi, ... qizlar Nodira xolaning ovqatdan olishini kutib turishdi.
4. Alisa va Sevara uy yumushlariga ko'maklashdi, ... Nodira xola ulardan juda xursand bo'ldi.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Mehmon izzatda,	chirog‘i ravshan.
Mehmon kelar eshikdan,	mehri-diling keng bo‘lsin.
Mehmonxonang tor bo‘lsa ham,	shirin so‘zing bo‘lsin.
Shirin oshing bo‘lmasa,	mezbon xizmatda.
Mehmon kelgan uyning	rizqi kelar teshikdan.

Mustaqil ish
Mehmon uchun dasturxon tuzash ketma-ketligini yozing.

87

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan og‘zaki savol-javob o‘tkazing.

1. Nima uchun mehmonga o‘z vaqtida borish kerak?
2. Yangi damlab keltirilgan choy nima uchun qaytariladi deb o‘ylaysiz?
3. Dasturxonga kim birinchi qo‘l uzatadi?
4. Mezbonlik qilganda nimalarga ahamiyat berasiz?
5. Yana qanday mehmondorchilik odoblarini bilasiz?

4. 2-topshiriqda berilgan matnni “Rolli o‘yin” metodidan foydalanib o‘qiting.

O‘quvchilarga bu matnni rollarga bo‘lib o‘qish vazifasini bering. Bunda bir o‘quvchi Alize, ikkinchi o‘quvchi esa Sevaraning so‘zlarini o‘qiydi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

5. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” metodi asosida ularning matnni qay darajada tushunganliklarini aniqlab oling.

Ma’lumot	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
Alizega Sevaraning onasi tikkan atlas ko‘ylak yoqmadi.		+
Sevaraning onasi bilan Nodira xola opa-singil hisoblanadi.	+	
Mehmonga borishdan avval mezbonni ogohlantirish kerak.	+	
Odatda mehmondorchilikka quruq qo‘l bilan borilmaydi.	+	

6. “Diqqat qiling!” ruknida shuning uchun, shu sababli bog‘lovchilari haqida ma’lumot berilgan.

Sabab bog‘lovchilariga *shuning uchun, shu sababli* bog‘lovchilari ham kiradi. Bu bog‘lovchilar ergash gapga bosh gapni bog‘lab, sabab, payt ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

Ko‘chadagi suv ariqning tagidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi.

Aytishga gap qolmagan edi, shu sababli oraga sukunat cho‘kdi.

7. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga sabab bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib yozishi kerakligini uqtirib, namunani doskada yozib tushuntiring.

Namuna:

1. Atlas ko‘ylak Alizega juda yoqdi, shuning uchun mehmondorchilikka shu ko‘ylagini kiyib bordi.

2. Mehmonga quruq qo‘l bilan borilmaydi, shu sababli Alize va Sevara shirinliklar olib bordi.

3. Dasturxondagi taomlarga oldin kattalar qo‘l uzatishadi, shuning uchun qizlar Nodira xolaning ovqatdan olishini kutib turishdi.

4. Alize va Sevara uy yumushlariga ko‘maklashdi, shu sababli Nodira xola ulardan juda xursand bo‘ldi.

8. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *mehmondorchilik, ko‘ylak, sovg‘a, atlas, urf-odat*

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Berilgan namuna asosida maqollarning davomini o‘z o‘rnida qo‘yib o‘qishlari kerakligini tushuntiring.

Namuna:

Mehmon izzatda,
Mezbon xizmatda.
Mehmon kelar eshikdan,
Rizqi kelar teshikdan.
Mehmonxonang tor bo‘lsa ham, mehri diling keng bo‘lsin.
Shirin oshing bo‘lmasa ham, shirin so‘zing bo‘lsin.
Mehmon kelgan uyning chirog‘i ravshan.

10. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi yordamida o‘quvchilarga alifbo ketma-ketligida bittadan harfni ayting. Ular o‘zlariga tushgan harfni daftarga yozishsin. Vazifa: “Sizga tushgan harfdan boshlanadigan, bugungi darsda foydalanilgan bitta so‘zni yozing”.

O‘quvchilar so‘zlarni alifbo ketma-ketligida o‘qiydilar.

11. O‘quvchilarga mehmon kutish uchun dasturxon tuzash ketma-ketligini yozib kelish vazifasini bering.

4-MAVZU. YON QO‘SHNI – JON QO‘SHNI

DARSNING MAQSADI:


- O‘tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o‘qigan* va hokazo). Sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘zlari yozib kelgan mehmon kutish uchun dasturxon tuzash ketma-ketligini o‘qib beradilar. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Qo‘shnilaringiz haqida nima deya olasiz?” savoli yordamida o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


YON QO‘SHNI – JON QO‘SHNI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Ahmad nima uchun uyini sotmoqchi bo‘ldi?
2. Nimaga u uyini yuqori narxda baholaydi?
3. Ahmadning gaplarini eshitgan xaridor nima deydi?
4. Voqeadan xabar topgan Abdulloh qanday yo‘l tutadi?

DIQQAT QILING


…, chunki … .

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Bir kuni Ahmad uyini sotishga qaror qildi, chunki u pulga muhtoj bo‘lib qoldi.

1. Bir kuni Ahmad uyini sotishga qaror qildi, chunki …
2. Uyimning narxini qimmat aytyapman, chunki …
3. …, chunki qo‘shnisi pulga ehtiyoj sezib qolganini undan yashirgandi.
4. …, chunki men doim siz bilan qo‘shni bo‘lib qolishni xohlayman.
5. …, chunki Abdullohday qo‘shnisi bor.

88


3. O‘qing.

Qo‘shnichilik odoblari

O‘zbek xalqida “Gilam sotsang, qo‘shningga sot, chunki bir chetida o‘zing o‘tirasan”, “Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shning afzal” degan maqollar bor. Odamlar azal-azaldan qo‘shni bo‘lib yashaydilar, shuning uchun ular orasida mehr-oqibat yo‘qolib ketmagan. Qo‘shnilar qo‘shnisi biror joyga ketsa, uyini o‘zinikiday muhofaza qilib turadi. Muhtojlik sezsa, yordam beradi. Bemor bo‘lsa, holidan xabar oladi. Maslahat so‘rasa, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Uning bilmagan narsasini o‘rgatadi. Qo‘shnisining xursandchiligidan xursand bo‘ladi, qiyin vaziyatlarida yonida turadi. Bular – qo‘shnilar o‘rtasida lozim bo‘lgan odoblardir.

4. O‘ylang va toping, gapiring. ✓ ✗

Qo‘shnilar		
	uyini o‘zinikiday muhofaza qilib turadi.	✓
	muhtoj qoladigan bo‘lsa, yordam beradi.	
	bemor bo‘lsa, holidan xabar olmaydi.	
	maslahat so‘rab chiqqan bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.	
	qo‘shnining xursandchiligidan xafa bo‘ladi.	

mehr-oqibat
muhofaza qilmoq
muhtoj
maslahat
musibat
dinor

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Ot (1 ta)	Qo‘shni
Sifat (2 ta)	
Fe’l (3 ta)	
Gap (4 so‘zdan iborat)	
Sinonim (1 ta)	

Mustaqil ish

Yon qo‘shningiz haqida ma’lumot (ismi, yoshi, kasbi) yozib keling.

89

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

1. Ahmad nima uchun uyini sotmoqchi bo‘ldi?
2. Nimaga u uyini yuqori narxda baholadi?
3. Ahmadning gaplarini eshitgan xaridor nima dedi?
4. Voqeadan xabar topgan Abdulloh qanday yo‘l tutdi?

4. “Diqqat qiling!” ruknida chunki bog‘lovchisi haqida ma’lumot berilgan.

Sabab bog‘lovchilariga *chunki* bog‘lovchisi ham kiradi. Bu bog‘lovchi ergash gapga bosh gapni bog‘lab, sabab, payt ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

Gilam sotsang, qo‘shningga sot, chunki bir chetida o‘zing o‘tirasan.

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga sabab bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib yozishi kerakligini uqtirib, namunani doskada yozib tushuntiring.

Namuna:

1. Bir kuni Ahmad uyini sotishga qaror qildi, chunki u pulga muhtoj bo‘lib qoldi.
2. Uyimning narxini qimmat aytyapman, chunki Abdullohday qo‘shnini topish qiyin.
3. Abdulloh qo‘shnisi va xaridor o‘rtasida bo‘lib o‘tgan gaplarni eshitib xafa bo‘ldi, chunki qo‘shnisi pulga ehtiyoj sezib qolganini undan yashirgandi.
4. Uyingizni sotmang, chunki men doim siz bilan qo‘shni bo‘lib qolishni xohlayman.
5. Ahmad uyini sotmadi, chunki Abdullohday qo‘shnisi bor.

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *mehr-oqibat, muhofaza qilmoq, muhtoj, maslahat, musibat, dinor*

7. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimni ko‘ryapsiz?

3-topshiriq asosida berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

Qo ‘shnilar	uyini o‘zinikiday muhofaza qilib turadi.	✔
	muhtoj qoladigan bo‘lsa, yordam beradi.	✔
	bemor bo‘lsa, holidan xabar olmaydi.	✖
	maslahat so‘rab chiqqan bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.	✔
	qo‘shnining xursandchiligidan xafa bo‘ladi.	✖

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Mavzuda o‘rganilgan ma’lumotlarni “Sinkveyn” metodi asosida mustahkamlang.

Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

1-qator: mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: mavzu doirasidagi xatti-harakat uchta so‘z bilan ifodalanadi (3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi (4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

Ot (1 ta)	Qo‘shni
Sifat (2 ta)	Saxiy, yaxshi
Fe’l (3 ta)	Muhtoj bo‘ldi, xafa bo‘ldi, sotmadi
Gap (4 so‘zdan iborat)	Yaxshi qo‘shni oltindan qimmat.
Sinonim (1ta)	Hamsoya

5-MAVZU. MAHALLA BO‘YLAB

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o‘qigan* va hokazo). Sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:


1. Refleksiya. O‘quvchilarning yon qo‘shnisi haqida yozib kelgan ma’lumotlarni o‘qittiring. Bunda har bir o‘quvchini qo‘llab-quvvatlab, “Ofarin!”, “Barakalla!” kabi so‘zlar bilan rag‘bat berib turing.

“Qo‘shnimiz haqida ma’lumot olish uchun uyiga chiqdik. Yana mahallaning qanday joylariga bordik?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz? Ular nima ish bilan shug‘ullanyaptilar?

O‘quvchilarga rasmlar asosida og‘zaki gaplar tuzishni topshiring.



MAHALLA BO‘YLAB

1. O‘qing va savollarga javob bering.

Mahallamiz qadimdan hunarmandlar maskani sifatida dovruq taratgan, shuning uchun sayyohlar ko‘p keladi. Ayniqsa, do‘ppido‘zlik, beshiksozlik, tikuvchilik, milliy choponlar tayyorlash, yog‘ochdan turli buyumlar yasash kabi hunar turlari juda rivojlangan. Bizning ko‘chamizda asosan yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanadigan hunarmandlar yashaydi. Bu hunarmandlar mahsulotlariga xorijda ham qiziqish katta, shuning uchun ular sifatli mahsulotlar tayyorlashadi.

Mahallamizda milliy uslubda, ko‘rkam va muhtasham “Hunarmandlar markazi” qad rostladi. Yaqinda mazkur markaz foydalanishga topshirildi.

Bu yerda hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastasi, mo‘jazgina do‘ppido‘zlik va yog‘och o‘ymakorligi muzeyi barpo etildi. Bundan tashqari, mehmonxona, milliy uslubdagi choyxona qurilyapti, shuning uchun ish qizg‘in davom etmoqda.

1. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
2. Nima uchun bu mahallaga sayyohlar ko‘p keladi?
3. Bu mahallada qanday hunarmandchilik turlari rivojlangan?
4. Sizning mahallangizda qanday kasb egalari istiqomat qiladi?

2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

Hududlar	Zardo‘zi	Pilrado‘zi	Gilam do‘ppi	Patdo‘zi	Tokya
Samarqand					
Buxoro	+				
Shahrisabz					
Xorazm					
Surxondaryo					


90

3. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida og‘zaki savol-javob o‘tkazing.

1. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
2. Nima uchun bu mahallaga sayyohlar ko‘p tashrif buyuradi?
3. Bu mahallada qanday hunarmandchilik turlari rivojlangan?
4. Sizning mahallangizda qanday kasb egalari istiqomat qilishadi?



DIQQAT QILING

…, shuning uchun … .

dovruq taratmoq
do‘ppido‘zlik
beshiksozlik
yog‘och o‘ymakorligi
milliy uslub
muhtasham
savdo rastasi

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Do‘ppi o‘zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun o‘zbek xalqining hayoti va an’analariga chuqur kirib borgan.

1	Do‘ppi o‘zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblanadi.	A	Juda chiroyli ko‘rinadi.
2	Tayyor do‘ppi ustidan ipak, zar yoki kumush ip bilan kashta tikiladi.	B	Xorijda bu mahsulotlarga qiziqish katta.
3	Gilamdo‘zlar tabiiy mahsulotlardan nafis gilam to‘qiydi.	D	Ular o‘z rangini yo‘qotmaydi.
4	Gilamga ishlatiladigan bo‘yoqlar giyohlardan olinadi.	E	O‘zbek xalqining hayoti va an’analariga chuqur kirib borgan.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Kasb-hunar

O‘qituvchi | Gilamdo‘z

gilamdo‘zi, o‘qituvchi, hisobchi, zargar, chilangar, shifokor, duradgor, dasturchi, payvandchi, haydovchi, arxitektor, kulol

Mustaqil ish

Mahallangiz haqida 3 ta fakt yozing.

91

O‘ZBEK DO‘PPILARI

O‘zbekiston xalq amaliy san’atining eng ommaviy va hamma yerda tarqalgan turlaridan biri – do‘ppi tikish. Do‘ppi o‘zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblana-

di, shuning uchun “o‘zbek xalqining hayoti va an’analariga chuqur kirib borgan. Do‘ppi nafaqat o‘zbeklar, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham milliy bosh kiyimidir. O‘zbek do‘ppilarining eng ko‘p tarqalgan shakllari to‘rt qirrali do‘ppilardir. Do‘ppilar ikki yoki undan ortiq mato qatlamlaridan tikiladi. Tayyor do‘ppi ustidan ipak, zar yoki kumush ip bilan kashta tikiladi. Do‘ppi tikish san’atini avvaldan ayollar o‘rgangan. Do‘ppilardagi eng ko‘p uchraydigan naqshlarga qalampirnusxa va bodom naqshlari kiradi. Turli hududlarda yaratilgan do‘ppilar o‘zining shakli, naqshlari va tanlangan ranglari bilan farqlanadi. O‘zbekistonning ko‘pgina joylarida Chust do‘ppilari eng ko‘p uchraydi. Chust do‘ppilari bodom naqshi va pastki chetining balandligi bilan ajralib turadi. Samarqand do‘ppilari “piltado‘zlik” uslubida tikiladi. Buxoroda zar bilan tikilgan do‘ppilar, Shahrisabzda “gilam do‘ppi”lar mashhur. Surxondaryoda do‘ppilar asosan patli baxmaldan tayyorlangani sabab “patdo‘zi” deb nom olgan. Xorazmda do‘ppilarni “takya”, “toki”, “teyxa”” deb ataydilar.

6. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni “Tushunchalar tahlili” metodi asosida bajartiring.

Shaharlar	Zardo‘zi	Piltado‘zi	Gilam do‘ppi	Patdo‘zi	Takya
Samarqand		+			
Buxoro	+				
Shahrisabz			+		
Xorazm					+
Surxondaryo				+	

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *dovruq taratmoq, do‘ppido‘zlik, beshiksozlik, yog‘och o‘ymakorligi, milliy uslub, muhtasham, savdo rastasi*

8. “Diqqat qiling!” ruknida shuning uchun bog‘lovchisi haqida ma’lumot berilgan.

Sabab bog‘lovchilariga *shuning uchun* bog‘lovchisi ham kiradi. Bu bog‘lovchi ergash gapga bosh gapni bog‘lab, sabab ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

Mahallamiz azaldan hunarmandlar mahallasi sifatida dovruq taratgan, shuning uchun sayyohlar ko‘p kelishadi.

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 3-topshiriq berilgan. Dastavval namunani doskada bajarib ko‘rsating. Qolgan gaplarni o‘quvchilar namunadagi kabi daftarga yozishlarini topshiring.

Namuna:

Do‘ppi o‘zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblanadi , shuning uchun o‘zbek xalqining hayoti va an’analariga chuqur kirib borgan.

1	Do‘ppi o‘zbek milliy kiyimining ajralmas qismi hisoblanadi.	A	O‘zbek xalqining hayoti va an’analariga chuqur kirib borgan.
2	Tayyor do‘ppi ustidan ipak, zar yoki kumush ip bilan kashta tikiladi.	B	Ular o‘z rangini yo‘qotmaydi.
3	Gilamdo‘zlar tabiiy mahsulotlardan nafis gilam to‘qiydi.	D	Xorijda bu mahsulotlarga qiziqish katta.
4	Gilamga ishlatiladigan bo‘yoqlar giyohlardan olinadi.	E	Juda chiroyli ko‘rinadi.

10. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “T-sxema” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni og‘zaki bajartiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *gilamdo‘z, o‘qituvchi, hisobchi, zargar, chilangar, shifokor, duradgor, dasturchi, payvandchi, haydovchi, arxitektor, kulol.*

Kasb	Hunar
o‘qituvchi	*gilamdo‘z*
hisobchi	*zargar*
shifokor	*chilangar*
dasturchi	*duradgor*
haydovchi	*payvandchi*
arxitektor	*kulol*

11. Refleksiya. “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga dars davomida eslarida qolgan uch bo‘g‘inli so‘zlarni daftarga yozishni topshiring. Keyin shu so‘zlardan namuna o‘qittiring.

12. O‘quvchilarga mahallasi haqida 3 ta fakt yozib kelishni topshiring.

6-MAVZU. HASHAR – ELGA YARASHAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o‘qigan* va hokazo). Sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga o‘z mahallasi haqida yozib kelgan 3 ta faktni o‘qittiring. Bu topshiriqni har bir o‘quvchidan so‘rashga harakat qiling. O‘quvchilarga rag‘bat berib turishni unutmang.

“Mahallangizda bo‘lgan hasharda qatnashganmisiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz? Ular nima ish bilan shug‘ullanyaptilar?

O‘quvchilar o‘z javoblarini aytib, hashar mavzusi haqida o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashadilar.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Hashar nemislar, hindular, o‘zbeklar va boshqa turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg‘araz yordam shakllaridan biri bo‘lib, asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlarimizdan sanaladi. Asosan, tezkorlik bilan bajarish zarur bo‘lgan ishlar (hosilni zudlik bilan yig‘ib olish) va katta mehnat talab qiladigan inshootlarni bunyod etish (kanal qazish, yo‘l va ko‘priklar qurish)da qo‘llangan. Hashar ariq qazish, imorat qurish kabi ishlarda bir necha kun ham davom etgan. Masalan, O‘zbekistondagi Katta Farg‘ona kanali umumxalq hashari bilan bunyod etilgan. 1966-yil 26-aprelda Toshkentda ro‘y bergan zilzila oqibatlari ham umumxalq hashari orqali bartaraf etilgan. O‘zbekiston istiqlolidan so‘ng hashar yangicha mazmun kasb etib, Ramazon va Qurbon hayitlari, Navro‘z, Mustaqillik bayramlari yoki muhim sanalar oldidan umumxalq

xayriya hashari o‘tkazish an’anaga aylandi. Bu xayriya hasharida tozalik, ozodalik, ko‘cha-xiyobonlarni obod qilish, daraxtlarga ishlov berish, atrof-muhitning ozodaligini ta’minlash kabi ishlar bajariladi.

Bu tadbir insonlarni birdamlikka, ahillikka va mehr-oqibatli bo‘lishga undashi bilan ajralib turadi. Hasharda keksa-yu yosh ishtirok etib, otaxonlar farzandlar-u nabiralariga urf-odatlar va qadriyatlarni o‘rgatadilar.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1. Tezkorlik bilan bajarish zarur bo‘lgan ishlar hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan.
A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri
2. Toshkentda ro‘y bergan zilzila oqibatlari umumxalq hashari orqali bartaraf etilgan.
A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri
3. O‘zbekistonda muhim sanalar oldidan umumxalq xayriya hashari o‘tkazish an’anaga aylanmagan.
A. To‘g‘ri **B. Noto‘g‘ri**

5. 2-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

6. Matnni o‘qib tushunganlarini tekshirish uchun 3-topshiriqda berilgan savollarga javob qaytaradilar.

7. “Diqqat qiling!” ruknida negaki bog‘lovchisi haqida ma’lumot berilgan.


Sabab bog‘lovchilariga negaki bog‘lovchisi ham kiradi. Bu bog‘lovchi ergash gapga bosh gapni bog‘lab, sabab, payt ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

Hammamiz xursand bo‘ldik, negaki mahallamiz yanada obod bo‘ldi.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida nuqtalar o‘rniga bog‘lovchini qo‘yib yozishni doskada yozib tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

1. O‘sha paytlarda ekinlarning bo‘yi 40-50 santimetr bo‘lgan, chunki ekinlarni sug‘orishga suv bo‘lmagan.
2. Iyul oyining oxirlarida dehqonlar xursand bo‘ldi, chunki Katta Farg‘ona kanali qazilishi va yurtga suv kelishi xabari chiqqan edi.
3. Kanal qisqa muddatda qazib bitkazildi, negaki hasharchilar shijoat bilan ishladi.
4. Bugun ham shahar va qishloqlarda hashar o‘tkazib turiladi, negaki bu milliy an’analarimizdan biridir.



HASHAR ELGA YARASHAR


1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Tezkorlik bilan bajarish zarur bo'lgan ishlar hashar yo'li bilan amalga oshirilgan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
2. Toshkentda ro'y bergan zilzila oqibatida umumxalq hashari o'tkazish an'anaga aylanmagan.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
3. Hasharda faqat yoshlar ishtirok etadi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.
4. Hashar – mehr-oqibat ramzi.
A. To'g'ri. B. Noto'g'ri.

2. O'qing.

Necha yuz yillardan buyon davom etib kelayotgan an'analarga ko'ra hasharda tozalik, ozodalik ishlari bajariladi. Bu tadbir ko'pchilikni birdamlikka, ahillikka va mehr-oqibatga undashi bilan ajralib turadi.
Kuni kecha bizning mahallada ham hashar bo'lib o'tdi. Mahallamizni obod qilishga hissa qo'shish uchun deyarli har bir xonadondan odam chiqdi. Ko'pchilik bo'lib mahallamiz hovlisini supurdik. Yerlarni o't, xas-xashak va chiqindilardan tozaladik. Daraxtlarni oqlab, yangi

92



gul va daraxt ko'chatlari o'tqazdik. Ariq va zovurlarni tozaladik. Mahallamiz yigitlari birgalashib yerga ishlov berdik. Hashar shodon kayfiyatda kechdi.
"Hashar – elga yarashar" degan naql bejiz aytilmaganiga ishonch hosil qildik.

3. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Hashar nima maqsadda o'tkaziladi?
2. Hashar insonlarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi?
3. Siz ham hasharda qatnashasizmi?
4. "Hashar – elga yarashar" maqolini qanday tushunasiz?
5. Mahallangizda o'tkaziladigan hasharlar haqida aytib bering.

DIQQAT QILING

..., negaki ... .

4. O'ylang va toping. Yozing.

Hammamiz xursand bo'ldik, negaki mahallamiz yanada obod bo'ldi.

Namuna:
O'sha paytlarda ekinlarning bo'yi 40–50 santimetr bo'lgan, chunki ularni sug'orishga suv bo'lmagan.

1. O'sha paytlarda ekinlarning bo'yi 40–50 santimetr bo'lgan. Ekinlarni sug'orishga suv bo'lmagan.
2. Iyul oyining oxirlarida dehqonlar xursand bo'ldi. Katta Farg'ona kanali qazilishi va yurtga suv kelishi xabari chiqqan edi.
3. Kanal qisqa muddatda qazib bitkazildi. Hasharchilar shijoat bilan ishladi.
4. Bugun ham shahar va qishloqlarda hashar o'tkazib turiladi. Bu milliy an'analarimizdan biridir.

Mustaqil ish

Mahallangizda o'tkazilgan hashar haqida ma'lumot yozing.

93

9. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *dehqon, kanal qazish, ish sur’ati, tobora, san’at darg‘alari, bunyodkorlik*

10. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot;
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot
Men, albatta, qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.
O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

11. O‘quvchilarga mahallasida o‘tkazilgan hashar haqida ma’lumot yozib kelishni topshiring.

7-MAVZU. FRENKINING KUNDALIGIDAN

DARSNING MAQSADI:

- O‘tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (*borgan, kelgan, o‘qigan* va hokazo). Sabab ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganini (qismlari, qismlarining vazifalari) va qanday ishlashini tushuna oladi.
- Hayotidagi ahamiyatli voqealar va ularga munosabati aks etgan kundalik yoza oladi.
- Borgan joylarini tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar mahallasida bo‘lib o‘tgan hashar haqida o‘zlari yozib kelgan matnni o‘qib beradilar. Bu topshiriqni har bir o‘quvchidan so‘rashga harakat qiling. O‘quvchilarga rag‘bat berib turishni unutmang.

“Siz kundalik tutganmisiz?” - savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qittiring. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimlarni ko‘ryapsiz? Ular nima ish bilan shug‘ullanyaptilar.
Og‘zaki suhbat uyushtiring.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Frenki nima uchun Toshkentga keldi?
2. Lo‘mboz bosish qanday tadbir?
3. Nima uchun Mirsharif boboning uyiga bordilar?
4. Akram aka bolalarga nega kutubxona sovg‘a qildi?

O‘qituvchi mavzuga doir yana boshqa savollarni ham berishi mumkin.

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilish-

lariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *osoyishta, hashar, xotira, voyaga yetgan, samimiy, taassurot, sehrli.*



FRENKINING KUNDALIGIDAN

1. O‘qing.

24-iyun. Do‘stim Suhrobning taklifi bilan O‘zbekistonga keldim. Suhrobning mahallasida ko‘chalar juda fayzli ekan. Qizlar va ayollar hovlilarni supuradi. Hamma bizga iliq munosabatda bo‘ladi. Qayerga borsak, “O‘tiring, choylashib ketasiz”, deyishadi.

“Hashar” degan so‘zni men ilk bor shu yerda eshitdim. Umumiy hashardan keyin Halim amakining uyiga bordik. U yerda lo‘mboz bosishayotgan ekan. Biz ham Suhrob bilan tomga loy chiqarishga yordam berdik, shuning uchun ust-boshlarimiz loy bo‘lib ketdi. Lekin hamma xursand edi. Hashardan keyin osh pishirib, bizni mehmon qilishdi. O‘zbek palovi bunchalik mazali bo‘ladi deb o‘ylamagan edim.

Suhrobning sinfdosh do‘stlari bilan mahalladagi, urushda qatnashgan otaxonlardan biri Mirsharif bobodan xabar olishga bordik. Mirsharif bobo bizni ko‘rib xursand bo‘lib ketdi. Yoshlik xotiralaridan gapirib berdi. Suhrobdan nimaga bu yerga kelganimizni so‘rasam, u shunday dedi: “Bizda odat shunday, keksa insonlardan xabar olib turamiz”.

Mahallada qurilgan katta kutubxona hammaning sevimli joyi ekan. Uni shu mahallada voyaga yetgan, hozir shaharda tadbirkor bo‘lib ishlayotgan Akram aka o‘z hisobidan qurib, bolalarga sovg‘a qilgan ekan.


Bugun xayrlashamiz. Men bu yerlarga o‘rganib qoldim. Chunki samimiy insonlar davrasida bo‘ldim. O‘z yurtimga borganda o‘rtoqlarimga taassurotlarimni so‘zlab beraman. O‘zbekiston sehrli va sirli diyor deganlaricha bor ekan!..

2. Savollarga javob bering.

1. Frenki nima uchun Toshkentga keldi?
2. Lo‘mboz bosish deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalar nima uchun Mirsharif bobo uyiga bordilar?
4. Akram aka bolalarga nega kutubxona qurib berdi?

osoyishta
hashar
xotira
voyaga yetgan
samimiy
taassurot
sehrli

94



3. O‘ylang va toping. Yozing.

Tushunchalar	Izohlar
Lo‘mboz	Devor yoki tomga loy bosish
Hashar	
Mahalla	

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qo‘shiq nima haqida?
2. Qo‘shiqda mahalla qanday tasvirlangan?
3. Qo‘shiqda mahallaga nisbatan qanday sifatlar qo‘llangan?
4. Mahallangizdagi qaysi joylar sizga yoqadi? Nima uchun?

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Hovli olma,	qo‘shning yaxshi bo‘lsa, yaxshilik keltirar.
Qo‘shning tinch –	ota-onang.
Qo‘shning yomon bo‘lsa, yomonlik keltirar;	qo‘shni ol.
Mahallang –	yaqindagi qo‘shni yaxshi.
Uzoqdagi qarindoshdan	sen tinch.

Mustaqil ish

Bugungi kun uchun kundalik yozing.

95

Lug‘atingiz uchun: *osoyishta, hashar, xotira, voyaga yetgan, samimiy, taassurot, sehrli.*

6. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. “Tushunchalar tahlili” metodi asosida so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib yozishni tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring. Har bir o‘quvchining fikrlarini tinglashga harakat qiling. Chunki bu tushunchalarga turli xil yondashishlari mumkin. Eng chiroyli ta’rif egasini namuna sifatida e’tirof etishni unutmang.

Namuna:

Lo‘mboz – hashar yo‘li bilan devor yoki tomga loy bosish.

7. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Qalbimga yaqindir har bir maskaning,
Ko‘zlarim quvonar, boqsam ko‘rkingga.
Bolalik chog‘imda shodon etganing
Beqiyos g‘ururni soldi ko‘nglimga.
Naqarot
Bir gulzor, bir gulzor ko‘chalaring bor,
Chamanzor, chamanzor mening mahallam.
O‘zim aylanay, ko‘zim aylansin, jonim aylansin-ey,
O‘zim aylanay, ko‘zim aylansin, jonim aylansin-ey.
Chiroyli, orasta, shinam uylaring,
Bog‘bon ham talpinar sening bag‘ringga.
Har doim ozoda, obod yo‘llaring,
Mehmonlar havasda boqadi senga.
Naqarot

8. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan berilgan savollarga og‘zaki javob oling.

1. Qo‘shiq nima haqida?
2. Qo‘shiqda mahalla qanday tasvirlangan?
3. Qo‘shiqda mahallaga nisbatan qanday sifatlar ishlatilgan?
4. Mahallangizdagi qaysi joylar sizga yoqadi? Nima uchun?

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Bu topshiriqni bajarishda ikki ustunda turgan maqolalarni moslab o‘qishlarini topshiring.

Namuna:

Hovli olma, qo‘shni ol.

10. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga bugungi darsda yodida qolgan bitta so‘zni daftarga yozishni topshiring. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga bugungi kun haqida kundalik yozib kelishni topshiring.

8-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga yozib kelgan bir kunlik kundaliklarini o‘qiting. Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.


2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Siz o‘z mahallangizda yashaydigan, hammaga yaxshilik qilib yuradigan insonlar haqida eshitganmisiz?

Ko‘cha-ko‘yda yoshi ulug‘ insonlarni ko‘rib qolsangiz, nima qilasiz?

Insonlarning xayrli ishlari tasvirlangan asarlarni o‘qiganmisiz?

O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda O‘tkir Hoshimovning aynan shunday qadriyatlar haqida yozilgan “Dunyoning ishlari” qissasidan “Qarz” deb nomlangan parchani o‘qishni ta’kidlang.



ADABIY O'QISH

QARZ

Bir kuni gapdan gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:
– Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo'yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?
– Sandiq qatta, bolam? – deb kuldi onam. – Qarzlarim bor. O'shanga beraman-da.
Akamning qovog'i osildi:
– Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?
– E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?
Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo'shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko'ylak kiyib olibdi.
– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.
– Bugun man tug'ildim, – dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.
– Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir... Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.
– Mana, o'rtoqlaring bilan ye.
Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:
– Men ishkalaб yemayman. Tishim tushgan. – Keyin yana o'sha jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi: – Bulnur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug'ilganimda.
Qizcha o'ylanib qoldi.
– Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak...
Qo'limdan konfet tushib ketdi.

O'tkir Hoshimov,
"Dunyoning ishlari" qissasidan

Savollar:

1. Qarz nima?
2. Qo'shni qizning ismi nima?
3. Poshsha buvi Bahoga nima sovg'a qilgan edi?

96

3. O‘tkir Hoshimov va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov Toshkentning Do‘mbirobod dahasida 1941-yilning 5-avgustida tavallud topgan.

O‘tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlangan bo‘lib, birinchi kitobi 1962-yilda “Po‘lat chavandoz” nomi bilan bosilib chiqqan. Uning ilk hikoyasi esa 1963-yili “To‘rt maktub” nomi bilan chop etilgan.

Kitobxonlar qalbidan joy olgan asarlari: “Bahor qaytmaydi” , “Qalbingga quloq sol”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”.

Adibning 1982-yilda yozilgan “Dunyoning ishlari” qissasi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek mukofoti bilan taqdirlangan.

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

QARZ

Bir kuni gapdan gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

– Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?

– Sandiq qatta, bolam? – deb kuldi onam. – Qarzlarim bor. O‘shanga beraman-da.

Akamning qovog‘i osildi:

– Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

– E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?

Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo‘shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko‘ylak kiyib olibdi.

– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.

– Bugun man tug‘ildim, – dedi u qop-qora ko‘zlarini pirpiratib jilmayarkan.

– Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir... – Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim. – Mana, o‘rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

– Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. – Keyin yana o‘sha jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug‘ilganimda. – Qizcha o‘ylanib qoldi. – Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak... – Qo‘limdan konfet tushib ketdi.

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Qarz nima?
2. Qo‘shni qizning ismi nima?
3. Poshsha buvi Bahoga nima sovg‘a qilgan edi?
4. Poshsha buvining qilgan ishlariga o‘z munosabatingizni bildiring.
5. Siz ham shunday insonlarni uchratganmisiz yoki eshitganmisiz?

6. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

MENING YURTIM (8 SOAT)
1-MAVZU. MENING VATANIM

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi. Sayohatlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushunadi. Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, o‘zi guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. Avvalgi bo‘limni takrorlash uchun o‘quvchilarga quyidagi kabi savollar beriladi:

1. Mahalla deganda eng avval ko‘z oldingizga kim yoki nima keladi?
2. Mahallaning ahamiyati qanday ekan?
3. Siz yashaydigan mahallada qanday urf-odatlar bor?
4. Mahallangizdagi eng keksa insonni bilasizmi?
5. Siz o‘zingiz yashaydigan ko‘cha yoki mahalla uchun qanday foydali ishlarni amalga oshirasiz?

Bolalar javob berayotganda ularni diqqat bilan tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.

“Vatan sen yashab turgan ostonadan boshlanadi” degan hikmatli so‘zni kim qanday tushunadi?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati shu kishining vatani deyiladi. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyadi. Hatto bu – vatan his-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan-uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamaydi. Maishati talx bo‘lur (yashashi achchiq), har vaqt dilining bir go‘shasi (yuragida), o‘z vatanining muhabbati turadi.

Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini – qumlik issiq cho‘llarini; eskimoslar shimol taraflarini – eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyadilar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z Vatanlarini tashlab ketar edilar.

Bobolarimiz “o‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l” deganlar.

Hammaga ma’lumki, boshqa yurtlarga ketgan insonlarning aksari yana o‘z vatanlariga qaytib keladilar. Buning sababi, ya’ni bularni tortib keladigan quvvat o‘z vatanlari tuproqlarining mehr, muhabbatidir.

A. Avloniy (matn o‘zgarishlar bilan berildi)

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida savol-javob o‘tkazing.

1. Vatan nima?
2. Vatan tuyg‘usi faqat insonlarga xosmi?
3. Matnda qaysi xalqlar tilga olingan?
4. Biz Vatanimizni nima uchun sevamiz?

4. O‘quvchilar diqqatini 2-topshiriqda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz?

O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun berilgan rasmlar asosida suhbat uyushtiring.

Rasmlarda O‘zbekiston viloyatlaridagi mashhur joylardan ayrimlari berilgan. Rasmlar va ularning nomlarini moslashtirishni topshiring.

1. Ichanqal’a Xorazmda.
2. Ark Buxoroda.
3. Teleminora Toshkentda.
4. Bog‘ishamol Andijonda.
5. Xudoyorxon o‘rdasi Qo‘qonda.
6. Oqsaroy Qashqadaryoda.
7. Chilpiq qal’asi Qoraqalpog‘istonda.
8. Registon maydoni Samarqandda.


MENING YURTIM

ONA VATANIM

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Vatan nima?
2. Vatan tuyg‘usi faqat insonlarga xosmi?
3. Matnda qaysi xalqlar tilga olinadi?
4. Biz Vatanimizni nima uchun sevamiz?

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Ichan qal’a Ark Teleminora Bog‘i shamol
Xudoyorxon o‘rdasi Oqsaroy Chilpiq qal’asi Registon

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: Registon maydoni, konussimon, qadimiy, mustahkam, teleminora, Chilpiq qal’asi, baland, Ark, turli, Ichan qal’a.

Namuna:
Samarqand shahridagi Registon maydoni – juda qadimiy me’moriy obidalardan biri.

1. Samarqand shahridagi ... juda ... me’moriy obidalardan biri.
2. Toshkentda joylashgan ..... eng ..... inshootlardan biri.
3. Buxoroda joylashgan .... atrofi .... devor bilan o‘ralgan.
4. Xorazmda qurilgan ..... dunyoning .... joylaridan sayyohlar keladi.
5. Qoraqalpog‘istondagi .... 35 metrli ..... tepalik ustiga qurilgan.

97


4. O‘qing.

Salom. Men Devidman. Fransiyada yashayman. Fransiya – umuttilmas tassurotlar makoni. Fransiyaga sayyohlar juda ko‘p tashrif buyuradi. Ayniqsa, poytaxt Parij dunyoning eng hashamatli shaharlaridan biri hisoblanadi. Mahobatli Eyfel minorasi esa Parijni butun dunyoga mashhur qilgan. Luvr muzeyi ham eng gavjum maskanlardan biridir.

Assalomu alaykum. Mening ismim Esma. Oilamiz bilan Istanbulda yashaymiz. Istanbul – sayyohlarning sevimli maskani. Sayohatchilar juda ko‘p keladigan joylardan biri ulug‘vor Ayo Sofiya maydonidir. Istanbulning ramzlaridan biri – Galata minorasi shaharning barcha joyidan ko‘rinib turadi.

Assalomu alaykum. Mening ismim Malika. Men O‘zbekistondanman. Bizning mehmondo‘st xalqimiz milliy kiyimlari, mazali taomlari va betakror hunarmandchilik buyumlari bilan har doim turistlarni qiziqtirib kelgan.
Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari yilning har faslida mehmonlar bilan gavjum.

Assalomu alaykum. Mening ismim Mahmud. Tojikistonda yashayman. Dushanbeda ta’lim olaman. Yurtimizga kelgan mehmonlar har doim xursand bo‘lib qaytadi. Poytaxtda Rudakiy bog‘i, Ismoil Somoniy maydoni – sayyohlarning sevimli joyi. Maydonga davlatimiz bayrog‘i o‘rnatilgan bo‘lib, balandligi bo‘yicha 2-o‘rinda turadi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Esma Istanbulda do‘stlari bilan yashaydi.	
2	Ayo Sofiya va Galata minorasi juda mashhur.	
3	Malikaning yurtiga ko‘plab sayyohlar keladi.	
4	Malika Luvr muzeyi haqida gapirdi.	
5	Mahmud poytaxtda o‘qiydi.	
6	Eng baland bayroq Dushanbeda joylashgan.	

Mustaqil ish

Sizga gidlik vazifasi topshirildi. Sayyohlarni olib bormoqchi bo‘lgan joylaringiz haqida taqdimot tayyorlang.

98

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Bu mashq bevosita 2-topshiriqning davomi hisoblanadi. So‘zlardan mosini qo‘yib yozadilar. Dastlab berilgan namuna asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘yib yozishni tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *registon maydoni, konussimon, qadimiy, mustahkam, Teleminora, Chilpiq qal’asi, baland, Ark, turli, Ichanqal’a.*

1. Samarqand shahridagi *Registon maydoni* – juda *qadimiy* me’moriy obidalardan biri.
2. Toshkentda joylashgan *Teleminora* – eng *baland* inshootlardan biri.
3. Buxoroda joylashgan *Arkning* atrofi *mustahkam* devor bilan o‘ralgan.
4. Xorazmda qurilgan *Ichanqal’aga* dunyoning *turli* joylaridan sayyohlar keladi.
5. Qoraqalpog‘istondagi *Chilpiq qal’asi* 35 metrlik *konussimon* tepalik ustiga qurilgan.

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tashrif buyurmoq, ziyorat qilmoq, muhtasham , ko‘hna, qadimiy, mahobatli,*

7. Orfografik va orfoepik me’yorlarni o‘rgatish maqsadida darslikda berilgan so‘zlarning og‘zaki va yozma shaklini o‘quvchilarga tushuntiring. Tinglagandagi to-

vushlar yozuvda qanday aks etishini misollar bilan keltiring. O‘quvchilarga mazkur so‘zlardan foydalanib og‘zaki gaplar tuzishni topshiring.

Toshken (og‘zaki) – Toshkent (yozma)

8. 4-topshiriq asosida berilgan matnni ifodali qilib o‘qing. So‘ngra o‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1. Esma Istanbulda do‘stlari bilan yashaydi. (*Noto‘g‘ri)*
2. Ayo Sofiya va Galata minorasi juda mashhur. (*To‘g‘ri)*
3. Malikaning yurtiga ko‘plab sayyohlar keladi. (*To‘g‘ri)*
4. Malika Luvr muzeyi haqida gapirdi. (*Noto‘g‘ri)*
5. Mahmud poytaxtda o‘qiydi. (*To‘g‘ri)*
6. Eng baland bayroq Dushanbeda joylashgan. (*Noto‘g‘ri)*

10. Refleksiya. “3 ta fakt” metodi yordamida o‘quvchilarga o‘tilgan dars bo‘yicha mavzuga doir fakt ayttiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

11. O‘quvchilarga mustaqil ish tarzida “Sizga gidlik vazifasi topshirildi. Turistlarni olib bormoqchi bo‘lgan joylaringiz haqida taqdimot tayyorlang” vazifasini topshiring.

2-MAVZU. TRANSPORT

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi. Sayohatlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushuna oladi. Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Hozirgi zamon fe’lini ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan topshiriqni so‘rang. Bu topshiriqni o‘quvchilar o‘zlari kelishgan holda sahna ko‘rinishi yoki dialog sifatida taqdim qilsa ham bo‘ladi. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Sayohat uchun qanday transport turini ma’qul ko‘rasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kirsangiz bo‘ladi.

2. O‘quvchilar diqqatini 1-topshiriqda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmda nimani yoki kimlarni ko‘ryapsiz?

O‘quvchilarga foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida namunadagi kabi gap yozishni topshiring.

1. Ahmed bekatda avtobus kutyapti.
2. Poyezd vokzaldan 3:15 da yuradi.
3. Kema portga yaqinlashmoqda.


4. Samolyot 20:20 da aeroportga qo‘nadi.

3. 2-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga “Zanjir” usulida o‘qiting.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “Ha / Yo‘q” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1	Sumaya chiqqan poyezd manzilga 2:40 da yetib boradi.	✗
2	Fridrix aeroportga 3 soatdan keyin yetib boradi.	✓
3	Solih aeroportga ertaroq kelib atrofni tomosha qilardi.	✓
4	Daniel va sinfdoshlari o‘tirgan avtobus 15 daqiqadan so‘ng portdan yurib ketadi.	✗
5	Samolyot yuqoriga ko‘tarilishdan avval yengil titraydi.	✓
6	Paroxodda suvni tomosha qilish maroqli.	✓

5. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


4. Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Birinchi avtobus 1895-yil Germaniyada paydo bo'lgan.

1	Birinchi avtobus	A	barcha uchun mo'ljallangan transport.
2	Avtobus va metrolar	D	bir paytning o'zida hammaga teng xizmat ko'rsatadi.
3	Metroning vatani –	E	Toshkent metrosi ish boshlagan.
4	Jamoat transporti	F	London.
5	1977-yili	G	1895-yil Germaniyada paydo bo'lgan.

DIQQAT QILING

Men	... + yap	-man	Biz		-miz
Sen		-san	Siz	... + yap	-siz
U		-ti	Ular		-tilar

avtobus, metro, samolyot, kema, suzmoq, parvoz qilmoq, havoga ko'tarilmoq, chiptа

5. O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: mikroavtobus, kema, poyezd, samolyot, mashina.


Namuna:
Dam olish kuni do'stlarimiz bilan mikroavtobusda sayohatga chiqyapmiz.

1. Dam olish kuni do'stlarimiz bilan ... sayohatga chiq...
2. ... pastlab uch...
3. ... dengizda suz...
4. Ular tog'ga ... ket... mi?
5. Siz shaharga ... ketishni istama ...mi?

6. O'ylang, toping va gapiring. Mumkin/mumkin emas

Mustaqil ish
Transport vositalarida harakatlanish odobi haqida matn yozing.

100


TRANSPORT

1. O'ylang, toping va yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: bekat, aeroport, vokzal, port.

Ahmed bekatda avtobus kutyapti. | Kema ... ga yaqinlashmoqda. | Poyezd ...dan 3:15 da yuradi. | Samolyot 20:20 da ...ga qo'nadi.

2. O'qing.

Men Solihman. Paroxodda sayr qilishni yoqtiraman. Kemadan atrofni tomosha qilish juda maroqli. Paroxod soat 4:15 da harakatlana boshlasa ham, men erta kelib, atrofni tomosha qilyapman.
Mening ismim Sumayya. Talabaman. Do'stlarimiz bilan festivalda qatnashish uchun boshqa shaharga ketyapmiz. Poyezdda yurish menga yoqadi. Poyezd soat 17:40 da harakatlanishni boshladi. 8 soatdan keyin biz manzilga yetamiz.
Men Fridrixman. Bizning samolyotimiz hozirgina havoga ko'tarildi. Avval biroz silkindi, keyin bir tekis ucha boshladi. Samolyotimiz 3 soat parvoz qilar ekan.
Men Danielman. Ustozimiz va sinfdoshlarimiz bilan avtobus bekatida turibmiz. 15 daqiqadan so'ng avtobus yuradi. Avtobusda sayohat qilishni yoqtiraman.

3. O'ylang va toping. Gapiring. Ha/yo'q ✓ ✗

1	Sumayya chiqqan poyezd manzilga soat 2:40 da yetib boradi.	✓
2	Fridrix aeroportga 3 soatdan keyin yetib boradi.	
3	Solih aeroportga ertaroq kelib, atrofni tomosha qilardi.	
4	Daniel va sinfdoshlari o'tirgan avtobus 15 daqiqadan so'ng portdan jo'nab ketadi.	
5	Samolyot yuqoriga ko'tarilishdan avval yengil titraydi.	
6	Paroxodda suvni tomosha qilish maroqli.	

99

Hozirgi kunda hayotimizni jamoat transportlarisiz tasavvur eta olmaymiz. Jamoat transportlari bir paytda ko‘pchilikni o‘z manziliga yetkazadi. Uning yordamida siz maktabga, ota-onagiz esa ishga qatnaydi. Tramvay, trolleybus, metro, avtobuslar ma’lum yo‘nalish bo‘yicha qatnaydi.

Avtobus barcha uchun mo‘ljallangan transportdir. U 1895-yilda Germaniyada paydo bo‘lgan. Hozirda ekologik jihatdan xavfsiz, iqtisodiy jihatdan tejamkorligi bilan oddiy avtobuslardan farq qiluvchi elektrobuslar ham yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Metro oddiy temiryo‘lning to‘liq elektrlashtirilgan shaklidir. Birinchi metro 1863-yili Londonda qurilgan. Dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlaridagi yirik shaharlarida metropolitenlar mavjud. Metropileten yo‘llari yer ustida, yer yuzasida va yer ostida ham joylashishi mumkin.

Toshkent metrosi esa 1977-yili noyabr oyida Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib ishga tushirilgan. Yo‘lovchilarga har kuni 05:00 – 06:00 dan 00.00 gacha xizmat ko‘rsatadi. Shahar ichida “M” belgisi bilan ajratilgan belgilarga ko‘zingiz tushsa, bilingki, u joyda metro bekatlari bor. Toshkentda ham 2020-yildan boshlab yer usti metrosi harakatlana boshladi.

Jamoat transportida harakatlanganda har doim harakatlanish qoidalari va odobiga rioya qilishni unutmang!

6. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida namunada keltirilganidek moslashtirib yozishni topshiring.

Namuna:

1. Birinchi avtobus 1895-yil Germaniyada paydo bo‘lgan.
2. Avtobus va metrolar – barcha uchun mo‘ljallangan transport.
3. Metroning vatani – London.
4. Jamoat transportlari bir paytning o‘zida hammaga teng xizmat ko‘rsatadi.

5. Toshkent metrosi birinchi metro paydo bo‘lganidan 114 yil o‘tib ishga tushdi.

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *avtobus, samolyot, kema, suzmoq, parvoz qilmoq, havoga ko‘tarilmoq, chipta.*

8. “Diqqat qiling!” ruknida hozirgi zamon fe’li haqida ma’lumot bering. Hozirgi zamon shakli ish-harakat ayni paytda yuz berayotgan jarayonni bildiradi. U bir qancha ko‘rinishlarga ega.

Men		man	Biz		miz
Sen	o‘qi + yap	san	Siz	o‘qi + yap	siz
U		ti	Ular		ti(-lar)

9. Orfografik va orfoepik me’yorlarni o‘rgatish maqsadida darslikda berilgan so‘zlarning og‘zaki va yozma shaklini o‘quvchilarga tushuntiring. Tinglagandagi tovushlar yozuvda qanday aks etishini misollar bilan keltiring. O‘quvchilarga mazkur so‘zlardan foydalanib og‘zaki gaplar tuzishni topshiring .

Borayapman – boryapman
Ko‘rayapman – ko‘ryapman

10. Grammatik qoidani mustahkamlash uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida nuqtalar o‘rniga hozirgi zamon fe’li qo‘shimchasi va foydalanish uchun so‘zlardan mosini qo‘yib yozishni doskada yozib tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring

Foydalanish uchun so‘zlar: *mikroavtobus, kema, poezd, samolyot, mashina.*

1. Dam olish kuni do‘stlarimiz bilan mikroavtobusda sayohatga chiqyapmiz .
2. Samolyot pastlab uchyapti.
3. Kema dengizda suzyapti
4. Ular tog‘ga mashinada ketyaptimi?
5. Siz shaharga poyezdda ketishni istamayapsizmi?

11. O‘quvchilar 6-topshiriqda berilgan rasmlar asosida va o‘zlari biladigan, guvohi bo‘lgan jamoat transportida yurish odobi haqida o‘z fikrlarini og‘zaki ravishda aytadilar.

1. Yoshi ulug‘larga yordam berish mumkin.
2. Jamoat transportida baland ovozda telefonda gaplashish mumkin emas.
3. Eshik oldida turib, chiqadigan va tushadigan yo‘lovchilarga xalaqit berish mumkin emas.
4. Yurib ketayotgan transport yaqiniga borish mumkin emas.

12. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi yordamida o‘quvchilarga alifbo ketma-ketligida bittadan harfni ayting. Ular o‘zlariga tushgan harfni daftarga yozishsin. Vazifa: “Sizga tushgan harfdan boshlanadigan, bugungi darsda foydalanilgan bitta so‘z yozing”.

O‘quvchilar so‘zlarni alifbo ketma-ketligida o‘qiydilar.

13. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida transport vositalarida harakatlanish odobi haqida ma’lumot yozib kelishni topshiring.

3-MAVZU. FESTIVALLAR

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi. Sayohatlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushuna oladi.
- Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Hozirgia zamon fe’lini ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan transport vositalarida harakatlanish odobi haqida ma’lumot yozib kelish topshirig‘ini avval ixtiyoriy tarzda, keyin o‘zingiz so‘ramoqchi bo‘lgan o‘quvchilardan so‘rang. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Yangi mavzuga kirishni “Sayohatlarga chiqqaningizda festivallar, bayramlarga duch kelganmisiz?” kabi savol bilan boshlashingiz mumkin.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Barchangiz O‘zbekistonda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari”, Hindistondagi Holi yoki ranglar festivali, Ispaniyadagi “La Tomatino”, ya’ni pomidor jangi festivali va boshqa yana turli musiqa va kinofestivallar haqida eshitgansiz. Balki, orangizda ishtirok etgan tengdoshlaringiz ham bordir. Bunday bayram, sayillar nima uchun o‘tkazilishiga qiziqqanmisiz? Festival xalqlar o‘rtasida do‘stlikni kuchaytirish, madaniyatni tanishtirish maqsadida vaqti-vaqti bilan ommaviy tarzda musiqa, kino, teatr kabi sohalar bo‘yicha o‘tkaziladi. Har bir festival tomoshabinlar uchun qiziqarli, esda qolarli voqealar, ko‘rinishlarga boy bo‘ladi. Ular mavzu jihatdan har xil bo‘lsa-da, ularni do‘stlik-birodarlik, xursandchilik, o‘yin-kulgi, musiqa birlashtirib turadi.

O‘zbekistonda ham turli yo‘nalishlarda juda ko‘plab festivallar o‘tkaziladi. Masalan, Baxshichilik san’ati festivalida mahalliy, xorijiy ishtirokchilar qatnashadi. Osh festivalida esa oshpazlar o‘z mahoratlarini ko‘rsatish bilan birga, konsert dasturlari ham tashkillashtiriladi. Har yili gullar shahri Namanganda o‘tkaziladigan “Gullar bayrami”da atrof gullarga burkanadi. Ipak va ziravorlar festivali hunarmandlar uchun katta bayram bo‘ldi. “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivalida xonanda va sozandalar, ashula va raqs ansambllari o‘z san’atini namoyish qildi.


FESTIVALLAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Dunyoda qanday festivallar o‘tkaziladi?
2. Bunday tadbirlar nima maqsadda o‘tkaziladi deb o‘ylaysiz?
3. Sizga qanday festivallar yoqadi?
4. O‘zbekistonda qanday festivallar o‘tkazilib keladi?
5. Siz qanday festivalda qatnashishni xohlaysiz? Nima uchun?

2. O‘qing.

Qo‘qon – hunarmandlar shahri

Qo‘qon shahrida Butunjahon hunarmandlar festivali o‘tkazildi. Turli mamlakatlardan va boshqa viloyatlardan sayyohlar, hunarmandlar tashrif buyurdi. Mehmonlar turli xalqlarning hunarmandchilik buyumlari bilan tanishdi. Festival barchaga yoqdi.


Xalqning asl taronalari

Samarqandning qadimiy Registon maydonida har ikki yilda “Sharq taronalari” festivali bo‘lib o‘tadi. Bu festivalga ko‘p davlatlardan ishtirokchilar va mehmonlar keladi. Har bir qatnashchi o‘z xalqining milliy kuy va qo‘shiqlarini taqdim etadi. Bayram bir necha kun davom etadi.

3. O‘ylang, toping va gapiring.

1	Samarqandning qadimiy Registon maydonida	A	Qo‘qon shahrida o‘tkazildi.
2	Qo‘qon festivalida	B	mehmonlar hunarmandchilik buyumlari bilan tanishdi.
3	“Sharq taronalari” festivali	D	bir necha kun davom etadi.
4	Samarqand festivali	E	“Sharq taronalari” festivali bo‘lib o‘tadi.
5	Butunjahon hunarmandlar festivali	F	har ikki yilda o‘tkaziladi.

101


4. O‘ylang va toping. Yozing.

festival tanlov ko‘rgazma masterklass qiziqarli ajoyib tashkil qilinmoq o‘tkazilmoq

1. Havoda ziravorlarning xushbo‘y hidi anqimoqda – Ziravorlar festivali ... .
2. Gulchi bog‘bonlar o‘z gullarini ko‘rsatmoqda – ... .
3. Festival bahor faslida tabiat qo‘ynida o‘tkaziladi – ... .
4. Mahoratli oshpazlar palov pishirish bo‘yicha mahorat darsi o‘tmoqda – ... .
5. Ko‘rgazmada mahalliy va xorijlik baxshi-shoirlar taqdirlandi – ... .

DIQQAT QILING

Men	... + y/a	-man	Biz	... + y/a	-miz
Sen		-san	Siz		-siz
U		-di	Ular		-dilar

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Festivallar butun dunyoda o‘tkaziladi.

1. Festivallar butun dunyoda o‘tkazil...
2. Mavzusi har xil bo‘lsa-da, ularni do‘stlik-birodarlik, xursandchilik, o‘yin-kulgi, musiqa birlashtir... .
3. “Sharq taronalari” festivalida ishtirokchilar o‘z xalqining milliy kuy va qo‘shiqlarini kuy...
4. Namanganda o‘tkaziladigan “Gullar bayrami”da atrof gullarga burkan... .
5. Kelajakda men xalqaro festivallarda ishtirok etishni xohla...

Mustaqil ish

O‘zingiz qatnashishni istagan festival uchun reklama e’lonini tayyorlang.

102

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

1. Butun dunyoda qanday festivallar o‘tkaziladi?
2. Bunday tadbirlar nima maqsadda o‘tkaziladi deb o‘ylaysiz?
3. Sizga qanday festivallar yoqadi?
4. O‘zbekistonda qanday festivallar o‘tkazib kelinadi?
5. Siz qanday festivalda qatnashishni xohlaysiz? Nima uchun?

4. 2-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

5. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda o‘quvchilar jadvalda berilgan so‘zlarni moslashtirib, to‘liq gaplarni shakllantiradilar.

1. Samarqandning qadimiy Registon maydonida “Sharq taronalari” festivali bo‘lib o‘tadi.
2. Qo‘qon festivalida mehmonlar hunarmandchilik buyumlari bilan tanishdi.
3. “Sharq taronalari” festivali ikki yilda bir marta o‘tkaziladi.
4. Samarqand festivali bir necha kun davom etadi.
5. Butunjahon hunarmandlar festivali Qo‘qon shahrida o‘tkazildi.

6. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni yozma tarzda bajartiring. Bunda berilgan namuna asosida o‘quvchilar gap mazmunini rasmlar bilan moslashtirib, qaysi festival ekanini aytadilar.

1. Havoga ziravorlarning xushbo‘y hidi taralmoqda. (*Ziravorlar festivali)*
2. Gulchi-bog‘bonlar o‘z gullarini ko‘rsatmoqda. (*Gullar bayrami)*
3. Festival bahor faslida tabiat qo‘ynida o‘tkaziladi. (*Bahor nafasi)*
4. Mahoratli oshpazlar palov pishirish bo‘yicha master-klass o‘tmoqda. (*Osh festivali)*
5. Ko‘rgazmada mahalliy va xorijlik baxshi-shoirlar taqdirlandi. (*Baxshichilik san’ati)*

7. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tanlov, ko‘rgazma, master-klass, qiziqarli, ajoyib.*

8. “Diqqat qiling!” ruknida hozirgi-kelasi zamon haqida ma’lumot bering. Hozirgi-kelasi zamon fe’llari nutq gapirilib turgan paytning o‘zida va undan keyin ham yuz beradigan harakat-holatni bildiradi.

Men		-man	Biz		-miz
Sen	+ fe’l + -a/y +	-san	Siz	+ fe’l + -a/y+	-siz
U		-di	Ular		-lar

9. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va grammatik qoidani mustahkamlash uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga hozirgi kelasi zamon qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib yozish kerakligini uqtirib, namunani doskada yozib tushuntiring.

Namuna:

1. Festivallar butun dunyoda o‘tkaziladi.
2. Ularning mavzusi har xil bo‘lsa-da, ularni do‘stlik-birodarlik, xursandchilik, o‘yin-kulgi, musiqa birlashtiradi.
3. “Sharq taronalari” festivalida qatnashuvchilar o‘z xalqining milliy kuy va qo‘shiqlarini kuylaydi.
4. Namanganda o‘tkaziladigan “Gullar bayrami”da atrof gullarga burkanadi.
5. Kelajakda men xalqaro festivallarda ishtirok etishni xohlayman.

4-MAVZU. NAVRO‘Z SAYLI

DARSNING MAQSADI:

- Navro‘z bayrami bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- Sayohatlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushuna oladi. Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Hozirgi zamon fe’lini ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar tayyorlab kelgan festival reklama e’lonlarini taqdim qilgach, sinfda ularni “Eng chiroyli e’lon”, “Eng mazmunli e’lon” kabi nominatsiyalar bo‘yicha baholang. Vazifani bajargan barcha o‘quvchilarni rag‘batlantirishni unutmang.

“Sizga qanday bayramlar yoqadi?” savoli bilan yangi mavzuni boshlash mumkin.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

NAVRO‘Z

Navro‘z eng ulug‘ milliy bayramlarimizdan biri bo‘lib, odatda bu bayramni oila davrasida, qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar bilan birga nishonlaymiz.


Albatta, bunday bayram to‘kin dasturxon va noz-ne’matlarsiz o‘tmasligi aniq.

O‘zbek xalqining eng sevimli milliy taomlaridan biri sumalakdir. U bahorning shifobaxsh taomi bo‘lib, qonni tozalaydi, jismni tetiklashtirib, kuch-quvvatni oshiradi.

Yalpizning xushbo‘y isi va ko‘k o‘tining o‘ziga xos mazasi somsaga o‘zgacha maza beradi. Ayniqsa, qishdan chiqqandan so‘ng organizm vitaminlar talab qilib turgan bahor paytlari bu somsalar oila a’zolaringizga juda yoqadi.

Shuningdek, milliy matolardan tikilgan kiyimlar barchaning ko‘zini quvnatadi.

Navro‘z bayramida kurash, ot o‘yinlari, arqon tortish, tosh ko‘tarish, chillak kabi xalq o‘yinlari o‘ynaladi. Bu o‘yinlar bolalarni chaqqon, uddaburon, jismonan sog‘lom, jasur, qat’iyatli bo‘lib o‘sishlariga yordam beradi.


NAVRO‘Z SAYLI

1. Tinglang. Moslashtiring va gapiring.

1	Navro‘z –	A	xushbo‘y va vitaminlarga boy.
2	Sumalak –	B	ulug‘ milliy bayram.
3	Yalpiz	D	bolalarga chaqqon, uddaburon, jismonan sog‘lom bo‘lishda yordam beradi.
4	Ko‘k somsa –	E	eng sevimli taomlardan biri.
5	Xalq o‘yinlari	F	oila a’zolarimizning sevimli taomi.

yangi kun
bag‘rikenglik
qon-qardoshlar
noz-ne’matlar
tetiklashtirmoq
yalpiz
sumalak

2. O‘qing.

Navro‘z


Navro‘z O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy va umumiy bayramidir. U fors-tojik va turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, kun va tun teng bo‘lgan paytga to‘g‘ri keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Navro‘zning shakllanish davri eng qadimgi zamonlardan zardushtiylik paydo bo‘lgan davrlargacha davom etgan. Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “yangi kun” degan ma’noni bildiradi.

Qadim-qadimdan Navro‘z turkiy xalqlarning sevimli bayrami bo‘lib kelgan. Bayram kunlari hatto urush-janjallar ham to‘xtagan, gina-kuduratlar unutilgan. O‘zbek xalqi azaldan bu bayramni do‘st-u yaqinlari, qon-qardoshlari bilan birga nishonlab kelgan.

3. Savollarga javob bering.

1. Navro‘z qanday bayram?
2. Nima uchun O‘rta Osiyo xalqlari Navro‘zni katta tantanalar bilan nishonlaydi?
3. Navro‘z saylida qatnashganmisiz?
4. Bayram saylida qanday milliy urf-odatlarning guvohi bo‘lgansiz?
5. Navro‘zda qanday milliy taomlar tayyorlanadi?

103


4. O‘ylang, toping va yozing.

Sumalak pishirish | Varrak uchirish | Arqon tortish

Kurash | Dorbozlik

Namuna:
1. Sumalak tayyorlash maroqli, chunki unda kuy-qo‘shiq va o‘yin-kulgi bo‘ladi.
2. … .
3. … .
4. … .
5. … .

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

S	F	F	P	O	N	O	R	I	N	J
A	S	S	U	M	A	L	A	K	S	F
S	O	T	K	L	V	A	R	R	A	K
H	M	U	D	O	R	B	O	Z	V	U
T	S	I	G	F	O‘	T	O	V	N	R
Y	A	L	P	I	Z	Q	R	T	O	A
B	V	CH	I	L	L	A	K	U	I	SH

Mustaqil ish
Sumalakning tayyorlanish jarayoni haqida 30–50 so‘zdan iborat matn yozing.

104

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida “Tushunchalar tahlili” usulidan foydalanib 1-topshiriqni og‘zaki bajartiring.

Navro‘z – eng ulug‘ milliy bayram.

Sumalak – eng sevimli taomlardan biri.

Yalpiz – xushbo‘y va vitaminlarga boy.

Ko‘k somsa – oila a’zolarimizning sevimli taomi.

Xalq o‘yinlari – bolalarni chaqqon, uddaburon, jismonan sog‘lom o‘sishlariga yordam beradi.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi

orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *yangi kun, bag‘rikenglik, qon-qardoshlar, noz-ne’matlar, tetiklashtirmoq.*

5. 2-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Navro‘z qanday bayram?
2. Nima uchun O‘rta Osiyo xalqlari Navro‘zni katta tantanalar bilan nishonlaydi?
3. Navro‘z saylida qatnashganmisiz?
4. Bayram saylida qanday milliy urf-odatlarning guvohi bo‘lgansiz?
5. Navro‘zda qanday milliy taomlar tayyorlanadi?

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda kimlarni va nimalarni ko‘ryapsiz? Ular nima ish bilan shug‘ullanyaptilar.

O‘quvchilarga rasmlar asosida namunada berilganidek gaplar tuzishni topshiring.

Namuna:

1. Sumalak tayyorlash maroqli, chunki unda kuy-qo‘shiq va o‘yin-kulgi bo‘ladi.
2. Bolajonlar Navro‘z saylida varrak uchirish tadbirlarini intiqib kutadilar.
3. Sinfimizning yigitlari arqon tortish musobaqasida g‘olib bo‘ldilar.
4. Xiyobonda tashkil qilingan kurash musobaqasi juda qizg‘in bo‘ldi.
5. Ko‘chamiz boshida dor o‘yinlarini tomosha qilib, menda dorbozlikka qiziqish uyg‘ondi.
6. Chet eldan kelgan mehmonlar qo‘chqor urishtirish o‘yinlarini ko‘rib juda hayratlandi.

8. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni yozma bajartiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *Navro‘z, varrak, o‘tov, chillak, kurash, yalpiz, dorboz, norin, somsa, sumalak.*

9. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda har bir o‘quvchi bugungi mavzuda esida qolgan bitta so‘zni daftariga yozadi. Keyin so‘zlarni hammaga o‘qittirasiz. Qaysi so‘z ko‘p takrorlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z “kalit so‘z” deb qabul qilinadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida sumalakning tayyorlanish jarayoni haqida 30-50 so‘zdan iborat esse yozishni topshiring.

5-MAVZU. YOQIMLI ISHTAHA

DARSNING MAQSADI:

- Taomlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushuna oladi. Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Hozirgi zamon fe’lini ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga sumalakning tayyorlanish jarayoni haqida yozib kelgan esselarini o‘qiting. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilar yutug‘i alohida eslatib o‘tiladi. Kamchiliklar kuzatilsa, umumiy tarzda aytilib o‘tiladi.

“Sizga bahor taomlaridan qaysi biri yoqadi?” savoli bilan yangi mavzuga kirish qiling.


2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Har bir xalqning o‘zining sevimli, dunyoga mashhur taomi bo‘ladi. O‘zbek milliy taomlarining shohi, albatta, palovdir. U bugungi kunda o‘zbek madaniyatining bir bo‘lagi, xalqimiz mehmondo‘stligining ifodasi hisoblanadi. Kelgan mehmon uchun, albatta, palov tayyorlanadi. Xalqimiz uni oddiygina qilib “osh” deb atashni xush ko‘radi. Bayram va turli marosimlarimiz ham palovsiz o‘tmaydi. Ayniqsa, arafa kuni qo‘shnisinikiga osh olib chiqib, hayitlik olish juda zavqli.

Oshpazlarning aytishicha, hozirda oshning 1000 xil turi bor ekan. Dunyo bo‘yicha eng mashhuri esa, albatta, o‘zbek palovidir. 2016-yilning 1-dekabrida palov nomoddiy madaniy meros sifatida UNESCO ro‘yxatiga kiritildi.

Mohir oshpazlar boshchiligida palov tayyorlash bo‘yicha rekord ham yangilanib turadi. 2017-yil avgustda 6 tonnalik, shu yili 8-sentyabrda “Ginnes rekordlar kitobi”dagi palovga oid rekordni yangilash uchun 7 tonnadan ortiq, 2018-yil 9 tonnalik palov tayyorlangan.

Ha, aytgancha, O‘rta Osiyoni palovning vatani deb aytadilar.


YOQIMLI ISHTAHA

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

		✓	✗
1	Mamlakatlar milliy taomlari bilan ham dunyoga tanilishi mumkin.	✓	
2	O'zbek milliy palovi UNICEF nomoddiy madaniy meroslari ro'yxatiga kiritildi.		
3	O'zbek xalqi barcha taomlarni "osh" deb ataydi.		
4	Arafada qo'shnisinikiga osh olib chiqqan bolalarga hayitlik beradilar.		
5	Palov O'rta Osiyodan tarqalgan bo'lishi mumkin.		
6	Usta oshpazlarning aytishicha, palovning 1000 xil turi bor ekan.		

milliy taom pishirmoq xizmat qilmoq oshxo'rlik qilmoq gavjum xushmuomala chaqqon


2. O'ylang va toping.Yozing.

Namuna:
1) spagetti; 2)...

cheburek spagetti pide beshbarmoq

somsa sushi chuchvara manti

105


3. O'qing.

Ajoyib osh markazi

Mening ismim Yilmaz. Biz Turkiyadan O'zbekistonga mehmon bo'lib keldik. Oilamiz bilan Toshkentning gavjum yerida joylashgan osh markaziga bordik. Do'stlarimiz juda maqtashgandi, haqiqatan juda ajoyib joy ekan. O'rtada katta qozonda 1 tonnali, uning yonida yana 5 ta kichikroq qozonda osh pishirilmoqda. Osh yeyishga keluvchilar juda ko'p edi. Chunki ozoda bu maskanning sarishta ishchilari juda chaqqon va xushmuomalalik bilan xizmat qilyapti. Bizni ham kulib kutib olgan Sardor aka ichkariga boshladi. Bu yerga bizdan boshqa ham ko'p turistlar tashrif buyurgan ekan. Yum-yumshil maysa va gullar, milliy bunarmandchilik buyumlari bilan bezalgan xonalar juda chiroyli ekan. Katta laganda olib kelingan osh ishtahamizni ochib yubordi. Palovga qizil va sariq sabzi, no'xat, mayiz, zira betakror ta'm bermoqda. Biz maza qilib oshxo'rlik qildik, rasmga tushdik. Bu ajoyib osh markazi menda juda yaxshi taassurot qoldirdi.

4. Savollarga javob bering.

1. Osh markazining ko'rinishini tasvirlab bering.
2. Nima uchun bu yerga sayyohlar ko'p keladi?
3. Mehmonlarga palov yoqdimi?
4. Palovga qanday masalliqlar solinadi?
5. Siz ham o'zingizga yoqqan shunday maskan haqida gapirib bering.

DIQQAT QILING

Men		-man	Biz		-miz
Sen	... + moqda	-san	Siz	... + moqda	-siz
U		-	Ular		-lar

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Osh markazida katta qozonlarda turli xil osh pishirilmoqda.

1. Osh markazida katta qozonlarda turli xil osh pishiril...
2. Mohir oshpazlar mazali oshlarni mehr bilan idishlarga suz...
3. O'zbek milliy libosidagi xodimlar mehmonlarga chaqqonlik bilan xizmat ko'rsat...
4. Biz oila a'zolarimiz bilan chiroyli va shinam xonada oshxo'rlik qil...

Mustaqil ish

Oilangizdagilar yordamida palov tayyorlashning ketma-ketligini yozing.

106

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 1-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1	Mamlakatlar milliy taomlari bilan ham dunyoga tanilishi mumkin.	✔
2	Palov UNICEF nomoddiy madaniy meroslari ro‘yxatiga kiritildi.	✘
3	O‘zbek xalqi barcha taomlarni “osh” deb ataydi.	✘
4	Arafada qo‘shnisinikiga osh olib chiqqan bolalarga hayitlik beradilar.	✔

5	Palov O‘rta Osiyodan tarqalgan bo‘lishi mumkin.	✔
6	Usta oshpazlarning aytishicha, palovning 1000 xil turi bor ekan.	✔

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug'atingiz uchun: *milliy taom , pishirmoq, xizmat qilmoq, oshxo‘rlik qilmoq, gavjum, chaqqon .*

5. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda qanday taomlarni ko‘ryapsiz? Bu taomlar qaysi xalqlarning taomlari deb o‘ylaysiz? Bulardan tatib yoki tayyorlab ko‘rganmisiz?

So‘ngra o‘quvchilarga taom nomlarini rasmlarda berilgan raqam bilan moslashtirilib yozishni topshiring,

1) spagetti; 2) somsa; 3) chuchvara; 4) pide; 5) matni; 6) cheburek; 7) sushi; 8) beshbarmoq (gurtuk).

6. 3-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida og‘zaki savol-javob o‘tkazing.

1. Osh markazining ko‘rinishini tasvirlab bering.
2. Nima uchun bu yerga sayyohlar ko‘p keladi?
3. Mehmonlarga palov yoqdimi?
4. Palovga qanday masalliqlar solinadi?
5. Siz ham o‘zingizga yoqqan shunday maskan haqida gapirib bering.

8. “Diqqat qiling!” ruknida hozirgi zamon fe’llari va ularning tuslanishi haqida ma’lumot bering.

Hozirgi zamon fe’llari nutq gapirilib turgan paytning o‘zida yuz berayotgan harakat-holatni bildiradi.

Men		man	Biz		miz
Sen	+ fe’l + moqda +	san	Siz	+ fe’l + moqda +	siz
U			Ular		lar

9. Grammatik mavzuni mustahkamlash uchun 5-topshiriq berilgan. Dastavval namunani doskada bajarib ko‘rsating. Qolgan gaplarni o‘quvchilar namunadagi kabi daftarga yozishlarini topshiring.

Namuna:


1. Osh markazida katta qozonlarda turli xil osh pishirilmoqda.
2. Mohir oshpazlar mazali oshlarni mehr bilan idishlarga suzmoqdalar.
3. O‘zbek milliy kiyimlaridagi xodimlar mehmonlarga chaqqonlik bilan xizmat ko‘rsatmoqdalar.
4. Biz oila a’zolarimiz bilan chiroyli va shinam xonada oshxo‘rlik qilmoqdamiz.

6-MAVZU. ILM-FAN INSHOOTLARI

DARSNING MAQSADI:

- Inshootlar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushunadi. Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Hozirgi zamon fe’lini ishlata oladi.

VAZIFALAR:


ILM-FAN INSHOOTLARI

1. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	Teleskop astronomlar uchun asosiy ish quroli sanaladi.	✓
2	Yevropalik va rossiyalik astronomlar katta teleskopni qurish uchun joy izlaydi.	
3	Osmon jismlarini kuzatishda faqatgina teleskopning hajmi muhim.	
4	Har xil tog‘larda izlanishlar 10 yil davom etdi.	
5	Ulkan teleskop ham noqulay joyga o‘rnatilsa, olis yulduzlarni ko‘rsata olmaydi.	
6	Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani yaqinida Maydanak rasadxonasi qurildi.	

rasadxona
ilmiy inshoot
teleskop
kometa
asteroid
tejamoq
tashrif buyurmoq

2. O‘ylang, toping va yozing.

Namuna:
Aylananing markazidan o‘tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq – diametr. Ko‘zgusining diametri 1,5 m bo‘lgan teleskop observatoriyaning asosiy qurilmasidir.

1. Ko‘zgusining ... 1,5 m bo‘lgan teleskop observatoriyaning asosiy qurilmasidir.
2. ... yilda mashhur Hartli kometasi aniqlandi.
3. 2007-yili bu teleskop yordamida ... sayyorasi kashf qilindi.
4. Koinotda “O‘zbekiston”, “...”, “...”, “Beruniy” va “...” deb nomlangan osmon jismlari ham bor ekan.
5. Maydanak observatoriyasida jami ... ta yangi kometa va 80 ta asteroid topildi.

1. Aylananing markazidan o‘tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bu – ...
2. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lgan yil – ...
3. Registon maydoni joylashgan shahar – ...
4. “Tib qonunlari” asari muallifi – ...
1018 ta yulduzni aniqlagan astronom – ...
Algebra faniga asos solgan buyuk vatandoshimiz – ...
5. Yil fasllari soni – ...

107

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan oila a’zolari bilan birgalikda palov tayyorlash ketma-ketligini yozish topshirig‘ini so‘rang. Palov tayyorlash jarayoni o‘zgacha bo‘lgan holatlarda qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Astronomlarning asosiy ish quroli teleskopdir. Bundan 60 yillar oldin o‘rta osiyo va rossiyalik astronomlar ulkan teleskop uchun qulay joy izlaydi. Chunki osmon jismlarini kuzatishda teleskopning nafaqat hajmi, balki uning qayerga o‘rnatilishi ham muhim. Juda katta teleskop ham osmon yorqin ko‘rinadigan, turli havo oqimlaridan xoli joyga o‘rnatilmasa, olis yulduzlarni ko‘rsata olmaydi.

Olimlar o‘n yil davomida turli tog‘larni o‘rganib chiqdilar. Axiyri, 1967-yili ular izlagan joy O‘zbekiston hududidagi Maydanak tog‘idan topildi. Shu tariqa Qashqadaryo viloyatining Kitob tumaniga yaqin joyga Maydanak rasadxonasi qurildi. Rasadxona osmonni kuzatish uchun qulay yerda joylashgan. Shu sabab dunyoning turli davlat astronomlarini o‘ziga jalb etadi. AQSH, Rossiya va Yevropadan kelgan olimlar o‘zbek astronomlari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib boradi.

“Jajji akademik”dan


3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 1-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1	Teleskop astronomlar uchun asosiy ish quroli sanaladi.	✓
2	Yevropalik va rossiyalik astronomlar katta teleskopni qurish uchun joy izlaydi.	✗
3	Osmon jismlarini kuzatishda faqatgina teleskopning hajmi muhim.	✗
4	Har xil tog‘larda izlanishlar 10 yil davom etdi.	✓
5	Juda katta teleskop ham noqulay joyga o‘rnatilsa, olis yulduzlarni ko‘rsata olmaydi.	✓
6	Surxondaryo viloyatining Kitob tumani yaqinida Maydanak rasadxonasi qurildi.	✗

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi

orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qaratting. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *rasadxona, ilmiy inshoot, teleskop, kometa, asteroid, tejamoq, unumli foydalanmoq.*


DIQQAT QILING

Men -man Biz -miz
Sen + yap -san Siz + yap -siz
U -ti Ular -tilar

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Maydanakda turli mamlakat olimlari ilmiy izlanishlar olib boryaptilar.

1. Maydanakda turli mamlakat olimlari ilmiy izlanishlar olib bor…
2. Akrom teleskop yordamida yulduzlarni kuzat…
3. Biz astronomiya, fizika, geografiya fanlarini qiziqib o'rgan…
4. Siz tabiiy resurslarni tejash uchun qanday ishlarni amalga oshir…?
5. Men lupa, oyna va quyosh nuri vositasida ishlaydigan qurilma yasa…
6. Astronomlar yangi sayyoralarni kashf qil…

4. O'qing.

Dunyodagi eng noyob laboratoriyalardan biri Katta Quyosh pechidir. U Toshkent viloyatida joylashgan. Bunday inshoot dunyoda 2 ta bo'lib, yana biri Fransiyada joylashgan. Bu qurilma elektr energiyasini tejash va Quyosh energiyasidan unumli foydalanish maqsadida yaratilgan. Quyosh nuri yasalgan buyumlarni qizdiradi va ishlov beradi. Hozir bu maskanga juda ko'p sayyohlar va tadqiqotchilar o'rganish uchun tashrif buyurmoqda.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Katta Quyosh pechi	A	o'rganish uchun kelmoqda.
2	Bu qurilma	B	yana Fransiyada bor.
3	Quyoshdan kelayotgan energiyadan	D	elektr energiyani tejaydi.
4	Tadqiqotchilar va sayyohlar	E	Toshkent viloyatida joylashgan.
5	Katta Quyosh sandoni	F	faqat ikki mamlakatda bor.
6	Bu laboratoriyalardan biri	G	unumli foydalaniladi.

Mustaqil ish
Ulug'bek rasadxonasi haqida taqdimot tayyorlang.

108

5. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 2-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda nuqtalar o‘rniga qo‘yiladigan mos so‘zlar berilgan savollarga javob berish orqali topiladi. Dastavval namunani doskada bajarib ko‘rsating. Qolgan gaplarni o‘quvchilar namunadagi kabi daftarga yozishlarini topshiring.

1. Ko‘zgusining diametri 1,5 m bo‘lgan teleskop observatoriyaning asosiy qurilmasidir.
2. 1991-yilda mashhur Xarti kometasi aniqlandi.
3. 2007-yili bu teleskop yordamida Samarqand sayyorasi kashf qilindi.
4. Koinotda “O‘zbekiston”, “Abu Ali ibn Sino”, “Mirzo Ulug‘bek”, “Beruniy” va “Al-Xorazmiy” deb nomlangan planetalar ham bor ekan.
5. Maydanak observatoriyasida jami 4 ta yangi kometa va 80 ta asteroid topildi.

Savollar:

1. Aylananing markazidan o‘tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bu – diametr.
2. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lgan yil – 1991-yil.
3. Registon maydoni joylashgan shahar – Samarqand.
4. “Tib qonunlari” asari muallifi – ...

1018 ta yulduzni aniqlagan astronom – ...

Algebra faniga asos solgan buyuk vatandoshimiz – ...

5. Yil fasllari soni – ...

6. “Diqqat qiling!” ruknida hozirgi zamon fe’li haqida ma’lumot berilgan.

Hozirgi zamon fe’llari nutq gapirilib turgan paytning o‘zida yuz berayotgan harakat-holatni bildiradi.

Men		man	Biz		miz
Sen	+ fe’l + yap +	san	Siz	+ fe’l + yap +	siz
U		ti	Ular		tilar

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 3-topshiriq berilgan. Dastavval namunani doskada bajarib ko‘rsating. Qolgan gaplarni o‘quvchilar namunadagi kabi daftarga yozishlarini topshiring.

1. Maydanakda turli mamlakat olimlari ilmiy izlanishlar olib boryaptilar.
2. Akrom teleskop yordamida yulduzlarni kuzatyapti.
3. Biz astromiya, fizika, geografiya fanlarini qiziqib o‘rganyapmiz.
4. Siz tabiiy resurslarni tejash uchun qanday ishlarni amalga oshiryapsiz?
5. Men lupa, oyna va quyosh nuridan foydalaniladigan qurilma ustida ishlayapman.
6. Astronomlar yangi sayyoralarni kashf qilyaptilar .

8. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida jadvalda berilgan ma’lumotlarni moslashtirib og‘zaki tahlil qildiring.

1. Katta quyosh pechi faqat ikki mamlakatda bor.
2. Bu qurilma yana Fransiyada bor.
3. Quyoshdan kelayotgan energiyadan unumli foydalaniladi.
4. Turistlar va sayyohlar o‘rganish uchun kelmoqda.
5. Katta quyosh sandoni elektr energiyani tejaydi.
6. Bu laboratoriyalardan biri Toshkent viloyatida joylashgan.

7-MAVZU. YURTIMIZDAGI TEATRLAR

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos faktologik matnlarda jarayonlar tasvirini tushunadi. Hozir bo‘layotgan voqea-hodisalarni guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi. Hozirgi zamon fe’lini ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. Ulug‘bek rasadxonasi haqida taqdimot tayyorlagan o‘quvchilar o‘z ishlarini namoyish qiladilar. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilarning yutuqlarini alohida e’tirof eting.

“Teatr haqida so‘z yuritilganda ko‘z oldingizda nima? (kim, qayer) gavdalanadi?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz? Bu teatrlardan qaysi biriga borgansiz?
O‘quvchilarga raqamlar asosida teatr nomlarini aytishni topshiring.

1	O‘zbek milliy akademik drama teatri
2	Muqimiy nomidagi o‘zbek davlat musiqali drama teatri
3	Respublika yosh tomoshabinlar teatri
4	O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri

3. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *teatr, repertuar, aktyor, rejissyor, grim ustasi, afisha, rol, tomoshabin.*

4. Elektron resurs yordamida “Shum bola” kinosidan parcha qo‘yib beriladi. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, asar matnidan parchani bir marotaba ifodali o‘qib bering. (Guruhda kelishilgan holda bir dars avval o‘quvchilarga rollarni bo‘lib berib sahna ko‘rinish orqali ham qo‘yib berish mumkin)

– Assalomu alaykum, boy ota!
– Iye Qoravoy, xo‘sh, innaykeyin, nega kelding?
– Shunday o‘zim, sizni bir ko‘rib ketay dedim, boy ota...

– Sen bekordan bekorga kelmagan bo‘lsang kerak, biron-bir ish bilan kelgan bo‘lsang kerak. Xo‘sh, innaykeyin, nega kelding?

– ... haligi.., hmm, haligi dandon sopli pichog’ingiz bor edi-yu, shu sinib qoldi, shuni aytgani keldim.

– Ro‘zg‘orda meni pichog‘imdan boshqa pichoq qurib ketuvmidi, xo‘sh pichoq nima qilib sindi?

– Tozi itingizni terisini shilayotuvdik, suyagiga tegib, sinib qoldi.

– Tozi itning terisini nega shildilaring?

– Shoshib qoldik-da, xo‘jayin. O‘lib qolgandan keyin bekor ketmasin deb, terisni shilib qo‘ya qoldik.

– Padaringga la’nat, itim nima qilib o‘ldi?

– Harom o‘lgan otning go‘shtini yeb bo‘kib o‘ldi.

– Harom o‘lgan otning go‘shti qayerda ekan?

– Haligi... begona ot emas, o‘zimizning to‘rqashqaning go‘shti.

– Hoy, hoy, hoy .. bola, og‘zingga qarab gapir. To‘rqashqa o‘ldi deysanmi, nimaga o‘ladi, nima bo‘lib o‘ldi?

– Ha... xomlik qilib o‘ldi...

– Nimaga xomlik qilib o‘ladi?

– Haligi... hech aravaga qo‘shilmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shib suv tashigandik, bechora zo‘riqib o‘lib qoldi.

– Hoy, hoy, uyda shuncha otlar turib, kelib-kelib yolg‘iz boqib qo‘ygan uloqchi otimda suv tashiysanlarmi, padari la’nat?

– Eee... xo‘jayin o‘t ketgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, suv tashiyveradi-da.

– O‘, o‘, qayerga o‘t ketadi, nimaga o‘t ketadi?

– O‘t, avvalo, og‘ilxonaga tushdi, otlaringizni hammasi qirilib ketdi.

– Og‘ilxonaga qayerdan o‘tibdi?

– Ombordan.

– Ey bola, jinni bo‘lib qopsan, omborda o‘t chiqadigan hech narsa yo‘q-ku? Gazmol boride, to‘g‘ri, moy boride, to‘g‘ri, mak-mak makkajo‘xo‘ri boridi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

– Men qayerdan bilay, omborga qo‘rg‘ondan o‘tgandir.

– Hali qo‘rg‘on ham yondimi?...

– Qo‘rg‘on ham yondi, ombor ham yondi, otlaringiz o‘ldi, pichog‘ingiz sindi, xo‘jayin.

– Qo‘rg‘on..., qo‘rg‘on..., u yerga o‘t nimadan o‘tibdi.

– Shamdan ketgan bo‘lsa kerak...

– Padaringga la’natee, meni dargohimda shamga kun qoladimi, Toshkentdan olib kelib qo‘ygan qator-qator lampalarimiz qayerga ketadi, kerosinni bo‘lsa bir yilga yetadigan qilib bosib qo‘ygan bo‘lsam, nega endi sham yoqasanlar, padari la’nat?

– Ee xo‘jayin, butun boshli o‘likning arvohiga shag‘am yoqmay, fonar yoqsinmi? Avval kosaga suv quyiladi, ...

– Ha, avval kosaga suv quyiladi,

– Xo‘sh...


– Keyin suvga olma shoxi qo‘yiladi, kelgan arvoh olma shoxida dam oladi, keyin haligi yonib turgan shamning shu’lasi bilan o‘ynashadi...

– Voy, voy

– Kim, kim o‘ldi?

– Haligi,kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboyvachcha chumchuqni olaman deb, terakka chiqayotgan ekan, yerga yiqildi-yu, bir marta “Dadaaa” dedi-yu, jon berdi...

– Voy bolaaam, voy jigarim! (hamma yig‘laydi)


YURTIMIZDAGI TEATRLAR

1. O‘ylang va toping. Gapiring.


1	O‘zbek milliy akademik drama teatri	
2	Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatri	
3	Respublika yosh tomoshabinlar teatri	
4	O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri	

teatr
repertuar
aktyor
rejissyor
grim ustasi
afisha
rol
tomoshabin

2. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Qoravoy borgan payt boy nima qilayotgan edi?
2. Shum bolaning yolg‘onlarini sanab bering.
3. O‘z yolg‘oni oqibatida Qoravoy qanday ahvolga tushadi?
4. Siz ham yolg‘on gapirganmisiz?

109


3. O‘qing.

Teatr san’ati hayotni, voqea-hodisalarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Bunda yozuvchi yozgan pyesa yoki boshqa dramaturgik asarlarga tayaniladi. Pyesani rejissyor sahnalashtiradi: rollarni aktyorlarga taqsimlab beradi, ular bilan mashqlar o‘tkazadi, rassom, liboschi, pardozchi va boshqalar bilan ish olib boradi. Shu tariqa, ko‘pchilik bo‘lib tayyorlangan sahna asari tomoshabinlarga ko‘rsatiladi.

O‘zbek milliy akademik drama teatri O‘zbekistondagi eng birinchi va katta teatr – “Turon” negizida paydo bo‘lgan. Bugun yurtimizda o‘ttizdan ortiq teatr faoliyat yuritmoqda.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

1	Rejissyor	A	eskizlar asosida badiiy obraz yaratadi.
2	Rassom	B	o‘z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe’l-atvori, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi.
3	Pardozchi	D	boshqaruvchi, pyesani tanlaydi, aktyorlarga rollarni bo‘lib beradi.
4	Aktyor	E	ijrochi qiyofasini rolga moslab o‘zgartiradi.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: yosh tomoshabinlar, hashamatli va shinam bino, sevimli qahramon.

Teatr

Ot — Sifat

qahramon — sevimli

Mustaqil ish

O‘zingiz istagan birorta rolni ijro qilib bering.

110

– Boy ota, boy ota....
– Yana nima deysan, shumqadam?
– Hazillashdim...
– Iye, bularni hammasi hazilmidi?
– Haligi, boshida aytgandim-u, ozgina yolg‘onchiroqman deb
– Ozgina yolg‘oning shu bo‘lsa, hammasi bo‘lsa meni tiriklay go‘rga tiqasan-ku....

5. O‘quvchilarning tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni parchada keltirilgan ma’lumotlar asosida og‘zaki savol-javob o‘tkazing.

1. Qoravoy borgan payt boy nima qilayotgan edi?
2. Shum bolaning yolg‘onlarini sanab bering.
3. O‘z yolg‘oni oqibatida Qoravoy qanday ahvolga tushadi?
4. Siz ham yolg‘on gapirganmisiz?

6. 3-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib tushunchalarni izohlari bilan birgalikda yozishni topshiring.

1. Rejissyor – boshqaruvchi, pyesani tanlaydi, aktyorlarga rollarni bo‘lib beradi.
2. Rassom eskizlar asosida badiiy obraz yaratadi.
3. Pardozchi Ijrochi qiyofasini rolga moslab (maxsus bo‘yoq bilan bo‘yab, sun’iy soch-soqol yopishtirib, sochni rolga moslab tarab) o‘zgartiradi.
4. Aktyor badiiy obraz yaratadi. O‘z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe’l-atvorini, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi.

8.O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 5-topshiriq berilgan. “T-chizma” metodi asosida teatr bilan bog‘liq ot va sifatlarni namunadagi kabi yozishni topshiring. O‘quvchilarga foydalanish uchun so‘zlardan boshqa mavzuga doir ot va sifatlarni ham yozish imkoniyatini berish mumkin.

Foydalanish uchun so‘zlar: *yosh tomoshabinlar, hashamatli va shinam bino, sevimli qahramonlar.*

Ot	Sifat
tomoshabinlar	*yosh*
bino	*hashamatli*
qahramonlar	*shinam*
	sevimli

9. Refleksiya. Dars yakunida o‘quvchilar o‘zlarining sevimli qahramonlari va ularning o‘zlariga yoqqan bitta xususiyatini “Zanjir” usulida aytadilar. Agar o‘quvchi soni 14-15 nafardan ko‘p bo‘lsa, guruhlarga bo‘linib aytsa ham bo‘ladi.

10. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida o‘zlari istagan birorta rolni ijro qilib berishni topshiring.

8-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilardan o‘zlari tayyorlab kelgan rolni doskaga chiqib ijro qilib berishni so‘rang.

Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Rol bajarish jarayonida nimalarni his qildingiz?

Sizningcha, aktyorlarning ishi oson ekanmi?

O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasidan parcha o‘qishlarini ta’kidlang.

3. Nodar Dumbadze va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.



ADABIY O‘QISH

“HELLADOS”

hikoyasidan parcha

O‘sha kuni Yanguli sut opkeldi. Hovlida unga ko‘zim tushdi-yu… taniyolmay qoldim. Basharasi momataloq bo‘lib ketgandi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radim ajablanib.

Aql bovar qilmasdi – bu atrofda Yanguliga kim qo‘l ko‘tarishi mumkin?! Yoki birorta kattaroq yoshdagi odamning ishimikin bu?

– Hech narsa! – dedi u chetga qarab.

– Aftingni bir qaragin…

– Hechqisi yo‘q! – deya jilmaydi u.

– Kim ekan u mushtumzo‘r?!

– Otam!

– Otang?

– Otam.

– Nima gunoh qiluvding? – deya uning shishib ketgan chakkasiga avaylab qo‘limni tekkazdim.

– Sababi bor-da…

– Nima ish qilib qo‘yding?

– Uch kundan keyin Suxumiga Gretsiyadan paroxod keladi. Bu yerlik greklar Elladaga qaytishyapti. Otam ham….

– Xo‘sh nima qipti?

– Ketmoqchi emasman… Otamning gapiga qaraganda, bizning vatanimiz, ona tuprog‘imiz o‘sha yerda… Bizni ajdodlar ruhi chaqiryotganmish, bu nidoga quloq solish shart emish…

– Nega ketmoqchimassan? – deb so‘radim astoydil taajublanib. Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.

– Qandoq tushuntirsamikin… – deya gap boshladi u nihoyat. – Onam yo‘q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida… Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida katta bo‘ldim… Mening vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko‘cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko‘prik… – U bir yutinib olib, davom etdi: – Bu Mida, qolaversa, sen… Tushundingmi endi?

A’zoyi badanim jimirlab ketdi. Bunaqa so‘zlarni birinchi marta eshitayotgan edim.

– Bu nima bo‘lmasa? – Men Yangulining ko‘kragini ochib baland ovozda o‘qidim – Hellados.

– Bu naqsh, Jamol. Vatan ichkarirsoqda, naq yuralning o‘zida!

Nodar Dumbadze

Savollar:

1) Yangulining gunohi nima edi?
2) Sizningcha, Yanguli haqmi yoki otasimi?
3) Nega Jamolning a’zoyi badani jimirlab ketdi?
4) Yangulining Vatanga bergan ta’rifiga munosabatingizni bildiring. Siz uchun Vatan bu – …

111

Nodar Vladimirovich Dumbadze 1928-yilning 14-iyulida Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida tug‘ilgan. Yozuvchining ilk hikoyalar to‘plami “Qishloq bolalari” nomi bilan 1958-yilda chop etilgan. Uning dastlabki yirik asarlari “Men, buvim, Iliko va Illarion” qissasi 1960-yilda, “Quyoshni ko‘ryapman” nomli romani esa 1962-yilda yaratilgan. Yozuvchining bu asarlarida Ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlaridagi og‘ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o‘xshamaydigan taqdir egalari obrazi yorqin aks ettirilgan.

Adib zamonaviy mavzulardagi asarlarida insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlarni ulug‘laydi. Uning 1967-yilda yozilgan “Quyosh kechasi”, 1972-yilda chop etilgan “Oq bayroqlar” romanlari bunga misol bo‘la oladi.

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

“HELLADOS”

hikoyasidan parcha

O‘sha kuni Yanguli sut opkeldi. Hovlida unga ko‘zim tushdi-yu… taniyolmay qoldim. Basharasi momataloq bo‘lib ketgandi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radim ajablanib.

Aql bovar qilmasdi – bu atrofda Yanguliga kim qo‘l ko‘tarishi mumkin?! Yoki birorta kattaroq yoshdagi odamning ishimikin bu?

– Hech narsa! – dedi u chetga qarab.

– Aftingni bir qaragin…

– Hechqisi yo‘q! – deya jilmaydi u.

– Kim ekan u mushtumzo‘r?!

– Otam!

– Otang?

– Otam.

– Nima gunoh qiluvding? – deya uning shishib ketgan chakkasiga avaylab qo‘limni tekkazdim.

– Sababi bor-da…

– Nima ish qilib qo‘yding?

– Uch kundan keyin Suxumiga Gretsiyadan paroxod keladi. Bu yerlik greklar Elladaga qaytishyapti. Otam ham....

– Xo‘sh, nima qipti?

– Ketmoqchi emasman... Otamning gapiga qaraganda, bizning vatanimiz, ona tuprog‘imiz o‘sha yerda... Bizni ajdodlar ruhi chaqirayotganmish, bu nidoga quloq solish shart emish...

– Nega ketmoqchimassan? – deb so‘radim astoydil taajjublanib. Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.

– Qandoq tushuntirsamikin... – deya gap boshladi u nihoyat. – Onam yo‘q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida katta bo‘ldim... Mening vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko‘cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko‘prik....

– U bir yutinib olib davom etdi: – Bu – Mida, qolaversa, sen... Tushundingmi endi?

A’zoyi badanim jimirlab ketdi. Bunaqa so‘zlarni birinchi marta eshitayotgan edim.

– Bu nima bo‘lmasa? – Men Yangulining ko‘kragini ochib baland ovozda o‘qidim – Hellados.

– Bu – naqsh, Jamol. Vatan ichkariroqda, naq yurakning o‘zida!

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘kazing.

1. Yangulining gunohi nima edi?
2. Sizningcha, Yanguli haqmi yoki otasimi?
3. Nega Jamolning a’zoyi badani jimirlab ketdi?
4. Yangulining vatanga bergan ta’rifiga munosabatingizni bildiring. Siz uchun Vatan bu – ...

6. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

BIZNING SAYYORA (9 SOAT)
1-MAVZU. KOINOTGA SAYOHAT

DARSNING MAQSADI:

- *Zarur, kerak, mumkin* modal so‘zlarini ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar bilan yangi bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalaning.

Koinot haqida nimalarni bilasiz?

Ushbu mavzuda qanday badiiy asar, kino yoki multfilmlarni ko‘rgansiz?

Koinotni yana qanday nom bilan ataydilar?

Bolalar javob berayotganda ularni diqqat bilan tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.


2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba o‘qib ifodali bering.

Koinot bu – tasavvur qilishimiz mumkin bo‘lgan barcha narsani o‘z ichiga sig‘diruvchi bo‘shliq. Quyosh, sayyoralar, shu jumladan, bizning Yerimiz, undagi o‘simliklar, hayvonlar, siz va biz – bularning hammasi koinotning bir qismi hisoblanadi.

Hozir koinotga sayohat haqida tez-tez eshitamiz. Lekin bundan yuz yillar oldin odamlarning fazoga chiqishi haqida ertaklarda aytilardi.

Ilm-fan rivojlangach, kosmik kemalar yaratildi. Avval sinov uchun kuchuk va maymunlar uchirildi. Birinchi bo‘lib Yuriy Gagarin 1961-yili fazoga uchganini yaxshi bilasiz. 1969-yili amerikalik astronavtlar – Nil Armstrong va Edvin Oldrinlar oyga qadam qo‘ydi. Ular Oy tuprog‘idan namuna va fotosuratlar bilan qaytishdi.

Bugungi kunda kosmoturizm rivojlanib, oddiy odamlar ham samoga parvoz qilishi mumkin. Buning uchun sog‘lom bo‘lishi va maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi kerak.


BIZNING SAYYORA

KOINOTGA SAYOHAT

1. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Quyosh, sayyora, Yer, inson, o‘simlik, hayvon – barchasi Koinotdir.	
2	Birinchi sayohat Oyga boshlangan.	
3	Kuchuk va mushuk tajriba uchun fazoga yuborilgan.	
4	Sog‘lom va maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan insonlar samoga sayohat qilishi mumkin.	
5	Yuriy Gagarin Oydan tuproq namunasi va fotosuratlar bilan qaytgan.	

DIQQAT QILING

kerak
... + -sh/-ish + zarur
mumkin


koinot
Oy
sayyora
fazo
kosmonavt
uchmoq
parvoz qilmoq

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishim kerak.

1. Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishi... .
2. Sen kosmosda ilmiy-tadqiqot olib bor... .
3. U yigirma bir soatdan ko‘proq Oyda bo‘lish... .
4. Kosmonavtlar fazoga uchishdan oldin maxsus ko‘rikdan o‘tish... .
5. Biz “Koinot olamida” kitobidan qiziqarli ma’lumotlar olish... .

112


3. O‘qing.

Yupiterning sirti katta hajmdagi bulutlar bilan o‘ralgan. U eng ulkan sayyora bo‘lib, Yerdan 1300 marta katta.

Marsda atmosfera zich emas. Bu sayyora har doim yerliklarni qiziqtirib kelgan. Hozirgacha izlanishlar davom etmoqda.

Merkuriy Quyoshga eng yaqin joylashgani uchun cho‘g‘day qizib turadi.

Quyosh tizimi Quyosh va uning atrofida aylanayotgan barcha kosmik jismlar, sayyoralar, ularning yo‘ldoshlari va asteroidlarni o‘z ichiga oladi. Ular doimo aylanib turadi.

Muz va changdan iborat halqa o‘rab turadigan sayyora – Saturn.

Uran va Neptun sirtlaridagi harorat pastligi bilan bir-biriga juda o‘xshaydi. Chunki ular Quyoshdan juda uzoqda.

Faqat Yerda nafas olsa bo‘ladigan atmosfera mavjud.

4. O‘ylang, toping va yozing.

Namuna:
Merkuriy Quyoshga eng yaqin sayyora bo‘lgani uchun cho‘g‘day qizib turadi.

1. ... Quyoshga eng yaqin sayyora bo‘lgani uchun cho‘g‘day qizib turadi.
2. Muz va changdan iborat halqa o‘rab turadigan sayyora – ... .
3. ... eng katta sayyora bo‘lib, sirti katta hajmdagi bulutlar bilan o‘ralgan.
4. Yerliklarni hamisha qiziqtirib kelgan sayyora – ... .
5. Quyoshdan juda uzoqda joylashgan sayyoralar – ... va ... .

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

M	V	Q	U	Y	O	Sh	Q	A	I
E	L	J	X	Y	E	R	E	V	Y
R	L	H	L	U	R	A	N	E	N
K	J	N	E	P	T	U	N	N	E
U	Q	K	V	I	B	D	G	E	R
R	A	S	A	T	U	R	N	R	H
I	F	O	D	E	Y	U	V	A	S
Y	H	M	A	R	S	P	K	V	D

Mustaqil ish
Sayyoralarning joylashuvi rasmini chizing.

113

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” metodi asosida og‘zaki suhbat o‘tkazing.

1	Quyosh, sayyora, Yer, inson, o‘simlik, hayvon – barchasi koinotdir.	**To‘g‘ri**
2	Birinchi sayohat Oyga boshlangan.	**Noto‘g‘ri**

3	Kuchuk va mushuk tajriba uchun fazoga yuborilgan.	**To‘g‘ri**
4	Sog‘lom va maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan insonlar samoga sayohat qilishi mumkin.	**To‘g‘ri**
5	Yuriy Gagarin Oydan tuproq namunasi va fotosuratlar bilan qaytgan.	**Noto‘g‘ri**

4. “Diqqat qiling!” ruknida harakat nomining kerak, zarur, mumkin so‘zlari bilan kelishi haqida ma’lumot bering. Bunday gaplar zamirida imkoniyat, zaruriyat ma’nosi mujassamdir.

... + -sh / -ish + kerak / zarur / mumkin

Masalan: *borish kerak, tayinlash zarur, aytish mumkin.*

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *koinot, Oy, sayyora, fazo, kosmonavt, uchmoq, parvoz qilmoq.*

6. Grammatik mavzuni mustahkamlash va o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 2-topshiriq berilgan. Dastavval namunani doskada bajarib ko‘rsating. Qolgan gaplarni o‘quvchilar namunadagi kabi daftarga yozishlarini topshiring

Namuna:

1. Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishim kerak.
2. Sen kosmosda ilmiy-tadqiqot olib borishing zarur.
3. U yigirma bir soatdan ko‘proq Oyda bo‘lishi lozim.
4. Kosmonavtlar fazoga uchishdan oldin maxsus ko‘rikdan o‘tishi kerak.
5. Biz “Koinot olamida” kitobidan qiziqarli ma’lumotlar olishimiz mumkin.

7. 3-topshiriqda berilgan matnni “Soat strelkasi” usulida o‘qiting. Bunda o‘quvchilar doira shaklida turib oladilar. O‘rtada bir o‘quvchi strelka vazifasini bajarib turadi. Shu o‘quvchi qo‘li bilan kim o‘qishini ko‘rsatib turadi. U qo‘li bilan ishora qilgan o‘quvchi matnni qolgan joyidan davom ettirib ketadi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni yozma bajartiring. Bunda o‘quvchilarga nuqtalar o‘rniga namunadagi kabi so‘zlarni qo‘yib yozishni tushuntiring.

Namuna:

Merkuriy Quyoshga eng yaqin sayyora bo‘lgani uchun cho‘g‘day qizib turadi.

9. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini “Myunstenberg” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni yozma bajartiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *Quyosh, Merkuriy, Venera, Neptun, Uran, Saturn, Mars, Yupiter, Yer.*

10. Refleksiya. “So‘z ohanrabosi ” usuli asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda bir o‘quvchi mavzuga oid bir tushunchani aytadi. Qolgan o‘quvchilar esa unga mos keluvchi so‘zlarni navbat bilan aytadilar. Birinchi so‘z aytgan o‘quvchi o‘zi aytgan tushunchaga mos keluvchi so‘zni aytgan o‘quvchilarni yoniga chaqiradi.

Masalan, 1-o‘quvchi *koinot* so‘zini aytsa, qolgan o‘quvchilar *sayyora, asteroid, yulduz* yoki boshqa so‘zlarni aytadilar. Shu so‘zlarning ichida mos kelmaydigan so‘zlar bo‘lsa, yoniga chaqirmaydi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga sayyoralarning joylashuvi rasmini chizib kelishni topshiring.

2-MAVZU. YER SAYYORASI

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar chizib kelgan rasmlar taqdimoti o‘tkazing. Tasviriy san’at o‘qituvchisi bilan hamkorlikda “Eng yaxshi chizilgan rasm”, “Eng yaxshi izohlangan rasm” nominatsiyalari bo‘yicha tanlov o‘tkazsangiz ham bo‘ladi.

Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Biz yashayotgan sayyoramiz boshqalaridan qanday farq qiladi deb o‘ylaysizlar?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


Biz yashab turgan Yer barchamizning umumiy uyimizdir. Quyosh sistemasida yashash mumkin bo‘lgan sayyora bu – Yerdir. U katta sayyoralar ichida 5-o‘rinda turadi.

U o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanib turadi. Oy esa Yerning tabiiy yo‘ldoshidir. Oy va Quyoshga oddiy ko‘z bilan qaralganda, kattaligi deyarli tengdek ko‘rinadi. Aslida esa unday emas. Agarda Yerni apelsin kattaligidek desak, Oy esa olchadek bo‘lardi.

Kosmosdan qaralganda, sayyoramiz moviy-yashil shardek ko‘rinadi. Chunki uning asosiy qismi suvdan iborat.

Lekin qadimda odamlar Yerni atrofini suv o‘rab turgan katta quruqlik, ulkan toshbaqa ko‘tarib turadi deb faraz qilishgan. Birinchilardan bo‘lib Aristotel Yerning dumaloqligini isbotlagan.

Yer o‘z aholisiga hayot uchun zarur hamma narsani beradi. Shuning uchun ona Yer deb aytamiz. Ona Yerimizni asrash, barcha ne’matlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish bizning vazifamizdir.



YER SAYYORASI

1. O'ylang va toping. Gapiring.


	Ma'lumotlar	Ha	Yo'q
1	Faqatgina Yerda hayot bor.		
2	Olimlar uzoq yillardan beri Yerni o'rganadilar.		
3	Quyosh Yer atrofida aylanadi.		
4	Qadimda Yerni toshbaqa ko'tarib turadi deb o'ylashgan.		
5	Birinchi bo'lib Aristotel Yerning dumaloq emasligini isbotlagan.		

2. O'qing.

Ona sayyoramiz taxminan 4,5 milliard yil oldin gaz va tosh parchalaridan iborat bulutlardan paydo bo'lgan. Million yillar davomida zilzila, vulqon, yomg'ir va shamollar natijasida Yerning qiyofasi o'zgarib turgan. Yerning boshqa sayyoralardan farqi unda hayot borligidir. Hayot mavjud bo'lishini ta'minlovchi bir nechta qatlam bor:
- Atmosfera butun sayyoramizni o'rab turgan havo qatlami.
- Biosfera Yer sayyorasidagi tirik mavjudotlarni o'z ichiga oladi.
- Litosfera Yerning asosiy yuza (tosh) qismi hisoblanadi.
- Gidrosfera – yer yuzidagi barcha suvlar, qor va muzliklar qoplami.

Yer sharining ichki ayrim joylarda o'ta issiq, ba'zi joylari muzliklardan iborat. Mana shu muhitda bugun qariyb 8 milliard odam va 9 millionga yaqin o'simlik, hayvonot va hasharot turlari istiqomat qiladi.

114



Har yili 22-aprel sanasida Xalqaro Yer kuni bayram qilinadi. Ushbu kunda turli tadbirlar va aksiyalar o'tkaziladi, ko'chatlar ekilib, ko'chalar, jamoat joylari, tabiiy hududlar tozalanadi.

3. O'ylang, toping va yozing.

Namuna:
– Yer sayyorasining yoshi nechada?
– Yer sayyorasi taxminan 4,5 milliard yoshda.

tabiiy yo'ldosh
shar
quruqlik
dumaloq
faraz
ehtiyot qilmoq

1. Yer sayyorasining yoshi nechada?
2. Yer sayyorasining boshqa sayyoralardan nima farqi bor?
3. Yer sayyorasining suv qatlami qanday ataladi?
4. Sayyoramizning yuza qatlami nima deyiladi?
5. Xalqaro Yer kuni munosabati bilan qanday tadbirlar o'tkaziladi?

4. O'ylang va toping. Gapiring. Mumkin/mumkin emas.

Mustaqil ish

"Yer sayyorasi: kecha, bugun, ertaga" mavzusida 30-50 so'zdan iborat esse yozing.

Kecha	Bugun	Ertaga
.....	.....	.....

115

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matnda berilgan ma’lumotlar asosida “Ha / Yo‘q” topshirig‘ini bajartiring.

№		Ha	Yo‘q
1	Faqatgina Yerda yashash uchun hayot bor.	+	
2	Olimlar uzoq yillardan beri Yerni o‘rganadilar.	+	
3	Quyosh Yer atrofida aylanadi.		+
4	Qadimda Yerni toshbaqa ko‘tarib turadi deb o‘ylashgan.	+	
5	Birinchi bo‘lib Aristotel Yerning dumaloq emasligini isbotlagan.		+

4. 2-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

5. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga namuna asosida savollarga javob yozishni topshiring.

Namuna:

1. Yer sayyorasining yoshi nechada?

Yer sayyorasi taxminan 4,5 milliard yoshda.

2. Yer sayyorasining boshqa sayyoralardan nima farqi bor?

Yerning boshqa sayyoralardan farqi unda hayot borligidir.

3. Yer sayyorasining suv qatlami qanday ataladi?

Gidrosfera – Yer yuzidagi barcha suvlar, qor va muzliklar qoplami.

4. Sayyoramizning yuza qatlami nima deyiladi?

Litosfera Yerning asosiy yuza (tosh) qismi hisoblanadi.

Xalqaro Yer kuni munosabati bilan qanday tadbirlar o‘tkaziladi? – Ushbu kunda turli tadbirlar va aksiyalar o‘tkaziladi, ko‘chatlar ekilib, ko‘chalar, jamoat joylari, tabiiy hududlar tozalanadi.

6. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating.

Rasmda qanday holatlar tasvirlangan? Shu yuzasidan o‘quvchilar bilan “Mumkin / mumkin emas” mavzusida suhbat uyushtiring.

7. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi shu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

8. O‘quvchilarga “Yer sayyorasi: kecha, bugun, ertaga” mavzusida 30-50 so‘zdan iborat esse yozishni topshiring.

3-MAVZU. YETTI IQLIM

DARSNING MAQSADI:

- Payt ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi. *Zarur, kerak, mumkin* modal so‘zlarini ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (*kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun?* singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:


1. Refleksiya. O‘quvchilarga “Yer sayyorasi: kecha, bugun, ertaga” mavzusida yozgan esselarini o‘qittiring. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Iqlim so‘zining ma’nosini izohlay olasizmi?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

XI asr qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy Xorazmning Kat shahrida tug‘ilgan. Yoshligidan ilm-fanga: matematika, astronomiya, geodeziya, geografiya va mineralogiya fanlariga qiziqadi. Ko‘p vaqtini turli kuzatishlar bilan o‘tkazgan. Astronomik asboblar yasagan. 995-yilda Yer va osmon globusini yasagan. Gurganj shahrida Oy tutilishini kuzatgan. Panjobda Yer shari meridianining 1 gradusini o‘lchagan. Bu ma’lumot oradan 1000 yil o‘tib, ya’ni hozirgi zamonaviy qurilmalar bilan o‘lchaganda juda oz farqqa egaligini ko‘rish mumkin. Kolumbdan bir necha asr oldin Amerika qit’asi mavjudligini ilmiy asoslab bergan.

Olimning 152 ta asari ma’lum bo‘lib, shundan bizgacha 30 tasi yetib kelgan. O‘z asarlari orqali astronomiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, tabobat, tarix, filologiya va boshqa fanlarning rivojiga hissa qo‘shdi.


YETTI IQLIM

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Beruniy nima uchun Ray shahriga boradi?
2. Birinchi marta Oy tutilishini qayerda kuzatadi?
3. Beruniy qaysi fanlar bilan shug‘ullangan?
4. Beruniy nechta asar yozgan va undan nechtasi bizga yetib kelgan?
5. Beruniy nima uchun qomusiy olim sanaladi?

DIQQAT QILING

..., -gach, ...

2. O‘ylang va toping. Yozing.


Namuna:
Xorazmni Ma’mun bosib olgach, Beruniy Ray shahriga keladi.

1. Xorazmni Ma’mun bosib ol..., Beruniy Ray shahriga keladi.
2. Abu Rayhon Beruniy geodeziyani o‘rgan..., bu fan yanada rivojlandi.
3. Olimlar Yer shari meridianini zamonaviy qurilmalar orqali tekshir..., Beruniyning zakovatiga yana bir bor tan berdi.
4. Beruniy asarlarini o‘qib chiq..., geografiyaga qiziqishim yanada ortdi.
5. Tuz suv tubiga cho‘k..., suyuqlikning rangi tiniqlashdi.

3. O‘qing.

Suv Yerda eng ko‘p tarqalgan suyuqlik hisoblanadi. U sayyoramizning 2/3 qismini egallagan dengiz va okeanlarda, ko‘l va daryolarda jamlangan. Arktika va Antarktida muzlari ham suvdan iborat.

116


Sayyoramizda 4 ta okean bor. Bular – Tinch, Hind, Atlantika va Shimoliy muz okeanlari. Tinch okean – eng katta va ilig, Atlantika okeani kattaligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda va u eng sho‘r hamda eng ko‘p o‘rganilgan; Hind okeani xilma-xil o‘simlik va hayvonot dunyosiga boy.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Atlantika okeani kattaligi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
2. Suv sayyoramizning 3/2 qismini tashkil qiladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Eng katta va iliq okean Tinch okeandir.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. Eng shor‘ va eng ko‘p o‘rganilgan okean bu – Atlantika.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
5. Hayvonot dunyosi va xilma-xil o‘simliklarga boy okean bu – Hind okeani.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

Yer shari materik globus xarita qomusiy

5. O‘ylang, toping va yozing.

1) Shimoliy Amerika
2) ...
3) ...
4) ...
5) ...
6) ...
7) ...

Mustaqil ish
O‘zingiz yashayotgan hududning geografik xaritasini chizing.

117

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Beruniy nima uchun Panjob shahriga boradi?
2. Birinchi marta Oy tutilishini qayerda kuzatadi?
3. Beruniy qaysi fanlar bilan shug‘ullangan?
4. Beruniy nechta asar yozgan va undan nechtasi bizga yetib kelgan?
5. Beruniy nima uchun qomusiy olim sanaladi?

4. “Diqqat qiling!” ruknida payt ergash gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Bosh gapdagi ish-harakatning paytini bildirgan ergash gap payt ergash gap deyiladi. Payt ergash gap bosh gap bilan birga payt ergash gapli qo‘shma gapni tashkil qiladi. Payt ergash gap bosh gapga bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi.

Masalan: *U kelgach, hamma tarqalib ketdi.*
...-gach, ...-qach, ...-kach, ...

5. Grammatik mavzuni mustahkamlash va o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 2-topshiriqni namunadagi kabi bajartiring.

Namuna:

1. Xorazmni Ma’mun bosib olgach, Beruniy Ray shahriga keladi.
2. Abu Rayhon Beruniy geodeziyani o‘rgangach, bu fan yanada rivojlandi.
3. Olimlar Yer shari meridianini zamonaviy qurilmalar orqali tekshirgach, Beruniyning zakovatiga yana bir bor tan berdi.
4. Beruniy asarlarini o‘qib chiqqach, geografiyaga qiziqishim yanada ortdi.
5. Tuz suv tubiga cho‘kkach, suyuqlikning rangi tiniqlashdi.

6. 3-topshiriqda berilgan matnni “Izohli o‘qish” usulidan foydalanib, o‘qiting.

Bunda o‘qilgan matn mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlari hisoblanadi. Matn mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi.

O‘qish vazifasini o‘quvchilarga bering. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

Suv Yerda eng ko‘p tarqalgan suyuqlik hisoblanadi. (Suvning formulasini ayting) U sayyoramizning 2/3 qismini egallagan dengiz va okeanlarda, ko‘l va daryolarda jamlangan. (Shu suvlarning qanchasi ichishga yaroqli?) Arktika va Antarktida muzlari ham suvdan iborat. (Shu muzlarda uchish imkoni bormi?) Sayyoramizda 4 ta okean bor. (Yana 4 raqami bilan bog‘liq qanday tabiat hodisalari bor?) Bular – Tinch, Hind, Atlantika va Shimoliy Muz okeanlari. (“Okean” so‘zini ingliz tiliga tarjima qiling.) Tinch okean eng katta va iliq. (Tinch okean tinch oqadimi?) Atlantika okeani kattaligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda va u eng sho‘r hamda eng ko‘p o‘rganilgan. (Suv nimaning hisobiga sho‘r bo‘ladi?) Hind okeani xilma-xil o‘simlik va hayvonot dunyosiga boy. (Hind okeani bilan Hindistonning nima bog‘liqligi bor?)

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida “To‘g‘ri / noto‘g‘ri” usuli asosida test o‘tkazing.

1. Atlantika okeani kattaligi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi.
   A. To‘g‘ri. **B. Noto‘g‘ri.**
2. Suv sayyoramizning 2/3 qismini tashkil qiladi.
   A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Eng katta va iliq okean Tinch okeandir.
   A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. Eng sho‘r va eng ko‘p o‘rganilgan okean bu – Atlantika.
   A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
5. Hayvonot dunyosi va xilma-xil o‘simliklarga boy okean bu – Hind okeani.
   A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

8. 5-topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilarga dunyo xaritasi olib kelishni topshiring. Shu xarita asosida darslikda berilgan tasvirlarga qarab qit’alarning nomini topib yozadilar va geografiyadan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, joy nomlarini o‘zbek tilida aytish va yozish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

Namuna: 1) Shimoliy Amerika...

9. Refleksiya. “Timsoh” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda o‘quvchi doskaga chiqib, bugungi mavzudan esida qolgan bitta so‘zni imo-ishoralar yordamida ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa bu so‘zni o‘quvchining harakatiga qarab topishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga o‘zlari yashayotgan hududning geografik xaritasini chizib kelishni topshiring.

4-MAVZU. DUNYO XALQLARI

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar o‘zlari chizib kelgan geografik hudud kartalarini izohlab, taqdimot qilishni topshiring. Ular chizib kelgan rasmlar ko‘rgazmasini ham tashkil qilish mumkin.

Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang!

“Qanday millatlar haqida bilasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.


4. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

1-matn

Mening ismim – Farid. 14 yoshdaman. Men Turkiyadanman. Anqara shahrida yashayman. Ona tilim – turk tili. Maktabda qo‘shimcha koreys tilini o‘rganyapman.

2-matn

Mening ismim – Ameliya. 15 yoshdaman. Men Buyuk Britaniyadanman. London shahrida yashayman. Ona tilim – ingliz tili. Maktabda qo‘shimcha o‘zbek tilini o‘rganyapman.



DUNYO XALQLARI

1. O‘qing. Savollarga javob bering.

ESKIMOSLAR

Ma’lumki, bugun dunyo aholisi sakkiz milliard kishiga yaqinlashib qoldi. Tadqiqotchilar Yer yuzida uch mingdan to‘rt minggacha xalq borligini taxmin qilganlar. Bundan aniqroq raqamni aytish qiyin. Chunki aholi ro‘yxati barcha hududlarda o‘tkazilmagan. Xitoyliklar bir milliarddan ortiq, Braziliyadagi botokuda va Argentinadagi yamanalar atigi bir necha yuz kishi yoki bir necha o‘n kishidan iborat. Yirik xalqlar sayyoramizining ko‘pchilik aholisini tashkil etadi. Jumladan, o‘n milliondan ko‘p bo‘lgan yetmishta xalq jami aholining sakson foizini tashkil qiladi. Yirik xalqlar deb xitoyliklar, hindistonliklar, bengallar, turkiyaliklar, ruslar, yaponlarni sanash mumkin.

Dunyo xalqlari turli geografik hududlarda yashaydilar. Har bir xalq o‘zi yashaydigan joyning tabiatiga moslashadi. Ba’zi xalqlarning yashash tarzi an’anaviy bo‘lsa, ba’zi xalqlarniki neodatiydir. Sayyoramizda eskimos degan xalq mavjud. Ularning yashash tarzi juda qiziq.

Eskimoslarni “qahraton odamlari” deb ta’riflaydilar. Chunki ular shimoliy o‘lkalarda yashaydilar. Tashqi olam bilan aloqalari juda sust. Eskimoslar – hech kimnikiga o‘xshamaydigan hayot tarzi va odatlarga ega kam sonli millat. Ular Grenlandiya oroli, Kanadaning Nunavut hududi, Alyaska oroli va Chukotka yarimorolida istiqomat qilishadi.

“Eskimos” so‘zi hindu tilidagi “eskimansig” so‘zidan kelib chiqqan. “Eskimansig” so‘zi “xom baliq iste’mol qiluvchi odam” degan ma’noni ifodalaydi. Bu millat vakillari eskaleut tilining turli dialektlarida so‘zlashadi. Jami vakillari soni 170 ming kishi atrofida.

Eskimoslarning yashash joyi o‘ta sovuq o‘lkalardir. Shu bois eskimoslar tabiat sharoitlariga moslashgan holda jon saqlashga harakat qilishadi. Eskimoslar bir necha oiladan iborat jamoalarga birlashgan holda yashaydilar. Asosan umumiy ov qurollaridan foydalanishadi va jamoaviy ov qilishadi.

1. 10 milliondan ko‘p bo‘lgan 70 ta xalq qaysilar? Ular dunyo aholisining qanchasini tashkil qiladi?
2. Eskimoslarga o‘xshagan kam sonli xalqlar haqida eshitganmisiz?
3. Nega eskimoslarning tashqi olam bilan aloqasi sust?
4. Nega eskimoslar hozir ham ov qilishadi?

2. Tinglang.

Namuna:
O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent shahri. O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili.

118



Ismi	O‘lkasi	Yashash joyi	Tili
Nodira			
Farid			
Ameliya			

3. O‘qing.

Muxbir: Xush kelibsiz?
Bill: Xush ko‘rdik!
Muxbir: Ismingiz nima?
Bill: Ismim Bill.
Muxbir: Qayerdansiz?
Bill: Floridadanman.
Muxbir: Necha yoshdasiz?
Bill: O‘n besh yoshdaman.
Muxbir: O‘quvchimisiz?
Bill: Ha, Floridadagi xususiy maktabda o‘qiyman.
Muxbir: O‘zbek tilida gaplasha olasizmi?
Bill: Ha.
Muxbir: Yana qaysi tillarni bilasiz?
Bill: Rus va nemis.
Muxbir: Bir necha tillarni o‘rganishdan maqsadingiz nima?
Bill: Xalqlarning urf-odat va madaniyatini o‘rganish.

4. Savollarga javob bering.

1. Bill qayerlik?	2. Bill necha yoshda?	3. Bill qayerda o‘qiydi?	4. Bill qaysi tillarni biladi?
A) fransiyalik	A) 13	A) maktabda	A) nemis
B) amerikalik	B) 14	B) kollejda	B) o‘zbek
C) finlandiyalik	C) 15	C) universitetda	C) rus

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Markaziy Osiyo davlatlari va tillari
1 – Qozog‘iston Respublikasi/qozoq tili
2 – .....
3 – .....
4 – .....
5 – .....

Mustaqil ish
O‘zingiz istagan mamlakatga virtual sayohat qiling va taassurotlaringiz haqida so‘zlab bering.

119

3-matn

Mening ismim – Nodira. 14 yoshdaman. Men O‘zbekistondanman. Toshkent shahrida yashayman. Ona tilim – o‘zbek tili. Maktabda qo‘shimcha ingliz tilini o‘rganyapman.

4-matn.

Mening ismim – Iliko. 13 yoshdaman. Men Gruziyadanman Tbilisida yashayman. Ona tilim – gruzin tili. Turkiy tillarga juda qiziqaman va qirg‘iz, qozoq tillarini o‘rganyapman.

5. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida namunada berilgani kabi gaplar tuzing.

Namuna:

O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent shahri. O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili.

Ismi	**O‘lkasi**	**Yashash joyi**	**Tili**
Nodira	O‘zbekiston	Toshkent	O‘zbek tili
Farid	Turkiya	Anqara	Turk tili
Ameliya	Buyuk Britaniya	London	Ingliz tili

6. 3-topshiriqda suhbat matni berilgan. O‘quvchilarga bu matnni “Rolli o‘yin” metodi asosida rollarga bo‘lib o‘qish vazifasini bering. Bunda bir o‘quvchi muxbirning so‘zlarini, ikkinchi o‘quvchi esa Billning so‘zlarini o‘qiydi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda darslikda berilgan qisqa javobli testlarning to‘g‘ri javobini aytadilar.

1. Bill qayerlik?

A) fransiyalik **B) amerikalik** C) finlandiyalik

2. Bill necha yoshda?

A) 13 B) 14 **C) 15**

3. Bill qayerda o‘qiydi?

A) maktabda B) kollejda C) universitetda

4. Bill qaysi tillarni biladi?

A) nemis B) o‘zbek **C) rus**

8. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mavzuda 5-topshiriq berilgan. Namuna asosida Markaziy Osiyo davlatlari va tillarini yozishni topshiring.

Namuna:

1. Qozog‘iston Respublikasining davlat tili qozoq tilidir.

9. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.

Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.

Men albatta qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.

O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

10. O‘quvchilarga o‘zlari istagan mamlakatga virtual sayohat qilib, taassurotlari haqida so‘zlab berishni topshiring.

5-MAVZU. DUNYO TILLARI


DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilardan o‘zlari istagan mamlakatga qilgan virtual sayohati taassurotlarini so‘rang. Fikrini to‘g‘ri va ravon ifodalay olgan o‘quvchilarni alohida rag‘batlantiring. Mushohada doirangizdan kelib chiqib, tanlov tarzida o‘tkazsangiz ham bo‘ladi.

“Millatlarni bir-biridan ajratib turgan asosiy belgisi nima deb o‘ylaysiz?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.



DUNYO TILLARI

1. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

Salom, mening ismim Jamshid. Yoshim o'n beshda. Turkiyadan kelganman. Poytaxtda yashayman. Ona tilim o'zbek tili. Turk tilida ham bemalol gaplasha olaman. Turk tilidagi badiiy asarlarni o'qishni yaxshi ko'raman.
Hozir ingliz tilini o'rganyapman. Kelajakda Angliyadagi Oksford universitetida o'qimoqchiman.
O'zbekistonga mehmonga keldim. Uning qadimiy va go'zal obidalari menga yoqadi.

Assalomu alaykum, ismim Ayperi. Yoshim o'n to'rtda. Bishkekda yashayman. Qirg'iz tili ona tilim bo'lsa-da, rus va ingliz tillarida bemalol gaplashaman. Fransuz tilini o'rganmoqdaman. Sorbonna universitetida o'qishni istayman.
Chunki fransuz madaniyatiga qiziqaman.

Ismi	O'lkasi	Shahri	Ona tili	Biladigan tili	O'rganayotgan tili
Jamshid				rus va ingliz tili	
Ayperi		Bishkek			

DIQQAT QILING

... -guncha ...

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Til paydo bo'lguncha odamlar bir-biri bilan imo-ishoralar orqali muloqot qilganlar.

1. Til paydo bo'lguncha ....
2. Singlim ingliz tilini o'rganguncha ...
3. Bolalar to'rt yoshga kirguncha ....
4. ... guncha men kitoblarimni o'qib tugatdim.
5. ... guncha tillar rivojlanib bormoqda.

120

2. 1-topshiriqda berilgan matnni “Zanjir” usulida ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida jadvalni to‘ldirib yozishni topshiring.

Ismi	O‘lkasi	Shahri	Ona tili	Biladigan tili	O‘rganayotgan tili
Jamshid	Turkiya	Anqara	O‘zbek tili	Turk tili	Ingliz tili
Ayperi	Qozog‘iston	Bishkek	Qozoq tili	Rus, ingliz tillari	Fransuz tili

4. “Diqqat qiling!” ruknida payt ravishdoshi haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Payt ravishdoshi *gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha* qo‘shimchalari bilan yasaladi. Masalan:

Sayohatchilar quyosh chiqquncha manziliga yetib oldi.

5. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. Berilgan birliklar asosida namunadagi kabi gap tuzishni topshiring.

Namuna:

Til paydo bo‘lguncha odamlar bir-biri bilan imo-ishoralar orqali muloqot qilganlar.

6. Millatlar va tillarni o‘zbek tilida to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mavzuda 3-topshiriq berilgan. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating.

Qaysi davlatlarning bayroqlarini ko‘ryapsiz?

O‘quvchilar rasmda berilgan bolalarning tasvirlangan davlat bayrog‘i orqali qaysi mamlakatda yashashi va ona tilisi haqida ma’lumotlarni yozadilar.


O‘quvchilarga namunadagi kabi gaplar tuzishni topshiring.

Namuna:

Farzona o‘zbekistonlik. U o‘zbek tilida gaplashadi.

7. O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Bu topshiriqni bajarishda ikki ustunda turgan maqollarni va tushunchalarni moslab o‘qishlarini topshiring.

Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz.
Til bilgan el biladi.
Tilni ko‘p bilgan shuncha imkonga ega.
Odam qancha ko‘p tilni bilsa, yo‘lda qolmas.
Til bilgan ko‘pni bilar.


3. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna:
Farxona o'zbekistonlik. U o'zbek tilida gaplashadi.

Farxona ....
Jek ....
Fransua ....
Deniz ....
Sasha ....
Ursula ....

4. O'ylang va toping. Gapiring.

Tilga ixtiyorsiz –	el biladi.
Odam qancha ko'p tilni bilsa,	yo'lda qolmas.
Til bilgan	shuncha imkonga ega.
Tilni ko'p bilgan	elga e'tiborsiz.
Til bilgan	ko'pni bilar.

Mustaqil ish
"Assalomu alaykum" so'zini o'zingiz bilgan tillarga tarjima qiling.

121

8. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.
Men, albatta qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.

O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

9. O‘quvchilarga “Assalomu alaykum” so‘zini o‘zlari bilgan tillarga tarjima qilib kelishni topshiring.

6-MAVZU. DUNYODAGI TENGDOSHLARIM

DARSNING MAQSADI:

- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.


1. Refleksiya: O‘quvchilar “Assalomu alaykum” so‘zini turli tillarga qilgan tarjimasini o‘qiting. Har bir o‘quvchining ishiga “Barakalla”, “Ofarin” so‘zlari bilan rag‘bat berib turing.

Chet elda gaplashib turadigan do‘stingiz bormi? savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali qilib o‘qib bering.

Bilim olishga bo‘lgan qiziqishlar tufayli har qanday qiyinchilik va to‘siqlarni yengib o‘tayotgan tengdoshlaringiz haqida bilasizmi? Quyida dunyoning turli burchaklarida o‘qishga qanday borayotgan tengdoshlaringiz haqida suhbatlashamiz.

Hindistonning Himolayida yashovchi bolalar -30° C sovuqda ham maktabga ketishmoqda. Yo‘l chuqur daryo


DUNYODAGI TENGDOSHLARIM

1. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Joy nomlari	Qoya va yo'laklar	Muzli yo'l	Osma ko'prik	-30 °C sovuq
Hindiston				+
Xitoy				
Indoneziya				

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Singapurda bola maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi.

1. Maktabga, Singapurda, qabul qilinadi, 6 yoshdan
2. To'rt yillik, ona tili, birinchi, ingliz tili, o'qitiladi, matematika, fanlari
3. O'qishdan so'ng, ajratiladi, qobiliyatiga ko'ra, to'rt yillik, o'quvchilar, guruhlarga
4. Boradi, Finlandiyada, bolalar, maktabga, 7 yoshdan
5. Ochiqlikda, iliq, mashg'ulotlar, o'tiladi, havoda

122

orqali o‘tadi. Daryodagi suv muzlagan va bolalar shu muz ustilardan o‘tib ta’lim olgani boradilar.


Indoneziyaning Lebak okrugida o‘qiydigan bolalar har tongda daryo orqali o‘tgan osma ko‘prikdan o‘tishadi.

Xitoyning Palay shaharchasidagi maktab internatga borish uchun 650 metrlik qoya yo‘laklardan yurib o‘tadilar.

Indoneziyada maktab o‘quvchilari har kuni kaskadyorlar kabi daryo ustiga tortilgan arqon (kanat) yo‘ldan osilib o‘tib maktabga boradilar.

Indoneziyada daryolar va yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgani uchun bolalarning maktabga borishlari uchun har doim ham quruq yo‘l topilavermaydi. Ular esa bilim olish uchun suvdan amallab o‘tadilar

“Jajji akademik” jurnalidan



4. O‘qing.

Yaponiyadagi ta’lim tizimi haqida tengdoshingiz Umarbek Bahodirjonov bilan suhbatlashamiz:

– Salom, Umarbek. O‘zingiz va maktabingiz haqida so‘zlab bersangiz.

– Assalomu alaykum, men Yaponiyaning Saytama shahrida yashayman. Maktabimning nomi “Honcho”. Bu yerda maktablar tegishli hudud nomi bilan ataladi.

– Sizni maktabga kim olib boradi?

– Hammani maktabga katta sinfdagi qo‘shni bolalar olib boradi. 6-sinfgacha “randoseru” deb nomlangan sumka tutamiz. Bu sumka gavdani to‘g‘ri tutishga yordam beradi, xavfsizlik bog‘ichi ham bor. O‘quvchilarning maxsus rangli poyabzallariga qarab qaysi sinfda o‘qishini farqlash mumkin. Masalan, 1-sinf o‘quvchisi oq, 6-sinf o‘quvchilari esa ko‘k oyoqkiyim kiyadi.

– Darsingiz qachon tugaydi?

– Tushlikda darsimiz yakunlanadi. Keyin mayin musiqa sadolari ostida o‘z joylarimizni tozalaymiz. Chunki farroshlar yo‘q. Tozalik uchun o‘zimiz javob beramiz. Darsdan keyin qo‘shimcha mashg‘ulotlarga ham boramiz.

“Jajji akademik”dan

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Kim?	Nima?	Qayerda?	Qachon? Qachongacha?
o‘quvchi	sumka	maktabda	tushlikda

Mustaqil ish

Agar siz direktor bo‘lsangiz, maktabingizda qanday o‘zgarishlar qilgan bo‘lar edingiz? 30–50 so‘zdan iborat esse yozing.

123

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriq berilgan.

O‘quvchilarning diqqati rasmlarga qaratiladi.

– Rasmda qanday holatlar tasvirlangan? Shu asosda suhbat tashkil qiling. Berilgan jadvalni to‘ldirishni topshiring.

4. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida namunadagi kabi gaplar yozishni topshiring. Namunani doskaga yozib ko‘rsating.

Namuna:

Singapurda maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi.
Birinchi to‘rt yillikda ona tili, ingliz tili, matematika fanlari o‘qitiladi.
To‘rt yillik o‘qishdan so‘ng o‘quvchilar qobiliyatiga ko‘ra guruhlarga ajratiladi.
Finlandiyada bolalar maktabga 7 yoshdan boradilar.
Iliq havoda mashg‘ulotlar ochiqlikda o‘tkaziladi.

5. 4- topshiriq asosida berilgan matnni “Zanjir” usulida ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishiga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

6. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqda berilgan jadvalni namunadagidek to‘ldirishni topshiring. O‘quvchilar savollarga javob bo‘luvchi so‘zlarni yozish uchun 4-topshiriqdagi matndan foydalanadilar.

Kim?	Nima?	Qayerda?	Qachon?/Qachongacha?
o‘quvchi	poyabzal	maktabda	tushlikda

7. Refleksiya: “Kalit so‘z” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga bugungi darsda yodida qolgan bitta so‘zni daftarga yozishni topshiring. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

8. O‘quvchilarga “Agar siz direktor bo‘lsangiz, maktabingizda qanday o‘zgarishlar qilgan bo‘lar edingiz?” mavzusida 30–50 so‘zdan iborat esse yozib kelishini topshiring.

7-MAVZU. DUNYO KUTUBXONALARI

DARSNING MAQSADI:


- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushuna oladi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga “Agar siz direktor bo‘lsangiz, maktabingizda qanday o‘zgarishlar qilgan bo‘lar edingiz?” mavzusida yozgan esselarini o‘qiting.

Vazifani bajargan o‘quvchilarni rag‘batlantirishni unutmang.

“Sizga qanday kitoblarni o‘qish yoqadi?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.


DUNYO KUTUBXONALARI

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Qaysi kutubxonani “muzey” deb atash mumkin?
2. Qaysi kutubxona yo‘laklarida mashhur shaxslarning haykallari bor?
3. 1592-yili qurilgan kutubxona qaysi?
4. Oq va tilla ranglardan iborat kutubxona qayerda joylashgan?
5. Kutubxonalardan qaysi biri noodatiy uslubda qurilgan?

kitob kutubxona kutubxonachi karfetka o‘qish zal audiokitob

DIQQAT QILING

… -ni, … .

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Kutubxonaga borsam, kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilayotgan ekan.

1	Kutubxonaga borsam,	A	ko‘p kitoblar uchun aksiya o‘tkazilayotgan ekan.
2	Detektiv asarlarni o‘qisam,	B	o‘yin boshlanib ketgan ekan.
3	Kitob do‘koniga borsak,	D	do‘stim qo‘ng‘iroq qildi.
4	Kitob o‘qib o‘tirsam,	E	kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilayotgan ekan.
5	Bolalar maydonchaga kelsa,	F	huquqbunoslik kasbini tanlagim keldi.

124


DUNYONING ANTIQA KUTUBXONALARI

Dunyoning har bir davlati va shahrida kutubxonalar bor. Biz esa ularning eng katta va antiqalaridan ba’zilarini sizlarga taqdim etamiz.

Irlandiyaning Dublin shahrida joylashgan ushbu muhtasham kutubxona 1592-yilda qurilgan. Bino qasr ko‘rinishida bo‘lib, yo‘laklarda mashhur shaxslarning haykallari sizni kutib oladi. Bu yerda 100 mingdan ortiq kitob bor. Har bir kitob javonining balandligi 10 metrdan ortiq. Mazkur kutubxonani muzey deyish ham mumkin. Sababi unda nafaqat kitoblar, balki ko‘p asrlik tarixga ega noyob buyumlar ham o‘rin olgan.

Navbatdagi eng antiqa kutubxona Avstriyaning Edmond shaharchasida joylashgan. U oq va tillaranglardan iborat. Kutubxona ikki qavatli bo‘lib, har ikkala qavatida turli davrga va mavzuga oid kitoblarni topish mumkin. Binoning shift qismi o‘rta asrlar me’morchiligi uslulida qurilgan.

AQSHning Minnesota shtatida joylashgan Valker nomli kutubxona xuddi san’at muzeyiga o‘xshaydi. Bu yerda 300 mingga yaqin kitoblar bor. Ularning aksariyati esa nodir kitoblar hisoblanadi. Shuningdek, kutubxona noodatiy uslubda qurilgani bilan ham ajralib turadi.


3. O‘qing.

Hozir elektron kutubxonalar tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Shulardan biri “The Google Books” elektron kutubxonasidir. U “Google” tomonidan yaratilgan. Bu yerda bir yuz o‘ttiz milliondan ortiq kitob raqamlashtirilgan bo‘lib, ular 480 tilga tarjima qilingan.
Bu raqamlar dunyo bo‘yicha kitoblarning 20 foizi raqamlashtirilib, elektron kutubxonaga joylashtirilganidan dalolat beradi.
“Google” dunyodagi barcha kitoblarni raqamlashtirishni maqsad qilgan.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

	MA’LUMOTLAR	HA/YO‘Q
1	Hozir elektron kutubxonalar tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.	
2	“The Google Books” elektron kutubxonasi “Google” tomonidan yaratilmagan.	
3	Elektron kutubxonadagi har bir kitobni to‘rt yuzdan ortiq tillarda o‘qish mumkin.	
4	“Google” kitoblar raqamlashtirilishini to‘xtatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.	

5. O‘ylang, toping. Gapiring.

Kitob	
+	–
Istagan vaqtda o‘qish mumkin.	Chang bo‘ladi.
His qilish darajasi yuqoriroq.	Joy egallaydi.
…	…

Elektron kitob	
+	–
…	…

Kutubxonachi	
+	–
…	…

Robot kutubxonachi	
+	–
…	…

Mustaqil ish
Oilaviy kutubxonangizdagi kitoblardan 5 tasining nomi va muallifini yozib keling.

125

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Qaysi kutubxonani muzey deb atash mumkin?
2. Qaysi kutubxona yo‘laklarida mashhur shaxslarning haykallari bor?
3. 1592-yili qurilgan kutubxona qaysi?
4. Oq va tilla ranglardan iborat kutubxona qayerda joylashgan?
5. Kutubxonalardan qaysi biri noodatiy uslubda qurilgan?

4. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating. Kutubxonani tasvirlab berishlarini so‘rang.

“Qaysi kutubxonalarga a’zo bo‘lgansiz? Uning siz uchun afzal jihatlarini aytib bering” kabi savollar ham berish mumkin.

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *kitob, kutubxona, kutubxonachi, kartoteka, o‘qish zali, audiokitob.*

6. “Diqqat qiling!” ruknida fe’lning shart mayli haqida ma’lumot bering.

Fe’lning bu shakli quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

1. Shart mayli shaklidagi fe’l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo‘lgan harakatni bildiradi:

Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko‘payadi.

2. Shart maylidagi fe’l payt ma’nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi:

Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq qor ekan.

3. Istak ma’nosini bildiradi. Bunday holda *edi* to‘liqsiz fe’li ishtirok etib, ma’noni kuchaytiradi:

Qani edi, bir parcha soya-salqin joy topilsa.

4. Agar *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llangan shart maylidagi fe’l bo‘lishsiz shaklda qo‘llansa, gumon ma’nosi hosil bo‘ladi:

Biror qaltis gap aytib, sharmanda qilmasa edi.

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 2-topshiriq berilgan. Ikki ustunda berilgan birliklarni ma’no va qo‘llanishiga ko‘ra moslab namunadagi kabi yozishni tushuntiring.

Namuna:

1. Kutubxonaga borsam, kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilayotgan ekan. (*E*)
2. Detektiv asarlarni o‘qisam, huquqshunoslik kasbini tanlagim keladi. (*A*)
3. Kitob do‘koniga borsak, ko‘p kitoblar uchun aksiya o‘tkazilayotgan ekan. (*A*)
4. Kitob o‘qib o‘tirsam, do‘stim qo‘ng‘iroq qildi. (*D*)
5. Bolalar maydonchaga kelsa, o‘yin boshlanib ketgan ekan. (*B*)

8. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

9. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan “Ha / Yo‘q” mashqini o‘tkazing.

№	Ma’lumotlar	Ha	Yo‘q
1	Hozir elektron kutubxonalar tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.	+	
2	“The Google Books” elektron kutubxonasi “Google” tomonidan yaratilmagan.		+
3	Elektron kutubxonadagi har bir kitobni to‘rt yuzdan ortiq tillarda o‘qish mumkin.	+	
4	“Google” kitoblar raqamlashtirilishini to‘xtatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.		+

10. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 6-topshiriqda qiyosiy tahlil berilgan. Shu asosda o‘quvchilar bilan suhbat tashkil qiling.

Kitob		**Elektron kitob**		**Kutubxonachi**		**Robot kutub-xonachi**	
+	-	+	-	+	-	+	-
Istagan vaqtda o‘qish mumkin	*Chang bo‘ladi*						
His qilish darajasi yuqori-roq	*Joy egallaydi*						

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

8-MAVZU. MUZEYLAR

DARSNING MAQSADI:

- *“Zarur”, “kerak”, “mumkin”* modal so‘zlarini ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushuna oladi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga o‘zlari yozib kelgan oilaviy kutubxonalaridagi kitoblarning nomi va mualliflarini o‘qittiring.

Qaysi kitoblarni o‘qib chiqqanini so‘rang. Vazifani bajarib kelgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni unutmang.

“Kinofilmlarda o‘tmishga sayohat qilish yaxshi, albatta. Lekin biz hozir tariximiz haqidagi ma’lumotlarni o‘tmishga sayohat qilmay turib qanday olishimiz mumkin?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida joylashgan Ermitaj muzeyi dunyoning eng mashhur muzeylari sirasiga kiradi. Muzey 3 mln eksponatga ega bo‘lib, ekspozitsiyadan haykaltaroshlik, amaliy va tasviriy san’at asarlari hamda tarixiy ashyolar joy olgan. Quvonarlisi, muzeyda namoyish etiladigan eksponatlar soni tobora ortib bormoqda. Uning ko‘hna imoratlaridan biri hisoblanmish Qishki saroy yonida yangidan yangi binolar barpo etilmoqda.

Ermitaj Sankt-Peterburgning shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, uning madaniy markaziga aylangan. Muzey binosi 1754-yil Neva daryosi qirg‘og‘ida podshohlik qarorgohi sifatida bunyod etilgan. Qurilish ishlariga qirolicha Yelizavetaning saroy arxitektori – italiyalik mashhur binokor Rastrelli bosh-qosh bo‘lgan. U qurilish mobaynida Yevropa va rus arxitekturasini o‘zaro uyg‘unlashtirdi. Aynan mana shu yangicha uslub; o‘zgacha jozibasi va noan’anaviyligi bilan barchani maftun etdi. Rastrelli tomonidan yaratilgan bu majmua deyarli 200 yildan ortiq vaqt mobaynida imperatorlarning qarorgohi bo‘lib keldi. Binoning ichidagi jihozlar yillar davomida o‘zgartirilgan bo‘lsa-da, uning tashqi qismi o‘zining asl ko‘rinishini saqlab qolgan.

Binodagi har bir zal o‘z nomi va tarixiga ega. Feldmarshal zalining markazidan qimmatbaho arava joy olgan. Undan Rossiya monarxlari – Aleksandr II, Nikolay II, Yekaterina II larning toj kiyish marosimida foydalanilgan. U “Gerb zali” deb yuritiladi. Zal tantanali marosimlar uchun mo‘ljallangan.

Ko‘rgazmadan Rossiya davlatining tuzilishi haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin olgan. Shiftdagi qandillarda Rossiyadagi barcha shaharlarning gerblari tasvirlangan.

Hozirgi kunda bu yerda G‘arbiy Yevropa kumush mahsulotlarining katta kolleksiyasi o‘rin olgan. Ko‘rgazmada XVIII asrga tegishli fransuz ustalari tomonidan ajib nafislik bilan yasalgan kumush buyumlarni tomosha qilasiz. Bu buyumlar qirolicha Yelizaveta buyurtmasiga binoan yasalgan. Shuningdek, bu yerda nemis ustalari tomonidan barokko uslubida yasalgan idishlar ham mavjud.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Ermitaj muzeyi qurilishiga kim boshchilik qilgan?
2. Muzeydagi eksponatlar soni qancha?
3. Qimmatbaho arava qaysi zalga joylashtirilgan?

4. Shiftdagi qandillarda nimalar tasvirlangan?
5. Ko‘rgazmadagi kumush buyumlarni kimlar ishlagan?

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *muzey, eksponat, sayohat, ko‘rgazma, zal, ekspozitsiya, gid.*

5. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating.

Rasmlarda nima tasvirlangan?

Tepadagi va pastdagi suratlarni namunadagi kabi moslashtirish topshirig‘ini bering.


Namuna:

Ispaniya geologiya muzeyi: *D*.
Parijdagi Luvr muzeyi: *E*.
Nagoya ilmiy-tadqiqot muzeyi *B*.
Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi: *A*.

6. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 3-topshiriqni namunadagi kabi bajartiring.

Namuna:

1. Biz Ermitaj muzeyiga sayohatga borishimiz kerak.
2. Siz san’at muzeyiga sayohatga borishingiz mumkin.
3. Ular tarix va geografiya fanini yaxshi o‘rganishlari zarur.
4. Biz tabiat muzeyidagi ko‘rgazma zalini tomosha qilishimiz kerak.
5. Siz G‘afur G‘ulom va Oybek uy-muzeylaridagi buyumlarni qiziqib o‘rganishingiz mumkin.


MUZEYLAR

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1) Ermitaj muzeyi qurilishiga kim boshchilik qilgan?
2) Muzeydagi eksponatlar soni qancha?
3) Qimmatbaho arava qaysi zalga joylashtirilgan?
4) Shiftdagi qandillarda nima tasvirlangan?
5) Ko‘rgazmadagi kumush buyumlarni kimlar ishlagan?

muzey
eksponat
sayohat
ko‘rgazma
zal
ekspozitsiya
gid
taassurot

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1) Ispaniya geologiya muzeyi
2) Parijdagi Luvr muzeyi
3) Nagoya ilmiy-tadqiqot muzeyi
4) Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi

A B D E


Namuna:
Ispaniya geologiya muzeyi: 1. D 2. ... 3. ... 4. ...

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Biz Ermitaj muzeyiga sayohatga borishimiz kerak.

1. ... Ermitaj muzeyiga sayohatga borish... kerak.
2. ... san’at muzeyiga sayohatga borish... mumkin.
3. ... tarix va geografiya fanini yaxshi o‘rganish... zarur.
4. ... tabiat muzeyidagi ko‘rgazma zalini tomosha qilish... kerak.
5. ...G‘afur G‘ulom va Oybekning uy-muzeyidagi buyumlarni qiziqib o‘rganish... mumkin.

126


4. O‘qing.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan. Muzey fondining asosiy qismi Amir Temur va temuriylar davriga oid qo‘lyozma asarlar, turli davlat hukmdorlari bilan olib borilgan yozishmalar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me’moriy bezak qoplamalari, kitoblar, etnografik buyumlar, yurtimiz rassomlari kartinalari kabi nodir eksponatlardan iborat. Eksponatlarning soni 2,5 mingdan oshadi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

	Ma’lumotlar	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
1	Temuriylar tarixi davlat muzeyi Amir Temur tavalludining 600 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan.	
2	Muzey fondida faqat Amir Temur bilan bog‘liq eksponatlar mavjud.	
3	Muzey eksponatlari qo‘lyozma asarlar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me’moriy bezak qoplamalari, kitoblar, etnografik buyumlar va rasmlardan iborat.	
4	Eksponatlarning soni uch mingga yaqin.	

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Temuriylar tarixi davlat muzeyi muhtasham va hashamatli binoda joylashgan.

Foydalanish uchun so‘zlar: Muhtasham, qandil, zal, hashamatli, eksponat, yoritkich.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ... va ... binoda joylashgan.
... gumbazini yoritib turgan “Zumrad” deb nomlangan muazzam ...ning og‘irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta ... jamlangan.
Muzeyda bir qancha ...lar bo‘lib, u yerda turli xil ... lar bor.

Mustaqil ish
Temuriylar tarixi davlat muzeyiga virtual sayohat qiling va taassurotlaringizni yozing.

127

7. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 5-topshiriqda berilgan tushunchalar bo‘yicha “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” metodini qo‘llab og‘zaki suhbat o‘tkazing.

№	Ma’lumotlar	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri
1	Temuriylar tarixi davlat muzeyi Amir Temur tavalludining 600 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan.	Noto‘g‘ri
2	Muzey fondida faqat Amir Temur bilan bog‘liq eksponatlar mavjud.	Noto‘g‘ri
3	Muzey eksponatlari qo‘lyozma asarlar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me’moriy bezak qoplamalari, kitoblar, etnografik buyumlar va rasmlardan iborat.	To‘g‘ri
4	Eksponatlarning soni uch mingga yaqin.	To‘g‘ri

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 6-topshiriqni namunadagi kabi yozdiring.

Namuna:

Temuriylar tarixi davlat muzeyi *muhtasham* va *hashamatli* binoda joylashgan.

Moviy gumbazini yoritib turgan “Zumrad” deb nomlangan muazzam qandilning og‘irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta *chiroq* o‘rnatilgan.

Muzeyda bir qancha *bo‘lim*lar bo‘lib, u yerda turli xil *eksponat*lar bor.

10. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.


11. O‘quvchilarga Temuriylar tarixi davlat muzeyiga virtual sayohat qilish va taassurotlarini yozib kelishni topshiring.

9-MAVZU. NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI

DARSNING MAQSADI:

- Payt ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi. *Zarur, kerak, mumkin* modal so‘zlarini ishlata oladi.
- Joylar bilan bog‘liq otlar va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim?, nima?, qachon?, qayerda?, nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi).
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.
- Zarurat haqida gapira oladi (*“Doktorga borishim kerak”* singari).

VAZIFALAR:


NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI

Nobel mukofoti xalqaro nomzod taqdirlanmoq dunyoga tanilmoq

1. O'qing.

1895-yil 27-noyabrda shved kimyogari va muhandisi Alfred Nobel o'z mablag'larini xavfsiz qimmatli qog'ozlarga aylantirish va ulardan tushadigan foizlarni insoniyat uchun eng ko'p foyda keltiradigan ixtiro egalariga mukofot sifatida berilishini vasiyat qiladi.

Nobelning vasiyatiga ko'ra, har yilgi foyda besh qismga bo'linadi va millatidan qat'i nazar, fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot sohalarida olamshumul ixtiro qilgan, adabiyot va tinchlik ravnaqiga hissa qo'shgan insonlarga mukofot tariqasida beriladi. Sovrindorlarni taqdirlash marosimi esa 10-dekabrda, ya'ni Alfred Nobel vafot etgan sanada bo'lib o'tadi.

2. Savollarga javob bering.

1. Nobel mukofotini kim va nima maqsadda joriy qilgan?
2. Mukofot kimlarga beriladi?
3. Taqdirlash marosimi qachon bo'lib o'tadi?
4. Hozirga qadar Nobel mukofotini qo'lga kiritganlar soni qancha?
5. Siz qaysi yo'nalish bo'yicha Nobel mukofotini olishni istaysiz?

3. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

amaki	1879	fizika	laboratoriya
Tyurif	Nobel	1921	imtihon

128

1. Refleksiya. O‘quvchilarga o‘zlari yozib kelgan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga virtual sayohat taassurotlarini o‘qiting.

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchilarga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.

“Siz qanday xalqaro mukofotlar haqida eshitgansiz?” savoli bilan keyingi darsga kirish qiling.

2. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating.

Rasmlarda nimalarni ko‘ryapsiz?


Shu asosda suhbat uyushtiring.

3. 1-topshiriqda berilgan matnni “Zigzag” usulida o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriq asosida savol-javob o‘tkazing.

5. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Ernest oilasi bilan ko'l yoqasidagi uyga ko'chib borganda, otasi unga baliq ovlashni o'rgatdi.

1. Ernest oilasi bilan ko'l yoqasidagi uyga ko'chib borganda, … .
2. Eynshteyn Tyurif politexnikumini tamomlagach, … .
3. Direktor sinfga kirgan paytda … .
4. Onam ovqat pishirguncha, … .
5. Maktab kimyo xonasida laboratoriya izlanishlari o'tkazgan vaqtda, … .

5. O'ylang, toping, yozing.

1. Ernest Heminguey. Adabiyot, AQSH, 21.07.1899
2. Albert Eynshteyn. Fizika. Germaniya, 14.03.1879
3. Kofi Annan. Tinchlik. Gana, 08.04.1938
4. Fransuaza Barre-Sinussi. Tibbiyot. Fransiya, 30.07.1947
5. Emmanuel Sharpantye. Kimyo. Fransiya, 11.12.1968

1. Kim? (Shaxsga so'roq)
2. Nima? (Narsa-buyumga so'roq)
3. Qachon? (Paytga so'roq)
4. Qayerda? (O'rin-joyga so'roq)
5. Nima uchun? (Sabab-maqsadga so'roq)

Namuna:
1. Ernest Heminguey – yozuvchi.
2. Bir qancha asarlar muallifi.
3. 1899-yil 21-iyulda tug'ilgan.
4. AQSHda tavallud topgan.
5. Insoniy mardlik tasvirlangan asarlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Mustaqil ish
Nobel mukofoti sovrindorlaridan biri haqida uchta ma'lumot yozing.

129

ALBERT EYNSHTEYN

1921-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan Albert Eynshteyn 1879-yilning 14-mart sanasida Avstriyaning Ulm shahrida tavallud topgan. Albert Eynshteyn besh yoshlik paytida unga kompas sovg‘a qilishgan. Yosh Albert ushbu ajoyib narsaning xususiyatlaridan hayratlanib, butun kelajak hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli chiziqlar olamiga sho‘ng‘ib ketgan.

Albert ko‘p vaqtini amakisi Yakob bilan o‘tkazadi. Amakisi uni aniq fanlar, xususan, matematika, geometriya kitoblari bilan tanishtiradi, biroq Albertning onasi bunga qarshi bo‘lgan. Uning nazarida besh yoshli bolaning aniq fanlar bilan shug‘ullanishiga hali erta bo‘lgan.

Katta bo‘lgach, uning maqsadi Syurixdagi oliy texnika o‘quv yurtiga, ya’ni Tyurif politexnikumiga o‘qishga kirish bo‘lgan, biroq dastlabki urinishda Eynshteyn imtihonlardan o‘ta olmagan. Uning bir necha fanlardan o‘tkazilgan imtihonlardagi bahosi qoniqarsiz bo‘lgan. Auraudagi maktabga qatnab, o‘qish davomida avvalgi imtihonda o‘ziga yetishmagan bilimlarni qaytadan mukammal o‘zlashtirib, puxta tayyorgarlik ko‘radi va keyingi imtihonda Syurix politexnikumining talabasiga aylanadi. Politexnikumda ta’lim ola boshlagan dastlabki yildayoq Eynshteyn ko‘p vaqtini mazkur ilmiy dargohning yaxshi jihozlangan fizika laboratoriyasida o‘tkaza boshlagan. U injiq va o‘ta qiziquvchan talaba bo‘lgan. U darslardan tashqari vaqtini asosan yo laboratoriyada, yoki kutubxonada o‘tkazgan. Ko‘pincha u mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha kursdoshlaridan o‘zib ketib, asosan mustaqil izlanishlar bilan band bo‘lgan. Eynshteyn Syurix politexnikumini tamomlagach, unga fizika va matematika o‘qituvchisi diplomi topshirilgan.

Albert Eynshteynning qator ajoyib ilmiy maqolalari chop etilgan. U aynan o‘sha yillarda o‘zining olamshumul maqolalarini yozgan va yetuk nazariyotchi fizik sifatida dunyoga tanilgan. Mazkur maqolalar nafaqat Yevropa, balki butun dunyo ilm-fanida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan. Eynshteynning fizika solnomalariga bergan maqolalarining birida olimni butun olamga mashhur qilgan olamshumul maxsus nisbiylik nazariyasi bayon qilingan edi. Mazkur maqoladan so‘ng Eynshteynning ilm-fan olamidagi obro‘yi cheksiz ortib ketgan. Eynshteynni ko‘p marotaba Nobel mukofoti nomzodligiga ilgari surishgan, biroq 12 yil davomida mukofot boshqa olimlarga nasib etib kelgan. Shunday bo‘lsa-da, 1921-yil qo‘mita Albert Eynshteynga Nobel mukofotini berishga qaror qilgan. Olim ushbu mukofotni nisbiylik nazariyasi uchun olish istagida bo‘lganiga qaramay, uni fotoeffekt nazariyasi uchun berishgan.

6. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni bajartiring.

Namuna:

Amaki

Albert ko‘p vaqtini amakisi Yakob bilan o‘tkazadi. Amakisi uni, aniq fanlar, xususan, matematika, geometriya kitoblari bilan tanishtiradi.

1879

Albert Eynshteyn 1879-yilning 14-mart sanasida Avstriyaning Ulm shahrida tavallud topgan.

Fizika

Eynshteyn ko‘p vaqtini mazkur ilmiy dargohning yaxshi jihozlangan fizika laboratoriyasida o‘tkaza boshlagan.

Laboratoriya
U darslardan tashqari vaqtini asosan yo laboratoriyada, yoki kutubxonada o‘tkazgan.

7. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 4-topshiriqni namunadagidek bajartiring. Bunda o‘quvchilar qo‘shma gapni davomini o‘zlari istagandek, mazmunga mos ravishda davom ettiradilar.

8. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 5-topshiriqni namunadagi kabi bajartiring.
O‘quvchilarning diqqatini suratlarga qarating.
Suratda kimlarni ko‘rib turibsiz? Bu tarixiy shaxslarni birlashtirib turgan narsa nima?
So‘roqlari:
1. Kim? *(Shaxsga so‘roq)*
2. Nima? *(Narsa-buyumga so‘roq)*
3. Qachon? *(Paytga so‘roq)*
4. Qayerda? *(O‘rin-joyga so‘roq)*
5. Nima uchun? *(Sabab-maqsadga so‘roq)*
Namuna:
1. Ernest Heminguey – yozuvchi.
2. Bir qancha asarlar muallifi.
3. 1899-yil 21-iyulda tug‘ilgan.
4. AQSHda tavallud topgan.
5. Insoniy mardlik tasvirlangan asarlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

9. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.
O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilrga “3 ta fakt” metodi asosida Nobel mukofoti sovrindorlaridan biri haqida uchta ma’lumot yozib kelishni topshiring.

10-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.


VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga Nobel mukofoti sovrindorlari haqida o‘zlari yozib kelgan ma’lumotlarni o‘qiting.
Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidgai savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:
Nobel mukofoti qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha berilishini bilasizmi?
Adabiyot yo‘nalishida Nobel mukofotini olgan qanday yozuvchilarni bilasiz?
O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Ernest Hemingueyning Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan “Chol va dengiz” asaridan parcha o‘qishni ta’kidlang.

3. Ernest Heminguey va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Ernest Heminguey – amerikalik yozuvchi. 1917-yildan Kanzas-Sitida jurnalist-reportyor sifatida ish boshlagan. Dastlabki hikoyalar kitobi – “Bizning zamonda” (1924). “Quyosh chiqadi” (1926, inglizcha nashrlarda “Fiesta” nomi bilan chop etilgan),“Alvido, qurol!” (1929) romanlarida urushning bemisl matniqsizliklari, inson haq-huquqlari, erkiga tajovuz, shu bilan birga, insoniy mardlik, qadr-qimmat va muhabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligi yorqin ifodalangan. “Peshindan keyingi o‘lim” (1932), “Afrikaning yashil tepaliklari” (1935), “G‘olibga bayroq berilmaydi” (1933) “Ho‘kizning shoxi”, “Frensis Makomberning baxti”, “Kilimanjaro qorlari” (1936) hikoyalari, “To‘qchilik va yo‘qchilik” (1937) romanlarini yozgan.



ADABIY O‘QISH

“CHOL VA DENGIZ”

asaridan parcha

Bola qaytib kelganda kun botgan, chol esa kursida o‘tirganicha uyquga ketgan edi. Bola karavotdan eski askar adyolini olib, kursi suyanchig‘i aralash cholning yelkasini yopib qo‘ydi. Bu yelkalar cholning keksayib qolganiga qaramasdan zabardast, bo‘yni ham undan qolishmaydigan darajada baquvvat va hozir, chol boshini ko‘kragiga solintirib uxlagan tobda ajinlari ham u qadar ko‘zga tashlanmas edi. Uning ko‘ylagi ham xuddi yelkaniday qirq yamoq bo‘lib ketgan, yamoqlar quyosh taftidan ola-bula tusga kirgan edi. Ammo cholning yuzi harqalay ancha qarimsiq bo‘lib qolgan va hozir ko‘zlari yumilib, uyquga ketganda xuddi jonsizga o‘xshab ko‘rinardi. Cholning tizzasida uchib ketmasin deb tirsak bilan bosib olingan gazeta yotardi. U oyoqyalang edi. Bola uni uyg‘otib o‘tirmay, chiqib ketdi, qaytib kelganda chol hamon uyquda edi.

– Tur! – uyg‘otdi uni bola va qo‘lini cholning tizzasiga qo‘ydi. Chol ko‘zini ochdi va bir muddat qayerdandir, juda uzoqlardan qaytayotganday bo‘lib turdi. Keyin u jilmaydi.

– Nima olib kelding? – Yegulik keltirdim. Hozir ovqatlanamiz.

– Hali uncha ochiqqanim ham yo‘q.

– Kelsang-chi endi, och qoringa baliq ovlab bo‘larmishmi?

– Ba’zan shunday ham bo‘lgan, – dedi chol o‘rnidan qo‘zg‘alarkan, gazetani taxlay turib, adyolini yig‘ishtira boshladi.

– Adyolni yig‘ishtirma, – dedi bola. – Men tirik ekanman, ovqatlanmasingdan turib, seni baliq ovlashga qo‘ymayman.

– Unday bo‘lsa, dard ko‘rmagin, umring uzoq bo‘lsin, – dedi chol...

Savollarga javob bering.

1. Chol va bola munosabatini qanday izohlaysiz?
2. Ular qayerga otlanmoqda?
3. Bola cholga nima uchun mehribonchilik qiladi?
4. “Inson mag‘lubiyatga uchrash uchun yaratilgani yo‘q. Insonni yo‘q qilib tashlash mumkin, ammo uni aslo yengib bo‘lmaydi!” Muallifning bu fikrini qanday tushunasiz?

130

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

“CHOL VA DENGIZ”

asardan parcha

Bola qaytib kelganda kun botgan, chol esa kursida o‘tirganicha uyquga ketgan edi. Bola karavotdan eski askar adyolini olib, kursi suyanchig‘i aralash cholning yelkasini yopib qo‘ydi. Bu yelkalar cholning keksayib qolganiga qaramasdan zabardast, bo‘yni ham undan qolishmaydigan darajada baquvvat va hozir, chol boshini ko‘kragiga solishtirib uxlagan tobda ajinlari ham u qadar ko‘zga tashlanmas edi. Uning ko‘ylagi ham xuddi yelkaniday qirq yamoq bo‘lib ketgan, yamoqlar quyosh taftidan ola-bula tusga kirgan edi. Ammo cholning yuzi harqalay ancha qarimsiq bo‘lib qolgan va hozir ko‘zlari yumilib, uyquga ketganda xuddi jonsizga o‘xshab ko‘rinardi. Cholning tizzasida uchib ketmasin deb tirsak bilan bosib olingan gazeta yotardi. U oyoqyalang edi. Bola uni uyg‘otib o‘tirmay, chiqib ketdi, qaytib kelganda chol hamon uyquda edi.

– Tur! – uyg‘otdi uni bola va qo‘lini cholning tizzasiga qo‘ydi. Chol ko‘zini ochdi va bir muddat qayerdandir, juda uzoqlardan qaytayotganday bo‘lib turdi. Keyin u jilmaydi.

– Nima olib kelding?

– Yegulik keltirdim. Hozir ovqatlanamiz.

– Hali uncha ochiqqanim ham yo‘q.

– Kelsang-chi endi, och qoringa baliq ovlab bo‘larmishmi?

– Ba’zan shunday ham bo‘lgan, – dedi chol o‘rnidan qo‘zg‘alarkan, gazetani taxlay turib, adyolini yig‘ishtira boshladi.

– Adyolni yig‘ishtirma, – dedi bola. – Men tirik ekanman, ovqatlanmasingdan turib, seni baliq ovlashga qo‘ymayman.

– Unday bo‘lsa, dard ko‘rmagin, umring uzoq bo‘lsin, – dedi chol...

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Chol va bola munosabatini qanday izohlaysiz?
2. Ular qayerga otlanmoqda?
3. Bola cholga nima uchun mehribonchilik qiladi?
4. “Inson mag‘lubiyatga uchrash uchun yaratilgani yo‘q. Insonni yo‘q qilib tashlash mumkin, ammo uni aslo yengib bo‘lmaydi!” Muallifning bu fikrini qanday tushunasiz?

6. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

ENSIKLOPEDIYA (24 SOAT)
TABIAT QONUNI
1-MAVZU. TABIAT VA INSON

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar bilan bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “So‘zli tasavvur” metodidan foydalaning.


O‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling.

O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.

Birorta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi.

O‘quvchilarga yozgan so‘zlarini o‘qittiring.

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, gaplar noto‘g‘ri shakllantirilsa, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.


TABIAT QONUNI

TABIAT VA INSON

1. “Insert” usulida o‘qing.

№	Ma’lumotlar	V, +, –, ?
1	Odam tabiat qonunlarini o‘zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib tabiat elementlarini, qismlarini o‘zgartirishi mumkin.	
2	Tabiat va jamiyat – bir-biri bilan chambarchas bog‘langan yaxlit borliqning ikki bo‘lagi.	
3	Tabiat odamga, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatga bo‘ysunadi.	
4	Tabiatdagi barqarorlik *tabiiy* yoki *ekologik muvozanat* deb ataladi. Tabiiy muvozanatning izdan chiqishi tabiatning buzilishi demakdir.	
5	Insoniyatning tabiatdan tashqarida mavjud bo‘lishi imkonsiz.	

DIQQAT QILING

Agar ... -sa, ...

tabiat jamiyat inson qonuniyat muvozanat bo‘ysunmoq o‘zgartirmoq


2. O‘ylang va toping. yozing.

Namuna:
Agar tabiat yo‘qolsa, biz ham yo‘qolamiz.

Tabiatning hech kimga bo‘ysunmaydigan qonunlari bor.
Xulqlarning barchasi o‘z **tabiati** bilan go‘zal.

1) Agar tabiat yo‘qolsa, biz ham yo‘qolamiz.
2) Agar_____sa, _____.
3) Gar_____sa_____.
4) Agar_____sa, _____sa,_____.
5) (Agar)_____sa, _____.

132


3. Tinglang.

4. Savollarga javob bering.

1. O‘tgan asrning oltmishinchi yillarida Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda nechanchi o‘rinda turar edi?
2. Orol dengizining qurishiga asosiy sabablar nima?
3.Orolning qurib borishi iqlimga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

№	Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Ko‘rilgan chora-tadbirlar	Sizning taklifingiz?
1	Havoning ifloslanishi	Avtomobillardan chiqadigan gaz va turunlar, sanoatlarning yoqilishi		
2	Ichimlik suvning kamayishi		Tomchilab sug‘orish amaliyotining joriy qilinishi	
3	Qurg‘oqchilik			Sun’iy bulut asosida yomg‘ir yog‘dirish

Mustaqil ish
“Tabiiy muvozanat” mavzusida faktlarga asoslangan qisqa matn yozing.

133

2. U joyda tasvirlangan hodisalar haqida suhbatlashing.

3. Berilgan matnni insert usulida o‘qiting.

Insert bu – o‘quv jarayonida o‘zini anglashni faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir. Bunda o‘quvchi matnlar yoniga turli belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

V – bilganlarimni tasdiqlaydi.
+ – yangi axborot.
- – bilganlarimga zid keladi.
? – meni o‘ylantirib qo‘ydi.

4. “Diqqat qiling!” ruknida shart ergash gapli qo‘shma gaplar haqida ma’lumot berib o‘ting.

Shart ergash gaplar bosh gapda anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan yuzaga kelganini, yuzaga kelishi mumkinligini bildiradi. Shart ergash gapning asosiy grammatik belgisi uning kesimining shart fe’li orqali ifodalanishidir.

Agar ... -sa, ...

Agar bu qumlar orasida adashilsa, umr bo‘yi yurib ham chiqib ketib bo‘lmaydi.

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va grammatik bilimlarini mustahkamlash uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida nuqtalar o‘rniga sodda gaplar qo‘yib yozishni doskada yozib tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

“Tabiat” so‘zining ma’no farqlariga to‘xtash orqali uni o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bunda “O‘zbek lug‘ati”da O‘zbek tilining izohli lug‘atida tabiat ko‘p ma’noli so‘zining ma’no farqlariga e’tibor qaratiladi. Lug‘atda bu so‘zning 9 ta ma’nosi keltirilgan bo‘lib, bu yerda birinchi – “butun mavjudotni o‘z ichiga olgan olam, borliq”

ma’nosi hamda beshinchi – “inson ruhiyatiga xos asosiy, turg‘un xususiyatlar majmui; xarakter, fe’l” kabi ma’nolari nazarda tutiladi.

Tabiatning hech kimga bo‘ysunmaydigan qonunlari bor.

Xulqlarning barchasi o‘z tabiati bilan go‘zal.

1. Agar tabiat yo‘qolsa, biz ham yo‘qolamiz.

2. Agar Orol qurisa, insoniyatga katta zarar keltiradi.

3. Agar havoda tuz va chang miqdori ko‘paysa, turli kasalliklar kelib chiqadi.

4. Agar tuproqda tuz ko‘paysa, chang bo‘roni kuzatilsa, insonlarning hayotiga xavf kuchayadi.

5. (Agar) tuproqda tuz ko‘paysa, hosildorlik ham kamayib ketadi.

6. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Orol dengizi – O‘rta Osiyoda joylashgan yopiq suv havzasi. Shimoldan Qozog‘iston, janubdan Qoraqalpog‘iston yerlari bilan o‘ralgan. Orol dengizi 1960-yillargacha dunyodagi eng katta dengiz (ko‘l)lardan biri hisoblangan. Orolbo‘yida baliqchilik, ovchilik, suv transporti kabi sohalar rivojlangan edi. Bu dengiz 60-yillarda dunyoda kattaligi jihatidan 4-o‘rinda turgan. Shu yillardan boshlab Orol dengizi qurishni boshlaydi. Orolga keladigan suvlar qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgandan keyin suv kelmay qoladi. Insonning aralashuvi natijasida u qurishni boshlaydi. 1998-yilga kelib Orol kattaligi jihatidan 8-o‘ringa tushib qoladi. Dengiz qurishi natijasida tabiatga, jamiyatga, hayvonlarga zarar yetdi. Endi yoz quruqroq va issiqroq, qish esa yanada sovuq bo‘lib qoldi. Suv o‘z o‘rnini tuzlar, zaharli kimyoviy moddalarga bo‘shatib bermoqda. Bu esa o‘z navbatida turli kasalliklarni keltirib chiqardi.

Ayni paytda Orol masalasi global muammo sifatida butun dunyo olimlari tomonidan o‘rganilmoqda. Orolni saqlab qolish uchun choralar ko‘rilmoqda. Hozirda qurish jarayoni avvalgiga qaraganda sekinlashgan.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, oqilona foydalanish faqat tabiatni muhofaza qilish organining ishi emas. Balki bachamizning ona tabiatga bo‘lgan farzandlik burchimizdir

7. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkazing.

1. O‘tgan asrning 60-yillarida Orol kattaligi jihatidan nechanchi o‘rinda turar edi?

2. Orol dengizining qurishiga asosiy sabablar nima edi?

3. Orolning qurib borishi iqlimga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

8. Yuqorida tinglangan matn asosida “Muammoli ta’lim” metodi bilan jadvalni to‘ldirishni topshiring.

Yakka, juftliklarda va kichik guruhlarda ishlash mumkin. Bunda har bir guruhga boshqa-boshqa muammolar topshiriq sifatida berilishi mumkin. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashlariga e’tibor qaratish kerak.

№	Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Ko‘rilgan chora-tadbirlar	Sizning taklifingiz
1	Havoning ifloslanishi	Avtomobillardan chiqadigan gaz va tutunlar, xazonlarning yoqib yuborilishi	Elektromobillarni ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish	Havo tozalaydigan katta-katta moslamalarni ishlab chiqarish va shahar hamda qishloqlarning turli joylariga o‘rnatish
2	Ichimlik suvining kamayishi		Tomchilatib sug‘orish amaliyotining joriy qilinishi	

3	Qurg‘oqchilik	Global iqlim o‘zgarishi		Sun’iy bulut asosida yomg‘ir yog‘dirish

9. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.
Men albatta qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.
O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

10. O‘quvchilarga mustaqil ish uchun “Tabiiy muvozanat” mavzusida qisqa faktologik matn yozish topshiriladi.

1. Tabiat nima?
2. Inson va tabiatning qanday bog‘liqligi bor?
3. Tabiatning qanday qonunlarini bilasiz?
4. Inson tabiatga qanday ta’sir qilishi mumkin?
5. Inson tabiat qonunlarini o‘zgartira oladimi?
6. Tabiiy muvozanat deganda nimani tushunasiz?

2-MAVZU. YIL FASLLARI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladi.
- Sabab va oqibatlar haqida gapira oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan “Tabiiy muvozanat” matnini o‘qiting. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

“Fasllarning qaysi xususiyati sizga yoqadi?” savoli bilan yangi mavzuga kirish qilasiz.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi. Bunda Quyosh, Yer, yil, fasl, kun, tun, aylanmoq, harakat qilmoq, almashmoq kabi ot va fe’llarning ma’nolariga diqqat qaratiladi.

3. O‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirish uchun topshiriqda berilgan ma’lumotlar birlashtiriladi. O‘quvchilar daftarlariga namunadagidek qilib yozadilar. O‘qituvchi qo‘shimcha savollar yoki fikrlar ham kiritishi mumkin.

1. Kuzda quyosh nurlari borgan sari qiyaroq tushadi, harorat pasayadi.
2. Yozda yilning eng uzun kuni kuzatiladi.
3. Bahorda havo iliqlashadi, o‘simliklar uyg‘ona boshlaydi va gullaydi.
4. Qishda yilning eng qisqa kuni kuzatiladi, daraxtlar o‘sishdan to‘xtaydi.

4. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *Yer o‘qi, qiya tushmoq, pasaymoq, kuzatilmoq.*

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida nuqtalar o‘rniga sodda gaplar qo‘yib yozishni doskada yozib tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.


Foydalanish uchun so‘zlar: *ikki xil, yil fasllari, bahor, kuz, kun, yoz, tun, qish.*

1. Yer asosan ikki xil harakatlanadi.
2. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishidan kun va tun paydo bo‘ladi.
3. Yerning Quyosh atrofida aylanishidan yil fasllari vujudga keladi.
4. Yil fasllari – bahor, yoz, kuz va qish.

6. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

O‘rik gullaganda
(Hamid Olimjon)

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...
Novdalarni bezab g‘unchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.
Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham, u beor
Yellar meni aldab ketadi.
Mayli deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman,
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so‘rayman.
Yuzlarimni silab-siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.
Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
Men yurganda, bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:
“Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.
Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...”
Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...



YIL FASLLARI

1. O‘qing.

Yil fasllari

Bir yilda Yer sayyorasi Quyosh atrofida deyarli milliard kilometr masofani bosib o‘tadi. Yer o‘qi orbitaga nisbatan biroz qiyaroq joylashgan. Shu tufayli Quyosh yil mobaynida Shimoliy va Janubiy yarimsharlarni turli kuch bilan isitadi. Bizning kengliklarimizda to‘rt fasl (bahor, yoz, kuz, qish)ning mavjudligiga asosiy sabab shu.
Qish. Qish – yilning eng sovuq fasli. 22-dekabr – yilning eng qisqa kuni.
Bahor. Havo iliqlashadi. O‘simliklar uyg‘ona boshlaydi va gullaydi.
Yoz. Bu faslda yilning eng uzun kuni kuzatiladi va u 16 soatcha davom etadi.
Kuz. Bu faslda quyosh nurlari borgan sari qiyaroq tushadi, harorat pasayadi, daraxt barglari sarg‘ayib, to‘kila boshlaydi.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Bahorda havo iliqlashadi. O‘simliklar uyg‘ona boshlaydi va gullaydi.

1. Quyosh nurlari borgan sari qiyaroq tushadi. Harorat pasayadi.
2. Yilning eng uzun kuni shu faslda kuzatiladi.
3. Havo iliqlashadi. O‘simliklar uyg‘ona boshlaydi va gullaydi.
4. Bu faslda yilning eng qisqa kuni kuzatiladi. Daraxtlar o‘sishdan to‘xtaydi.


A) bahorda
B) kuzda
C) qishda
D) yozda

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: ikki xil, yil fasllari, bahor, kuz, kun, yoz, tun, qish.

Yer asosan … harakatlanadi.
Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishidan … va … paydo bo‘ladi.
Yerning quyosh atrofida aylanishidan … vujudga keldi.
Yil fasllari –…, …, … va ….

134



4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. She’r qaysi payt tasviri bilan boshlangan?
2. “Bahor” so‘zi bilan qaysi so‘z uyg‘unlikda ishlatiladi? Nega?
3. “G‘uncha” va “novda” so‘zlarini qanday tushunasiz?
4. “Shamol” so‘zining qanday sinonimlari ishlatilgan?

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

№	Manzil	Ob-havo	Nima kiyasiz?
1	Rossiya	qorli	
2	Hindiston	yomg‘irli	
3	Misr	issiq	
4	Angliya	mo‘tadil	

Mustaqil ish
Tengkunlik, eng uzun kun, eng uzun tun, yaldo kechasi tushunchalarini izohlang.

135

7. Tinglash uchun berilgan matn asosida quyidagi savollarga javob berish orqali tinglab tushunish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

1. She’r qaysi payt tasviri bilan boshlangan?
2. Qaysi so‘zlar bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlatiladi? Nega?
3. *G‘uncha* va *novda* so‘zlarini qanday tushunasiz?
4. *Shamol* so‘zining qanday sinonimlari ishlatilgan?

8. 5-topshiriq asosida o‘quvchilarda ob-havoga mos kiyinish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Bu topshiriq og‘zaki bajariladi

Rossia qorli: palto, etik kabi qalin va issiq kiyimlar kiyiladi.

Hindiston yomg‘irli: yomg‘irpo‘sh kiyish va soyabon olish lozim.

Misr issiq: yengil, havo o‘tkazadigan kiyimlar, quyoshdan himoya qiluvchi boshkiyim va qora ko‘zoynak kerak bo‘ladi.

Angliya mo‘tadil: o‘zimizga qulay bo‘lgan kostyum, ko‘ylak, botinka, tufli kabi kiyimlar kiyiladi.

9. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga tengkunlik, eng uzun kun, eng uzun tun, yaldo kechasi tushunchalarini izohlab yozib kelishni topshiring.

3-MAVZU. TABIATDA SUVNING AYLANISHI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladi.
- Sabab va oqibatlar haqida gapira oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan tengkunlik, eng uzun kun, eng uzun tun, yaldo kechasi tushunchalari yozib kelgan izohlarini o‘qittiring. Mustaqil ishni bajargan o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

“Tabiatda suvning qanday aylanishi haqida bilasizmi?“ Savoli bilan yangi mavzuga kirish qiling.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


TABIATDA SUVNING AYLANISHI

1. Bug‘lanish. Yer sathidagi suv quyosh ta’sirida isiganida bug'ga aylanadi va havoga ko‘tariladi. Bu suv bor hamma joyda sodir bo‘ladi.

2. Kondensatsiya. Havodagi suv bug'lari ko‘tarilib, atmosferaning yuqori qatlamlariga yetganida, soviydi, zichlashadi, natijada suyuqlikka aylanadi. Suvning bu mayda tomchilari havodagi chang zarrachalarida osilib turadi va bulutni hosil qiladi.

3. Yog'ingarchiliklar. Bulutlardagi suv tomchilari birga kondensatsiya bo‘ladi. Natijada ular yerga yog'ingarchilik ko‘rinishida – yomg'ir, nam qor, qor va do‘l bo‘lib tushadi.

4. Suv ko‘chishi. Yog‘ingarchilik ko‘rinishida suv yana Yer sathiga tushadi. Suvning qaysidir qismi pastga oqib, ko‘l, dengiz yoki daryolarga tushadi. Boshqa qismi yerga singib, o‘simliklar ichadigan yoki tuproqdan o‘tib okeanga qo‘shiladigan sizot suvga aylanadi. Shu yerdan suv aylanishi yana boshlanadi


TABIATDA SUVNING AYLANISHI

1. Tinglang.

suv
bug‘
yog‘in
yog‘ingarchilik
sizib o‘tmoq
bug‘lanmoq
aylanmoq

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Suv tomchilarining birikishidan yomg‘ir tomchilari hosil bo‘ladi.

1. Suv tomchilarining birikishidan hosil bo‘ladi.
2. Suv zarralarining chang zarralariga osilib turishidan hosil bo‘ladi.
3. Yer sathidagi suvni bug‘ga aylantiradi.
4. Yomg‘ir tomchilarining sovuq atmosfera qatlamidan o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi.
5. Qora bulutlardan yog‘adigan siqiq muz parchasi.

3. O‘ylang va toping. Yozing.

Suv:
1) muzlaydi
2) .....
3) .....
4) .....
5) .....

1. Agar suv muzlasa, qattiq jism holatiga o‘tadi.
2. ... .
3. ... .
4. ... .
5. ... .

136


4. O‘qing.

Sayyoramizdagi jami suv manbaining 98 foizga yaqinini sho‘r suv, faqat 2 foizdan sal oshig‘ini chuchuk suv tashkil etadi. Shuning uchun ham suvni tejash kerak.
Suv jo‘mraklarining yaxshi yopilganiga e’tibor bering.
Idishlarni yuvayotganingizda jo‘mrakni ochib qo‘ymang. Ularni tog‘oraga suv solib yuving.
Yuvinganda ham suvni tejang. Sovunlanayotgan paytingiz esa umuman suvni o‘chirib qo‘ysangiz bo‘ladi.
Tishlarni yuvish uchun bir stakan suv yetarli. Tishlarni tozalab bo‘lguncha suvni ochib qo‘ymang. Suvni ikki marta ishlatishni o‘rganing.
Mevalarni biroz idishdagi suvda chayib olganingizdan keyin ishlatilgan suvni to‘kmasdan xonaki gullarga quyish mumkin.

5. O‘ylang va toping. Gapiring. Mumkin / mumkin emas.

Mustaqil ish
Ekinlarni tomchilatib sug‘orish bo‘yicha o‘z loyihangizni yarating.

137

3. Tinglab tushunish malakasini aniqlash uchun berilgan ma’lumotlar rasmlar bilan moslashtiriladi va va gap tuzib, namunadagidek yozadilar.

1. Suv tomchilarining birikishidan yomg‘ir hosil bo‘ladi.
2. Suv zarralarining chang zarralariga osilib turishidan bulut hosil bo‘ladi.
3. Quyosh Yer sathidagi suvni bug‘ga aylantiradi.
4. Yomg‘ir tomchilarining sovuq atmosfera qatlamidan o‘tishi natijasida qor hosil bo‘ladi.
5. Qora bulutlardan yog‘adigan siqiq muz parchasi do‘l deyiladi.

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qaratting. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *bug‘, yog‘in, yog‘ingarchilik, sizib o‘tmoq, bug‘lanmoq, aylanmoq.*

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Dastlab suv bilan bog‘liq fe’llar yoziladi va ular ishtirokida gaplar tuziladi.

Suv: muzlaydi, oqadi, eriydi, bug‘lanadi.

1. *Muzlaydi.*
Agar suv muzlasa, qattiq jism holatiga o‘tadi.
2. *Oqadi.*
Soylarda suv shiddat bilan oqadi.
3. *Eriydi.*
Bahor kelishi bilan qorlar va muzlar eriydi.
4. *Bug‘lanadi.*
Kunlar isishi bilan suvlar bug‘lanib, yuqoriga ko‘tarilishi haqida kitoblarda o‘qigandim.

6. 4-topshiriqda berilgan matnni “Soat strelkasi” usulida o‘qiting. Bunda o‘quvchilar doira shaklida turib oladilar. O‘rtada bir o‘quvchi strelka vazifasini bajarib turadi. Shu o‘quvchi qo‘li bilan kim o‘qishini ko‘rsatib turadi. U qo‘li bilan ishora qilgan o‘quvchi matnni qolgan joyidan davom ettirib ketadi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

7. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qaratasiz?

- Bu rasmlarda nimani ko‘ryapsiz? Bu holatlardan qaysi mumkin/mumkin emasligi haqida og‘zaki suhbat uyushtiring.

1. Jo‘mrakdan oqib turgan xom suvni iste’mol qilish mumkin emas.
2. Meva va sabzavotlarni alohida idishga suv solib yuvish mumkin.

3. Idish-tovoqlarni alohida idishga suv solib yuvish mumkin.
4. Xona gullariga xona haroratidagi 22–24°C li suv quyish mumkin.
5. Quvurlardan kelayotgan har xil chiqindi va yaroqsiz suvlarni ochiq suv havzalariga oqizish mumkin emas.
6. Meva va sabzavotlar ustiga jo‘mrakdan suv oqizib qo‘yish mumkin emas.
7. Ekinlarni tomchilatib sug‘orish mumkin.
8. Yuz-qo‘l yuvayotganda suvni juda ko‘p oqizib qo‘yish mumkin emas.

8. Refleksiya. “O‘zimga qaytar” metodi asosida o‘quvchilarga o‘tilgan darsda qo‘llangan bittadan so‘zni tezlik bilan yozishni topshiring. 1-qator yozganini o‘qigandan keyin 2-qatordagilar shu so‘zlarni yoddan aytishlari kerak, 2-qatordagilar o‘qiganlarini 3-qatordagilar yoddan aytib beradilar. Shu tarzda sinfda so‘zlarning spiralsimon takrori amalga oshadi.


9. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida ekinlarni tomchilatib sug‘orish bo‘yicha o‘z loyihasini yaratishni topshiring.

4-MAVZU. TABIAT HODISALARI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi.
- Sabab va oqibatlar haqida gapira oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:


TABIAT HODISALARI
1. O‘ylang va toping. Yozing.
Namuna:
1 – shamol, ...
1) shamol
2)...
3)...
4)...
5)...
6)...
7)...
8)...
9)...
2. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.
№ | Ta’rif | Ha/yo‘q
1 | Chaqmoq va momaqaldiroq – bir xil tabiat hodisasi. |
2 | Momaqaldiroq – tovush hodisasi. |
3 | Bu ikki hodisa bir paytda ro‘y beradi. |
4 | Tovush tezligi yorug‘lik tezligidan yuqori. |
tabiat hodisalari
chaqmoq
momaqaldiroq
paydo bo‘lmoq
gumburlamoq
138

1. Refleksiya. O‘quvchilar ekinlarni tomchilatib sug‘orish bo‘yicha yaratgan loyihalarini taqdim qiladilar. Mustaqil ishni “Intervyu” metodi orqali ham tekshirish mumkin. Vazifaga ijodiy va faktlar bilan yondashgan o‘quvchilar alohida e’tirof etiladi.

“Qanday tabiat hodisalarini kuzatgansiz?” Sizga qaysi biri yoqadi? savollari bilan yangi mavzuga kirish qilasiz.

2. O‘quvchilar berilgan rasmlarni kuzatadilar va tabiat hodisalarini nomlarini yozadilar.

1) shamol; 2) yomg‘ir; 3) qor; 4) kamalak; 5) shudring; 6) tuman; 7) chaqmoq; 8) jala; 9) bo‘ron.


3. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qaratting. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tabiat hodisalari, chaqmoq, momaqaldiroq, paydo bo‘lmoq, gumburlamoq.*

4. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Barchangiz momaqaldiroq ovozi va chaqmoqning chaqishini kuzatgansiz.

Chaqmoq va momaqaldiroq bular – ikki xil tabiat hodisalaridir. Agar chaqmoq elektr razryadlarining kuchli yorug‘ligi bo‘lsa, momaqaldiroq akustik hodisa sanaladi. Chaqmoq chaqishidan so‘ng uning ovozi keyinroq yetib keladi. Bu ovoz momaqaldiroq hodisasi deyiladi. U chaqmoq tufayli razryad atrofidagi havoning bir lahzada ming darajagacha isib ketishidan “gumburlaydi”. Bu ikkita hodisa aynan bir paytning o‘zida ro‘y bersa-da, bizga go‘yo chaqmoq chaqqach, momaqaldiroq gumburlagandek tuyuladi. Yorug‘lik tezligi tovush tezligidan ancha yuqori ekanini yodga olsak, hammasi oydinlashadi. Chaqmoq chaqishi va momaqaldiroq ovozining quloqlarimizga yetib kelishiga qarab, chaqmoq hodisalarining Yerdan qancha balandlikda sodir bo‘lganini bilishimiz mumkin. Masalan, chaqmoq chaqnashidan so‘ng 6 sekund oraliqda momaqaldiroq ovozi eshitilsa, chaqmoq 2 km balandlikda kuzatilgan bo‘ladi


3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Qor gupullab yog'moqda.

1. Qor	1. Charaqlaydi	1) ... gupullab ....
2. Yomg'ir	2. Gumburlaydi	2) osmonda ....
3. Quyosh	3. Suzadi	3) mayin ....
4. Momaqaldiroq	4. Tomchilaydi	4) birdan ....
5. Shudring	5. Chaqadi	5) qattiq ....
6. Bulut	6. Yog'adi	6) tongda ....
7. Chaqmoq	7. Tushadi	7) yozda ....

4. O'qing.

KAMALAK

Yomg'irdan keyin osmonda ko'rinadigan rangli yoy *kamalak* deb ataladi. U nam havo tarkibidagi yomg'ir tomchilari orasidan quyosh nurining o'tishi natijasida paydo bo'ladi. Bu jarayonda quyosh nuri yetti xil rangda tovlanadi: qizil, olovrang, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsharang. Kamalakda har bir rang o'zining qat'iy o'rniga ega.

Psixologiya fanida esa ranglar ramziy ma'noda quyidagi tushunchalarni anglatadi:

Qizil: hayotning ramzi. Olovrang: g'ayrat va quvonchni anglatadi. Sariq: ilhom va ijodkorlikni uyg'otadigan rang. Yashil: tabiatni, o'sishni, yangilanishni va to'liqlikni anglatadi. Zangori: xotirjamlik va hamjihatlik timsoli. Ko'k: xayol va orzularga ishora. Binafsharang: tinchlik va ichki muvozanatni ifodalaydi.

5. O'ylang va toping. Yozing.

KAMALAK

Ranglar	Ramzi
qizil	hayot

Mustaqil ish

Bahor faslida kuzatiladigan tabiat hodisalaridan birining paydo bo'lish sabablarini yozing.

139

Mana shunday tabiat hodisalari kuzatilganda ehtiyot choralarini ko‘rishni unutmang.

5. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “Ha/yo‘q” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

№	Fikrlar	Ha/yo‘q
1	Chaqmoq va momaqaldiroq – bir xil tabiat hodisasi.	Yo‘q
2	Momaqaldiroq – akustik / tovush hodisasi.	Ha
3	Bu ikki hodisa bir paytda ro‘y beradi.	Ha
4	Tovush tezligi yorug‘lik tezligidan yuqori.	Yo‘q

6. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq ot va fe’llar moslashtiriladi. 3-ustunda berilgan so‘zlardan foydalanib namunada berilganidek gap tuzadilar.

1. Qor gupullab yog‘moqda.
2. Yomg‘ir mayin tomchilaydi.
3. Quyosh yozda charaqlaydi.
4. Momaqaldiroq qattiq gumburladi.
5. Barglarga tongda shudring tushgan.
6. Osmonda bulut suzadi.
7. Chaqmoq birdan chaqdi, osmon yorishdi.

7. 4-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 5-topshiriq berilgan. “T-chizma” metodidan foydalanib kamalak ranglari va ular nimalarning ramzlari ekanligini yozishni topshiring.

Ranglar	Ramzi
Qizil	Hayot
Olovrang	G‘ayrat va quvonch
Sariq	Ilhom va ijodkorlikni uyg‘otadi
Yashil	Tabiat, to‘kinlik, o‘sish
Zangori	Xotirjamlik va hamjihatlik
Ko‘k	Xayol va orzu
Binafsharang	Tinchlik

9. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga bugungi darsda esida qolgan bitta so‘zni daftarga yozishni topshiring. Vazifani bajarish uchun bir daqiqa reglament belgilang.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.


10. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida bahor faslida kuzatiladigan tabiat hodisalaridan birining paydo bo‘lish sabablarini yozish topshirig‘i beriladi.

5-MAVZU. XAVFLI HODISALAR

DARSNING MAQSADI:

- Shart ergash gapli qo‘shma gaplarni ishlata oladi. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi.
- Sabab va oqibatlar haqida gapira oladi.
- Qisqa faktologik matn yoza oladi.

VAZIFALAR:


XAVFLI HODISALAR

1. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
1) ko'chki, ...

1)... 2)... 3)...

4)... 5)... 6)...

to'fon, zilzila, vulqon, toshqin, qurg'oqchilik, ko'chki

2. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Toshqin	F	Yer po'stida yoki mantiyaning yuqori qismida to'satdan silkish, sinish yoki o'pirilish ro'y berishi oqibatida vujudga keladi.
2	Ko'chki	E	uzoq vaqt davomida yomg'ir yog'masligi va yuqori harorat natijasida paydo bo'ladi.
3	Zilzila	A	mo'l-ko'l yog'ingarchilik paytida katta daryo va ko'llarning toshib ketishi natijasida hosil bo'ladi.
4	Vulqon otilishi	D	tortishish kuchi ta'sirida katta relyefli qor massasining tushishi natijasida paydo bo'ladi.
5	Qurg'oqchilik	B	Yer mantiyasidan chiqadigan magma, kul va gazlarning massiv ravishda otilishidan hosil bo'ladi.

140

1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida berilgan bahor faslida kuzatiladigan tabiat hodisalaridan birining paydo bo‘lish sabablarini yozish topshirig‘i navbatma-navbat o‘qitiladi. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilar alohida e’tirof etiladi. Topshiriqni bajargan barcha o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

“Qanday xavfli hodisalarni bilasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating.

Rasmlarda nima tasvirlangan?


O‘quvchilarga berilgan rasmlarni kuzatib, hodisalarning nomlarini yozishni topshiring.

1) ko‘chki; 2) toshqin; 3) qurg‘oqchilik; 4) vulqon; 5) zilzila; 6) quyun.

3. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elek-

tron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *xavfli hodisalar, zilzila, vulqon, toshqin, qurg‘oqchilik, ko‘chki, sodir bo‘lmoq.*


3. O'qing.

Zilzila chog'ida Yer po'sti chayqalib, turli yo'nalishda to'lqinsimon silkinish tarqaladi. To'lqinlar tarqalish chog'ida yo'lida uchragan to'siqlarga uriladi. Shu sababli zilzila payti uylar silkinadi, ba'zan vayron bo'ladi. Yerning qimirlash kuchi turli birliklarda o'lchanadi. Bu borada 12 balli tizim keng tarqalgan. 7 balldan yuqorisi vayronarchilik keltiradi. Zilzila o'chog'idan boshlangan silkinish kuchi undan uzoqlashgan sari kamayib boradi. Zilzila kuchi seysmik stansiyalarda o'lchanadi.

DIQQAT QILING

Agar ... -sa, ...

4. O'ylang va toping. Gapiring.

A) Zilzila qanday sodir bo'ladi?
B) Yerosti tebranishlari natijasida zilzila sodir bo'ladi.
A)_____?
B) Tebranish natijasida paydo bo'lgan to'lqinlar yo'lida tarqalish chog'ida to'siqlarga uriladi. Shu sababli uylar qimirlaydi.
A)_____?
B) Yerning qimirlash kuchi 12 balli tizimda o'lchanadi.
A)_____?
B) 7 balldan yuqori zilzilalar vayronarchilik keltiradi.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: silzila, sesmog, cho'kmoq, silzila o'chog'i

Namuna:
Yerosti tebranishlari va yer yuzasining silkinishi "silzila" deb ataladi.

1. Yerosti tebranishlari va yer yuzasining silkinishi *silzila* deyiladi.
2. Ko'pincha zilziladan so'ng yerning ma'lum qismi ...
3. Yerosti silkinishi paydo bo'lgan joy ... deyiladi.
4. Odamlar Yer yuzida bo'ladigan zilzilalarning o'ndan bir qismigina ...

Mustaqil ish

Zilzila sodir bo'lganda harakatlanish qoidalarini yozing.

141

Tabiiy xavfli hodisalar bu – odamlarning aralashuvisiz sodir bo‘ladigan, odamlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hodisalardir. Sodir bo‘ladigan hodisalarning tub mohiyati Yerning doimiy harakatidandir. Yerning ichki harakati tufayli zilzila, vulqonlar yuzaga kelsa, ichki va tashqi kuchi ta’sirida ko‘chki, o‘pirilish hodisalarini kuzatish mumkin. Ular insonlarga, binolarga katta zarar keltirishi mumkin.

Tabiiy ofatlar ichida o‘zining insonga va hududlarga ayniqsa halokatli ta’siri bilan birinchi o‘rinda zilzila, suv toshqinlari, dovullar turadi. Yer po‘sti chayqalishi natijasida zilzila hosil bo‘lsa, yer qa’ridan magmaning otilib chiqishi natijasida vulqon paydo bo‘ladi. Uzoq davom etgan yog‘ingarchiliklar natijasida toshqin hosil bo‘lsa, suvning tanqisligi natijasida qurg‘oqchilik paydo bo‘ladi. Juda katta hajmli qorning tog‘ qiyaliklaridan katta tezlik bilan tushishi natijasida esa ko‘chki paydo bo‘ladi. Havo oqimi tufayli esa kuchli shamol, dovullar ro‘y beradi.

Bugungi kunda Yer sayyorasining turli joylarida iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq har xil tabiiy xavfli hodisalar kuzatilmoqda. Bunday vaziyatlar kuzatilganda muhofaza tadbirlarini amalga oshirish, to‘g‘ri harakat qilish qoidalariga rioya qilish xavfsizlikni ta’minlaydi.

Geografiya.uz

5. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni “Tushunchalar tahlili” metodi asosida bajartiring.

1	Toshqin	A	Yer po‘stida yoki mantiyaning yuqori qismida to‘satdan siljish, sinish yoki o‘pirilish ro‘y berishi oqibatida vujudga keladi.
2	Ko‘chki	B	Uzoq vaqt davomida yomg‘ir yog‘masligi va natijada yuqori harorat natijasida paydo bo‘ladi.
3	Zilzila	D	Ular mo‘l-ko‘l yog‘ingarchilik paytida katta daryo va ko‘llarning toshib ketishi natijasida hosil bo‘ladi.
4	Vulqon otilishi	E	Bu tortishish kuchi ta’sirida katta relyefli qor massasining tushishi natijasida paydo bo‘ladi.
5	Qurg‘oqchilik	F	Yer mantiyasidan chiqadigan magma, kul va gazlarning massiv ravishda otilib chiqishidan hosil bo‘ladi.

1)D; 2)E; 3)A; 4)F; 5)B.

6. 3-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriq berilgan. O‘quvchilarga namunada berilganidek matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida javoblarga munosib savollar tuzishni topshiring.

Namuna:
A. Zilzila qanday sodir bo‘ladi?
B. Yerosti tebranishlari natijasida zilzila sodir bo‘ladi.

A. Nima uchun zilzila paytida uylar silkinadi?
B. Tebranish natijasida paydo bo‘lgan to‘lqinlar yo‘lda tarqalish chog‘ida to‘siqlarga uriladi. Shu sabab uylar qimirlaydi.

A. Zilzila qanday o‘lchanadi?
B. Yerning qimirlash kuchi 12 ballik tizimda o‘lchanadi.

A. Necha balldan yuqori bo‘lganda zilzila vayronagarchilik keltiradi?
B. 7 balldan yuqori zilzilalar vayronagarchilik keltiradi.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Foydalanish uchun berilgan ot va fe’llardan mosini tanlab, nuqtalar o‘rniga qo‘yishni va namunadagidek gaplar hosil qilib ko‘chirib yozishni topshiring.
1. Yerosti tebranishlari va yer yuzasining silkinishi zilzila deyiladi.
2. Ko‘pincha zilziladan so‘ng yerning ma’lum qismi cho‘kadi.
3. Yerosti silkinishi paydo bo‘lgan joy zilzila o‘chog‘i deyiladi.
4. Odamlar Yer yuzida bo‘ladigan zilzilalarning o‘ndan bir qisminigina sezishadi.

9. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.
O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga mustaqil ish uchun zilzila sodir bo‘lganda harakatlanish qoidalarini yozib kelishni topshiring.

6-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushunadi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.


VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga zilzila sodir bo‘lganda harakatlanish qoidalarini o‘qiting.
Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidagi savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling.
Tabiiy ofatlar paytida birinchi nimaga e’tibor qaratish kerak?
Shu mavzudagi qanday badiiy asarlarni bilasiz?
O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asaridan parcha o‘qishni ta’kidlang.

3. Chingiz Aytmatov va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Chingiz Aytmatov – Qirg‘iziston xalq yozuvchisi, davlat va jamoat arbobi, diplomat, Qirg‘iziston Fanlar akademiyasi akademigi (1974). Qirg‘iziston qishloq xo‘jaligi institutini tamomlagan (1953). 1956–58-yillari Moskvadagi Yozuvchilar uyushmasi Oliy adabiyot kursi tinglovchisi. Asarlarini qirg‘iz va rus tillarida yozgan. Ilk hikoyalari 1950-yillarda bosilgan. “Baydamtol sohillarida” (1955), “Yuzma-yuz” (1957) asarlari o‘tkir syujet, kuchli ichki ruhiy ziddiyatlarga boy. “Jamila” (1958), “Sarvqomat dilbarim” (1961), “Bo‘tako‘z”, “Birinchi muallim” (1962), “Momo yer”, “Somon yo‘li” (1963), “Alvido, ey Gulsari” (1966) kabi qissalarida muhabbat mavzusi katta ehtiros bilan tarannum etilgan.


ADABIY O‘QISH

“OQ KEMA”

qissasidan parcha

Qoravultog‘ cho‘qqisidan hamma yoq yaqqol ko‘rinardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko‘ziga to‘g‘riladi…

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono‘par yuksak qorli cho‘qqilar ham ko‘rinib turardi. Ular hamma tog‘larning ortida, hamma tog‘lardan baland: butun yer uzra yuksaklikka bo‘y cho‘zgandi. Qorli cho‘qqilar poyidagi o‘rmonzor tog‘lar, pastroqdagi serbarg butazorlar, yuqorida qalin qarag‘ayzorlar bilan burkangan tog‘lar ham ko‘rinib turadi…

Bola durbinni ko‘zidan olib, g‘amgin bosh egdi. “Biz endi uyga qanday qaytamiz?” – deya sekingina portfeliga so‘z qotdi u. – Buning hammasiga men sababchi, jinni buzoq sababchi, yana sen ham sababchisan, durbin. Oq kemaga qaragani har safar meni sen chaqirasan. Sen ham aybdorsan…”

Quyosh ko‘l tomonga og‘a boshladi. Havo unchalik issiq emasdi. Sharq tarafdagi qiyaliklarga birinchi kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga yo‘nalaveradi, soyalar esa pastga, tog‘lar poyiga cho‘zilaveradi. Odatda kunning ayni shu mahalida Issiqko‘lda oq kema ko‘rinardi.

Bola durbinni ko‘zga tashlanib turgan o‘sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi. Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda – Issiqko‘lning ko‘m-ko‘k sathida oq kema paydo bo‘ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o‘zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo‘yilgandek to‘g‘ri va bir tekis suzib borardi… Bola oq kemadan ko‘z uzmay unga zavq bilan tikilardi…

Chingiz Aytmatov

Savol va topshiriqlar.

1. Bola nimani kutayotgan edi?
2. Kech qolib ketganiga kimni (nimani) aybdor qildi?
3. Oq kema qaysi ko‘lda suzar edi?
4. Kemani tasvirlab bering.

142

Aytmatovning “Tog‘ va cho‘l qissalari” turkumiga kirgan asarlari yuksak baholangan. Aytmatovning “Oq kema” (1970) qissasida insoniy go‘zallik, ezgulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. “Oq kema” kinofilmi ham asar kabi shuhrat qozondi. “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” (1977) qissasida muhim ma’naviy masalalar o‘z ifodasini topgan. “Asrga tatigulik kun” (1980), “Qiyomat” (1986), “Kassandra tamg‘asi” (1990) romanlarida zamonamizning umuminsoniy tomonlari, ona sayyoramizning taqdiri, kuchli falsafiy, axloqiy va ijtimoiy muammolar ko‘tarilgan.

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

OQ KEMA

qissasidan parcha

Qorovultog‘ cho‘qqisidan hamma yoq yaqqol ko‘rinardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko‘ziga to‘g‘riladi…

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono‘par yuksak qorli cho‘qqilar ham ko‘rinib turardi. Ular hamma tog‘larning ortida, hamma tog‘lardan baland: butun yer uzra yuksaklikka bo‘y cho‘zgandi. Qorli cho‘qqilar poyidagi o‘rmonzor tog‘lar, pastroqdagi serbarg butazorlar, yuqorida qalin qarag‘ayzorlar bilan burkangan tog‘lar ham ko‘rinib turadi…

Bola durbinni ko‘zidan olib, g‘amgin bosh egdi. “Biz endi uyga qanday qaytamiz?” – deya sekingina portfeliga so‘z qotdi u. – Buning hammasiga men sababchi, jinni buzoq sababchi, yana sen ham sababchisan, durbin. Oq kemaga qaragani har safar meni sen chaqirasan. Sen ham aybdorsan…”

Quyosh ko‘l tomonga og‘a boshladi. Havo unchalik issiq emasdi. Sharq tarafdagi qiyaliklarga birinchi kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga yo‘nalaveradi, soyalar esa pastga, tog‘lar poyiga cho‘zilaveradi. Odatda kunning ayni shu mahalida Issiqko‘lda oq kema ko‘rinardi.

Bola durbinni ko‘zga tashlanib turgan o‘sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi. Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda – Issiqko‘lning ko‘m-ko‘k sathida oq kema paydo bo‘ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o‘zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo‘yilgandek to‘g‘ri va bir tekis suzib borardi… Bola oq kemadan ko‘z uzmay unga zavq bilan tikilardi…

Chingiz Aytmatov

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘tkazing.

1. Bola nimani kutayotgan edi?
2. Kech qolib ketganiga kimni (nimani) aybdor qildi?
3. Oq kema qaysi ko‘lda suzar edi?
4. Kemani tasvirlab bering.

6. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

ENG, ENG, ENG...
1-MAVZU. ENG G‘AROYIB NABOTOT DUNYOSI

DARSNING MAQSADI:

- O‘simlik olami bilan bog‘liq ot va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Nutqida his-hayajon gaplarni ishlata oladi (*“Qanday go‘zal joy!”* singari).

VAZIFALAR:


1. O‘quvchilar bilan bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “Assotsiatsiyalar” metodidan foydalaning.

Bu uchun o‘quvchilarga bo‘lajak mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z yoki gap yozilgan plakat beriladi. O‘quvchilar ana shu so‘z yoki gap ularning ko‘zlari oldida gavdalantiradigan tasavvurlarini yozib qo‘yadilar. Masalan: plakatda vertikal yo‘nalish bo‘yicha tanlangan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so‘zning har bir harfiga ishtirokchilar o‘z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar. Masalan:

G‘– g‘alaba, g‘urur...
A – ajoyib, antiqa...
R – rangli, raqam...
O – olam, oddiy...
Y – yo‘llar, yirik...
I – ijodiy, ilhom...
B – badiiy, betakror...

O‘quvchilarga yozgan so‘zlarini o‘qib berishlarini topshiring.

Bolalar javob berayotganda diqqat bilan ularni tinglang, ijobiy munosabat bilan ularni to‘g‘rilang va o‘quvchiga qaytartiring. “Yo‘q, noto‘g‘ri” so‘zlarini ishlatmang. O‘quvchi gapirganida noto‘g‘ri bo‘lsa ham, gapirishiga imkon bering. Barcha javob bergan o‘quvchilarni og‘zaki rag‘batlantiring.


ENG, ENG, ENG...

ENG G'AROYIB O'SIMLIKLAR

1. O'qing.

Dragon daraxti "ajdaho daraxti" deb ham ataladi. Bu daraxt 650 yildan 1500 yilgacha yashaydi. Bo'yi 15–20 metr atrofida bo'ladi. Daraxt tanasidan oqadigan qizil suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi. Bu suyuqlikdan soch bo'yoqlari ham ishlab chiqariladi.

Kamalakli evkalipt Shimoliy yarimsharda o'sadi. Ushbu daraxt yiliga 3 metr balandlikkacha o'sishi mumkin. Butun umri davomida esa bo'yi 69 metrgacha yetadi. U oq qog'oz ishlab chiqarish maqsadida yetishtiriladi. Dunyodagi eng rangli daraxtdan juda sifatli oq qog'oz olinadi.


Sut daraxti Janubiy va Markaziy Amerika, Osiyoda ham o'sadi. Bo'yi 30 metrgacha bo'ladi. Daraxtdan bir soat ichida 1 litr sigir sutiga o'xshash sut olish mumkin. Lekin u ochiq havoda tez quyuqlashadi va ta'mi achchiq bo'lib qoladi. Qizig'i shundaki, daraxt yilning xohlagan paytida sut beraveradi.

Chinor daraxti Shimoliy Amerika, Kichik Osiyo va Yevropada o'sadi. Turkiyadagi chinorlarning eng qadimgi vakili yoshi – 2300 yil. O'zbekistonda ham qadimiy chinorlar uchraydi. Suratdagi chinorning yoshi 600 yildan katta. Kengligi 22 kishining quloqchiga teng.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

	Ma'lumotlar	Ha	Yo'q
1	Dragon daraxti "ajdaho daraxti" deb ataladi.		
2	Kamalakli evkalipt burun umri davomida 9 metrgacha o'sadi.		
3	Sut daraxtidan bir soat ichida 1 litr sigir sutiga o'xshash sut olish mumkin.		
4	2300 yillik chinor 22 kishi quloqchiga sig'adi.		
5	Kamalakli evkalipt hayvonlarga ozuqa sifatida yetishtiriladi.		

143


3. O'ylang va toping. Yozing.

ajdaho daraxti
suyuqlik
kamalak
achchiq
bahaybat
eng katta

Foydalanish uchun so'zlar: qizil, achchiq, ochiq, oq, eng katta.

Namuna:
Daraxt tanasidan oqadigan qizil suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi.

1. Daraxt tanasidan oqadigan ... suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi.
2. Kamalakli evkalipt ... qog'oz ishlab chiqarish maqsadida yetishtiriladi.
3. Sut daraxtining suyuqligi ... havoda tez quyuqlashadi va ta'mi ... bo'lib qoladi.

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Siz bu o'simlikka qanday nom bergan bo'lardingiz?
2. Hasharotlar nima uchun bu gul barglariga qo'nadi?
3. Venerina pashshatutqichi hasharotlarni "qopqon"ga qanday tushiradi?
4. "Qopqon"ga tushgan hasharot qutulib keta oladimi?

5. O'ylang va toping. Gapiring.

A B D

1	"Raqsga tushayotgan qizlar" orxideyasi (Impatiens Bequaertii)
2	"Balerina" orxideyasi (Ballerina orkide)
3	"Oq haqlajon (kabutar) gul" orxideyasi (Radiata)
4	"Uchuvchi o'rdak" orxideyasi (Pilot duck orkide)

E

Mustaqil ish
O'zbekistondagi g'aroyib o'simliklar haqida ma'lumot yozing.

144

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qittiring. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

№	Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1	Dragon daraxti mevalaridan qizil suyuqlik ajraladi.		+
2	Kamalakli ekvalipt butun umri davomida 9 metrgacha o‘sadi.		+
3	Sut daraxtidan bir soat ichida 1 litr sigir sutiga o‘xshash sut olish mumkin.	+	
4	2300 yillik chinor 22 odam qulochiga sig‘adi	+	
5	Kamalakli daraxtlar hayvonlarga ozuqa sifatida yetishtiriladi.		+

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *ajdaho daraxti, suyuqlik, kamalak, achchiq, bahaybat, eng katta.*

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib yozishni tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *achchiq, ochiq, qizil, oq, eng qadimgi.*

Namuna:

1. Daraxt tanasidan oqadigan qizil suyuqlikdan oshqozon yarasini davolash uchun dori tayyorlanadi.
2. Kamalakli daraxtlar oq qog‘oz ishlab chiqarish maqsadida yetishtiriladi.
3. Sut daraxtining suyuqligi ochiq havoda tez quyuqlashadi va ta’mi achchiq bo‘lib qoladi.
4. Turkiyada chinorlarning eng qadimgi vakilining yoshi 2300 yil.

6. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

O‘simliklar olamida turfa xilini uchratish mumkin. Tabiatda “go‘sht” bilan oziqlanadigan g‘alati o‘simliklar mavjud. Bulardan eng ko‘p tarqalgani venerina pashshatutqichi hisoblanadi. Hasharotlar gulshira izlab bu o‘simliklarga qo‘nadi. Ular ochiq bargning bezchalaridan biriga qo‘nganda mayda tukchalarga tegib ketadi va tez harakatlanuvchi “qopqon”larga bu haqda axborot boradi. Natijada barg qopqon kabi yopilib qoladi va venerina pashshatutqichi hasharotlarni tez harakatlar bilan tutib oladi. Barglar orasida qolgan hasharot tashqariga chiqolmaydi. Ushlangan hasharotni o‘simlik shirasi asta-sekin suyultirib, tanasini suyuq holdagi ozuqaga aylantiradi. Shu ozuqa yordamida venerina pashshatutqichi rivojlanib o‘sadi.

7. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Siz bu o‘simlikka qanday nom bergan bo‘lardingiz?
2. Hasharotlar nima uchun bu gul barglariga qo‘nadi?
3. Venerina pashshatutqichi hasharotlarni “qopqon”ga qanday tushiradi?
4. “Qopqon”ga tushgan hasharot qutulib keta oladimi?

8. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz? Ularning shakliga qarab nomini topishga yordam bering.

1. “Raqsga tushayotgan qizlar” orxideyasi *(Impatiens Bequaertii) (D)*
2. Balerina orxideyasi *(Balerina orkide) (B)*
3. “Oq baqlajon (kabutar) gul” orxideyasi *(Radiata) (A)*

4. “Uchuvchi o‘rdak” orxideyasi *(Pilot duck orkide) (C)*

9. Refleksiya. “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri” metodidan foydalaning. Bunda har bir ishtirokchi bir varaq qog‘ozga o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan mavzu bo‘yicha uchta to‘g‘ri fikr va bitta noto‘g‘ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juft-juft bo‘lib to‘planadilar, varaqlarni o‘zaro almashadilar va qaysi fikr noto‘g‘ri bo‘lgan ekanligini aniqlaydilar.

O‘quvchilar qayso so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. O‘quvchilarga g‘aroyib o‘simliklar haqida ma’lumot topib yozib kelish topshirig‘ini bering.

2-MAVZU. ENG G‘AROYIB HAYVONLAR


DARSNING MAQSADI:

- Hayvonot olami bilan bog‘liq ot va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Nutqida his-hayajon gaplarni ishlata oladi (“Qanday go‘zal joy!” singari).

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga berilgan mustaqil topshiriq asosida g‘aroyib o‘simliklar haqida yozib kelgan ma’lumotlarini o‘qishni topshiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“G‘aroyib o‘simliklar haqida ma’lumot yig‘ayotgan paytda g‘aroyib hayvonlar haqida ham ma’lumot chiqdimi?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.


ENG G‘AROYIB HAYVONLAR

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Qaysi mavjudot sayyoramizdagi umri boqiy yagona turik jonzot deb ta’riflanadi?
2. Chumolilar bir kunda necha daqiqa dam oladilar?
3. Yer sayyorasida eng himoyaga muhtoj hayvon qaysi ekan? Nima uchun?
4. Shakli bulutga o‘xshab ketadigan quyon qanday nomlanar ekan?

mutlaqo o‘lcham tasqara katta yirtqich kabutar moviy baland

DIQQAT QILING

Eh, oh-ho, eh-he, hay-hay...

2. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Tasqara
2. Mushuk
3. Kalmar
4. Kenguru
5. Koala

Namuna:
Avstraliyada yashovchi koala mutlaqo suv ichmaydigan hayvon.
Eh-he, koala mutlaqo suv ichmas ekan!

1. Avstraliyada yashovchi koala mutlaqo suv ichmaydigan hayvon. …
2. Kalmar – atigi 30 santimetrga teng bo‘lgan suv hayvoni. …
3. “Kenguru” so‘zi lotin tilida “katta qadamlar” ma’nosini bildiradi. …
4. Mushuk umrining 70 foizini uxlab o‘tkazadi. …
5. O‘zbekistondagi eng katta yirtqich qush – tasqara. …

145

2. Elektron resurs yordamida matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, quyidagi matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

BILASIZMI? BU QIZIQ!

Yer yuzida hayvonot olami ham o‘simliklar kabi keng tarqalgan. Ularni shimoliy muz qutblarida ham, cho‘l, dasht, tog‘larda ham, suv va quruqlikda ham uchratish mumkin. Bugun boshqalardan farq qiladigan ayrim jonivorlar haqida gaplashamiz.

Meduza nutrikula – sayyoramizdagi yagona umri boqiy tirik mavjudot. Ular faqat tashqi omil ta’siri oqibatida nobud bo‘lishi mumkin.

Chumolilar hech qachon uxlamaydi. Buning o‘rniga ular kuniga ikki marta 8 daqiqadan “dam olishadi”. Chumolilar malikasi esa kuniga 90 daqiqa dam oladi.

Yer sayyorasida oq karkidonlardan atigi 3 dona qolgan. Hozirda ular qo‘riqxonada tinimsiz qo‘riqlanadi.

Angora quyoni – Turkiya poytaxti Anqara nomi bilan atalgan eng qadimgi quyon zotlaridan biri. Bu yoqimli hayvonlar 18-asrda mashhur uy hayvonlari bo‘lgan. Bu quyonlarni bulutga o‘xshatishadi.


3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida savol-javob o‘tkazing.

1. Sayyoramizdagi yagona umri boqiy tirik mavjudot nima?

2. Chumolilar bir kunda necha daqiqa dam olishar ekan?

3. Yer sayyorasida eng himoyaga muhtoj hayvon qaysi ekan? Nima uchun?

4. Shakli bulutga o‘xshab ketadigan quyon qanday nomlanar ekan?



3. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.

Primatlar bo'yi 15 santimetrdan oshmaydigan va tana vazni 150 gramm bo'lgan mitti hayvonlardir. Ular Braziliya, Peru, Kolumbiyada daryo qirg'oqlarida yashaydi. Bu hayvonlarning o'rtacha umri – 10 yil.

Begemot "gipopotam", ya'ni "daryo oti" deb ham nomlanadi. Uni Afrika, Yevropa va Osiyoning ba'zi joylarida uchratish mumkin. Og'irligi 2,5 tonnadan 3,5–4 tonnagacha bo'ladi. Tana uzunligi – 1,5–1,7 metr, balandligi – 80 santimetr. 30 yildan 50 yilgacha umr ko'radi.

	Nomi	Qayerda uchraydi?	Bo'yi	Vazni	Qancha yashaydi?
1	Primatlar	Braziliya, Peru, Kolumbiya			
2	Begemot			2,5–4 tonna	

4. O'ylang va toping. Yozing.

1 2 3

Namuna:
Kabutarlarning moviy rangdagi ajabtovur turi mavjud.

1. Rangdagi, kabutarlarning, mavjud, moviy, ajabtovur, turi.
2. Uzunligi, shaffof boshli, makropin, kichik baliq, 15 cm bo'lgan.
3. Bu, shaffof, boshqalaridan, kapalaklar, farq qiladi, qanotlari bilan.
4. Eng yirik, qanotlari, kapalak, 30 cm, attakus, bo'lgan.

4

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Qanday?	Nima?
moviy	kabutar

Kapalak, moviy, yirik, kabutar, chopqir, uyquchi, baliq, mushuk, kichik, kenguru.

Mustaqil ish
Uy hayvonlarining antiqa harakatlarini kuzatib, rasmga yoki videoga oling.

146

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *mutlaqo, o‘lcham, tasqara, katta, yirtqich, kabutar, moviy, baland.*

5. “Diqqat qiling!” ruknida undov so‘zlar haqida ma’lumot berib o‘ting.

Undovlar ma’no xususiyatiga ko‘ra ikki xil: his-hayajon undovlari, buyruq-xitob undovlari. His-hayajon undovlari turli his-tuyg‘ularni, kechinmalarni bildiradi: *o, oh, e, eh, uh, iye, voy, dod, he, a, obbo, ha, o‘ho‘, ehe, attang, vodarig‘, rahmat, salom, ofarin, balli, barakallo* kabilar. Bu xildagi undovlarning his-tuyg‘u bildirishida ohang muhimdir.

His-hayajon undovlari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. Shodlik, xursandchilik ma’nolarini ifodalaydi. *O‘ho‘, zo‘r-ku. Egasi kim ekan?*

2. Ta’kid va taajjublanish ma’nolarini ifodalaydi. *Eh, Aziz, Aziz! Hech kim qilmagan ishni qilaman, deb ko‘krak mushtlab katta ketmay qo‘yaqol!*

3. Nutqiy odat ma’nolarini ifodalaydi. Jindek mizg‘ib olganingdan keyin idoraga chiqasan, xayr.

Taqqoslang:

Chumolilar hech qachon uxlamaydi.

Ehhe, chumolilar hech qachon uxlamas ekan!

6. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘yib yozishni tushuntiring. Qolgan gaplarni mustaqil yozishni topshiring.

Namuna:

Avstraliyada yashovchi koala – mutlaqo suv ichmaydigan hayvon.

Ehhe, koala mutlaqo suv ichmas ekan!

7. 3-topshiriqda berilgan matnni o‘quvchilarga ifodali o‘qittiring. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

8. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda berilgan namuna asosida o‘quvchilar jadvalda berilgan so‘zlardan to‘liq gaplarni shakllantiradilar.

№	Nomi	Qayerda uchraydi?	Bo‘yi	Vazni	Qancha yashaydi?
1	Primatlar	Braziliya, Peru, Kolumbiya	15 cm	150 gramm	10 yil
2	Begemot	Afrika, Yevropa va Osiyo	0,8 m	2,5 – 4 tonna	30 yildan 50 yilgacha

Izoh. Matndagi ma’lumotlar asosida o‘quvchilar jadvalni to‘ldiradilar va solishtiradilar. “Eng kichik” va “eng katta” tushunchasining mohiyatini o‘qituvchi yordamida taqqoslaydilar.

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan.

O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.
Rasmda nimani ko‘ryapsiz?
Ularning shakliga qarab gaplarni shakllantirishga yordam bering.

Namuna:

1. Rangdagi, kabutarlarning, mavjud, moviy, ajabtovur, turi.
   Kabutarlarning moviy rangdagi ajabtovur turi mavjud. (2)
2. Makropin – uzunligi 15 santimetr bo‘lgan shaffof boshli kichik baliq. (4)
3. Bu kapalaklar boshqalaridan shaffof qanotlari bilan farq qiladi. (3)
4. Attakus – qanotlari 30 santimetr bo‘lgan eng yirik kapalak. (1)

Bu topshiriq doskada bajarilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

10. O‘quvchilarning bugungi mavzuda berilgan so‘zlarni qay darajada o‘zlashtirganliklarini “T-sxema” metodi orqali so‘rang. Darslikda berilgan namuna asosida o‘quvchilarga topshiriqni og‘zaki bajartiring.

Nima?	Qanday?
kabutar	moviy
baliq	ajabtovur
kapalak	kichik
	shaffof
	yirik

11. Refleksiya. “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga dars davomida eslarida qolgan uch bo‘g‘inli so‘zlarni daftarga yozishni topshiring. Keyin shu so‘zlardan namuna o‘qittiring.

12. O‘quvchilarga uy hayvonlarining antiqa harakatlarini kuzatib, rasmga yoki videoga olib, uy hayvonlariga xos xususiyatlarni aniqlab kelishni topshiring.

3-MAVZU. ENG BALAND TOG‘LAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Nutqida his-hayajon gaplarni ishlata oladi (*“Qanday go‘zal joy!”* singari).

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga uy hayvonlarining antiqa harakatlarini kuzatib, rasmga yoki videoga olib kelgan ma’lumotlarini o‘qishni topshiring. Ularga rag‘bat berib turishni unutmang.

“Eng baland tog‘lar haqida nimalar bilasiz?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. 1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qittiring. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarni, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

3. O‘quvchilarga matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash va uni qisqa jadvallarda ifodalash ko‘nikmasini oshirish uchun 2-topshiriqni o‘g‘zaki bajartiring. Topshiriqni guruhlarga bo‘linib ham bajarish mumkin.

4. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 3-topshiriqni yozma bajartiring. Bunda o‘quvchilar nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozadilar.


Namuna:

1. Himolay sayyoramizning eng baland tog‘ tizmasidir.
2. Ushbu tog‘ tizmasida 109 ta cho‘qqi bor.
3. Himolay tog‘larining eng baland cho‘qqisi – Everest .
4. Monblan Alp tog‘larining eng yuqori cho‘qqisidir.
5. Yetti xil rangli bo‘lganligi uchun bu tog‘ni “Kamalak tog‘i” deb ham atashadi.

5. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tog‘, cho‘qqi, tadqiqot olib bormoq, alpinist, sevimli maskan, g‘ayrioddiy.*

6. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.



ENG BALAND TOG'LAR

1. O'qing.

Himolay – Markaziy va Janubiy Osiyo – Xitoy, Hindiston, Butan, Pokiston, Nepal kabi davlatlar hududida joylashgan sayyoramizning eng yuksak tog‘ tizmasidir. Ushbu tog‘ tizmasida 109 ta cho‘qqi bor, ularning balandligi dengiz sathidan o‘rtacha 7 ming metr baland. Himolay tog‘ining eng baland cho‘qqisi – Jomolungma yoki Everest. Uning balandligi 8848 metrga yetadi. U tog‘ atrofidagi hududlarda geodezik tadqiqotlar olib borgan britaniyalik tadqiqotchi Jorj Everest sharafiga shunday nom olgan.

Monblan esa Alp tog‘ining eng yuqori cho‘qqisidir, uning balandligi 4808 metrni tashkil qiladi. Bu joy alpinistlarning eng sevimli maskani hisoblanadi. Monblanning etagida bir nechta mashhur chang‘i kurortlari joylashgan.

Perudagi g‘ayrioddiy ranglarga ega bo‘lgan tog‘ Vinikunka deb ataladi. Yetti xil rangda bo‘lganligi uchun bu tog‘ “Kamalak tog‘i” deb ham nomlanadi. U Peru shahridan 170 kilometr uzoqlikda joylashgan.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

	4808 metr	109 ta cho'qqi	Kamalak tog'i	8848 metr	Everest	Alp tog'i	170 kilometr
Himolay		+		+	+		
Monblan							
Vinikunka							

3. O'ylang va toping. Yozing.


Namuna:
Himolay – sayyoramizning eng baland tog‘ tizmasidir.

... sayyoramizning eng baland tog‘ tizmasidir.
Ushbu tog‘ tizmasida 109 ta … bor.
Himolay tog‘ining eng baland cho‘qqisi – ….
Monblan … tog‘ining eng yuqori cho‘qqisidir.
Yetti xil rangli bo‘lganligi uchun bu tog‘ … deb ham ataladi.

Alp, cho'qqi, kamalak tog'i, Himolay, Jomolungma

tog‘ cho‘qqi tadqiqot alpinist sevimli maskan g‘ayrioddiy

147



4. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

1	4:00	A	O‘z yutuqlaridan zavqlanishdi.
2	6:30	B	Ikki alpinist ertalab lagerni tark etishdi.
3	15 minut	D	Hillari va Norgay Everest cho‘qqisiga yetib kelishdi.
4	11:30	E	Edmund Hillari va Tenzing Norgay Himolay tog‘i etagiga o‘rnatilgan lagerda uyg‘onishdi.

DIQQAT QILING

Naqadar, shunchalik, shu qadar, shunday

5. O'ylang va toping. Yozing.

1. Everest – dunyodagi eng baland cho‘qqi.
2. Edmund Hillari va Tenzing Norgay – dovyurak alpinistlar.
3. Ikki alpinistning Everest cho‘qqisini zabt etgani haqidagi xabar butun dunyoga yashin tezligida tarqaldi.
4. Alpinistlar Everest cho‘qqisini zabt etganidan nihoyatda zavqlanishdi.

1. Everest naqadar baland!
2. ……
3. ……
4. ……

Mustaqil ish

O‘zbekistonlik alpinist Rustam Rajabov haqida esse yozing.

148

EVEREST CHO‘QQISINI ZABT ETISH

1953-yil 29-may kuni ertalabki soat 4:00 da Edmund Hillari va Tenzing Norgay Himolay tog‘i etagiga o‘rnatilgan lagerda uyg‘onishdi. Tog‘ga ko‘tarilish uchun tayyorlanishdi. Hillari etiklari muzlab qolganini va ularni muzdan tozalash uchun ikki soat vaqt sarflaganini aytadi. Ikki alpinist ertalab soat 6:30 da lagerni tark etishdi. Tepalikka chiqish paytida ular noqulay turgan bir toshga duch kelishdi. Ammo Hillari unga chiqish uchun yo‘l topdi. Hozir bu tosh “Hillari qadami” deb nomlanadi. Soat 11:30 da Hillari va Tenzing Everest tog‘ining cho‘qqisiga yetib kelishdi. Hillari Tenzingni tabriklash uchun qo‘l uzatadi, ammo Tenzing xursandligidan uni quchoqlab oladi. Ikki qahramon cho‘qqi ustida havoning kamligi sababli o‘z yutuqlaridan atigi 15 daqiqacha zavqlanishadi. Ular o‘zlari turgan cho‘qqini har xil ko‘rinishda suratga olishadi. Keyin esa 1924-yilda yo‘qolgan alpinistlar izlarini qidirib ko‘rishadi. Afsuski, hech narsa topisholmaydi.

15 daqiqalik safar tugab, Hillari va Tenzing tog‘ cho‘qqisidan tusha boshlaydilar.

Hillari qadrdon do‘sti – Yangi Zelandiya alpinisti Jorj Louni ko‘rganida: “Jorj, biz cho‘qqini yiqitdik!” – deydi.

Ikki dovyurak alpinistning Everest cho‘qqisini muvaffaqiyatli zabt etgani haqidagi yangiliklar tezda butun dunyoga tarqaladi. Edmund Hillari va Tenzing Norgay haqiqiy qahramonlarga aylanishdi.

7. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan berilgan savollarga og‘zaki javob oling.

1. Sizningcha, alpinistlar qanday insonlar bo‘lishadi?
2. Alpinistlar yonida qanday asboblarni olib yurishi kerak – buni bilasizmi?
3. Edmund Hillari va Tenzing Norgay Everest cho‘qqisini qachon zabt etishgan?
4. Ular nima uchun 15 daqiqadan keyin cho‘qqidan tushadilar?

8. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda raqamlar ustuni bilan harflar ustunidagi tushunchalarni bir-biriga moslab o‘qishni topshiring.

1	4:00	A	Edmund Hillari va Tenzing Norgay Himolay tog‘i etagiga o‘rnatilgan lagerda uyg‘onishdi .
2	6:30	C	Ikki alpinist ertalab lagerni tark etishdi.
3	15 minut	B	O‘z yutuqlaridan zavqlanishdi.
4	11:30	D	Hillari va Tenzing Everest tog‘ining cho‘qqisiga etib kelishdi.

9. “Diqqat qiling!” ruknida his-hayajon gaplarni hosil qilishga yordam beruvchi so‘zlar haqida ma’lumot berib o‘ting.

Lug‘atingiz uchun: *naqadar, shunchalik, shu qadar, shunday.*

10. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan. Dastlab berilgan namuna asosida his-hayajonsiz gaplarni his-hayajonli gaplarga aylantirib yozishni tushuntiring.

His-hayajonsiz gaplar:

1. Everest – dunyodagi eng baland cho‘qqi.
2. Edmund Xillari va Tenzing Norgay juda dovyurak.
3. Ikki alpinistning Everest cho‘qqisini zabt etgani haqidagi xabar butun dunyoga juda tez tarqaldi.
4. Alpinistlar Everest cho‘qqisini zabt etganidan zavqlanishdi.

His-hayajonli gaplar:

1. Everest naqadar baland!
2. Edmund Xillari va Tenzing Norgay juda dovyurak!
3. Ikki alpinist Everest cho‘qqisini zabt etishdi!
4. Muvaffaqiyatdan quvonish naqadar zavqli!

4-MAVZU. SUV-MO‘JIZA

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Nutqida his-hayajon gaplarni ishlata oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga o‘zbekistonlik alpinist Rustam Rajabov haqida yozib kelgan ma’lumotlarini o‘qishni topshiring. Vazifani ijodiy yondashib bajargan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

“Alpinistlarga safarda eng kerak bo‘luvchi narsa nima?” savoli bilan o‘quvchilarni keyingi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz?

Oldin ham shunday daryolar, ya’ni suvi ikki xil rangda oquvchi daryolar rasmini ko‘rganmisiz?

1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda “Tushunchalar tahlili” metodi asosida jadvalni to‘ldirishni topshiring.

1	Qozog‘iston	A	Riu-Negru va Solimoyns daryolari
2	Amazonka	B	Ils, Dunay va Inn daryolari
3	Daniya	C	Irtish, Ulba daryolari
4	Germaniya	D	Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi

Javoblar: 1) C, 2) A, 3) D, 4) B.


SUV – MO‘JIZA

1. O‘qing.

Suvlar bilan bog‘liq mo‘jizaviy holatlarning guvohi bo‘lganmisiz? Yo‘qmi? Unda sizga shu haqda hikoya qilamiz.

Qozog‘istonda Irtish daryosining tiniq, Ulba daryosining loyqa suvlari yonma-yon oqadi. Lekin sira bir-birига aralashib ketmaydi.

Janubiy Amerikadagi eng sersuv daryo Amazonkaning ikki o‘zani – Riu Negru va Solimoyns 4 kilometrgacha bo‘lgan masofada birga oqsa-da, suvlari bir-birига qo‘shilib ketmaydi.

Daniyaning Skagen shahri atrofida Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi uchrashadi. Ikki katta dengining suvi turli zichlikka egaligi bois ham shunchaki to‘qnashadi – aralashib ketmaydi.

Germaniyaning Passau shahrida Ils, Dunay va Inn daryolari uchrashadi. Lekin uchta daryo ham o‘z yo‘lida alohida-alohida oqadi.

Qani edi, shu ajoyib manzaralarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rsam deb o‘yladingizmi? Albatta, niyatingizga yetasiz! Bu yo‘lda ilm olishdan charchamang!

2. O‘ylang va toping. Gapiring.


1	Qozog‘iston	A	Riu Negru va Solimoyns daryolari
2	Janubiy Amerika	B	Ils, Dunay va Inn daryolari
3	Daniya	C	Irtish, Ulba daryolari
4	Germaniya	D	Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi

tiniq, dengiz, daryo, loyqa, o‘zan, qo‘shilib ketmoq, zichlik, irmoq, ko‘l

DIQQAT QILING

...-sa + edi

149


3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Anhorlardagi tiniq suvlardan hovuchlab ichsam.

1. ichsam, anhorlardagi, tiniq, hovuchlab, suvlardan.
2. cho‘milsangiz, foydali, suvda, loyqa.
3. tog‘lardan, quyilsa kerak, ko‘p suv, daryolarga.
4. ko‘p yog‘sa, yomg‘ir, bo‘lsa kerak, suv toshqini.

4. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Anxel sharsharasi Venesuelaning shar-qidagi qaysi daryoga oqib tushadi?
1 ball

2. Anxel sharsharasining umumiy balandligi qancha?
A. 979 metr
B. 978 metr
D. 807 metr
1 ball

3. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring:
Anxel sharsharasi juda ko‘p ... jalb qiladi.
1 ball

4. Daryoda suv ko‘p bo‘lgan iyun-dekabr oylarida mahalliy gidlar bilan qanday sharsharaga borish mumkin?
2 ball

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Dunyoda **eng uzun daryo** – Nil, uzunligi 6671 km.

Eng chuqur ko‘l – Baykal, chuqurligi 1620 m.

Yer sharida **eng katta ko‘l** – Kaspiy, maydoni 376000 kv. km.

Eng sersuv daryo – Amazonka. Uning 500 ta irmog‘i bor.

km – kilometr, m – metr, kv. – kvadrat.

Namuna:
Dunyodagi eng uzun daryo Nil daryosi bo‘lib, uning uzunligi 6671 km.

Mustaqil ish
Yashash joyingizga yaqin bo‘lgan suv havzalari haqida ma’lumot to‘plang.

150

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *tiniq, dengiz, daryo, loyqa, o‘zan, qo‘shilib ketmoq, zichlik, irmoq, ko‘l.*

5. “Diqqat qiling!” ruknida fe’llarning shart mayli qo‘shimchasi haqida ma’lumot berib o‘ting.

Fe’lning bu shakli quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

1. Shart mayli shaklidagi fe’l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo‘lgan harakatni bildiradi:

Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko‘payadi.

2. Shart maylidagi fe’l payt ma’nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi:

Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq qor ekan.

3. Istak ma’nosini bildiradi. Bunday holda *edi* to‘liqsiz fe’li ishtirok etib, ma’noni kuchaytiradi:

Qani edi, bir parcha soya-salqin joy topilsa.

4. Agar *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llangan shart maylidagi fe’l bo‘lishsiz shaklda qo‘llansa, gumon manosi hosil bo‘ladi:

Biror qaltis gap aytib, sharmanda qilmasa edi.

6. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan.

Berilgan so‘zlardan namunadagi kabi gap tuzishni tushuntiring.

Namuna:

1. *Anhorlardagi tiniq suvlardan hovuchlab olib ichsam! (istak)*
2. Loyqa suvda cho‘milsangiz foydali. *(maslahat)*
3. Eng sersuv daryolarga tog‘lardan ko‘p suv quyilsa kerak. *(faraz)*
4. Yomg‘ir ko‘p yog‘sa, katta suv toshqini bo‘lishi mumkin. *(shart)*

7. Sharsharalar – tabiatning go‘zal namunalaridan biri. Shiddat bilan pastga oqayotgan suvning parcha-parcha bo‘lib, uning quyosh nurida tovlanishi barchani zavqlantirsa kerak.

Anxel sharsharasi ….(deb davom ettirib ketadi.)

SUV – MO‘JIZA

Sharsharalar – tabiatning go‘zal namunalaridan biri. Shiddat bilan pastga oqayotgan suvning parcha-parcha bo‘lib, uning quyosh nurida tovlanishi barchani zavqlantirsa kerak.

Anxel sharsharasi – dunyodagi eng baland sharshara. Sharshara Venesuelaning sharqidagi Churun daryosiga oqib boradi. Anxel sharsharasining umumiy balandligi 979 metrdir. Mahalliy aholi uni Cherun-Meru deb ataydi.

1937-yil amerikalik uchuvchi Jeyms Anxel sharsharaning ustidan uchib o‘tdi va uni qayta kashf qildi. Anxelning sharafiga sharshara uning nomi bilan atala boshlandi.

Anxel sharsharasi juda ko‘p sayyohlarni jalb qiladi. Ammo uning oldiga borish murakkab, sababi sharshara aholi yashaydigan yerlardan olisdagi junglida joylashgan. Bugungi kunda kichik samolyotlar sayyohlarni Anxel sharsharasi ustida va atrofidagi hududda aylantiradi. Sharsharaga yana daryoda suv ko‘p bo‘ladigan iyun – dekabr oylarida kuriara deb nomlanuvchi qayiqlarda mahalliy gidlar bilan suzib borish mumkin.

8. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida 4-topshiriqni og‘zaki bajartiring. Bunda “Assisment” metodi asosida jadvalni to‘ldirishni topshiring.

Assisment	
1. Anxel sharsharasi Venesuelaning sharqidagi qaysi daryoga oqib tushadi? (1 ball) Javob: Churun daryosiga.	2. Anxel sharsharasining umumiy balandligi qancha? (1 ball) Javob: A) 979 metr B) 978 metr C) 807 metr
3. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. Anxel sharsharasi juda ko‘p … jalb qiladi. (1 ball) Javob: sayyohlarni.	4. Sharsharaga daryoda suv ko‘p bo‘lgan mavsumda (iyun-dekabr) mahalliy gidlar bilan qanday borish mumkin? (1 ball) Javob: kuriara deb nomlanuvchi qayiqlarda.

9. O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 5-topshiriq berilgan.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmlarga qarating.

Rasmlarda nimalarni ko‘ryapsiz?

O‘quvchilar rasmlar asosida namunadagi kabi gaplar tuzadi va daftarlariga yozadi.

Namuna:

Dunyodagi eng uzun daryo Nil daryosi bo‘lib, uning uzunligi 6671 km.

Yer sharida eng katta ko‘l Kaspiy bo‘lib, uning maydoni 376000 kv. kmni tashkil qiladi.

Eng chuqur ko‘l Baykal ko‘li bo‘lib, uning chuqurligi 1620 metrdir.

Eng sersuv daryo Amazonka bo‘lib, uning 500 ta irmog‘i bor.

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

· Yer sharida eng balandda joylashgan ko‘l – Titikaka: 3812 m balandlikda.

· Eng baland suv qalqishi – Fandi qo‘ltig‘ida kuzatiladi, 18 m.

· Eng keng sharshara – Iguasi: 2700 m.

· Eng katta suv o‘simligi – Viktoriya regiya bargining uzunligi 2 metr.

· Dunyo okeanlarining eng chuqur joyi – Mariana botig‘i: Tinch okeanida, 11022 m.

· Eng katta okean oqimi – Golfstrim: chuqurligi 7000 metr, eni 75 – 120 km, tezligi soatiga 3 km dan 10 km gacha.

· Eng sovuq okean – Shimoliy Muz okeani: 75 °C.

· Eng issiq okean – Tinch okean: +19.4 °C.

10. O‘quvchilarga shartli qisqartmalar haqida ham ma’lumot berib o‘ting.

Km – kilometr, m – metr, kv. – kvadrat.

11. Refleksiya. “Uch bo‘g‘inli so‘z” metodidan foydalanib o‘quvchilarga dars davomida eslarida qolgan uch bo‘g‘inli so‘zlarni daftarlariga yozishni topshiring. Keyin shu so‘zlardan namuna o‘qittiring.

12. O‘quvchilarga yashash joyiga yaqin bo‘lgan suv havzalari haqida ma’lumot to‘plab, yozib kelishni topshiring.

5-MAVZU. ENG GO‘ZAL SHAHARLAR

DARSNING MAQSADI:

- His-hayajon gaplarni ishlata oladi (“*Qanday go‘zal joy!*” singari). Shart maylini ishlata oladi.
- O‘simlik va hayvonot olami bilan bog‘liq ot va sifatlarni ishlata oladi.
- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Norasmiy xat yoza oladi va xatlarga javob qaytara oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar yashash joylariga yaqin bo‘lgan suv havzalari haqida yozib kelgan ma’lumotlarni o‘qib bersinlar. Bu topshiriqni har bir o‘quvchidan so‘rashga harakat qiling. O‘quvchilarga rag‘bat berib turishni unutmang.

“Qaysi shaharlarda mashhur daryolar bor?” savoli bilan o‘quvchilarni yangi mavzuga olib kiring.

2. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz? Qanday o‘ziga xos jihatlari bor?

1-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting.

O‘quvchilar o‘qiyotganida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, urg‘ularini to‘g‘ri qo‘yishlariga e’tibor qarating. Belgilangan matn o‘qib bo‘lingandan so‘ng noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar va urg‘usi xato qo‘yilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, og‘zaki qaytartiring.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganliklarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni og‘zaki bajartiring.

1. Italiyada juda qadimiy sivilizatsiya qoldiqlari bor.
   A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri
2. Eyfel minorasi – Italiya ramzi.
   A. To‘g‘ri **B. Noto‘g‘ri**
3. Minorani ikki yil davomida 324 nafar ishchi qurgan.
   A. To‘g‘ri **B. Noto‘g‘ri**

4. Italiyaga har yili millionga yaqin sayyohlar keladi.
A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.


Lug‘atingiz uchun: *bog‘, inshoot, shahar, minora, sayohat qilmoq, hayratlanmoq, maktub yozmoq*

5. “Diqqat qiling!” ruknida sifatning orttirma daraja shakli haqida ma’lumot berib o‘ting.

Sifatning orttirma darajasi oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan *eng, g‘oyat, juda, nihoyatda, bag‘oyat* so‘zlari keltirish bilan yasaladi: eng katta, juda qizil, g‘oyat shirin.

O‘quvchilarning diqqatini rasmlarga qarating. Bu ikki inshoot nimasi bilan farq qilayotgani, ularni farqlash uchun qaysi so‘zdan foydalanish kerakligini tushuntiring.

6. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.


ENG GO‘ZAL SHAHARLAR

1. O‘qing.

Italiya – eng go‘zal mamlakatlardan biri. Bu o‘lkada tashkil etilgan barcha milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar juda jozibali. Masalan, Abrutsoga har yili millionga yaqin sayyoh keladi. Bu yerda g‘oyat noyob o‘simlik va hayvonot dunyosi, juda qadimiy sivilizatsiya qoldiqlari bor. Sayyohlarni ajoyib tog‘ yonbag‘irlari o‘ziga jalb qiladi.

Fransiyaning ramzi – Eyfel minorasi. 1887-yili arxitektura-muhandislik loyihalari tanlovida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan Eyfel: “Fransiya 300 metrlik bayroq ustuniga ega bo‘lgan yagona davlat bo‘ladi!” – deb aytgan. Qurilish ishlarini ikki yil davomida 300 nafar ishchi bajardi. Minoraning balandligi antenna bilan birga 324 metrni tashkil qilgan. Eyfel minorasi 40 yildan ortiq vaqt davomida dunyodagi eng baland inshoot bo‘lib qolgan.


2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Italiyada juda qadimiy sivilizatsiya qoldiqlari saqlanib qolgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
2. Eyfel minorasi – Italiya ramzi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
3. Minorani ikki yil davomida 324 nafar ishchi qurgan.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.
4. Italiyaga har yili millionga yaqin sayyoh keladi.
A. To‘g‘ri. B. Noto‘g‘ri.

3. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	Venetsiya	A	Unga ko‘rk berib turuvchi obyektlar Sena daryosini kesib o‘tgan ko‘priklar, bir-biridan so‘lim xiyobonlar, ko‘rkam binolar hamda takrorlanmas obidalardir.
2	Parij	B	Sayyohlar Vltava daryosi uzra o‘tgan, ajoyib ko‘rinish kasb etuvchi Charlz ko‘prigini qiziqib tomosha qiladilar.
3	Praga	D	Shahardagi arxitektura namunalari juda ham noyob san’at asariga o‘xshaydi. Ayniqsa, ularning aksi shaharni kesib o‘tgan kanallarda mavjlanganida butunlay boshqacha manzara hosil bo‘ladi.

151


4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Italiya juda noyob o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega.

Foydalanish uchun so‘zlar: eng go‘zal, juda noyob, eng ko‘rkam, juda jozibali.

1. Italiya … o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega.
2. Shahardagi milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar …
3. Dunyodagi … manzaralarni ko‘rishni istaysizmi?
4. Venetsiya shahri arxitekturasi … san’at asariga o‘xshaydi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Nima deb o‘ylaysiz, bu shaharlarni birlashtirib turgan xususiyat nima?
2. Sayohat qilish uchun yuqoridagi shaharlardan qay birini tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

Mustaqil ish
O‘zingizni xorijda deb tasavvur qiling va ota-onangizga maktub yozing.

152

Har birimiz qachondir bo‘lsa-da, bir marta dunyo bo‘ylab sayohat qilish haqida orzu qilamiz. Sayohat rejasini tuzishda birinchi bo‘lib dunyodagi eng ko‘rkam joylar haqidagi ma’lumotlarga tayanamiz. Internet tarmoqlariga kirib izlaganimizda, dunyodagi eng ajoyib sayyohlik shaharlari chiqib keladi. Bu maqolamiz orqali sizga eng chiroyli shaharlar haqidagi ma’lumotlarni taqdim etmoqchimiz.

1. Venetsiya dunyodagi eng go‘zal va noyob shaharlardan biridir. Shahardagi arxitektura juda ham nodir san’at asariga o‘xshaydi, ayniqsa ularning aksi shaharni kesib o‘tgan kanallarda mavjlanganida butunlay boshqacha manzara hosil bo‘ladi. Shahar bo‘ylab yurarkansiz, o‘zingizni xuddi ertaklardagidek his qilasiz.

2. Parij – ulug‘vor shahar. Unga ko‘rk berib turuvchi detallar Sena daryosini kesib o‘tgan ko‘priklar, bir-biridan so‘lim xiyobonlar, ko‘rkam binolar hamda takrorlanmas obidalardir. Parijda joylashgan Yelisey maydoni va Vogezlar maydoni binolarining nomlari butun Yevropada turarjoy maydonlarining prototipiga aylangan.

3. Praga shahrining o‘ziga xosligi uning bir necha minglik asrga teng bo‘lgan tarixiy obidalari hamda ularning ustida parvoz qiluvchi qirg‘iylaridir. Sayyohlar Vltava daryosi uzra o‘tgan ko‘priklardan biri, ayniqsa, ajoyib ko‘rinish kasb etuvchi Charlz ko‘prigini qiziqib tomosha qiladilar. Ular betakror eski shahar maydonidan turib shaharni nazorat qiluvchi ushbu tabiat qo‘riqchilari – qirg‘iylarga zavq bilan boqishadi.

7. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida “Tushunchalar tahlili” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

Venetsiya	Shahardagi arxitektura juda ham nodir san’at asariga o‘xshaydi, ayniqsa. ularning aksi shaharni kesib o‘tgan kanallarda mavjlanganida butunlay boshqacha manzara hosil bo‘ladi.

Parij	Unga ko‘rk berib turuvchi detallar Sena daryosini kesib o‘tgan ko‘priklar, bir-biridan so‘lim xiyobonlar, ko‘rkam binolar hamda takrorlanmas obidalardir.
Praga	Sayyohlar Vltava daryosi uzra o‘tgan ko‘priklardan biri, ayniqsa, ajoyib ko‘rinish kasb etuvchi Charlz ko‘prigini qiziqib tomosha qiladilar.

8. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan.

Berilgan so‘zlardan namunadagi kabi gap tuzishni tushuntiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *eng go‘zal, juda noyob, eng ko‘rkam, juda jozibali.*

1. Italiya juda noyob o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega.
2. Shahardagi milliy bog‘lar va qo‘riqxonalar juda jozibali.
3. Dunyodagi eng ko‘rkam manzaralarni ko‘rishni istaysizmi?
4. Venetsiya shahri arxitekturasi eng go‘zal san’at asariga o‘xshaydi.

9. 5-topshiriqda o‘quvchilar berilgan rasmlarni kuzatadilar va savol-javob asosida suhbat o‘tkazadilar.

1. Nima deb o‘ylaysiz, bu shaharlarni birlashtirib turgan narsa nima?
2. Sayohat qilish uchun yuqoridagi shaharlardan qay birini tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

10. Refleksiya. O‘quvchilar “Zanjir” usulida o‘zlariga yoqqan shaharning nomini aytadilar.

11. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida “O‘zingizni xorijda his qiling. Ota-onangizga maktub yozing” topshirig‘i beriladi. Maktub yozayotganda namunadan foydalanish mumkin.

6-MAVZU. ENG G‘AROYIB GINNESCHILAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Norasmiy xat yoza oladi va xatlarga javob qaytara oladi.

VAZIFALAR:


1. Refleksiya. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida yozib kelish topshirilgan maktubni o‘qittiring. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilarni alohida e’tirof eting.

2. “Qanday Ginnes rekordlarini bilasiz? Rekordlarni kuzatib borasizmi? kabi savollar bilan, o‘quvchilarni yangi darsga olib kiring.

3. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering

Dunyodagi eng bahaybat gamburgerni ko‘ring!

AQSHda dunyodagi eng katta – 352 kg lik gamburger tayyorlandi. Uni tayyorlash uchun roppa-rosa 14 soat ketgan.


ENG G'AROYIB GINNESCHILAR

1. Tinglang.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Taomlar	O'zbekiston	352 kg	7360 kg	AQSH	100 kg	Qrim
gamburger						
osh	+					
cheburek						

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
4-yoshli Bini "eng yaxshi basketbolchi -it" deb tan olingan. Jonivor bir minut ichida to'pni savatga 7 marta tushira oladi.

1. 4 yoshli Bini "eng yaxshi basketbolchi ..." deb tan olingan. Jonivor bir minut ichida to'pni savatga 7 marta tushira oladi.
2. Purin laqabli ... panjalari bilan to'pni tutib olish bo'yicha rekord o'rnatdi. U bir daqiqada 14 ta to'pni tutib oldi.
3. Berti laqabli ... eng tez yuguruvchi toshbaqa sifatida rekord o'rnatdi. U bir soniyada 28 cm masofani bosib o'tgan.

milliy
vakil
pishirmoq
jarayon
yig'a boshlamoq
nusxa

153

O‘zbekistonda dunyodagi eng katta osh tayyorlandi!

Toshkent shahrida Sayilgoh ko‘chasida dunyodagi eng katta osh tayyorlandi. Angliyadan kelgan vakil vazn o‘lchash yakunlangach, oshning og‘irligi 7360 kg ekanini qayd etdi va jahon rekordi o‘rnatilgani bilan oshpazlarni tabrikladi.

Qrim milliy bayramida ulkan cheburek?!

Qrimda Xidirlez milliy bayramiga og‘irligi 100 kg bo‘lgan cheburek tayyorlandi. Uni tayyorlashda ishtirok etgan oshpazning aytishicha, pishirish jarayoniga atigi 2 daqiqa vaqt ketgan. Lekin yog‘ qizishiga bir yarim kun kerak bo‘ldi. Cheburekni tayyorlashda 18 kishi qatnashgan.

4. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida quyidagi jadval bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.


Taomlar	O‘zbekiston	352 kg	7360 kg	AQSH	100 kg	Qrim
Gamburger		+		+		
Osh	+		+			
Cheburek					+	+

5. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. rasmlarga qarab o‘quvchilar gap mazminiga mos hayron nomini qo‘yadilar va ko‘chirib yozadilar

1. 4 yoshli Bini “eng yaxshi basketbolchi it” deb tan olingan. Jonivor bir daqiqa ichida to‘pni 7 marta “savatga” tushira oladi.

2. Purin laqabli quyon panjalari bilan to‘pni tutib olish bo‘yicha rekord o‘rnatdi. U bir daqiqada 14 ta to‘pni tutib oldi.

3. Berti laqabli toshbaqa eng tez yuguruvchi toshbaqa sifatida rekord o‘rnatdi. U bir soniyada 28 cm masofani bosib o‘tgan.



4. O'ylang va toping. Yozing.

Bahaybat = ulkan = katta.

Namuna:
Dunyodagi eng bahaybat gamburger AQSHda tayyorlandi!

1. O'zbekistonda dunyodagi eng … osh tayyorlandi!
2. Toshkent oshpazlari eng … osh tayyorlagani uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi.
3. Qrim milliy bayramida … cheburek pishirildi.

5. O'qing. O'ylang va toping.

Natan Savayya lego konstruktori detallaridan qurgan "betmobil"i tufayli Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan. Nusxa yaratilishiga uch oy vaqt va 500 ming detal ketgan. "Betmobil"ning uzunligi 5,5 metr bo'lib, 68 kilogramm og'irlikka ega.

Bred Ladner – Betmen buyumlaridan iborat eng katta kolleksiya egasi. U 1988-yildan buyon betmenlarni yig'a boshlagan.

Britaniyalik Jon Bitmid mashhur bolalar avtomobili – "Cozy Couple"ning eng katta nusxasini yasashga muvaffaq bo'ldi.

Natan Savayya	mashhur bolalar avtomobili "Cozy Couple"ning eng katta nusxasini yasashga muvaffaq bo'ldi.
Bred Ladner	lego detallaridan katta "betmobil" yasadi.
Jon Bitmid	Betmen buyumlaridan iborat eng katta kolleksiya egasi.

Mustaqil ish
Ginnes rekordlar kitobi haqida ma'lumot yozing.

154

6. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *milliy, vakil, pishirish jarayoni, yig‘a boshlagan, nusxa, panja.*

7. 4-topshiriqqa o‘tishdan avval sinonimlar haqida yana bir bor eslatib o‘ting. Sinonimlar har doim ham bir-birining o‘rnida kela olmasligini tushuntiring.

Namuna: *Dunyodagi eng bahaybat gamburger AQSHda tayyorlandi!*

1. O‘zbekistonda dunyodagi eng katta osh tayyorlandi!
2. Toshkent oshpazlari eng katta osh tayyorlagani uchun “Ginnessning rekordlar kitobi”ga kirdi.
3. Qrim milliy bayramida ulkan cheburek pishirildi.

8. O‘quvchilar diqqatini darslikda berilgan rasmga qarating.

Rasmda nimani ko‘ryapsiz? Qanday o‘ziga xos jihatlari bor?

5-topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘qiting.

9. Matnni o‘qib tushunganliklarini tekshirish uchun “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalaning.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Natan Savayya	mashhur bolalar avtomobili “Cozy Couple”ning eng katta nusxasini yasashga muvaffaq bo‘ldi.
Bred Ladner	Lego detallaridan katta “betmobil” yasadi.
Jon Bitmid	Betmen buyumlaridan iborat eng katta kolleksiya egasi.

10. Refleksiya. “Timsoh” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda o‘quvchi doskaga chiqib, bugungi mavzudan esida qolgan bitta so‘zni imo-ishoralar yordamida ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa bu so‘zni o‘quvchining harakatiga qarab topishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganliklarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida “Ginnes rekordlar kitobi haqida ma’lumot yozing” topshirig‘ini bering.

7-MAVZU. KITOBLAR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar)ni eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, joylar, bino va inshootlar tasvirini tushuna oladi.
- Nutqida his-hayajon gaplarni ishlata oladi (*“Qanday go‘zal joy!”* singari) o‘rgatish.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar bajarib kelgan topshiriq – “Ginnes rekordlar kitobi” haqidagi ma’lumotni taqdim qiladilar. Buni “Intervyu” metodi orqali so‘rash ham mumkin. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilar alohida e’tirof etiladi.

O‘quvchilarni yangi mavzuga olib kirish uchun “Eng sevimli kitobingiz qaysi?”, “Kitob o‘qiganda nimalarni his qilasiz?” kabi savollar beriladi.


2. Topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

3. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 2-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “To‘g‘ri / Noto‘g‘ri” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

1	“Kichkina shahzoda” asari kattalar tomonidan ham sevib o‘qilgan.	✔
2	Joan Roulingning “Garri Potter va hikmatlar toshi” asari Janni Rodarining e’tirofiga sazovor bo‘ldi.	✘
3	Joan Roulingning “Uzuklar hukmdori” asari 140 mln nusxada chop qilingan.	✘
4	1971-yili jahon bolalar yozuvchilarining kengashi Italiyaning Rim shahrida bo‘lib o‘tgan .	✔

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering.) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *muallif, noshir, iqtisodiy, shuhrat, nashriyot, mutolaa qilmoq.*


KITOBLAR

1. O'qing.

Jon Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asari 150 mln nusxada chop qilingan.
Noshirlar talabiga ko'ra asar uchga bo'linadi va trilogiyaga aylantiriladi. Bu iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli loyiha va noshirlarga katta foyda, yozuvchiga ulkan shuhrat keltiradi.
Joan Rouling qalamiga mansub "Harri Potter va hikmatlar toshi" asari 107 mln nusxada chop qilingan.
Bu asarni ko'plab nashriyotlar chop etishni istamagan. Ammo Roulingga baribir omad kulib boqdi va aynan ushbu asarlar turkumi uni birinchi yozuvchi-millionerga aylantirdi.
Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari 140 mln nusxada nashr qilingan.
Asli uchuvchi bo'lgan yozuvchiga bu asari juda katta shuhrat keltirdi. Nafaqat bolalar, balki kattalar ham sevib o'quvchi asar dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan.
Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romani o'zbek bolalar adabiyotida eng ko'p xorijiy tilga tarjima qilingan asardir. Bu haqida yozuvchining o'zi shunday deydi: "Sariq devni minib" asarimning jahon tillariga ko'p tarjima qilinishiga 1971-yili Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida Janni Rodarining shu asar haqida aytgan iliq gaplari sabab bo'lgan".

muallif
noshir
iqtisodiy
shuhrat
nashriyot
o'qimoq
mutolaa qilmoq


2. O'ylang va toping. Gapiring. ✓ ✗

1	"Kichkina shahzoda" asarini kattalar ham sevib o'qiydi.	
2	Joan Rouling qalamiga mansub "Harri Potter va hikmatlar toshi" asari Janni Rodarining e'tirofiga sazovor bo'ldi.	
3	Jon Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asari 140 mln nusxada chop qilingan.	
4	1971-yili Italiyaning Rim shahrida jahon bolalar yozuvchilarining kengashi bo'lib o'tgan.	

DIQQAT QILING

Kitoblar, badiiy asarlar nomi bosh harf bilan, qo'shtirnoq ("") ichida yoziladi.

155


3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Asl kasbi uchuvchi bo'lgan yozuvchiga "Kichkina shahzoda" asari juda katta shuhrat keltirdi.

1. Asl kasbi uchuvchi bo'lgan yozuvchiga … asari juda katta shuhrat keltirdi.
2. Yozuvchining … asarini ko'plab nashriyotlar chop etishni istamagan.
3. O'zbek bolalar adabiyotida … asari eng ko'p xorijiy tillarga tarjima qilingan.
4. Noshirlar talabiga ko'ra, … asari uchga bo'linadi va trilogiyaga aylantiriladi.

4. Tinglang va savollarga javob bering.

1. "Sariq devni minib" asari qayerlarda chop etilgan?
2. Kitob qancha nusxada bosilib chiqqan?
3. Xudoyberdi To'xtaboyev asarini rus tiliga kim tarjima qilgan?
4. "Sariq devni minib" asari necha kitobdan iborat?
5. Kitob qancha vaqtda yozilgan?
6. "Sariq devni minib" asarining ikkinchi kitobini yozishni kim maslahat bergan?

5. O'ylang va toping. Gapiring.

S-strong (kuchli tomonlari)
W-weakness (kuchsiz tomonlari)
Hoshimjon obrazi
O-opportunity (imkoniyatlar)
T-threat (to'siqlar)

Mustaqil ish

Maktabingiz kutubxonasi haqida videolavha tayyorlang.

156

5. “Diqqat qiling!” ruknida badiiy asar nomlarini to‘g‘ri yozish haqida ma’lumot bering.

Badiiy asar nomlari har doim qo‘shtirnoq ichida bosh harf bila yoziladi. Masalan: *Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” asari.*

6. 3-topshiriq o‘quvchilarning yozish ko‘nikmlarini rivojlantirish va grammatik bilimlarini mustahkamlash maqsadida berilgan. Rasmlarda berilgan asar nomlarini o‘z o‘rinlariga qo‘yadilar.

1. Asl kasbi uchuvchi bo‘lgan yozuvchiga “Kichkina shahzoda” asari juda katta shuhrat keltirdi.
2. Yozuvchining “Garri Potter va hikmatlar toshi” asarini juda ko‘pchilik nashriyotlar chop etishni istamagan.
3. O‘zbek bolalar adabiyotida “Sariq devni minib” asari eng ko‘p xorijiy tillarga tarjima qilingan.
4. Noshirlar talabiga ko‘ra, “Uzuklar hukmdori” asari uchga bo‘linadi va trilogiyaga aylantiriladi.
5. “Sariq devni minib” asari haqida mashhur bolalar yozuvchisi Janni Rodari iliq fikrlarini bildirgan.

7. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering

Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. Uning asarlari tojik, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon, arman, rus, ukrain, belorus, moldovan, eston, latish, litva, fin, bolgar, venger, nemis, chex, italyan – jami 24 tilga tarjima qilingan. “Sariq devni minib” asari nafaqat o‘zbek bolalari tomonidan, balki dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ham sevib o‘qiladi. Bu asarning jahon tillariga tarjima qilinishiga sabab 1971-yili Italiyaning Rim shahrida o‘tgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida Janni Rodarining asar haqida aytgan iliq gaplari bo‘lgan edi.

Asar 1971-yildan boshlab “Volshebnaya shapka” nomi ostida 200 mingdan ortiq nusxada Moskvada chop qilingan. Asar 6 bo‘limdan iborat bo‘lib, davomi yozilguncha, muxlislar qo‘lma-qo‘l qilib o‘qib chiqib, davomini kutardi. Asar bir yarim yilda yozib tugatildi. Rus tiliga Ervin Umerov tarjima qilgan.

Yozuvchi Asqad Muxtor taklifi bilan, asarning 2-kitobi – “Sariq devning o‘limi” dunyoga keldi. Bu asar ham muxlislar tomonidan qiziqish bilan kutib olindi.

8. Tinglab tushunish malakasini aniqlash uchun og‘zaki savol-javob o‘tkazing.

1. “Sariq devni minib” asari qayerda chop qilingan?
2. Kitob qancha nusxada bosilib chiqqan?
3. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarini rus tiliga kim tarjima qilgan?
4. “Sariq devni minib” asari necha kitobdan iborat?
5. Kitob qancha vaqtda yozilgan?
6. “Sariq devni minib” asarining ikkinchi kitobini yozishni kim maslahat bergan?

9. Refleksiya. “Aktivator-3-2-1” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga topshiriq bering.

Siz uchun muhim bo‘lgan 3 ta ma’lumot.
Yodingizda qolgan 2 ta ma’lumot.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Men albatta qo‘llayman: 1 ta ma’lumot.

O‘quvchilar shu haqda daftarlariga tezlik bilan yozishsin. Bu ma’lumotlarni har bir o‘quvchiga o‘qitishga harakat qiling.

10. Mustaqil ish uchun o‘quvchilarga o‘zlari tahsil olayotgan maktabi kutubxonasi haqida videolavha tayyorlashni topshiring.

8-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilarga maktab kutubxonasi haqida tayyorlagan videolavhani namoyish qilishlari uchun sharoit yaratib bering.

Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni, albatta, baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidgai savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

“Eng, eng, eng” so‘ziga izoh bering.

O‘zingizni hayratga solgan narsalar haqida gapirib bering.

O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda ularni hayratga sola oladigan ma’lumotni o‘qishlarini ta’kidlang.

3. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.



ADABIY O‘QISH

Ma’lumotlarga qaraganda, dunyo siyosiy xaritasida 200 dan ortiq mamlakat mavjud. Ular hududiy kattaligi, aholisi jihatidan ham xilma-xildir. Quyida aholisi eng ko‘p davlatlar ro‘yxatini taqdim qilamiz.

Xitoy 1-o‘rinda turadi. 1,4 mlrd dan oshiq aholisi bo‘lgan bu davlat ulkan mehnat resurslariga ega.

2-o‘rinni Hindiston egallaydi. Uning aholisi 1 mlrd dan oshiq va ular yildan yilga ko‘paymoqda.

3-o‘rinni esa AQSH egallab turibdi. Bilasizki, bu davlatda yashashni, u yerga borishni xohlovchilar juda ko‘p. Shuning hisobiga aholisi ko‘payib bormoqda.

Qolgan o‘rinlarni Indoneziya, Braziliya, Pokiston, Nigeriya, Rossiya, Bangladesh va Yaponiya mamlakatlari egallaydi.

Bundan tashqari, kichik hudud va oz aholiga ega mikrodavlatlar ham bor.

Dunyodagi eng mitti davlat Vatikan bo‘lib, aholisi 800 kishidan iborat.

Monako, Gibraltar, Tuvalu, San Marino ham mitti mamlakatlar safiga kiradi. Ularning aholisini bir necha ming kishi tashkil qiladi.

Savollar:

1. Bu davlatlar haqida oldin ham eshitganmisiz?
2. Shunga o‘xshash yana qanday qiziqarli ma’lumotlarni bilasiz?
3. Hududi jihatdan katta va kichik davlatlar haqida bilasizmi?

157

Ma’lumotlarga qaraganda, dunyo siyosiy xaritasida 200 dan ortiq mamlakat mavjud. Ular hududiy kattaligi, aholisi jihatidan ham xilma-xildir. Quyida aholisi eng ko‘p davlatlar ro‘yxatini taqdim qilamiz.

Yuqori o‘rinlarni Xitoy, Hindiston va AQSH egallaydi.

Qolgan o‘rinlarni Indoneziya, Braziliya, Pokiston, Nigeriya, Rossiya, Bangladesh va Yaponiya mamlakatlari egallaydi.

Bundan tashqari, kichik hudud va oz aholiga ega mikrodavlatlar ham bor.

Dunyodagi eng mitti davlat Vatikan bo‘lib, aholisi 800 kishidan iborat.

Monako, Gibraltar, Tuvalu, San-Marino ham mitti mamlakatlar safiga kiradi. Ularning aholisini bir necha ming kishi tashkil qiladi.

4. O‘quvchilarning o‘qilgan manbadan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘kazing.

1. Bu davlatlar haqida oldin ham eshitganmisiz?
2. Shunga o‘xshash yana qanday qiziqarli ma’lumotlarni bilasiz?
3. Hududi jihatdan katta va kichik davlatlar haqida bilasizmi?

5. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida badiiy asardan olgan taassurotlarini yozishni yoki shu asosda rasm chizib kelishni topshiring.

AJDODLARNING G‘AROYIB IXTIROLARI
1-MAVZU. “EVRIKA”


DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladi, ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi, bino va inshootlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi, taxminni bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. O‘quvchilar bilan yangi bo‘limga motivatsion kirishni amalga oshirish uchun “To‘rt taraf” metodidan foydalaning. Buni o‘tkazish uchun o‘quvchilarning har biriga oq qog‘oz tarqatiladi. Bir tarafiga o‘quvchining ismi va familiyasi yoziladi. Qolgan tarafiga savollarni har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining bilim saviyasidan kelib chiqib tuzadi. Masalan, “Siz qanday kashfiyotlarga qiziqasiz?”, “Sizni qaysi sohada yaratilgan yangiliklar qiziqtirmaydi?“, “Qanday tajribalar o‘tkazgansiz?” Bu metod o‘quvchilarni yanada yaxshiroq bilib olish, qiziqishlarini o‘rganish uchun imkoniyat beradi. O‘quvchilarda ham mavzuga nisbatan yanada ko‘proq qiziqish uyg‘otadi.

“Evrika” so‘zini qayerda eshitgansiz, bu so‘z sizga tanishmi?“ savoli bilan yangi mavzuga kirish qiling.


AJDODLARNING G‘AROYIB IXTIROLARI

EVRIKA

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Arximed qonunini qanday tushundingiz?
2. Nima uchun nina suvda cho‘kadi-yu, katta-katta kemalar suvda cho‘kmaydi?
3. Suvosti kemalari qay tartibda ishlaydi?
4. Tortishish qonuniga qanday misollar keltira olasiz?

2. O‘ylang va toping. Yozing.

DIQQAT QILING

... -sa + kerak.

A B D E


1. ..., A stakandagi suv ko‘proq...
2. B stakandagi suv ko‘proq, ...
3. D stakandagi suv ko‘proq ...
4. E stakandagi suv, ... ko‘proq.

3. O‘qing. O‘ylang va toping. Yozing.

Qadimgi Yunonistonning Sirakuza **shahri/shaxri** hokimi Hiyeron eng mohir zargarlarga oltindan toj yasashni buyuribdi. Zargarlar **xokimdan/hokimdan** sof oltinni olib, tez orada kutilganidan ham a’lo qilib toj yasab berishibdi. Hiyeron judayam xursand bo‘libdi. Ammo “Balki, zargarlar tojni sof oltindan yasamay, unga biror modda qo‘shgan bo‘lsa-chi?!”

158

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering


degan **shubhaga/shubxaga** boribdi. Shu tariqa u ustalarning **xalolligini/halolligini** tekshirib ko‘rmoqchi bo‘libdi.

O‘sha davrda Yunonistonning eng mashhur olimi **Arximed/Arhimed** edi. Shu sababli ham hokim toj yasashda ishlatilgan oltinning sofligini aniqlashni unga topshiribdi.

Arximed yashagan davrda bunday muammolarning yechimini topish amrimahol edi. Bechora olim hokimning topshirig‘ini bajarmasa, jazolanishini **xam/ham** bilardi. Shuning uchun u tun-u kun bu masala ustida bosh qotirar, lekin biror natija chiqarolmas edi. Shunday kunlarning birida u ichiga suv to‘ldirilgan tog‘oraga tushayotib o‘z vaznining biridan yengillashgani va ortiqcha suvning tog‘oradan toshib ketayotganini ko‘radi-yu, hokim buyurgan vazifa yodiga tushadi. **Xursand/hursand** bo‘lib ketgan Arximed “Evrika!” deya baqirgancha saroyga yo‘l oladi.

Namuna:
1) shahri, 2)..., 3)..., 4)..., 5)..., 6)..., 7)...

4. O‘ylang va toping. Yozing.

1. U saroyga (yetib bormoq).
2. Hokim zargarlardan (shubhalanmoq).
3. Olim shohning topshirig‘ini bajara olmasligidan (qo‘rqmoq).
4. U hokim buyurgan vazifani bajara olganidan (xursand bo‘lmoq).

1. U saroyga yetib borgan.
2.....
3.....
4.....

1. U saroyga yetib borgandir.
2.....
3.....
4.....

Mustaqil ish

EVRIKA so‘zidagi harflardan foydalanib ixtirolarga misol keltiring.

E – elektr, ...
V – ...
R – ...
I – ...
K – ...
A – ...

159

Fizika darslarida Arximed qonuni haqida eshitgan bo‘lsangiz kerak. Xo‘sh, Arximed qonuni nimadan iborat? Uning mohiyati quyidagicha: har qanday narsa suvga tashlansa, o‘sha narsa suvga kirgandan keyin o‘zining hajmi miqdoricha suvni tashqariga itarib chiqaradi. Masalan, bankadagi suvga qo‘l solinsa, shu qo‘l miqdoricha suv tashqariga chiqadi. Shu itarish qonuni deyiladi.

Yer suvga kirayotgan narsani tortishish qonuniga ko‘ra tortadi. Shunda ikki kuch bir-biriga qarama-qarshi bo‘ladi: bir tarafdan tashqariga chiqarmoqchi bo‘lgan kuch, bir tarafdan Yerning tortish kuchi. Arximed shu ikki kuchni taqqoslaydi.

Nima uchun ignani suvga tashlasa cho‘kadi? Kemalar esa cho‘kmay, suvda turadi. Buning sababi suvga tashlangan jismning hajmi va og‘irligidadir. Ya’ni ignaning hajmi kichkina, og‘irligi esa katta. Shuning uchun o‘zining hajmi miqdoricha suvni tashqariga itarib chiqara olmaydi. O‘zi esa cho‘kib ketadi. Agar igna yalpoq, yassi holatga keltirilsa, o‘zining hajmi miqdoridagi suvni tashqariga chiqaradi. 1 kg tosh suvga uloqtirilsa, cho‘kib ketadi. Agar uning cho‘kmasligini xohlasak, uning og‘irligidan hajmini katta qilishimiz kerak. Har qanday jismning og‘irligi hajmidan kichik bo‘lsa, cho‘kmaydi.

3. Tinglab tushunish malakasini aniqlash uchun og‘zaki savol-javob o‘tkaziladi. O‘qituvchi savollar sonini oshirishi mumkin.

1. Arximed qonunini qanday tushundingiz?
2. Nima uchun igna suvda cho‘kadi-yu, katta-katta kemalar suvda cho‘kmaydi?
3. Suvosti kemalari qanday ishlaydi?

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting

Lug‘atingiz uchun: *o‘ylamoq, bosh qotirmoq, yasamoq, yodga tushirmoq, yechim topmoq, toj, sof.*

5. “Diqqat qiling!” ruknida taxmin, gumonni bildiruvchi vositalar berilgan. O‘zbek tilida gumon ma’nosi balki, ehtimol modal so‘zlari va -dir qo‘shimchasi bilan ham hosil qilinadi. Modal so‘zlardan oldin va keyin har doim vergul qo‘yiladi.

6. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va grammatik bilimlarini mustahkamlash uchun darslikda 2-topshiriq berilgan.

Berilgan rasm asosida taxminni bildiruvchi gaplar tuziladi.
1. Balki, A stakandagi suv ko‘proqdir.
2. B stakandagi suv ko‘proq, ehtimol.
3. D stakandagi suv ko‘proq bo‘lsa kerak.
4. E stakandagi suv, balki, ko‘proq.

7. 3-topshiriqda berilgan matnni “Zanjir” usulida o‘quvchilarga o‘qiting. Matnni o‘qish jarayonida o‘quvchilar qaysi so‘zni tanlaganini doskaga yozib borsin.

Bunda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan biri xato, biri to‘g‘ri. “X” va “H” tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatuvchi bu mashq orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakasi rivojlantiriladi: *shahri, hokimdan, shubha, halollik, Arximed, ham, xursand.*

Qadimgi Yunonistonning Sirakuza shahri hokimi Hiyeron eng mohir zargarlariga oltindan toj yasashni buyuribdi. Zargarlar hokimdan sof oltinni olib, tez orada kutilganidan ham a’lo qilib toj yasab berishibdi. Hiyeron judayam xursand bo‘libdi. Ammo “Balki, zargarlar tojni sof oltindan yasamay, unga biron modda qo‘shgan bo‘lsalar-chi?!” degan shubhaga boribdi. Shu tariqa u ustalarning halolligini tekshirib ko‘rmoqchi bo‘libdi.

O‘sha davrda Yunonistonning eng mashhur olimi Arximed edi. Shu sababli ham hokim toj yasashda ishlatilgan oltinning sofligini aniqlashni unga topshiribdi.

Arximed yashagan davrda bunday muammolarning yechimini topish amrimahol edi. Bechora olim hokimning topshirig‘ini bajarmasa, jazolanishini ham bilardi. Shuning uchun u tun-u kun bu masala ustida bosh qotirar, lekin biror natija chiqarolmasdi. Shunday kunlarning birida u ichiga suv to‘ldirilgan tog‘oraga tushayotib o‘z vaznining birdan yengillashganini va ortiqcha suvning tog‘oradan toshib ketayotganini ko‘radi-yu, hokim buyurgan vazifa yodiga tushadi. Xursand bo‘lib ketgan Arximed “Evrika!” deya baqirgancha saroyga yo‘l oladi.

8. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 4-topshiriq berilgan. Bu topshiriqda berilgan gaplar ikki guruhga yoziladi. 1-guruhga gumon qo‘shimchasisiz, 2-guruhda-dir qo‘shimchasi bilan yoziladi va ma’nolar taqqoslanadi.

1. U saroyga yetib borgandir.
2. Hokim zargarlardan shubhalangandir.
3. Olim shohning topshirig‘ini bajara olmasligidan qo‘rqqandir.
4. U hokim buyurgan vazifani bajara olganidan xursand bo‘lgandir.

1. U saroyga yetib borgan.
2. Hokim zargarlardan shubhalangan.

3. Olim shohning topshirig‘ini bajara olmasligidan qo‘rqqan.
4. U hokim buyurgan vazifani bajara olganidan xursand bo‘lgan.

9. Refleksiya. “Kalit so‘z” metodi asosida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlang. Bunda har bir o‘quvchi bugungi mavzuda esida qolgan bitta so‘zni daftariga yozadi. Keyin so‘zlarni hammaga o‘qittirasiz. Qaysi so‘z ko‘p takrorlangan bo‘lsa, o‘sha so‘z “kalit so‘z” deb qabul qilinadi.

O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

10. Mustaqil ish sifatida “EVRIKA” so‘zidagi harflardan foydalanib ixtirolarga misol keltirish topshirig‘i beriladi.


E – elektr.
V – velosiped.
R – raketa.
I – inkubator.
K – kompyuter.
A – avtomobil.

2-MAVZU. NILOMETR

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladio, ochiq aytilmagan ayrim fikrlarni ilg‘ay oladi.
- Bino va inshootlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi. Taxminini bildira oladi.

VAZIFALAR:


NILOMETR

1. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

nilometr
inshoot
qavur
qurilma
o'lchamoq
ixtiro qilmoq
dunyoga tanilmoq

	Ma'lumotlar	Ha/yo'q
1	Al-Farg'oniy XI asrda Farg'onada tug'ilgan.	
2	U matematika, astronomiya, fizika kabi fanlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.	
3	Al-Farg'oniy chuqur ilmiy tadqiqotlar natijasida Yerning shar shaklida ekanini asoslagan.	
4	Nil daryosidagi suvning hajmi va tezligini o'lchaydigan inshoot – nilometrni yaratgan.	
5	Sharq mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan mashhur.	

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Ahmad Farg'oniy 861-yili Nil daryosi suvini o'lchashga yordam beradigan nilometrni ixtiro qilgan.

Foydalanish uchun so'zlar: soat, ixtiro qilmoq, uskuna, o'lchamoq, maslahatlar bermoq, o'lchov, saqlanib kolmoq.

1. Ahmad Farg'oniy 861-yili Nil daryosi suvini o'lchashga yordam beradigan nilometrni ...
2. Ushbu ... suv balandligini ko'rsatib turuvchi 16 chiziqli belgi bo'lgan.
3. Agar ... 12 dan past bo'lsa, o'sha yili hosil yaxshi bo'lmagan.
4. Al-Farg'oniy yil boshida daryo suvini o'lchab, dehqonlarga foydali...
5. "Miqyosun Nil" qurilmasi mutaxassislar tomonidan hamon ishchi holatda...

160

1. Refleksiya. Mustaqil ish uchun berilgan topshiriq so‘raladi. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilar alohida e’tirof etiladi.

“Ajdodlarimiz ixtiro qilgan qanday qurilmalarni bilasiz?” savoli bilan yangi mavzuga kirish qilasiz.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering

Dunyodagi qator fanlarning rivojiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ allomalardan biri IX asrda yashab ijod etgan hamda geografiya, astronomiya, matematika va geometriya fanlari rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan yurtdoshimiz, G‘arbda “Alfraganus” nomi bilan mashhur bo‘lgan Ahmad Farg‘oniydir. Uning astronomiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyos. U yulduzlarning orasidagi, Yerdan Quyosh, Oy va boshqa sayyoralargacha bo‘lgan masofalarni va ushbu osmon jismlarining hajmini aniqlab, jadval tuzgan. Yerning shar shaklida ekanligini asoslagan.

Ahmad Farg‘oniy Misrdagi Nil daryosi bo‘ylarida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan. Izlanishlarining natijasi o‘laroq, olim Nil daryosidagi suvning miqdori va tezligini o‘lchaydigan inshoot – nilomerni yaratgan. Aynan shu nilomerning ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda Misrda dehqonchilikni samarali va oqilona tashkil etish mumkin bo‘lgan

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganlarini aniqlash maqsadida 1-topshiriqni matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida “Ha / Yo‘q” usuli bo‘yicha og‘zaki tahlil qildiring.

№	Fikrlar	Ha / yo‘q
1	Al-Farg‘oniy XI asrda Farg‘onada tug‘ilmagan.	Ha
2	U matematika, astronomiya, fizika kabi fanlar rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan.	Yo‘q
3	Farg‘oniy chuqur ilmiy tadqiqotlar natijasida Yerning shar shaklida ekanini asoslagan.	Ha
4	Nil daryosidagi suvning miqdori va tezligini o‘lchaydigan inshoot – nilometrni yaratgan.	Ha
5	Sharq mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan mashhur.	Yo‘q


4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting

Lug‘atingiz uchun: *nilometr, quvur, qurilma, o‘lchamoq, ixtiro qilmoq, ilmiy tadqiqot.*

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. O‘quvchilar bu topshiriqda foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiradilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ixtiro qilmoq, uskuna, maslahatlar bermoq, o‘lchov, saqlab kelinmoq.*

1. Ahmad al Farg‘oniy 861-yili Nil daryosi suvini o‘lchashga yordam beradigan nilometrni ixtiro qildi.
2. Ushbu uskuna suv balandligini ko‘rsatib turuvchi 16 chiziqli belgi bo‘lgan.
3. Agar o‘lchov 12 dan past bo‘lsa, o‘sha yili hosil yaxshi bo‘lmagan.
4. Al-Farg‘oniy yil boshida daryo suvini o‘lchab, dehqonlarga foydali maslahatlar bergan.
5. “Miqyos an-Nil” qurilmasi misrliklar tomonidan hamon ishchi holatda saqlab kelinmoqda.



3. O'ylang va toping. Yozing.

Ahmad Farg'oniy Misrda Nil daryosi _____ o'lchash uchun qurgan "Miqyosun Nil" _____ hozirgacha saqlanib qolgan. Bu _____ hali ham dunyoning turli hududlaridan kelgan _____ hayratiga sabab bo'lmoqda.

1. sathini/yuzasini 2. binosi/inshooti
3. kashfiyot/ixtiro 4. sayyohlar/turistlar

4. O'qing va savollarga javob bering.

Karlar uchun eshitish uskunasi

Ixtirochi Jona Kon 14 yoshida "Aniq tebranuvchi" uskunasini yaratib, ixtirosi yordamida qanchadan qancha qulog'i og'ir insonlarga eshitish imkoniyatini berdi. U 2012-yilda "Ilm-fan yarmarkasi" tanlovi g'olibiga aylandi.

Qorda yuradigan mashina

Kanadalik ixtirochi Jozef-Arman Bombardye 15 yoshga to'lganida otasi sovg'a qilgan mashinani qismlarga ajratib, undan qorda yuradigan moslama modelini yasaydi. Yillar o'tib ixtirochi qorda yuradigan mashinalar ishlab chiqaruvchi kompaniyaga asos soladi.

Yangicha akkumulyator

Ixtirochi Eysha Xare 18 yoshida qo'l telefonlari uchun mo'ljallangan yangi turdagi akkumulyator o'ylab topdi. Uning yordamida qo'l telefonlarini 20–30 soniyada qayta zaryadlash mumkin. Qiz ixtirosi uchun "Intel" kompaniyasining "Yosh olimlar uchun mukofot"ini qo'lga kiritgan.

1. Yosh ixtirochilar qanday yangiliklarga qo'l urgan?
2. Jona Konning ixtirosi jamiyatimiz uchun qanchalik muhim?
3. Mazkur matnlarni umumlashtirgan holda qanday sarlavha qo'yish mumkin?

Mustaqil ish

Ixtirochi bo'lganingizda nima yasashingiz mumkinligi haqida yozing.

161

6. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Bunda sinonim so‘zlardan mosini tanlagan holda matnga kiritish zarur bo‘ladi. Mazkur mashq orqali o‘quvchilarda sinonim so‘zlardan foydalana olish ko‘nikmalari shakllanib boradi.

Ahmad al-Farg‘oniy Misrda Nil daryosi sathini o‘lchash uchun qurgan “Miqyos an-Nil” inshooti hozirgacha saqlanib qolgan. Bu ixtiro hali ham dunyoning turli hududlaridan kelgan sayyohlar hayratiga sabab bo‘lmoqda.

1) sathini / yuzasini; 2) binosi / inshooti;
3) kashfiyot / ixtiro; 4) sayyohlar / turistlar.

7. Topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi. Ushbu matn o‘quvchilar bilan yoshlariga tengdosh bolalar tomonidan qilingan ixtirolar haqidadir, O‘quvchilarga motivatsiya berib, ularning ham yosh bo‘lsalar-da, imkoniyati borligim aytib o‘ting.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

8. Matn asosida o‘qib tushunish malakasini aniqlash uchun savollar beriladi.
1. Yosh ixtirochilar nimalarni kashf qilishgan?
2. Brayl alifbosi haqida nimalarni bilasiz?
3. Mazkur matnlarni birlashtirgan holda qanday sarlavha qo‘yish mumkin?

9. Refleksiya. O‘quvchilar o‘tilgan mavzudan xulosa chiqargan holda qisqa vaqtda “BBB” usulida 2 yoki 3 ta ma’lumot yozadilar.

10. Mustaqil ish sifatida o‘quvchilarga ixtirochi bo‘lganlarida nimani kashf qilishlari haqida yozish topshirig‘i beriladi.

3-MAVZU. ULUG‘BEK RASADXONASI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunishga, ochiq aytilmagan ayrim fikrlarni ilg‘ay oladi.


Bino va inshootlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi, taxminni bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. Mustaqil ish sifatida o‘quvchilarga berilgan ixtirochi bo‘lganlarida nimani kashf qilishlari haqida yozish topshirig‘ini “Intervyu” metodi asosida so‘rash mumkin. Imkoni boricha barcha bolalarni jarayonga jalb qilish zarur. Og‘zaki javoblar ham rag‘batlantirilishi kerak. Muhimi – o‘quvchilarda ixtirochilikka ishtiyoq uyg‘otish.

“Mirzo Ulug‘bek haqida nimalarni bilasiz? Rasadxona haqida-chi?” savollari bilan o‘quvchilarning diqqati yangi mavzuga qaratiladi.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering


ULUG'BEK RASADXONASI

1. Tinglang va savollarga javob bering.

1. Mirzo Ulug'bek qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Uning bobosi kim?
3. Ulug'bek qaysi fanlar bilan shug'ullangan?
4. Mirzo Ulug'bek qanday jadval tuzgan?

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Teleskop ixtiro qilinguncha qadar astronomlar osmon jismlarini oddiy ko'z bilan kuzatishgan.


Foydalanish uchun so'zlar:
teleskop, kvadrant, asboblar, yulduzlar

1. Astronomlar ... ixtiro qilinguncha qadar osmon jismlarini oddiy ko'z bilan kuzatishgan.
2. Keyinchalik yulduzlarning joylashuvi va ular orasidagi masofani o'lchovchi maxsus ... yaratilgan.
3. Shunday asboblardan biri ... deb ataladi.
4. Kvadrant doiraning to'rtdan biriga teng bo'lib, undan ... orasidagi masofani o'lchashda foydalanilgan.

3. O'qing.

1417-yili Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek Samarqand shahri yaqinida yangi rasadxona qurishga farmon beradi. Hukmdor o'sha davrning mashhur olimlarini yig'ib majlis qiladi va qurilajak rasadxona dunyoda eng katta bo'lishi kerakligini uqtiradi. Shundan so'ng olimlar o'ylay-o'ylay ajoyib bir qarorga kelishadi. Ular yangi rasadxonani ulkan kvadrant shaklida qurishga kirishadi. Shu tariqa, balandligi 30 metr keladigan rasadxona qurib bitkaziladi.
Mirzo Ulug'bek yulduzlar haqidagi "Ziji Ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning jadvali") asarini yangi rasadxonada yozadi.

162


4. O'ylang va toping. Gapiring.

1	Olimlar rasadxonani	katta va hashamatli bo'lishini istadi.
2	"Ziji Ko'ragoniy" asari	o'ttiz metr balandlikda qurib bitkazildi.
3	Mirzo Ulug'bek Samarqand shahri yaqinida	ulkan kvadrant shaklida qurmoqchi bo'lishdi.
4	Yangi rasadxona	yangi rasadxonada yozildi.
5	Ulug'bek qurilajak rasadxonaning	rasadxona qurdirmoqchi bo'ldi.

DIQQAT QILING
-dir, -tir

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdirmoqchi bo'libdi.

1. Mirzo Ulug'bek rasadxona qur…moqchi bo'libdi.
2. Qurilajak rasadxona dunyoda eng katta bo'lishi kerakligini uq…ibdi.
3. Balki, unda yangi rasadxonada tadqiqotlar o'tkazish ozrusi bo'lgan….
4. Osmon ilmini o'rganish hukmdorning eng oliy istagi….

Mustaqil ish
Tungi osmonni diqqat bilan kuzating. Yulduz turkumlari haqida ma'lumot to'plang.

163

Mirzo Muhammad ibn Shohrux Mirzo Ulug‘bek – buyuk matematik va astronom. Bundan tashqari u Movarounnahr hukmdori ham bo‘lgan. 1394-yilda tug‘ilgan. Yoshligidan fan va san’atga, ayniqsa, astronomiyaga juda qiziqqan. Bobosi Amir Temur qurdirgan kutubxonada ko‘p vaqtini o‘tkazib, ilm olishga harakat qiladi. Ustozi Qozizoda Rumiy Ulug‘bekka 9 yoshida mashhur rasadxona xarobalarini ko‘rsatadi. Shu xotiralari sabab astronomiyaga qiziqishi ortgan bo‘lishi mumkin.

Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarqand ilm o‘chog‘iga aylandi. Madrasalar qurildi. Bu madrasalar hozirgi universitet vazifasini bajargan. O‘z davrining nodir inshooti bo‘lgan rasadxonani qurdirdi. Zilzilaga bardoshli bo‘lishi uchun Cho‘ponota tekisligi (Samarqand shahri)da barpo qilindi. U yerda burchak o‘lchagich va boshqa astronomik qurilmalar ham bo‘lgan. Ulug‘bek rahbarligida “Ziji Ko‘ra-

goniy”, ya’ni “Ulug‘bekning yulduzlar jadvali” tuzilgan. Kitobda keltirilishicha ushbu rasadxonada 1018 ta yulduzning joylashuvi juda aniqlik bilan belgilangan. Bundan tashqari, ilmiy masalalarga yechim ham topgan; astronomik yilni hisoblab, 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya ekanligini aniqlagan. Keyin 58 soniyaga o‘zgaradi. Ushbu jadvaldagi aniqlikni zamonaviy kompyuterlar ham tasdiqlaydi.

Ulug‘bekning qilgan ishlari Osiyo va Yevropada juda mashhur bo‘lgan. Uning ilmiy merosini hozirgacha ham butun dunyo katta qiziqish bilan o‘rganadi. Oydagi kraterlardan biriga ham Mirzo Ulug‘bek nomi berilgan.

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida savollar beriladi.

1. Mirzo Ulug‘bek qachon tug‘ilgan?
2. Uning bobosi kim?
3. Ulug‘bek qaysi fan bilan shug‘ullangan?
4. Mirzo Ulug‘bek qanday jadval tuzgan?

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning o‘z ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting.

Lug‘atingiz uchun: *teleskop, kvadrant, rasadxona, madrasa, yulduzlar jadvali, farmon bermoq, uqtirmoq.*

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 2-topshiriq berilgan. O‘quvchilar foydalanish uchun so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiradi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *teleskop, kvadrant,asboblar, yulduzlar.*

1. Astronomlar teleskop ixtiro qilingunga qadar osmon jismlarini oddiy ko‘z bilan kuzatishgan.
2. Keyinchalik yulduzlarning joylashuvi va ularning orasidagi masofani o‘lchovchi maxsus asboblar yaratilgan.
3. Shunday asboblardan biri kvadrant deb ataladi.
4. Kvadrant doiraning to‘rtdan biriga teng bo‘lib, undan yulduzlar orasidagi masofani o‘lchashda foydalanilgan.

6. Topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

7. O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunganlarini aniqlash maqsadida 4-topshiriq berilgan. O‘quvchilar matnda keltirilgan ma’lumotlarni birlashtiradi va og‘zaki tahlil qiladi.

1	Olimlar rasadxonani	A	katta va hashamatli bo‘lishini istadi.
2	“Ziji Ko‘ragoniy” jadvali	B	o‘ttiz metr balandlikda qurib bitkazildi.
3	Mirzo Ulug‘bek Samarqand shahri yaqinida	D	ulkan kvadrant shaklida qurmoqchi bo‘lishdi.
4	Yangi rasadxona	E	yangi rasadxonada yozildi.
5	Ulug‘bek qurilajak rasadxonaning	F	rasadxona qurdirmoqchi bo‘ldi.

8. “Diqqat qiling!” ruknida oldingi darsda o‘tilgan grammatik bilimlar spiralsimon takrorlanadi.

-dir qo‘shimchasi gaplarga qo‘shilib hosil qilgan ma’nosidagi farqlar aytiladi. *-dir* qo‘shimchasi omonim qo‘shimcha bo‘lib, fe’lning orttirma nisbati, ot-kesim, gumon

yuklamasini hosil qiladi. Har bir gapni yozib bo‘lgandan so‘ng ushbu qo‘shimcha tahlil qilinadi.

9. O‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun 5-topshiriq berilgan.
Nuqtalar o‘rniga namunadagi kabi *-dir* qo‘shimchasini qo‘shib, gaplarni yozishni topshiring.

1. Mirzo Ulug‘bek rasadxona qurdirmoqchi bo‘libdi.
2. Qurilajak rasadxona dunyodagi eng kattasi bo‘lishi kerakligini uqtiribdi.
3. Balki, unda yangi rasadxonada tadqiqotlar o‘tkazish orzusi bo‘lgandir.
4. Osmon ilmini o‘rganish hukmdorning eng oliy istagidir.

10. Refleksiya. “Globoalfavit” metodi asosida har bir o‘quvchiga bitta harf aytasiz. O‘quvchi ushbu mavzuda ishlatilgan shu harf bilan boshlanuvchi bitta so‘zni daftariga yozadi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga o‘qittiring.
O‘quvchilar qaysi so‘zlarni e’tiborga olmaganlarini tahlil qiling va ularni keyingi darslarda mustahkamlash uchun belgilab oling.

11. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida tungi osmonni diqqat bilan kuzatib yulduz turkumlari haqida ma’lumot to‘plash topshirig‘ini bering.


4-MAVZU. AMERIKALIK IXTIROCHI

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushuna oladi, ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.
- Bino va inshootlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi. Taxminini bildira oladi.

VAZIFALAR:

1. Refleksiya. Uyga berilgan topshiriq o‘quvchilardan so‘raladi. Vazifaga ijodiy yondashgan o‘quvchilar alohida e’tirof etiladi.
Yangi mavzu e’lon qilingandan so‘ng o‘quvchilarga “Mavzu nomini eshitganda ko‘z oldingizga kim keldi?”, “Tomas Edison haqida nimalarni bilasiz?” kabi savollar berib yangi dars boshlanadi.


AMERIKALIK IXTIROCHI

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Tomasni kichkinaligida qanday chaqirishar edi?
2. U qanday kasallikka chalingan edi?
3. Uni ixtirochilikka kim undagan?
4. Tomas Edison qaysi sohaga ko‘proq qiziqqan?
5. U nega maktabni tashlagan?

kitob o‘qimoq · laboratoriya · tajriba · kimyoviy modda · uskuna

2. O‘ylang va toping. Gapiring.


1	Ikkitadan to‘rttagacha bo‘lgan xabarlarni uzata oladigan apparat/qurilma.	A	Lampa
2	Tovushni yozib oladigan va qayta eshittiradigan uskuna.	B	Telefon
3	Patronga biriktiriladigan metall qismini o‘yib, ichiga volframdan spiralsimon shakl yasab o‘rnatilgan.	D	Fonograf
4	Tomas Edison bu qurilma uchun “Hello!” so‘zini taklif qildi.	E	Kinetaskop
5	Bu moslama harakatdagi tasvirni tasmaga yozadi.	F	Telegraf

3. O‘ylang va toping. Yozing.

164

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering
Amerikalik ixtirochi Tomas Alva Edison butun umri davomida 1300 ga yaqin ixtiro qilgan. Ular telegraf, telefon, kinoapparatura, xavfsiz elektr cho‘g‘lanma lampa, dastlabki elektrovozlar, fonograf kabi ixtirolardir. Kichkina Al, Tomasni oilada shunday chaqirishardi, juda harakatchan, ammo ko‘p kasal bo‘ladigan bola edi. Bolalik chog‘laridanoq u sekin rivojlanib boruvchi karlikdan aziyat chekardi. Maktabda yaxshi ta’lim ololmagan Edison onasi boshchiligida ko‘p kitoblar mutolaa qilar edi. Keyinchalik u aynan onasi bilan o‘tkazgan mashg‘ulotlari unda ixtirochilikka qiziqish uyg‘otganini bir necha bor ta’kidlagan. Eng qiziqqan sohasi kimyo bo‘lgan Al uyining chordog‘ini haqiqiy laboratoriyaga aylantirgan edi. Tajribalarga kerakli kimyoviy moddalarni sotib olish uchun esa pul kerak edi. O‘sha pullarni o‘zi ishlab topish payida

bo‘lgan Edison maktabda o‘qib yurgan paytlari poyezdlarda gazetalar ham sotardi. 12 yoshida oilasidagi moliyaviy ahvol va o‘zining karligi tufayli o‘qishni tashlashga majbur bo‘lgan.


Namuna:
Elektr ixtiro qilinmasidan oldin insonlar olovdan issiqlik va yorug‘lik manbai sifatida foydalanishgan.

1. Elektr ixtiro qilinmasidan oldin insonlar olovdan issiqlik va yorug‘lik manbai sifatida (foydalanmoq).
2. Keyinchalik sham (ixtiro qilinmoq) va yoritish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.
3. Yonilg‘ilar ixtiro qilingach, turli xil yorug‘lik tarqatuvchi buyumlar (ishlab chiqarilmoq).
4. Tomas Alva Edison cho‘g‘lanma lampani kashf qilganidan beri butun dunyoda elektr lampalar uylarni, ko‘chalarni, ta’bir joiz bo‘lsa, hayotimizni (yoritib kelmoq).

4. O‘qing.

Maktabdagi o‘qituvchisi Edisonning o‘ta qoloq o‘zlashtirishidan xunob bo‘lib, ota-onasiga bu haqida maktub berib yuboradi. Tabiiyki, o‘zi qoloq o‘quvchi bo‘lgan Edison unda nima yozilganini bilmaydi. U o‘qituvchisining xatini oyisiga keltirib beradi. Onasi xatni o‘qisa, unda "Bolangiz juda qoloq, u fanlarni o‘zlashtira olmaydi, uni boshqa maktabga olib keting!" qabilidagi gaplar bo‘ladi. Oyisi esa o‘g‘lining ko‘ngli cho‘kishini istamagani uchun unga xatni ovoz chiqarib, lekin mazmunini butunlay o‘zgartirib o‘qib beradi: "O‘g‘lingiz ajoyib bolakay, u sinfda eng a’lochi, hamma fanlarni yaxshi o‘zlashtiradi. Sizga rahmat!".
Aslida, bu xatda butunlay boshqa narsa yozilganligini Edison oradan ancha yillar o‘tib, allaqachon yirik ixtirochi va puldor tadbirkor sifatida nom qozongan paytlarda bilib qoladi.

6. O‘ylang va toping. Gapiring.

xat | tadbirkor | ixtirochi
puldor | qoloq | ona

Mustaqil ish
Kundalik hayotingizdagi beshta ixtironi muhimlik darajasi bo‘yicha belgilang va izohlang.

165

3. O‘quvchilarning matnni tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida matnda keltirilgan ma’lumotlar asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Tomasni kichkinaligida qanday chaqirishar edi?
2. U qanday kasallikka chalingan edi?
3. Uni ixtirochilikka kim undagan?
4. Tom Edison qaysi sohaga ko‘proq qiziqqan?
5. U nega maktabni tashlashga majbur bo‘lgan?

4. 2-topshiriqda Tomas Edisonning qilgan ixtirolaridan namunalar berilgan. O‘quvchilar topib moslashtiradilar va bu haqda gapiradilar .

1	Ikkitadan to‘rttagacha bo‘lgan xabarlarni uzata oladigan apparat / qurilma .	A	Lampa
2	Tovushni yozib oladigan va qayta eshittiradigan uskuna.	B	Telefon
3	Patronga biriktiriladigan metall qismni o‘yib, ichiga volframdan spiralsimon shakl yasab o‘rnatilgan.	D	Fonograf
4	Tomas Edison bu qurilma uchun “hello!” so‘zini taklif qildi.	E	Kinetoskop
5	Bu moslama harakatlanadigan tasvirni tasmaga yozadi.	F	Telegraf

Javoblar: 1) F; 2) D; 3) A; 4) B; 5) E.

5. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. Foydalanish uchun so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiradi. Rasmda yoritish uskunalarining rivojlanish jarayoni keltirilgan. O‘qituvchi tomonidan bu haqda gapirib o‘tiladi.

1. Elektr ixtiro qilinmasidan oldin insonlar olovdan issiqlik va yorug‘lik manbayi sifatida foydalanishgan.
2. Keyinchalik sham ixtiro qilindi va yoritish vositasi bo‘lib xizmat qildi.
3. Yonilg‘ilar kashf qilingach, turli xil yorug‘lik tarqatuvchi buyumlar ishlab chiqilmoqda.
4. Tomas Alva Edison cho‘g‘lanma lampani kashf qilgandan beri elektr lampalar uyimizni, ko‘chalarimizni va hayotimizni yoritib kelmoqda.

6. Topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

7. 5-topshiriqda o‘quvchilar berilgan so‘zlarga og‘zaki ravishda matn mazmuniga mos gaplar tuzadilar.

Xat
Edisonning o‘qituvchisi onasiga xat berib yuboradi.
Tadbirkor
Ixtirochi katta tadbirkor sifatida taniladi.
Ixtirochi
U yirik ixtirochilardan biridir.
Puldor
Puldor inson bo‘ladi.

Qoloq
U yoshligida qoloq o‘quvchilardan bo‘lgan.
Ona
Edisonning shunday inson bo‘lishida onasining roli katta.

8. Refleksiya. “Globoalfavit” usulida o‘quvchilarga harflar bo‘lib beriladi. O‘quvchilar shu harflar bilan boshlanuvchi biron-bir ixtironing nomini aytadilar.

9. O‘quvchilarga mustaqil ish sifatida kundalik hayotlaridagi beshta ixtironi muhimlik darajasi bo‘yicha belgilash va izohlash topshirig‘i beriladi. Har bir o‘quvchining topshiriqqa individual yondashishini ta’minlang.


5-MAVZU. VAQT QANDAY O‘LCHANADI?

DARSNING MAQSADI:

- O‘z darajasiga mos matnni eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunishga, ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg‘ay oladi.

Bino va inshootlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi, taxminini bildira oladi.

VAZIFALAR:


VAQT QANDAY O'LCHANADI?

1. Tinglang. Savollarga javob bering.

1. Vaqt qanday o'lchanadi?
2. Dastlab qanday soatlar ixtiro qilingan?
3. Mexanik soatlar qanday ishlaydi?
4. Dastlabki mexanik soatlar haqida nima bilasiz?

Foydalanish uchun so'zlar: soat, ixtiro qilmoq, qum, ko'rsata olmoq, aylantirmoq.

DIQQAT QILING

Eng mashhur soatli minoralardan biri Londondagi "Big Ben"dir. Dastlabki mexanik soatlar juda katta hajmda bo'lgan.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Qum
Kolba
Naycha
Korpus

vaqt
soat
quyosh soati
qumsoat
mexanik soat
uskuna
murvat

166

1. Refleksiya. O‘quvchilardan mustaqil ish sifatida berilgan kundalik hayotlaridagi beshta ixtironi muhimlik darajasi bo‘yicha belgilash va izohlash topshirig‘i so‘raladi. Topshiriqni bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

“Siz uchun vaqt qanday ahamiyatga ega? Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash yoki vaqtdan unumli foydalanish deganda nimani tushunasiz?” kabi savollar bilan yangi mavzu boshlanadi.

2. Elektron resurs yordamida quyidagi matnni ikki marotaba eshittiring. Agar elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, matnni bir marotaba ifodali o‘qib bering.

Soatlar kashf qilingunga qadar tabiatning o‘zi odamlarga vaqtni bildirar edi. Masalan, xo‘rozning yarim tunda, so‘ng tong saharda qichqirishi kishilarga vaqtni eslatib turgan. Insonlar aniq vaqtni bilishga ehtiyoj seza boshlaganlaridan so‘ng quyosh soatlari ixtiro qilindi. Biroq bulutli kunlarda va tunda quyosh soati vaqtni ko‘rsata olmagan.

O‘zi ishlaydigan mexanik soatlar esa ancha keyin ixtiro qilindi. Bunday soatlarning murvatini bir kunda bir marta burab qo‘yishning o‘zi kifoya. Tarixchilarning aniqlashicha, xitoyliklar mexanik soatni birinchilardan bo‘lib yaratishgan ekan. Dastlabki mexanik soatlar juda katta bo‘lgani uchun Yevropada ularni baland minoralarga o‘rnatishgan. Eng mashhur minora soatlaridan biri Londondagi “Big Ben” hisoblanadi.

3. O‘quvchilarning tinglab tushunganliklarini aniqlash uchun og‘zaki savol-javob o‘tkaziladi. O‘qituvchi savollar sonini oshirishi mumkin.

1. Vaqt qanday o‘lchanadi?
2. Dastlab qanday soatlar kashf qilingan?


3. Mexanik soatlar qanday ishlaydi?
4. Dastlabki mexanik soatlar haqida nima bilasiz?

4. Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tiborini qarating. Elektron resurs yordamida ovozli lug‘atni eshittiring. Bunda elektron resursdagi “tarjima” tugmasi orqali so‘zlarning 7 ta tildagi tarjimasiga e’tiborni qarating. (Elektron resursdan foydalanish imkoni bo‘lmasa, lug‘at-so‘zlarni o‘quvchilarning ona tillariga tarjima qilishlariga yordam bering) O‘quvchilar lug‘at daftariga mazkur so‘zlarni tarjimasi bilan yozishlarini ayting

Lug‘atingiz uchun: *vaqt, quyosh soati, qumsoat, mexanik soat, uskuna, murvat, minora.*

5. 2-topshiriqdagi rasmda berilgan qumsoatning qismlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarda birorta uskunaning qismlari haqida gapirish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

1. Qum.
2. Kolba.
3. Naycha.
4. Korpus.



3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
Soat ixtiro qilingunga qadar tabiatning o'zi odamlarga vaqtni bildirar edi.

1. _____ ixtiro qilingunga qadar tabiatning o'zi odamlarga vaqtni bildirar edi.
2. Bulutli kunlarda va tunda quyosh soati vaqtni _____.
3. Keyinchalik odamlar tunda ham ishlaydigan qumsoatlarni _____.
4. Bir kolbadan ikkinchisiga ingichka naycha orqali to'kiladigan _____ vaqtni belgilab turgan.
5. Bunday uskunani har soatda _____ kerak bo'lgan.

4. O'qing. Savollarga javob bering.

Soat vaqt o'lchash asbobidir. Elektron yoki mexanik soatlar elektr signallarni yuboruvchi va siferblatdagi millar harakatini boshqaruvchi maxsus moslamaga ega.

Soatlar turli-tuman ko'rinish va o'lchamlarda bo'ladi. Ularning aksari batareya quvvati bilan ishlaydi. Siferblatli soatlarda vaqtni millar ko'rsatadi.

Bugun hayotimizni soatlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Ular qo'limizda, telefonimizda, kompyuter hamda mashinada – umuman, hamma-hamma joyda mavjud.

1. Soatlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Soat qanday ishlaydi?
3. Nima uchun soatlar, odatda, chap qo'lga taqiladi?
4. Soatlarning ko'rinishi 10:10 shaklida bo'lishining sababini bilasizmi?
5. Aqlli soatlarning qanday vazifalari bor?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:
15 ta kam yigirma / kechki sakkizga 15 minut bor / 15 minutdan so'ng kechki sakkiz bo'ladi / chorak kam yigirma

1. 15 ta kam yigirma
2. Ertalabki bir yarim
3. 16 dan 45 minut o'tdi
4. Chorakta kam 11

Mustaqil ish
Quyosh soati, qumsoat mexanizmlarini kuzating va uni o'zingiz yasab ko'ring.

167

6. “Diqqat qiling!” ruknida -dir qo‘shimchasining omonimligi haqida ma’lumot beriladi. O‘zbek tilida -dir qo‘shimchasi gumon ma’nosidan tashqari fe’llarda orttirma nisbat shaklini va ismlarning kesimlik shaklini yasashga xizmat qiladi. Bu qo‘shimcha shakldosh bo‘lib, uni omonimlaridan farqlash talab qilinadi.

Fe’lning orttirma nisbati: *yozdir, sanattir, kuldir.*
Gumon yuklamasi: *aytgandir, borgandir, sezgandir.*
Kesimlik shakli:
Suv hayot manbayidir.

7. O‘quvchilarning mustaqil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun darslikda 3-topshiriq berilgan. O‘quvchilar bu topshiriqda foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiradilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: *soat, ixtiro qilmoq, qum, ko‘rsata olmoq, aylantirmoq.*

1. Soat kashf qilingunga qadar tabiatning o‘zi odamlarga vaqtni bildirar edi.
2. Bulutli kunlarda va tunda quyosh soati vaqtni ko‘rsata olmagan.
3. Keyinchalik odamlar tunda ham ishlaydigan qumsoatlarni ixtiro qilgan.
4. Bir kolbadan ikkinchisiga ingichka naycha orqali to‘kilib turadigan qum vaqtni belgilab turgan.
5. Bunday uskunani har soatda aylantirish kerak bo‘lgan.

8. Topshiriqda berilgan matnni ifodali qilib o‘quvchilarga o‘qiting. Bunda avval xohish bildirgan o‘quvchilarga, keyin o‘zingiz darsga jalb qilmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga o‘qiting. Shuningdek, o‘quvchilarni ketma-ket tarzda o‘qitsangiz ham bo‘ladi.

9. O‘quvchilarning vaqt bilan bog‘liq bilimlarini o‘stirish uchun quyidagi topshiriq beriladi. Namunadagidek qolgan vaqtlarni ham yozadilar.

1. 15 ta kam yigirma / soat sakkizga 15 daqiqa bor / 15 daqiqadan so‘ng kechki sakkiz bo‘ladi / chorak kam yigirma.
2. Ertalabki bir yarim / birdan 30 minut(daqiqa) o‘tdi / yarim soatdan so‘ng ikki bo‘ladi / yarim soat kam ikki.
3. 16 dan 45 minut o‘tdi / soat 5 (17)ga 15 minut bor / 15 ta kam 5 (17) / 15 minutdan so‘ng 5(17) bo‘ladi.
4. Chorakta kam 11 / 15 ta kam o‘n bir / 11 ga 15 minut qoldi / 15 daqiqadan keyin 11 bo‘ladi.

10. Refleksiya. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga kun va soatni aytadi. O‘quvchi shu paytda qanday ish bajarishini aytadi. Masalan:

O‘qituvchi:
Dushanba 11:30.
O‘quvchi:
Dushanba 11:30 da men algebra darsida bo‘laman.


11. O‘quvchilarga mustaqil ish uchun quyosh soati va qum soati mexanizmlarini kuzatish va ularni o‘zlari yasab ko‘rishlari topshiriladi.

6-MAVZU. ADABIY O‘QISH

DARSNING MAQSADI:

● O‘z darajasiga mos matn (voqeaband yoki faktologik matnlar)ni o‘qiganda uning asosiy g‘oyasini tushuna oladi. Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi va ularga munosabat bildira oladi.

VAZIFALAR:


ADABIY O‘QISH

IXTIROCHILAR TANLOVI

Tanlov o‘tkazilayotgan maktabga yetib kelishganida ishtirokchilarning deyarli hammasi yig‘ilib bo‘lgan edi. Ahmad ixtirochi bolalarni ko‘rib, biroz xavotirga tusha boshladi. Chunki bolalar judayam g‘aroyib va noyob qurilmalarni yasashgan ekan-da. Ana, biri o‘zi yasagan robotni raqqsa tushiryapti. Yana biri esa ilos suvni tozalab beradigan qurilma ixtiro qilibdi, qoyil-e! “Axir, mening ixtiroyim hali faqat chizmalardan iborat. Rosa kulgiga qoladigan bo‘libman-da”, deb o‘yladi Ahmad.

Aslida, Ahmad dunyoga dong‘i ketgan kuchli olimlarning hali hattо tushiga ham kirmagan qurilmani ixtiro qilgan edi. Lekin u bunga boshqalarni ishontirish u yoqda tursin, hali o‘zini ham to‘la ishontira olmagandi. To‘g‘ri-da, hali bu chizmalarni biror kattaroq mutaxassis ko‘rmagan. Faqat maktabdagi unga xayrixoh fizika o‘qituvchisi chizmalarni ko‘rib: “Ahmad, sen dahosan!” deganini aytmaganda, albatta. Ammo fizika o‘qituvchisi hech nimani tushuna olmaganini Ahmad juda yaxshi bilardi. Lekin o‘sha o‘qituvchi Ahmadni “dahosan” deganida adashmagani rost. Chindan ham bu bolakay favqulodda kuchli zehn va idrok sohibi edi. Kichkina bo‘lishiga qaramay, u fizika, matematika, kimyo va astronomiya fanlarini professorlar darajasida o‘zlashtirgandi. Aytish mumkinki, bunday noyob bolalar faqat yuz, balki ming yilda bir marta dunyoga keladi. U har qanday eshitgan, ko‘rgan narsasini xotirasiga xuddi videolavhaday muhrlab olar, kitob matnlarini so‘zma-so‘z emas, balki sahifaga bir qarashning o‘zida o‘qib olar edi. Agar bilsangiz, bunday odamlarni “fotografik xotira” sohibi deb ataydilar. Ammo Ahmadning bu iqtidoridan ko‘pchilik bexabar edi. Maktabdagi aksar o‘qituvchi va o‘quvchilar esa uni xayolparast, mahmadona bola deb bilishardi.

– O‘g‘lim, sen albatta g‘olib bo‘lasan, men bunga ishonaman, – dedi o‘g‘lidagi hayajonni sezgan ona. – Faqat hakamlarga o‘z g‘oyangni hayajonlanmay, dona-dona qilib tushuntir.

Sa’dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” asaridan

Savollarga javob bering.

1. Ahmad qanday tanlovga qatnashmoqda?
2. Bolalar yasagan qurilmalarni sanab bering.
3. Ahmad qaysi fanlarni professorlar darajasida o‘zlashtirgan edi?
4. “Fotografik xotira” deganda nimani tushunasiz?
5. Ahmadni g‘olib bo‘lishga ruhlantirgan kim?
6. Sizningcha, Ahmad nimani ixtiro qilgan bo‘lishi mumkin?

168

1. Refleksiya. O‘quvchilarga o‘zlari yasab kelgan buyumlarni taqdimot qilishni topshiring.

Vazifani ijodiy yondashib yozgan o‘quvchilarni albatta baho, ball yoki maxsus tarqatmalar bilan rag‘batlantiring.

2. Quyidgai savollar bilan yangi mavzuga kirish qiling:

Qanday noyob ixtirolar haqida bilasiz?
Siz ixtirochi bo‘lishni orzu qilasizmi? Nima uchun?
Ixtiro va ixtirochilar haqidagi badiiy asarlarni o‘qishga qiziqasizmi?
O‘quvchilarga bugungi mashg‘ulotda Sa’dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” asaridan olingan “Ixtirochilar tanlovi” hikoyasini o‘qishni ta’kidlang.

3. Sa’dulla Quronov va uning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘ting.

Sa’dulla Quronov 1989-yil 31-yanvarda Andijon tumanida tug‘ilgan. 1996–2004-yillarda tumandagi 4-umumta’lim maktabida, 2004 – 2006-yillarda ADU qoshidagi 11-litsey-internatda o‘qigan. 2006 – 2007-yillarda Andijon davlat universiteti, 2007 – 2012-yillar davomida O‘zbekiston Milliy universiteti filologiya fakultetining bakalavr, magistratura bosqichlarini tamomlagan.

Sa’dullo Quronov bolalar uchun ham ijod qilib keladi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. Uning “Galaktikada bir kun” nomli ilmiy-fantastik qissasi hozirgacha ikki marotaba nashr etilgan.

Bolalar uchun yozgan kitoblari: “Mening galaktikam”, “Galaktikada bir kun”, “Jajji huquqshunos”.

4. So‘ngra darslikda berilgan parchani o‘quvchilarga o‘qittiring.

IXTIROCHILAR TANLOVI

Tanlov o‘tkazilayotgan maktabga yetib kelishganida ishtirokchilarning deyarli hammasi yig‘ilib bo‘lgan edi. Ahmad ixtirochi bolalarni ko‘rib, biroz xavotirga tusha boshladi. Chunki bolalar judayam g‘aroyib va noyob qurilmalarni yasashgan ekan-da. Ana, biri o‘zi

yasagan robotni raqsga tushiryapti. Yana biri esa iflos suvni tozalab beradigan qurilma ixtiro qilibdi, qoyil-e! “Axir, mening ixtiroyim hali faqat chizmalardan iborat. Rosa kulgiga qoladigan bo‘libman-da”, deb o‘yladi Ahmad.

Aslida, Ahmad dunyoga dong‘i ketgan kuchli olimlarning hali hatto tushiga ham kirmagan qurilmani ixtiro qilgan edi. Lekin u bunga boshqalarni ishontirish u yoqda tursin, hali o‘zini ham to‘la ishontira olmagandi. To‘g‘ri-da, hali bu chizmalarni biror kattaroq mutaxassis ko‘rmagan. Faqat maktabdagi unga xayrixoh fizika o‘qituvchisi chizmalarni ko‘rib: “Ahmad, sen dahosan!” deganini aytmaganda, albatta. Ammo fizika o‘qituvchisi hech nimani tushuna olmaganini Ahmad juda yaxshi bilardi. Lekin o‘sha o‘qituvchi Ahmadni “dahosan” deganida adashmagani rost. Chindan ham bu bolakay favqulodda kuchli zehn va idrok sohibi edi. Kichkina bo‘lishiga qaramay, u fizika, matematika, kimyo va astronomiya fanlarini professorlar darajasida o‘zlashtirgandi. Aytish mumkinki, bunday noyob bolalar faqat yuz, balki ming yilda bir marta dunyoga keladi. U har qanday eshitgan, ko‘rgan narsasini xotirasiga xuddi videolavhaday muhrlab olar, kitob matnlarini so‘zma-so‘z emas, balki sahifaga bir qarashning o‘zida o‘qib olar edi. Agar bilsangiz, bunday odamlarni “fotografik xotira” sohibi deb ataydilar. Ammo Ahmadning bu iqtidoridan ko‘pchilik bexabar edi. Maktabdagi aksar o‘qituvchi va o‘quvchilar esa uni xayolparast, mahmadona bola deb bilishardi.

– O‘g‘lim, sen albatta g‘olib bo‘lasan, men bunga ishonaman, – dedi o‘g‘lidagi hayajonni sezgan ona. – Faqat hakamlarga o‘z g‘oyangni hayajonlanmay, dona-dona qilib tushuntir...

Sa’dullo Quronovning
“Galaktikada bir kun” asaridan

5. O‘quvchilarning badiiy asar mutolaasidan olgan taassurotlarini bilish uchun savol-javob o‘kazing.

Savollar:

1. Ahmad qanday tanlovga qatnashmoqda?
2. Bolalar yasagan qurilmalarni sanab bering.
3. Ahmad qaysi fanlarni professorlar darajasida o‘zlashtirgan edi?
4. “Fotografik xotira” deganda nimani tushunasiz?
5. Ahmadni g‘olib bo‘lishga ruhlantirgan kim?
6. Sizningcha, Ahmad nimani ixtiro qilgan bo‘lishi mumkin?

Ma’lumot uchun, Ahmad sayyoralararo “Yulduzkezar” kosmik kemasini ixtiro qiladi. Asarda uning galaktika bo‘ylab qilgan sayohati juda qiziqarli tasvirlangan.

6. O‘quvchilarga ta’til davomida ko‘proq badiiy asarlar mutolaa qilishni topshiring.

O‘ZBEK TILI

7

O‘QITUVCHILAR UCHUN

METODIK QO‘LLANMA

Rassom: *Hasan Maqsudov*
Muharrir: *Ilhom Qosimov*
Badiiy muharrir: *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir: *Akmal Sulaymonov*
Sahifalovchi va dizayner: *Hasan Maqsudov*
Musahhih: *Mansur Siddiqov*

Bosishga . .2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Montserrat garniturasi. Kegli 11. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 21. Nashriyot-hisob tabog‘i 24,5.
Adadi ___ nusxa. Buyurtma № ___.